

2025-yil, iyul 13-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



Yoz o'tmoqda soz



DOLZARB MAVZU

Asliddin ISMATOV,
Renessans ta'lim universiteti v.b. dotsenti,
f.f.f.d. (PhD)

XALQ ERTAKLARIDA YOVUZLIK IFODASI TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada xalq ertaklarida yovuzlikning psixologik ildizlari sifatida ko'riladigan ikki asosiy hissiyot — hasad va ochko'zlik tahlil qilinadi; o'zbek va ingliz ertaklari asosida yovuzlik timsoli sifatida o'gay ona obrazi, uning begunoh va go'zal o'gay qizga nisbatan ko'rsatgan zulmlari hamda ertak oxirida adolatning qaror topishi ko'rsatiladi. Shuningdek, ertaklarda ochko'zlikning xunuk oqibatlari, bu hissiyotlarning axloqiy saboqlarga aylanishi va madaniy o'xshashliklar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *ertak psixologiyasi, yovuzlik timsollari, hasad, ochko'zlik, o'gay ona, axloqiy saboq, madaniyatlararo o'xshashlik.*

Аннотация: в статье исследуются два ключевых психологических источника зла в народных сказках — зависть и жадность; на примере узбекских и английских сказок показано, как образ мачехи символизирует коварство, вызванное красотой и добродетелью падчерицы. Автор анализирует, как эти негативные чувства приводят к страданиям, но в итоге побеждаются справедливостью. Особое внимание уделяется нравственным урокам сказок и культурным параллелям между разными народами.

Ключевые слова: *психология сказки, образы зла, зависть, жадность, мачеха, нравственный урок, межкультурные параллели.*

Annotation: this article examines two fundamental psychological roots of evil in fairy tales: envy and greed; through examples from both Uzbek and English folk tales, the stepmother figure emerges as a central symbol of jealousy and malice toward innocent and beautiful stepdaughters. The article highlights how these destructive emotions lead to suffering and eventual justice, illustrating how fairy tales communicate moral lessons and reveal cultural parallels across traditions.

Key words: *fairy tale psychology, symbols of evil, envy, greed, stepmother, moral lesson, cross-cultural comparison.*

Turli madaniyatlarga mansub ertaklar o'zlarining muhiti, qahramonlari yoki xususiyatlari bilan farqlanadi. Ammo ertaklarda universal umumiy tushunchalar ham bor. Bu, asosan, ertaklarning ko'plarida o'zini namoyon qiladigan ezgulik va yovuzlik g'oyasida ko'rinadi.

Yovuzlikning tahlilini quyidagi ikki jabhada ko'rib chiqamiz:

a) → **hasad**

b) → **ochko'zlik.**

Hasad:

Hasad bilan bog'liq ertaklarning ko'pchiligida o'gay ona tasvirlanadi. Ertaklarda o'gay ona va uning o'z qizining nisbatan xunukligi va o'gay qizning go'zalligi va pokligi o'gay onaning hasadi va g'azabini qo'zg'atadi. O'gay qizning mukammal go'zalligi o'gay onani xavotirga soladi va uning o'gay qizi kabi go'zal emasligi sababli yomon ishlarni qiladi. Biroq, oxir-oqibat, hamma narsa oshkor bo'ladi, o'gay ona va o'gay opa/singil o'lim bilan jazolanadi.

"The Laidly Worm of Spindleston Heugh" ingliz ertagida aytilishicha, podshoh xotinining o'limidan uzoq vaqt aza tutgan, keyin esa u o'zining go'zalligi bilan qirolni o'ziga tortgan bir xonimni sevib qoladi. Qirol unga uylanishga qaror qiladi. Biroq, yangi malika o'gay qizi Margaretni ko'rganida, qizning go'zalligidan hasad qila boshlaydi. O'gay ona sehrli kuchdan foydalanib, Margaretni ilonga aylantiradi. Qiz hech qanday qo'llab-quvvatlashsiz yoki uni himoya qiladigan hech kimsiz yolg'iz qoladi. Faqat akasi uni qutqargandan keyingina o'gay onasini o'ldiradi.

**Ingliz xalq ertagi –
"The Laidly Worm
of Spindleston
Heugh"**

"That same night the queen, who was a noted witch, stole down to a lonely dungeon wherein she did her magic and with spells three times three, and with passes nine times nine she cast Princess Margaret under her spell. And this was her spell:

*I weird ye to be a Laidly Worm
And borrowed shall ye never be*

**Ingliz xalq ertagi –
“The Laidly Worm
of Spindlestone
Heugh”**

*Until Childe Wynd, the King's own son
Come to the Heugh and thrice kiss thee;
Until the world comes to an end,
Borrowed shall ye never be.”*

“Kate Crackernuts” ertagi – o‘gay opa va singillar bir-birlariga yordam bergan ertaklarning noyob namunasidan biridir. Ertakda Kate boshqalardan farqli o‘laroq, singlisi Ennga yordam beradi va himoya qiladi:

**Ingliz xalq
ertagi – “Kate
Crackernuts”**

“Once upon a time there was a king and a queen, as in many lands have been. The king had a daughter, Anne, and the queen had one named Kate, but Anne was far bonnier than the queen's daughter, though they loved one another like real sisters.”

“...Her own daughter, Kate, however, took a fine linen cloth and wrapped it round her sister's head and took her by the hand and they both went out to seek their fortune. They went on, and they went on, and they went on, till they came to a castle. Kate knocked at the door and asked for a night's lodging for herself and a sick sister.”

“The Three Heads of the Well” ingliz ertagi ham hasad kishini falokatga olib borishligiga yaqqol misol bo‘la oladi. Ertakda tasvirlangan o‘gay ona o‘z qizining hayotdagi muvaffaqiyatsizligi (qiz etikdo‘zga turmushga chiqadi) va o‘gay qizning boyga turmushga chiqishi sababli o‘zini osadi:

**Ingliz xalq ertagi –
“The Three Heads
of the Well”**

“With this the cobbler applied the remedies, and they made her well in a few weeks; after which they were married, and so set forward for the court at Colchester. When the queen found that her daughter had married nothing but a poor cobbler, she hanged herself in wrath. The death of the queen so pleased the king, who was glad to get rid of her so soon, that he gave the cobbler a hundred pounds, to quit the court with his lady, and take to a remote part of the kingdom, where he lived many years mending shoes, his wife spinning the thread for him.”

Ochko‘zlik

Klein uchun ochko‘zlik hasad kabi xavfli istakdir va hasad – yovuzlikni qo‘zg‘atadigan asosiy impulslardan biridir. Agar hasadda dushmanlik hissi yaxshi obyektga qaratilgan bo‘lsa, unda ochko‘zlikning yagona istagi yaxshi obyektini saqlab qolishdir. Bu xudbinlik istagini anglatadi.

“The Master and his Pupil” ingliz xalq ertagi ochko‘zligi va shuhratparastligi natijasida qulashga mahkum bo‘lgan bir odamni tasvirlaydi. Aslida, bu ertakda ochko‘zlik ilohiy kuchga erishish istagi bilan bog‘liq. Faqat ustozni bilgan narsani o‘rganish ishtiyoqidan mast ahmoq talaba butun shaharga deyarli falokat keltiradi. Ertakda shogird misni oltinga aylantirishga yordam beradigan sirni anglashga harakat qiladi:

**Ingliz xalq ertagi
– “The Master and
his Pupil”**

“It was the demon Beelzebub, whom he had called up to serve him.

‘Set me a task,’ said he, with a voice like the roaring of an iron furnace.

The boy only trembled and his hair stood up.

‘Set me a task, or I shall strangle thee!’

But the lad could not speak. Then the evil spirit stepped towards him, and putting forth his hands touched his throat. The fingers burned his flesh. ‘Set me a task.’

‘Water yon flower,’ cried the boy in despair, pointing to a geranium which stood in a pot on the floor.

Instantly the spirit left the room, but in another instant he returned with a barrel on his back, and poured the contents over the flower; and again and again he went and came, and poured more and more water, till the floor of the room was ankle-deep.

...In vain he cried; the evil spirit would not be dismissed, and to this day he would have been pouring water, and would have drowned all Yorkshire”

“The Story of the Three Bears” ertagi bosh qahramonining munosabatini haddan tashqari ishtiyoqi bilan ochko’z odamga misol qilib olish mumkin. Chunki u boshqa birovga (ayiqqlarga) tegishli hamma narsaga egalik qilish maqsadi bilan yuradi.

Ingliz xalq ertagi – “The Story of the Three Bears”

*“So first she tasted the porridge of the Great, Huge Bear, and that was too hot for her; and she said a bad word about that
... And then she lay down upon the bed of the Little, Small, Wee Bear, and that was neither too high at the head nor at the foot, but just right. So she covered herself up comfortably, and lay there till she fell fast asleep.”*

Rivoyatchi ertakka axloqiy mazmun berishga harakat qiladi va kampirning yoqimsiz xarakterini tasvirlab, shunday deydi:

Ingliz xalq ertagi - “The Story of the Three Bears”

“If she had been a good little old Woman, she would have waited till the Bears came home, and then, perhaps, they would have asked her to breakfast”

“Zumrad va Qimmat” o‘zbek xalq ertagi ham hasad, ham ochko‘zlik natijasida salbiy qahramonlarning zavolli yakunlari bilan tugagan ertaklarning yorqin misolidir. Ertakda o‘gay ona o‘gay qizi Zumradni eridan o‘rmonda adashtirib kelishini so‘raydi. Ota esa noiloj bunga rozi bo‘ladi. Biroq ijobiy qahramon bo‘lmish Zumrad uchun bu voqea muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, uni o‘rmonda bir sehrgar kampir topib oladi va yaxshi xulqi evaziga ma’lum muddatdan so‘ng uyiga sandiq to‘la qimmatbaho sovg‘alar bilan jo‘natib yuboradi. Bundan xabar topgan Zumradning o‘gay onasi endi eridan o‘z qizi Qimmatni o‘rmonga tashlab kelishni so‘raydi. Ammo bu kutilganidek kechmaydi. O‘gay ona ochko‘zligi evaziga o‘zi va qizini halokatga olib boradi:

O‘zbek xalq ertagi – “Zumrad va Qimmat”

“Sandiqda kattakon ikkita ajdar yotgan ekan. Qoqvosh kampir bilan uning urishqoq qizi dodlashib, uyni gir-gir aylanishibdi, qo‘rqqanlaridan qulflangan eshikni ochisholmabdi. Ikki ajdar kampir bilan qizni yutib, darchadan chiqib ketibdi.”

Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan ingliz va o‘zbek ertaklari shuni ko‘rsatadiki, turli madaniyatlarda yaratilgan bo‘lishiga qaramay, ertaklarda ifodalangan yovuzlik, uning ildizlari va jazolanishi haqidagi tushunchalar umumiylikka ega. Bu umumiyliklar

insoniyat axloqiy ongining ildizlarida yotgan, yovuzlikning kechirilmasliligi, ezgulikning esa g‘alaba qilishi zarurligini ta’kidlaydi. Ertaklar bu ma’noda faqat og‘zaki ijod namunasi emas, balki madaniy va ma’naviy tarbiyaning ko‘zgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cavendish R. Man, Myth and Magic. – Leeds: An Illustrated Encyclopedia of the Supernatural (Hardcover), 1970. 156 p.
2. Coulmas F. Introduction: Conversational routine. –The Hague: Mouton, 1981. 159 p.
3. Lang A. The book of princes and princesses. – California: Create Space Independent Publishing Platform, 2017. 284 p.
4. Померанцева Э. В. Судьбы русской сказки. – Москва: Наука, 1965. 220 с.
5. Юнг К.Г /под общ. ред. С.Н.Сидоренко. – М.: Серебряные нити, 1997. 368 с.

Obidjon SHOFIYEV,
 Termiz davlat universiteti dotsenti,
 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

HIKOYADA QAHRAMON RUHIY KECHINMALARINING BADIY TALQINLARI

(Erkin A'zamning "Bog'bolalik Ko'kaldosh",
 "Anoyining jaydari olmasi", "Piyoda" hikoyalari misolida)

Annotatsiya: maqolada Erkin A'zamning "Bog'bolalik Ko'kaldosh", "Anoyining jaydari olmasi" va "Piyoda" hikoyalari misolida qahramonlarning ichki kechinmalari, ongosti jarayonlari va hissiy holatlarini badiiy psixologizm vositalari orqali ifodalash uslubi tahlil qilingan. Yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini badiiy detallar, muhit va ichki monologlar yordamida ochib, insonning ma'naviy iztiroblari va jamiyat bilan ziddiyatlarini ta'sirchan ifodalaydi. Shu orqali Erkin A'zam nasrida psixologizmning o'zbek adabiyotidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Erkin A'zam, psixologizm, ichki kechinmalar, badiiy tahlil, hikoya, qahramon psixologiyasi.*

Аннотация: в статье проанализирован художественный метод выражения внутреннего мира героев через приёмы психологизма на примере рассказов Эркина Азама "Богболалик Кукалдош", "Кривое яблоко Анои" и "Пешеход". Автор раскрывает душевные переживания персонажей с помощью художественных деталей, описания среды и внутренних монологов, передавая их духовные страдания и противоречия с обществом. Таким образом, освещается значение психологизма в узбекской прозе Эркина Азама.

Ключевые слова: *Эркин Азам, психологизм, внутренние переживания, художественный анализ, рассказ, психология персонажа.*

Annotation: the article analyzes the artistic method of depicting characters inner experiences through psychological techniques in Erkin Azams short stories "Bogbolalik Kukaldosh," "Anoyis Blemished Apple," and "The Pedestrian." The author reveals the protagonists mental states using artistic details, environment, and inner monologues, effectively conveying their spiritual struggles and conflicts with society. This highlights the significance of psychological analysis in Erkin Azams Uzbek prose.

Key words: *Erkin Azam, psychological approach, inner experiences, literary analysis, short story, character psychology.*

Adabiyotda psixologizm badiiy matnning ichki qatlami – qahramonning ruhiy kechinmalari, ongosti jarayonlari, hissiy holatlarini chuqur va tabiiy tarzda tasvirlashda muhim uslubiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Bu uslub adabiyotni insonning ichki dunyosini ochish vositasiga aylantiradi.

A.B.Yesin psixologizmni "adabiyotning o'ziga xos vositalari orqali xayoliy shaxs (adabiy personaj) his-tuyg'u, fikr va kechinmalarini yetarlicha to'liq, batafsil va chuqur qilib tasvirlash" [1;18] sifatida ta'riflaydi. Demak, badiiy psixologizm asar qahramonining ichki muvozanati, qarama-qarshiliklari va ularning o'zgarish dinamikasini ochishga qaratilgan.

L.Y. Ginzburgning ta'kidlashicha, "badiiy psixologizm qahramonning o'zini tutishidagi xayolga ham kelmagan, nogahoniy, tasodifiy qarama-qarshiliklardan boshlanadi" [2;300]. Bu qarashga

ko'ra, psixologizm faqat ongli fikrlash emas, balki inson tafakkuri va hissiy reaksiyalarining murakkab ziddiyatlarini ham ifoda etadi.

Boshqa bir ilmiy yondashuvda, V.V. Kompaneets psixologizmni muallifning dunyoqarashi va estetik maqsadi bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, "asarda psixologik tahlilning shakli ko'pincha yozuvchi iste'dodi va shaxsiy fazilatlarining xarakteriga bog'liq bo'ladi" [3;47]. Ya'ni psixologizmni yaratishda muallifning o'z ruhiy dunyosi ham muhim omil hisoblanadi.

A.Lezuitov esa psixologizmni ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, bu tushuncha:

- 1) so'z san'atining uzviy xususiyati;
- 2) jamiyat psixologiyasining badiiy ifodasi;
- 3) ongli estetik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi [4;30].

G'arb adabiyotshunosligida ham badiiy psixologizm keng o'rganilgan. R. Uellek va O. Uorrenlar "adabiyot psixologiyasi" atamasi orqali "badiiy asar yaratilishining psixologik qonuniyatlari va jarayonlarini" nazarda tutadilar [5;95].

Shunday ekan, badiiy psixologizm qahramonning ichki dunyosi orqali inson tabiati va jamiyatdagi ruhiy muammolarni ochib berishga qaratilgan estetik va falsafiy yo'nalishdir. Bu metod yordamida muallif personaj orqali inson ma'naviyatining murakkab qatlamlarini namoyon etadi.

Zero, "badiiy psixologizm bu qahramonlarning g'oyaviy-psixologik izlanishlarini o'zida mujassam etgan badiiy shakl, inson xarakterining shakllanishini, shaxs dunyoqarashidagi asoslarni adabiyot tomonidan o'zlashtirilish shaklidir. Psixologizmning ma'rifiy muammoviy va badiiy qimmatini, eng avvalo, shunda ko'rinadi" [1;176]. Ayrim tadqiqotchilar esa "qahramonlar psixologik hayotini uning chuqur ziddiyatlari fonida tekshirish"ni nazarda tutgan holda, "muallif, kitobxon va qahramon psixologiyasini bir-biridan farqlash zarur"ligini urg'ulaydilar [6;81]. Bu yondashuv psixologizmning ko'pqirrali mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan nazariy qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, badiiy psixologizm nafaqat adabiy personajning ichki kechinmalarini ifodalash vositasi, balki inson ruhiyatini keng kontekstda – falsafa, estetika va ijtimoiy ong bilan uyg'unlikda anglash usulidir. Bu uslub adabiyotning ichki dinamikasini tashkil etuvchi asosiy pog'onalardan biriga aylangan. Mazkur yondashuvni o'zbek adabiyotida muvaffaqiyatli tatbiq etgan mualliflardan biri – Erkin A'zamdir. Adib asarlarida psixologizm estetik tafakkurning o'zak tamoyili sifatida namoyon bo'lib, qahramonlar dunyoqarashi, hissiy hayoti va ichki qarama-qarshiliklari orqali inson tabiatiga xos murakkabliklar badiiy ifoda topadi. Uning hikoya janridagi ijodi ham shunga yaqqol misol bo'lib, u insonning sodda tashqi qiyofasi ortidagi murakkab ruhiy holatlarni mahorat bilan tasvirlay oladi. Xususan, "Bog'bolalik Ko'kaldosh" hikoyasidagi Ko'kal obrazi orqali yozuvchi ruhiy drammatizmni hayotiy voqelik orqali ochib beradi.

Ko'kal – hikoyada oddiy qishloq yigiti sifatida namoyon bo'ladi. Uning tashqi qiyofasi, kundalik hayotidagi harakatlari va muhit bilan munosabatida muloyimlik, kamtarlik va halollik kabi fazilatlar ustuvor. Ammo muallif qahramonni faqat tashqi jihatdan emas,

balki botiniy holati – yashirin tuyg'u va orzulari orqali ham yaratadi. Ko'kalning ichki dunyosidagi murakkab tuyg'ular, ayniqsa, otasizlik bilan bog'liq ruhiy iztiroblar, butun hikoya bo'ylab sezdirilib boriladi.

Muhim jihat shundaki, Erkin A'zam bu botiniy holatni deklarativ bayon emas, badiiy psixologizm orqali ifoda etadi. Ko'kalning biron joyda "otam yo'q" deyishi yoki yaqqol iztirob bildirishi tasvirlanmagan. Aksincha, u faol mehnat qiluvchi, boshqalarga yordam berishga tayyor inson sifatida ko'rinadi. Lekin shu "boshqalar uchun yashash" holati ortida shaxsiy ehtiyojlar – mehrga, suyanchga, otalik timsoliga bo'lgan chanqoqlik yashiringan. Hikoyadagi psixologik tahlilning yana bir muhim jihati – badiiy detallarning o'rnidadir. Yozuvchi murakkab tuyg'ularni ko'pincha kichik, ammo mazmunan yukli tasvirlar orqali ifoda etadi. Masalan, Ko'kalning bolalikdagi muhiti, onasi va aka-ukalari bilan o'tkazgan davrlari, bog'lardagi mehnati – bularning barchasi uning tashqaridan ko'rinadigan shaxsini shakllantiradi. Ammo shu tasvirlarda otaning yo'qligi, faoliyatdagi ortiqcha mas'uliyat va ichki yetilmaganlik tuyg'usi ufqda turgan tug'yon kabi ko'rinadi. Asar kulminatsiyasidagi dramatik voqea – Ko'kalning Doniyorovning vafoti qahramonning yillar davomida yashirin tuyg'ularini to'liqlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Tobut ko'tarilayotgan paytda Ko'kalning "otam!" deb baqirishi – ruhiy portlash nuqtasidir. Bu lahzada o'quvchi faqat Ko'kalning Doniyorovni emas, balki u orqali tuyilgan otalik obrazi bilan xayrlashuvni his etadi. Bu holat Erkin A'zam qalamiga xos ruhiy kenglik va estetik ta'sir kuchini namoyon etadi. Asarning tuzilishi ham qahramonning ruhiy dunyosini ifodalashga xizmat qiladi. Hikoyada hech qanday dinamik syujet yo'q. Voqealar jadal rivojlanmaydi, drama ham oshkora emas. Ammo ana shu "so'zsiz drammatizm" hikoyaning ichki tonunini belgilaydi. Ba'zi hollarda lirik orqaplan, ba'zida voqealarning oddiy ketma-ketligi, ammo asosan qahramonning ichki kechinmalari matnning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Shu jihatdan, "Bog'bolalik Ko'kaldosh" hikoyasi an'anaviy syujet markazidan ko'ra psixologik markaz atrofida qurilgan asardir. Bu markaz Ko'kalning otasizlikdan kelib chiqqan ruhiy kechinmalarida mujassamlashgan. Ko'kal obrazi shuningdek, milliy mentalitet, o'zbek qishloq muhiti va an'anaviy tarbiya tizimining ham timsolidir. Uning ibratliliigi, mehnatsevarligi, qishloq onalarining unga bo'lgan mehri – bunday xarakterlar jamiyatda yuksak qadrlangani bilan bog'liq. Biroq yozuvchi bu ibratni

faqat tashqi fazilatlar orqali emas, balki ichki zo'riqish va ruhiy dramatism orqali ochadi. Bu holat ham asarning zamonaviy psixologik nasr talablariga mos tushishini anglatadi.

Erkin A'zam "Bog'bolalik Ko'kaldosh" hikoyasi yordamida nasriy asarda psixologizmni qanday qilib samarali qo'llash mumkinligini namoyon etadi. Ko'kal obrazi orqali yozuvchi faqat bir shaxsning emas, balki butun bir ruhiy holat – otasizlik, yetimlik, mehrsizlik natijasida paydo bo'lgan ichki bo'shliq va uni to'ldirishga intilish jarayonini tasvirlaydi. Bu jarayonda badiiy detallar, lirik orqaplan, ichki monolog, tashqi xatti-harakat va kompozitsion elementlar uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Natijada, "Bog'bolalik Ko'kaldosh" hikoyasi nafaqat uzoq yillar o'quvchi xotirasida qoladigan ta'sirchan obrazlarni yaratishi, balki o'zbek adabiyotida inson psixologiyasini ochishga qaratilgan ilg'or tajribalardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Erkin A'zam hikoyalarda qahramon ruhiyatini ochishda muhit va psixologik portret yetakchi uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Adib insonning tashqi ko'rinishi, nutqi, xatti-harakati va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit orqali ichki holatini chuqur va ta'sirchan tasvirlay oladi. Bu jihat, ayniqsa, "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Asar markazidagi qahramon – Ramazon oddiy, hayotda omadi yurishmagan, ayrimlar uchun "anoyi" (ya'ni sodda, hazilga moyil) ko'rinuvchi, biroq qalbi pok va ruhiy dunyosi boy inson sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi bu obraz orqali jamiyatdagi oddiy inson taqdiriga xos ichkari dramatismni ko'rsatadi. Ramazonning faoliyati, nutqi va xulq-atvori orqali uning ichki kechinmalari, ko'nglidagi orzulari, romantik intilishlari o'z ifodasini topadi. Qahramonning ruhiy holati asosan ikkita ichki tortishuv asosida shakllanadi: uning ona yurti Boysunga bo'lgan muhabbati va yoshlikda xizmat o'tagan Barnaul shahriga nisbatan sog'inchi. Bu ikki muhabbatning o'zaro qarama-qarshiligi qahramon ongida doimiy dramatik tortinma hosil qiladi. Boysun u uchun sevimli yurt, milliy qadriyatlar maskani sifatida qadrlil bo'lsa, Barnaul romantik xotiralar markazidir. Ramazon hayotidagi mag'lubiyatlar – o'qishga kira olmagan, kontrabandada ayblanib qamalishi, baxtsiz turmushi uning ruhiyatida ortiqcha og'riqlar, armonlar va chin qalbda yashirilgan alamlar yig'indisini hosil qilgan. Lekin shunga qaramay, u mehribon, toza nihoyatda samimiy inson bo'lib qolaveradi. Unda o'z manfaatini emas, balki o'zga insonlar baxtini birinchi o'ringa qo'yish fazilati mavjud. Bu fazilat uning ichki dunyosidagi ma'naviy yuksaklikdan dalolat beradi.

Asarda birinchi shaxs – muallif-do'st nuqtai nazaridan hikoya qilish orqali Ramazon obrazi nafaqat subyektiv, balki psixologik jihatdan murakkab qiyofada namoyon bo'ladi. Hikoyachi uni bir paytda tushunib, bir paytda tushunmasligini tan oladi. Bu holat Ramazon shaxsiy dunyosidagi ko'p qatlamlilik va ruhiy qalb kengligining belgisidir.

Hikoyaning nomi "Anoyining jaydari olmasi" – o'ziga xos badiiy ramz sifatida xizmat qiladi. Jaydari olma tashqi ko'rinishida kamchiliklarga ega, lekin ta'mida o'ziga xoslik bor. Muallif Ramazonni shu ramz orqali xarakterlaydi: u boshqalarga sodda va hazilga moyil inson sifatida ko'rinadi, ammo qalbida samimiyat, ezgulik va insonparvarlik mujassam. Hikoyachi finalda Ramazonni "jaydari olma" sifatida tavsiflab, unga bo'lgan mehri va ehtiromini ifoda etadi. Bu ramz orqali muallif soddalik va ichki boylikni uyg'unlashtirgan timsol yaratadi.

Ramazon tarbiya topgan muhit qahramon xarakterining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. U Boysun tabiati kabi oddiy, ochiq ko'ngil, lekin shu bilan birga tog'larday matonatli va bag'rikeng. Biroq qishloq muhiti uning tuyg'u va orzularini to'liq anglay olmaydi. Ramazonning ruscha so'zlar aralashtirib gapirishi, o'ziga xos xotiralar bilan yashashi ayrimlar uchun "ermak" sifatida qabul qilinadi. Undagi qalb dramasi ko'pincha muhit tomonidan anglanmay qoladi. Bu esa qahramonning yanada yolg'izlanishiga olib keladi.

Asarning oxirida Ramazon Barnaulga qayta borish orzusini yana qayd etadi. Bu orzu undagi eski xotiralar bilan yashash, qoloq muhitdan ruhan uzilish, hayotda yana bir bor baxt topish istagining ifodasidir. Uning bu intilishi o'quvchi qalbida hazin hissi uyg'otadi. Asarning ichki dramatismi ana shu orzu-armon va ruhiy iztiroblar uyg'unligida namoyon bo'ladi. "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasida Erkin A'zam sodda inson obrazi orqali jamiyatdagi e'tibordan chetda qolgan, ammo qalbida ezgulik va mehr bag'rini yashirgan shaxsning psixologik portretini yaratadi. Muallif foydalangan ramzlar, psixologik detallar, muhit va nutqiy tahlil vositalari asarning ta'sirchanligini oshiradi. Ramazon obrazi orqali adib inson qalbining nozik qirralarini ochib beradi. Bu esa uning nasrida badiiy psixologizmning samarali ifoda topganini tasdiqlaydi.

Erkin A'zam nasrida insonning ruhiy kechinmalari, ma'naviy iztiroblari va zamonaviy hayot sur'ati bilan botiniy ziddiyatini ifoda etuvchi qahramonlar muhim o'rin tutadi. Muallif "o'z muhitiga sig'magan", atrofdagi

ijtimoiy va madaniy voqelikdan ajralib qolgan obrazlar orqali inson ongida kechayotgan dramatik jarayonlarni qalamga oladi. Bu jihat, ayniqsa, “Piyoda” hikoyasida yaqqol namoyon bo’ladi.

“Piyoda” hikoyasining markaziy qahramoni Berdiboy o’z atrofidan ajralib qolgan, hayotga qarashlari, urf-odatlariga munosabati va fe’l-atvori bilan zamonasidan ortda qolayotgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning qiyofasida muallif qadimiy qadriyatlarga sodiqlik, hayotga falsafiy munosabat va o’z yo’lidan qaytmaslik kabi xususiyatlarni jamlagan. Bu xususiyatlar uning zamonaviy hayot sur’atiga moslashuviga to’siq bo’ladi, natijada Berdiboy o’z muhitida “ortiqcha” insonga aylanadi.

Berdiboy obrazi orqali muallif an’anaviy dunyoqarash va zamonaviy sivilizatsiyaning qarama-qarshiligini badiiy tahlil etadi. Qahramon hayotidagi “piyoda yurish” – allegorik ma’noda berilgan ramziy harakat bo’lib, u insonning hayot yo’lida shoshmasdan, o’ziga xos falsafa bilan yurishi, umumiy oqimga qo’shilmasligi timsoli sifatida talqin etiladi. Hikoyadagi voqealar zanjiri ham aynan shu qarama-qarshilikni ochib berishga xizmat qiladi.

Hikoyada ichki syujet tashqi voqealardan ustundir: Berdiboyning ichki monologlari, xotiralari va mulohazalari hikoya fabulasiga to’liq singdirilgan. Uning qalbida kechayotgan ruhiy iztiroblar, fikrlar qarama-qarshiligi, o’zgarib borayotgan jamiyatga nisbatan ichki protest holati psixologik tahlil asosida ochib berilgan.

Berdiboyning hayotdagi o’rni, jamiyat bilan munosabati va shaxsiy tuyg’ulari o’rtasidagi ziddiyat uning ruhiy dunyosida dramatik keskinlik uyg’otadi. U atrofdagilar tomonidan tushunmaslik va qoloqlik

bilan baholanadi. Shuning uchun ham qahramon o’zini “ortiqcha inson” deb his eta boshlaydi. Bu holat nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy izolyatsiya – yolg’izlik, o’zini keraksiz deb bilish tuyg’usini keltirib chiqaradi.

Hikoyada qahramonning sekin hayot tarzi, xotiralarga suyangan qalbi, ichki ziddiyatlari jamiyatdagi umumiy tendensiyalar – yangilanish, shoshilinchlik, texnik taraqqiyot fonida badiiy ta’sir kuchiga ega dramatik faoliyatga aylanadi. Erkin A’zam Berdiboy timsolida umumiy global muammolar – insoniylik, qadriyatlar, hayot ma’nosi kabi falsafiy masalalarni ilgari suradi.

“Piyoda” hikoyasi bu Erkin A’zam nasrida psixologik tahlil, ichki dramatism va allegoriyaviy uslubning mukammal uyg’unlashuvi namunasidir. Berdiboy orqali muallif insonning hayot sur’ati bilan ichki dunyosi o’rtasidagi ziddiyatni, an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy tamaddun muammolarini, insonning ma’naviy irodasi va zamon taqozolari o’rtasidagi dramatik qarama-qarshilikni tasvirlaydi.

Erkin A’zam ijodining muhim jihatlaridan biri shundaki, u o’z asarlarida inson ichki dunyosini o’rganishni, shaxs va muhit o’rtasidagi ziddiyatni ochishni markaziy mavzulardan biri sifatida oladi. Uning “Bog’bolalik Ko’kaldosh”, “Anoyining jaydari olmasi” va “Piyoda” kabi hikoyalarda qahramonning ichki kechinmalari, u yashab turgan muhit bilan munosabati, jamiyatning uni qabul qilish-qilmasligi, ruhiy iztirob va shaxsiy dramatism asosiy nuqtada turibdi. Bu hikoyalarda tashqi voqealar sodir bo’lishiga qaraganda, ichki dramatism ustuvor: qahramonning xotiralari, ruhiy holati, hissiyotlari, ichki ziddiyatlari va xayollari – badiiy harakatning asosiy manbai sifatida namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: Книга для учителя. – М.: Просвещение, 1988. 256 с.
2. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Л.: Советский писатель, 1971. 280 с.
3. Компанец В.В. Художественный психологизм в советской литературе. (1920-е годы) – Л.: Наука, 1980. 215 с.
4. Иезуитов А. Н. Проблемы психологизма в эстетике /литературе. // Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: 1970. с. 15-45.
5. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978. 400 с.
6. Андреев А.Н. Целостный анализ литературного произведения: учеб. пособие для студ. вузов. – Минск: НМЦентр, 1995. 192 с.
7. A’zam E. Gonolulaga elchi (qissa va hikoyalar). – T.: Pir, 2024. 526-b.

Nilufar XUJANOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

nilufarxujanova@gmail.com

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA YARATILGAN TA'LIMYIY DASTURLARNING O'QITUVCHILAR VA TALABALAR FAOLIYATIGA IJOBIY TA'SIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'qituvchilarga va talabalarga sun'iy intellekt imkoniyatlaridan kasbiy faoliyatlarida qo'llay olishlari uchun taklif va tavsiyalar berilgan. Kundan kunga sun'iy intellekt imkoniyatlari ortib bormoqda, bu esa bo'lajak pedagoglar uchun ham foydali hisoblanadi. Globallashuv sharoitida vaqt masalasi juda ham muhim hisoblanadi. O'qituvchilardan har bir dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rishlari uchun uzoq vaqt talab qilinadi. Lekin yangi texnologiyalardan xabardor hamda sun'iy intellekt(SI) imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan o'qituvchilar vaqtlarini samarali tashkillashtira oladilar. Bundan tashqari, bu usulda tayyorlangan tarqatma materiallar va namoyishlar hozirgi kun o'quvchilari uchun ham qiziqarli hisoblanadi. Maqolada talabalar o'rganishlari uchun sun'iy intellekt yordamida ishlovchi dasturlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, texnologiyalar, interaktiv, zamonaviy ta'lim, raqamli savodxonlik.*

Аннотация: в данной статье даются предложения и рекомендации для преподавателей и студентов по использованию возможностей искусственного интеллекта в их профессиональной деятельности. Возможности искусственного интеллекта увеличиваются с каждым днем, что также полезно для будущих учителей. В условиях глобализации вопрос времени становится очень важным. От преподавателей требуется тратить много времени на подготовку к каждому уроку. Однако преподаватели, которые осведомлены о новых технологиях и могут широко использовать возможности искусственного интеллекта (ИИ), могут эффективно организовать свое время. Кроме того, раздаточные материалы и демонстрации, подготовленные таким образом, также интересны для сегодняшних студентов. В статье дается информация о программах, которые работают с помощью искусственного интеллекта для обучения студентов.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, технологии, интерактив, современное образование, цифровая грамотность.*

Annotation: this article provides suggestions and recommendations for teachers and students to use the capabilities of artificial intelligence in their professional activities. The capabilities of artificial intelligence are increasing day by day, which is also useful for future teachers. In the context of globalization, the issue of time is very important. Teachers are required to spend a lot of time preparing for each lesson. However, teachers who are aware of new technologies and can widely use the capabilities of artificial intelligence (AI) can effectively organize their time. In addition, handouts and demonstrations prepared in this way are also interesting for today's students. The article provides information about programs that work with the help of artificial intelligence for students to learn.

Key words: *artificial intelligence, technologies, interactive, modern education, digital literacy.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. O'quv jarayonini avtomatlashtirish imkoniyati tufayli SI asosidagi dasturlar nafaqat o'qituvchilar, balki talabalar uchun ham qulayliklar yaratmoqda. Dunyo miqyosida ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atda rivojlanishi, o'quv jarayonini avtomatlashtirish, individuallashtirish va interaktivlashtirish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish nafaqat o'qituvchilar uchun metodik yordamchi sifatida, balki talabalar uchun mustaqil o'rganish va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan turli platforma va ilovalar – xususan, Canva Magic Write, ChatGPT, Almanack, Elicit kabi dasturlar – ta'lim jarayonida foydalanilmoqda va bu vositalar o'qituvchilarga dars mazmunini

yaratishda, baholashni avtomatlashtirishda, talabalar esa ilmiy izlanishlar, topshiriqlarni bajarish va matnlar bilan ishlash jarayonida ularning imkoniyatlaridan keng foydalanmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan o'qituvchilar va talabalar uchun foydali bo'lgan dasturlar tahlil qilinadi hamda ularning amaliy ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism

Hozirgi kunga kelib ta'lim jarayonini ham raqamlashtirish boshlangan. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasiga ko'ra, "raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun sharoit yaratish" kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan[1]. Hozirgi kun talabalari o'z sohalarini chuqur egallashdan tashqari raqamli savodxonlik ko'nikmalariga ega ekanliklari ham muhim sanaladi. O'z ishining mutaxassisi bo'lish uchun sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalana olish katta yordam bera oladi. Sun'iy intellekt (SI) bugungi kunda ta'lim sohasidagi eng katta muammolarni hal qilish, o'qitish va o'rganish jarayonlarini innovatsion tarzda rivojlantirish hamda 4-BRM (Barqaror rivojlanish maqsadlari)ga erishish jarayonini tezlashtirish salohiyatiga ega[2]. Sun'iy intellekt ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi: u darslarni avtomatlashtirish, har bir o'quvchiga individual yondashuvni qo'llash, bilim darajasini aniqlash hamda o'qituvchilarga turli jihatlardan ko'maklashish (masalan, o'quv materiallarini ishlab chiqish yoki o'quvchilarning yutuqlarini kuzatib borish) imkonini beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish va o'quvchilarga raqamli savodxonlikni o'rgatish ham muhim vazifalardan sanaladi.

Darhaqiqat, sinfxonadagi har bir o'quvchining bilim darajasini hamda qobiliyatlarini inobatga olgan holda tarqatma materiallar tayyorlashda ham sun'iy intellekt yordamida ishlovchi dasturlar samarali hisoblanadi. "Sun'iy intellekt" atamasi ilk bor 1956-yilda Dartmut kollejida bo'lib o'tgan ilmiy seminar doirasida amerikalik olim Jon Makkarti tomonidan ilgari surilgan. Mazkur seminar sun'iy intellekt sohasining poydevorini yaratgan bo'lib, mashinalarning mantiqiy fikrlashi, muammolarni hal qilishi hamda inson tilini tushunishi kabi imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan edi. Sun'iy intellekt yordamida individualizatsiyalangan ta'lim tizimlarini yaratish muammosi Anderson(2018)

tomonidan chuqur o'rganilgan. Muallif o'z tadqiqotlarida shaxsiylashtirilgan o'quv jarayonlarining talabalarga ko'rsatgan ta'siri va uning samaradorlik darajasini atroflicha tahlil qilgan[3]. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektga asoslangan ta'lim yondashuvlari o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim omil bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi haqida tadqiqotchilar turlicha fikr bildirganlar. Anderson (2018) o'z tadqiqotlarida sun'iy intellekt asosida ishlovchi moslashtirilgan ta'lim tizimlari (adaptive learning systems) o'quvchilarga individual yondashuv asosida ta'lim olish imkonini berishini ta'kidlaydi[4]. Masalan, Duolingo, ChatGPT, Grammarly kabi vositalar yordamida talabalar yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Biroq, ayrim tadqiqotchilar sun'iy intellekt dan haddan tashqari foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Laurillard(2014) o'z tadqiqotlarida "raqamli aqliy dangasalik" (digital mental laziness) tushunchasini ilgari surib, inson miyasi o'z-o'zini rivojlantirishdan ko'ra tayyor javoblarga suyanishga moyil ekanini qayd etgan[5].

W. Holmes, M. Bialik va C. Fadel (2019) esa sun'iy intellekt ni pedagoglarni almashtiruvchi emas, balki ularning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida baholaydi. Ularning fikricha, SI yordamida o'quvchilarning bilim olish darajasi kuzatilib, shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalar berilish orqali ta'lim sifati oshadi. Shuningdek, AI asosida ishlab chiqilgan tahliliy dasturlar o'qituvchilarga o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, SI ta'limni soddalashtirish va shaxsiylashtirish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishda sezilarli imkoniyatlarga ega. Biroq, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi o'z-o'zidan yuqori ta'lim sifatini kafolatlamaydi[6]. Shu bilan birga, N. Selwyn (2019) sun'iy intellekt texnologiyalariga tanqidiy yondashadi. U SI vositalarining noto'g'ri yoki cheklovsiz qo'llanilishi ta'limdagi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkinligini uqtiradi. Uning fikricha, ta'limda AI texnologiyalarini joriy etishdan oldin ijtimoiy, etik va huquqiy jihatlar chuqur tahlil qilinishi lozim [7].

Yuqorida keltirilgan fikrlar tahlilidan ko'rinadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga integratsiyasi bir qator ijobiy imkoniyatlarni ochadi.

Biroq, uning xavf-xatarlarini ham inobatga olgan holda, SI vositalaridan foydalanishda ehtiyotkorlik, pedagogik maqsadga yo'naltirish va ilmiy-metodik asos zarur.

SI asosida ishlovchi dasturlar:

1. Elicit (The AI Research Assistant).


Bu dastur orqali talabalar o'z sohalari bo'yicha ishonchli ma'lumotlar izlab topa olishadi. Ushbu vosita adabiyotlar sharhi (literature review) jarayonida "seed article" deb nomlanuvchi asosiy maqolalarni izlab topishda va tegishli mavzularni tahlil qilishda katta qulayliklar yaratadi.

Elicit foydalanuvchi tomonidan kiritilgan savol asosida muqobil savollarni shakllantirib, turli ilmiy maqolalarni taklif etadi. Bu esa izlanishning ko'lamini kengaytirish va mavzuga oid yangi yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Platformaning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- sun'iy intellekt yordamida adabiyotlarni tahlil qilish va saralash;
- aniq kalit so'zlarisiz ham tegishli ilmiy maqolalarni aniqlash;
- maqolalardan savolga mos asosiy g'oyalarni umumlashtirib chiqarish;
- matnlardan asosiy ma'lumotlarni ajratib olish va tahliliy tavsiyalar taqdim etish.

Qarang (1-rasm).




2. Almanack.ai

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilar va ta'lim muassasalari rahbarlari doimiy ravishda muddatlar, maqsadli ko'rsatkichlar va hujjatlarni yuritish kabi yuklamalarga duch keladilar. Ushbu jarayonlar ko'plab vaqt va resurslarni talab qilgani sababli, o'qituvchining asosiy vazifasi – o'quvchilar bilan sifatli

ishlash ko'pincha ikkinchi planga tushib qoladi. Shu nuqtai nazardan, Almanack platformasi butun dunyo bo'ylab pedagoglar uchun kengayib borayotgan generativ sun'iy intellekt resurslari to'plami bilan yetakchilik qilmoqda. Natijada, o'qituvchilar orttirilgan vaqtni o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish, dars sifatini oshirish va pedagogik yondashuvni chuqurlashtirishga yo'naltirish imkoniga ega bo'ladilar.

Krik Gringhamning fikriga ko'ra, Almanack dasturi o'qituvchilarning mavjud kontent va kontekstga oid bilimlarini to'ldiruvchi samarali vosita sifatida, ta'lim jarayonini yanada individualizatsiyalash va optimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, barcha o'qituvchilarga ushbu platformaning imkoniyatlarini o'rganish va uni o'z amaliy faoliyatida qo'llash samarali hisoblanadi[8].

Qarang (2-rasm).



3. AudioPen — bu sun'iy intellektga asoslangan ovozdan matnga konvertatsiya qiluvchi veb-ilova bo'lib, u foydalanuvchining aytgan gaplarini nafaqat yozma shaklga o'tkazadi, balki ularni tahrirlab, mazmunan boyitadi. Ushbu vosita blog, dars rejasi, maqola yoki boshqa turdagi matnlar tayyorlashda o'qituvchilarga katta qulaylik yaratadi. AudioPen kompyuter hamda mobil qurilmalarda ishlaydi va natijaviy matn foydalanuvchi tomonidan qo'shimcha tahrir qilinishi mumkin. Bu esa uni universal vositaga aylantiradi.


Shuningdek, bu turdagi vositalar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Jumladan, AudioPen kabi ilovalar orqali pedagoglar o'z fikrlarini tez va samarali tarzda yozma shaklga keltirib, ilmiy-ijodiy faoliyatga ham ko'proq vaqt ajrata oladilar. Bu ayniqsa, darsdan tashqari faoliyatlarda (metodik qo'llanmalar yozish, konferensiyalar uchun taysiyorlash, grant loyihalarini ishlab chiqish va h.k.) juda foydalidir.

Qarang (3-rasm).



4. Canva Magic Write esa matndan tasvir yaratish (text-to-image) texnologiyasiga asoslangan bo'lib, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, taqdimot tayyorlash, fikrlar xaritasi tuzish, dars mazmunini shakllantirishda o'ziga xos yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. U foydalanuvchi kiritgan so'zli buyruqlar asosida matn tahlilini amalga oshirib, turli taklif va g'oyalar ishlab chiqadi. Bu vosita orqali o'qituvchilar qisqa vaqt ichida vizual jihatdan jozibador materiallar tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Canva Magic Write matn, tasvir, dizayn va vizual elementlar orqali o'quvchilarning turli uslubdagi idrok qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda dars materiallarini boyitadi. Bunday yondashuv VAK (vizual-audio-kinestetik) modeliga asoslanib, har bir o'quvchining individual o'rganish uslubini hisobga olish imkonini beradi.

Qarang (4-rasm).



Ushbu vositalar o'qituvchi va talabalar uchun vaqtni tejash, ish unumdorligini oshirish va takroriy ishlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Masalan, Elicit orqali ilmiy maqolalarni topish, AudioPen orqali fikrlarni tezda yozma shaklga keltirish, Canva Magic Write bilan kreativ matn yaratish va

Almanack yordamida dars rejasini avtomatik tuzish mumkin.

To'rtala platforma ham sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanadi. Ular tabiiy tilni qayta ishlash, mashinaviy o'rganish va avtomatik tavsiya tizimlariga asoslangan. Bu esa ularni inson fikrini tushunishga, kontekstli javob berishga va foydalanuvchining ehtiyojlariga moslashishga qodir qiladi.

Bu vositalarning barchasi biror ko'rinishda matn ishlab chiqarish yoki tahrir qilishga xizmat qiladi:

- Elicit – ilmiy maqola tavsiyalarini beradi.
- AudioPen – og'zaki nutqni yozma matnga aylantiradi.
- Canva Magic Write – sarlavha, post, taqdimot matni yaratadi.
- Almanack – dars rejasini, test va tahliliy hujjatlarni ishlab chiqadi.

Barcha vositalar foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashadi. Masalan, Elicit savol asosida maqola tavsiya qiladi, Almanack esa o'quv faniga va sinf darajasiga qarab kontent yaratadi. Ushbu vositalarni samarali ishlatish uchun raqamli savodxonlik, ya'ni texnologiyalardan to'g'ri va samarali foydalanish qobiliyati muhim hisoblanadi. Shuningdek, foydalanuvchi ularning natijalarini tahlil qilish va tanqidiy baholashni ham bilishi kerak. Bu vositalar zamonaviy ta'lim jarayonlarida innovatsiyalarni joriy etish, ijodkorlikni rivojlantirish va tizimlashtirilgan ish yuritishni ta'minlaydi. Ular an'anaviy metodlarni to'ldiruvchi vosita sifatida qaralishi mumkin.

R. Luckin (2019) sun'iy intellektni o'quvchilarga moslashtirilgan ta'lim berishda asosiy vosita sifatida ko'radi. U SI yordamida har bir o'quvchining bilim darajasi, o'rganish uslubi va ehtiyojlari aniqlanib, individual ta'lim strategiyasi ishlab chiqilishini taklif qiladi. Unga ko'ra, sun'iy intellekt inson va texnologiya o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi[9]. Yuqoridagi SI yordamida ishlovchi dasturlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda bilim darajalariga mos bo'lgan dars rejalari, namoyishlar va tarqatma materiallar tayyorlab berishda katta yordam beradi.

Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish uchun taklif va tavsiyalar.

1. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish uchun talabalarga qisqa muddatli kurslar va vebinarlar tashkil etish lozim. Bu kabi kurslar talabalarning

raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ham katta yordam beradi. Ayniqsa, bu kabi dasturlar yordamida dars rejalashtirish, baholash va individual yondashuv bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

2. SI texnologiyalari mahalliy til, madaniyat va o'quvchilarning ijtimoiy holatiga moslashtirilgan shaklda ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. O'zbekistonda o'zbek tilida faoliyat yuritadigan sun'iy intellektli o'quv dasturlariga ehtiyoj katta.

3. SI bilan ishlashda talabalarga yolg'on ma'lumotlar va SI dan notug'ri foydalanish xavflari haqida ma'lumot berish zarur. Bu ularga yolg'on ma'lumotlardan saqlanish, o'z mustaqil fikrini shakllantirish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi.

4. SI vositalarining ta'sirini muntazam tahlil qilish orqali ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash mumkin. Sun'iy intellektdan foydalanish natijalarini o'lchab borish hamda tajribalarni almashish orqali tizimni doimiy takomillashtirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, SI imkoniyatlari kundan kunga ortib borishi natijasida ta'lim sohasida

ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. SI asosida ishlovchi dasturlardan keng foydalanish o'qituvchi va talabalarga vaqtlarini tejash imkoniyatini beradi. Elicit dasturi orqali talabalar o'zlariga zarur bo'lgan ma'lumotni olishlari mumkin. Bundan tashqari, bu dastur orqali katta hajmdagi ilmiy maqolalarning umumlashtirilgan qisqa xulosasiga ega bo'lishlari mumkin. Almanack dasturi orqali turli xil namoyishlarni bir zumda tayyorlay olishadi hamda boshqa ko'plab imkoniyatlaridan foydalana olishadi. AudioPen va Canva Magic Write dasturlari orqali audio yozuvni yozma shaklda olish imkoniyati mavjud. Barcha yuqorida sanab o'tilgan SI asosida ishlovchi dasturlar qulay va oson interfeysga ega bo'lganligi sababli foydalanish uchun qo'shimcha bilim hamda tajriba talab etilmaydi. SI texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi talabalar uchun o'zlashtirish darajasini oshirish, individual yondashuv asosida ta'lim olish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, sun'iy intellektdan oqilona foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-6079 son farmoni. <https://lex.uz/pdfs/5030957>.
2. <https://www.unesco.org/en/artificial-intelligence>.
3. Anderson J. Artificial Intelligence in Education: Personalized Learning. Educational Review, 2018.
4. Anderson J. R. How Can the Human Mind Occur in the Physical Universe? Oxford University Press, 2018.
5. Laurillard D. Rethinking University Teaching. Routledge, 2014
6. Holmes W., Bialik M., & Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign. Retrieved from <https://curriculumredesign.org>, 2019.
7. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. Polity Press, 2019.
8. <https://www.almanack.ai>.
9. Luckin R. Towards Artificial Intelligence-Based Assessment Systems. — London: UCL Institute of Education, 2019.

² Davomi keyingi sonlarda

Oqiljon MAVLONOV,
O'zbekiston tumanidagi 16-maktab ona tili va
adabiyot fani faxriy o'qituvchisi

NAVOIY MA'NAVIY OLAMIGA YO'L (Adabiyot muallimlari e'tiboriga taqdim)¹

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarni taxayyul mulkining sultoni Navoiy ma'naviy olamini anglashga yetaklash maqsadida ularga ayrim adabiy-tasavvufiy timsollar haqida nazariy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *kull, amr ("Kun"), volidai kalom, nur, juz', jon, ruh, riyozat (kuyish), nutq, so'z boyligi, nuqtayi tavihid.*

Annotation: in this article, in order to guide readers to the understanding of the spiritual world of the Sultan of the Takhayyul estate, Navoi provides theoretical information about some of the literary and mystical symbols.

Key words: *kull, amr ("Day"), the essence of speech, light, part, soul, spirit, asceticism (burning), speech, vocabulary, point of unity.*

Аннотация: в данной статье с целью помочь ученикам понять духовный мир султана воображаемого царства Навои, предоставляется теоретическая информация о некоторых литературных и суфийских символах.

Ключевые слова: *кулл, амр ("Кун"), волидой калом, нур, джужь, джон, рух, риозат (куйиш), нутк, словарный запас, точка единства.*

Komil inson – tasavvuf adabiyotlarida uzoq o'tmishga ega. Bu tushuncha ilk bor Ibnal Arabiy (1165-1240) asarlarida qo'llanilgan. Uning asaridagi komil inson Aqli avval, Nafsi avval yoxud Aqli kullga teng...

Keyinchalik Sayid Abdulkarim Geloniy va Aziziddin Nasafiylarning ("Insoni komil" asari) kitobida sharhlanadi. Geloniy komil insonni avliyo va anbiyolar timsolida ko'rdi. Avliyolarni ham nisbatlab: akmal, fozil, afzal, avzalu akmal kabi guruhlarga tasnifladi.

Shayx Omiliy Komil insonga to'xtalib: "Haqgo'y olimlarning fikriga qaraganda, olam Komil inson haqiqati tufayli barqarordir. Zero, falaklar uning nafasi bilan aylanurlar. Mulku malakut undan ta'lim olurlar. Shunday martabada komil insonni Haqning ko'zgusi deydilar. Haq taolo o'z ismi va sifatlarini faqat Komil insonda ko'radi", – deydi.

Ibnal Arabiy, Shayx Omiliy va Geloniy kabi so'fiylar nazariyasidagi komil inson bir kayhoniy vujud. Insoni getinamo. Ular nazarida komil inson barcha olamlarga ta'sir o'tkaza oladigan, insoniyatni boshqara oladigan bir kayhoniy ruh. Avliyo va anbiyolar timsolida bo'lsa bordir, lekin real borliq miqyosida biron anglashuvsiz shaxs.

Komil odam nazariyasi shayx Nasafiy asarlarida ruh (jon) tushunchasi bilan aloqada tushuntirilgan.

Nasafiy Inson (ruh) Kamolotini uruj (ko'tarilish) va nuzul (tushish) kategoriyalariga tayanib axloqiy yuksalish ruh martabalarini tadrijiga bog'liq, deb tushuntiradi. U Arabiy qarashlarini takomillashtirib insonni olami sag'ir (kichik olam), ilohiy olam va kichik olamni birgalikda olib Olami kabir (ulug' olam) deb qaradi. Demak, Ulug' olamdagi barcha sifat va xususiyatlar kichik olam (inson)da mavjud, shu sabab odam Ulug' olamning kichraytirilgan nusxasidir, deya izohlaydi. Nasafiy Komil insonga shunday ta'rif beradi: "Bilgilki Komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar... Bilgilki, u shunday insondir, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif"... Uning fikricha yaxshi sifatlarini egallab borgan odam shunday martabaga ko'tarila oladi. "Odamlar orasida Komil inson bo'lgani uchun ham jami mavjudot odamga sajda qiladilar", – deydi. Axloqiy maqom va martabalarini egallab, nafsoniy poklanib, ma'naviy va irfoniylar bilimlar evaziga holiy uruj egallagan solik insoniylik maqomini nihoyasiga yetkazgan kishi hisoblanib, endi u Komil odamdur. Har kim kichik martabalarini tugatsa, ulug' olamda Xudoning noibi va xalifasi bo'lishi mumkinligini tushuntiradi.

Tasavvufga ko'ra insonga faoliyat uchun inon-ixtiyor berilgan, u o'z harakatlari sabab komillik

¹ Boshli o'tgan sonlarda

kasb eta oladi. Odamlarning so'zlari va faoliyati uchun oldindan belgilangan o'lchov – chegara yo'q. Bilimga ega bo'lish odamning sa'y harakatiga bog'liq. Qancha ko'p g'ayrat qilsa, shuncha bilimli bo'ladi. Uruj (taraqqiyot)ning chegarasi yo'q. Qobiliyatli inson har kuni umrini toat-u taqvoda o'tkazsa, u har kuni ilgari bilmagan biror narsasini bilib olishi aniqligini tushuntirib bergan...

Kamolotning belgisi ikkita: biri – hamida axloq, ikkinchisi – o'zini tanish. O'zligini tanib bashariy sifatlardan yuksalib o'zida ilohiy sifatlarni shakllantirgan odamlar komil insonlardir.

Tasavvuf mana shunday suluklar orqali insonni tarbiyalab, o'z xilqati-yu o'z mohiyati haqida o'ylashga, o'zini tanib olamni bilish orqali uning Yaratuvchisi zoti sifatlarini ham anglashga, o'ylashga, o'rganishga chorlab Yori azalni ideal kamolot timsoli sifatida sevisish ta'limini beruvchi bir falsafiy ta'limotdir.

Demak, Mohiyat (Tangri)dan ayiruvchi (parda) vositalarining hammasi Nafs. Nafsnı faqat Ishq (muhabbat) va Riyozat, Ma'rifat, Ma'naviyat (irfon) egallash orqaligina yengilinadi.

Mohiyat (Yaratuvchi)ga yaqinlashtiruvchi barcha ezgu ishlar Poklanish va O'zlikni topishdir. So'fiylikda va tasavvuf adabiyotida Komil inson ruhiy- ma'naviy poklangan shaxsdir. Komil inson tasavvuf adabiyotida Iksiri A'zam (buyuk malham), Qibriti Ahmar (misni oltinga aylantiruvchi javhar), Valiulloh, Qibla, Qutb, G'avs (madadkor), Avtod (ustun), Abdol (badal qilingan) kabi nomlar bilan tilga olinuvchi timsoldir.

Hayrat – kavnu makon ichra oshiq oldida tug'ilgan kutilmagan, anglanmagan g'aroyibotlar. Favqulodda inson aqlining gardun va sipehr ichra mavjud bo'lgan sirli hodisalardan ajablanishi. Inson (oshiq) ruhining adam (yo'qlik) olamidan vujud bo'stoniga nuzli, undan nosut (mulk), malakut (latif ruhlar), jabarut (nurlardan iborat qudrat) va lohut (ilohiy) olamlar ichra hamda hududsiz koinot aro taxayyuliy uruji (sayri)dan tug'ilgan taajjublari. Zotsizlik zoti mavjlaridan partavlangan ko'ngilning on'iy hissiyotlari. Bu hayratlarga javob topa olmaslik umidsizligi – vasvasasi Aqlni xushidan zabun, o'zini majnun aylaydi:

Aql ishini ya's junun ayladi,

Vasvasa hushin zabun ayladi...

Aqlning bu notavonlig'ini yechish yo'li olamga basirat ko'zi bilan boqib uning sirlaridan voqif bo'lmoqlikdir:

Sirri haqiqatdin o'lub bahravar,

Ayla basirat ko'zi bila nazar.

Navoiyda birinchi Hayrat ruh (jon)ning Adamdan vujud (tan)ga hamnafas bo'lib, malak olami gulistoniga sayridan boshlanadi. Real dunyo (nosut) – mulk olamini anglab yetishga urinish ajablanishlari tasviri.

Ikkinchi Hayrat – ruhning malak olamidan malakut (latif ruhlar) olamiga sayri taajjublari. O'lis sayyoralar, yiroq yulduzlarning barchasi Xoliq azaliy zotiga zokirligidan tug'ilgan turfaliklar hayrati. Bu qarorgohdagi ma'rifatulloh g'aroyibotlari tufayli bir hayratning ming hayratga do'nishi ajabliqlari.

Uchinchi Hayrat – ruhning malakut olami tunidan badan mulki shahristoniga sayri taassurotlari. Bu ajabliqlarda hayrat o'tidan vujudi kul bo'lib fano yeliga sovrulmoq ila ikkinchi fano maqomiga erishib, so'ng Haqdan baqoyi Komil yetib, jon (ruh)ning xalifalik maqomiga erishuvi hayratlari. Tan saltanatidagi Aql bu saroyning sultoni, xojasi – ruh (juz') ko'ngil taxtida o'tirib, bul koshonani boshqarish orqali o'zini tanishi va ma'rifat orqali Ruhi a'zamni anglash jarayoni tadriji sabab tug'iladigan Hayratlar.

Olamni anglamoqqa boshlash Hayratlari solikni ilmu irfonga boshlaydi. Irfoniy ma'rifat Hayratlar hosilasi. Ma'rifat ulug' Iloh olamlari cheksizligini, istig'nosiz (muhtojsiz)ligini tanitadi. Zoti qudsiyni qalb bilan his etish va ko'ngil orqali tanishga yetaklovchi jarayon Hayratlardir. Hayrat solikni g'ayb olamida sodir bo'layotgan uqyonuslarni tuyishga yetaklovchi ko'prik.

Hayrat – qudrat, go'zallik, poklik, abadiylik idealiga yetaklovchi vosita. Olamda yashamoqdan murodning javoblarini tanishga undovchi g'ayrat va shijoat, shuur sinni (chuqur anglash), hayot nafosatini anglamoqqa yo'l – barchasi inson tafakkurida tug'ilgan Hayratlarga javob izlamoq tufayli ro'yobga chiqadi.

Jahondagi har bir jonli va jonsiz narsadagi, hayotning o'zidagi Tangri qudratini mushohada etish, Sun' naqqoshining san'atkorligidan hayratlanib, taajjublanib, bu ajabtovurliklar sinoati javoblaridan to'liqlanib, jo'shib, sevib-sevilib yashashga boshlovchi ilohiy tuyg'u – Hayrat. Shu Hayratlar sabab Xudoning yori azizligini anglab, unga rozi dil, hamdu sano aytib yashash Haq yo'lichisining hayot mazmuni, tahayyur ideali...

Nazar ayla bu **korgoh** vaz'ig'a,

Ki ortar tomoshasida Hayrati (m) ng...

Darhaqiqat, bu korgoh holiga nazar solar ekansiz, tafakkurlik har qanday inson beixtiyor:

Sun'ingga yuz ofarin, ey kirdikor...

Ofarin sun'ingga, ey jonofarin,- deb yuborasiz.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, o'quvchilarimizga mumtoz asarlar bag'ridagi polifoniklikni tushunib yetishlariga yo'l ochishda o'rganilayotgan shoir dunyoqarashi, u yashagan davr mafkuraviy olami, shoir turmush kechirgan ijtimoiy va tarixiy muhitni hisobga olib yondashish o'rganilayotgan asar mazmuni hamda g'oyaviy motivlarini o'quvchiga to'g'ri anglatishga katta imkon ochadi.

Ayniqsa, Navoiy asarlarini shoir ma'naviy olami – dunyoqarashiga yaqin darajada anglatish uchun o'quvchilarimizga adabiy – tasavvufiy timsollar bilan birga tasavvufiy – falsafiy tushunchalar to'g'risida ham, albatta, boshlang'ich nazariy ma'lumot berish maqsadga muvofiq.

Maktab adabiy tahlili jarayonidagi uzoq kuzatishlarimizga tayanib shuni alohida qayd etish o'rinliki, mutasavvuf shoirlar ijodini o'rganish jarayonida milliy adabiy ta'limni o'z o'zaniga solishning tabiiy zaruriyati tug'ilgani kabi Sharq mumtoz adabiyotini ichidan nurlantirib turgan falsafiy – tasavvufiy maqom tajalli nazariyasiga bog'lab tushuntirish imkoniyati tug'ilganidan ruhlanib bu vaziyatdan ko'p va xo'b, o'rinli va samarali foydalanish mas'uliyati bugungi kun adabiyot muallimi zimmasidagi o'tmish adabiy merosimizga bo'lgan katta ehtiromiy burchdir.

Musulmon Sharqida butun olam hodisalarining sabab – natijasini izohlaganda ham, mumtoz adabiy asarlarini sharhlaganda ham qadim Turonda asrlar davomida tajalli – mazharlanish nazariyasiga asoslanib tushuntirib kelingan. Negaki tajalli olam va odam hodisalarini anglatishda tasavvuf ta'limoti namoyandalari asoslagan ilohiy tadrijiy taraqqiyot yo'lini asoslovchi nazariyadir.

Shu bois biz maktabda mumtoz asarlar adabiy tahlili jarayonida hech qanday e'tiroz va hissiyotga berilmagan holda tajalli nazariyasiga to'liq suyanishimizni tarixiy-adabiy jarayon, adabiy-mantiqiy motivlar so'zsiz taqozo etadi.

Mumtoz asarlarimizni shu yo'sinda sharhlash o'quvchilarni badiiy so'zdan ta'sirlanishga, obrazlar qatidagi ma'no tuslarini, so'z jozibasini hissiy idrok etishga, asarlarning ham sur'at (majoziy) dagi, ham siyrat (botiniy – ma'naviy)dagi mazmun-mohiyatidan bahramand bo'lishga, boimkon asar yaratilgan

mafkuraviy davr muhiti qobig'ida tahlil qilishga, undan shoir dunyoqarashiga yaqin yakunlar chiqarishga yetaklovchi bosh omildir.

Fursatdan foydalanib aziz hamkasblaringma – til-adabiyot muallimlariga shuni alohida ta'kidlab mamnuniyat bilan qayd etamanki, men mumtoz asarlar (ayniqsa: Navoiy, Bobur, Yassaviy, Mashrab)ni sharhlash jarayonida tasavvuf nazariyasiga asoslanib tushuntirish orqali asarlarning tub mohiyatiga, muallifning badiiy-g'oyaviy maqsadiga, so'z va obrazlarning ko'p ma'nolilik olamiga, muallif ma'naviy dunyoqarashiga o'quvchilarni yetaklab olib kirishning ulkan imkoniyatlariga ega bo'lganligimga guvohlik beraman. Shu ma'noda ushbu maqolani o'quvchilarga asarni o'rgatish uchungina emas, avvalo, o'zim mumtoz asarlarni chuqur anglab yetishim uchun zarur bo'lgan ma'naviy yo'l deb tushungan holda ixlos bilan qabul qilsangiz, kelajakda o'zingizga ham maktab adabiy tahlilida katta muvaffaqiyat eshigi ochilishiga erishasiz, deydi muallif.

Yana bir qo'shimcha ma'lumot.

SO'Z – tasavvuf va Navoiy qarashlariga ko'ra hayotning boshlanishi, mab'dai Nur, aqida (ilk g'oya) dir.

So'z – Kull (Ruhi a'zam, nuqtayi tavhid, mabda') dir. So'z – hukm ("Kun" amri, olamni boshlovchi sado) dir. So'z – juz' (ruh, jon, kasrat)dir. So'z – kalom (nutq, lug'aviy boylik)dir. So'z – riyozat (kuyish, hol anglash) dir. Shuning uchun ham Navoiy so'zga nondanda ortiq, mo'tabar va tabarruk bir ilohiy ne'mat deb munosabatda bo'ladi. Demak, so'z – nutq (kalom) aloqa vositasi, ko'ngilni xushnud qiluvchi tortiq.

So'z gavhariga erur ongcha sharaf,

Kim, bo'la olmas anga gavhar sadaf.

Alalxusus, tasavvufda So'z shu qadar buyuk ne'matki, har bir so'z (lug'aviy birlik)ga gavhardan quticha yasab solib qo'ysangiz ham kamlik qiladi.

To'rt falak gavharining durji ul,

Yetti falak axtarining burji ul.

To'rt sadaf: Yer (tuproq), Suv, Havo va Olov (o't). Bu unsurlar tufayli Olam mavjud. Shu majoziy ma'noda so'z bu to'rt gavharni asrovchi durj (quticha). Yetti falak (sayyora)larning burji (12 nuqta) boshqaruvchisi, nizomga keltirib turuvchi Xoliq (Kull) ham So'z.

Tasavvufga ko'ra to'rt sadaf: tuproq, havo, suv, o't inson tanasining tarkibiy qismlari. Bu tan ro'zg'orining Me'mori shu unsurlar orasida qanchalik tabiiy ziddiyatlar bo'lmasin, undan Gavda (saroyini) yaratdi.

O'yla taodulki bo'lib to'rt zid,
 Borchta tarakkub yuzidin mutahid.

("Bu to'rt bir-biriga zid narsalar o'zaro shunday tenglashdilar, ularning qo'shilishidan bir butunlik yuzaga keldi"). Xullas, bu tuproqdan yaralgan jussa (tana) mana shu So'z ("Kun") tufayli ijod bo'lgan xoliqning iste'dodini namoyon qiluvchi to'rt sadaf gavharidir.

Bu to'rt unurni himoyalab turuvchi durj (badan) ham, tan mamlakatini yashnatib turgan ham So'z (ruh, jon, nur)dir.

Jon o'lub ul, ruh aning qolibi,
 Kim tanda ruh aning tolibi.

Demak, jon (nur) ning qolipi – ruh (juz')dir. Kimniki tanasida ana shu ruh – xamirturush bor ekan, o'z aslini, o'z naslini anglash, ilk mabda'ni tanish uchun Xoliq (Kull)qa tolib (juz') xalifadir.

Bu tolib (juz')ning jilvagohi (harimi) ko'ngil qutisidir. Ana shu bo'lak (juz') saqlangani uchun ham Ko'ngil tasavvufda Ka'badan ortiq qo'yiladi:

Borchta ko'ngil burji aro javhar ul,
 Borchta og'iz xuqqasida gavhar ul.

Komil insonning ko'ngil durjidagi javhar (so'z, juz') og'iz huqqasida ma'nili kalomlarga aylanadi. Bu ruh (juz')ning so'z – ruhga aylanish hodisasidir.

O'n sakkiz ming olamdagi hayotning boshi ham so'z, ya'ni Ruhi a'zamdir. Odam Atoni xalq qiluvchi ijodkori ham shu ilk so'z ("Kun") – Xoliqdir:

Dahri muqayyad bila ozodasi,
 Borchta erur "kof" ila "nun" zodasi.
 Chunki mavjud bo'ldi nuqtayi "Kun",
 Bo'ldi mavjud toza, yo'qsa kuhun....

Shu ilk sado – volidai kalom tufayli Safiyulloh jussasida harakat yuzaga kelgan.

So'z ("Kun") din o'lukning tanida ruhi pok,
 Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.

O'z xilofat (xalifa)lik a'molini o'tab bo'lgan badan (to'rt gavhar)dan jon (juz')ni Hazrat Jabroil orqali yo'qlab chaqirib oluvchi ham so'z, Yaratganning irodasidir, qadar va qazodir....

Shu tufayli inson bu olam uyida So'z (riyozat, kuyish) tortib o'z asliga munosib, loyiq bo'lish uchun Kamolot kasb etmog'i darkor:

Bordur umidimki, bu so'zi fano,
 Borchta kuyganga baqo bergay yano...

Riyoza chekib foniyyash bo'lgan kishi yangitdan tug'ilgandek baqolikda tiriladi.

Tangriki insonni qilib ganji roz,
 So'z bila xavf ondin anga imtiyoz.

Shu bois Insonni sirlar xazinasiga aylantirgan Tangri So'z (ruh, jon) orqali odamga ikki imtiyoz berdi. Biri so'z (riyozat) ilk mabda'ga bo'lgan intilish, inson ruhidagi azaliy pinhon bo'lgan abadiy tiriklik talabi. Ikkinchisi – xavf, ogohlik, xushyorlik va mabda'i Nurga yaqinlik. O'zini ilk zoti va sifotiga yaqin ko'rish hissi va imtiyozi, intilishi.

So'zning mana shunday Buyukligini tushunib yetgan Komil inson uchun jahon bahri (Xudo tajallisi, majoziy olam)dagi eng mukarram va durdona ekanligini qalban va aqlan his etadi.

Bu Kamolot yo'li tasavvufda irfoniy bilimlar orqali egallanadi.

Donavu dur so'zni afsona bil,
 So'zni jahon bahrada durdona bil.

Demak, olamning ibtidosi ham, intihosi ham So'z ekan:

Avvalu oxiringga solg'il ko'z,
 Bil ham avval so'zu ham oxir so'z...
 So'z (Kull) kelib avvalu jahon ("Kun") so'ngra,
 Ne jahon, kavv ila makon so'ngra...

"So'z avval, jahon esa keyin yaraldi. Nafaqat jahon balki, borliq va makon ham so'ngra paydo bo'ldilar". Shuning uchun:

Angla So'zni nuqtayi tavhid,
 Vahdat ahlida yo'q anga tardid.

"Eng avval So'zni tavhid (Mabda', birlamchi manba) deb bil, chunki vahdat (olamni yagona deb tushunuvchilar) ahlida bunday qarashga ikkilanish (shak) yo'qdir".

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,
 So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.
 Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
 Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Demakki, ruboiyda ta'kidlanganidek, tan (o'luk)ga jon (ruh)dan nishon beruvchi ham So'z (juz')dir. Jon (inson)ga jonon (jonlarning joni, Kull)dan ham xabar keltiruvchi ham So'z (pargola, kasrat)dir. So'z (nutq, komil ong va tafakkur) Odamni hayvon (ongsiz)dan farqlovchi oliy imtiyoz. Shu ma'noda Inson uchun bu olamda So'z (juz')dan-da ortiq gavhari sharif (Buyuk Kull) yo'qdir.

Adabiyotda So'z – Kull, amr ("Kun"), volidai kalom, nur, juz', jon, ruh, riyozat (kuyish), nutq, so'z boyligi, nuqtayi tavhid kabi ma'nolarda istifoda etiladi.



TILSHUNOSLIK



Umidjon YIGITALIYEV,
Qo'qon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

LISONIY MUAMMOLARNI TADQIQ QILISHDA ANTROPOSENTRIK PARADIGMANING O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada antroposentrik tilshunoslik aspektida tushuncha, konsept, so'z va so'z ma'nolarining leksik-semantik, onto-gnoseologik va kognitiv xususiyatlari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: *tushuncha, konsept, so'z, so'z ma'nosi, kognitiv tahlil.*

Аннотация: в статье рассматриваются лексико-семантические, онтогносеологические и когнитивные свойства понятий, терминов, слов и лексических значений с точки зрения антропоцентрической лингвистики.

Ключевые слова: *понятие, концепт, слово, значение слова, когнитивный анализ.*

Annotation: the article examines the lexical-semantic, ontognoseological and cognitive properties of concepts, terms, words and lexical meanings from the point of view of anthropocentric linguistics.

Key words: *concept, concept, word, word meaning, cognitive analysis.*

Antroposentrik tilshunoslikda eng dolzarb ilmiy muammolardan biri *tushuncha*, *so'z* va *so'z ma'nolarin*ing o'ziga xos tabiatini ochib berish sanaladi.

Ma'lumki, *tushuncha* mantiq kategoriyalaridan biridir [1:25]. Tushuncha obyektiv borliqning umumiy tomonlarining aks ettiradi. Tushuncha tafakkurning asosiy bir shakli hisoblanadi. Tafakkur uch shaklda: "tushuncha", "muhokama" va "xulosa" shakllarida o'z ifodasini topadi[1:29]. *Tushuncha* predmet va voqealarning umumiy tomonlari hamda muhim belgilarini ifodalaydi. *Muhokama* predmet va voqea-hodisalarining tasdiq yo inkor shaklida o'zaro aloqa va munosabatlarini ko'rsatadi. *Xulosa* ham fikrlash jarayoni bo'lib, bir yoki bir necha muhokamadan yangi bir muhokamaga kelish demakdir.

Ilmiy bilish tushunchasi esa faqat insonga xos bo'lgan jarayon bo'lib, u inson tomonidan jonli tabiatga ham, jonsiz tabiat – *olamga* ham birdek qo'llaniladi. Ilmiy bilish bilim orqali ro'yobga chiqadi. Tilshunoslik fanida konsept va konseptual tahlil masalasi deyilganda, lingvokognitologiyaning o'rganish muammosi tushuniladi. Ilmiy adabiyotlarda kognitiv tilshunoslik muammosining bosh vazifasi "insondagi bilim, uning idrok qilinishi, xotirada saqlanishi va uni uzatishning til orqali qanday ifodalanishini tadqiq qilishdan iborat"ligi alohida

ta'kidlanadi. Bundan anglashiladiki, tashqi olamni va voqelikni aks ettirish vazifasini dastlab tafakkur bajaradi, undan so'ng u tilda o'z in'ikosini topadi.

Kognitiv tilshunoslik zamonaviy mustaqil fan sifatida kognitologiya fanidan ajrab chiqdi va uning asosiy vazifasi "idrok faoliyati haqidagi axborotni olishdir". Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi inson tomonidan tilni o'zlashtirish mexanizmlarining tarkibini sistemaviy tasvirlash va tushuntirishdan iboratdir. Kognitiv tilshunoslikning boshqa kognitiv fanlardan farqi uning tadqiqot obyektidadir. Kognitiv tilshunoslik tadqiqot obyekti til materiallari yoki lisoniy tizim va uning semantik-funksional tomoni bo'lib, u ongli bilishni til materiallari asosida o'rganadi va o'z metodlariga egadir. Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy strukturalarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi mexanizmlarga bog'liq metod va vositalar tadqiqi asosiy o'rinni egallaydi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik jahondagi yetakchi ilmiy markazlarda o'rganilmoqda va shu bilan birga unga bo'lgan yondashuvlar ham turlichadir. Turli yo'nalishlar, avvalo, konseptlarni o'rganishda har xil metodik usullarni qo'llashda namoyon bo'ladi.

A.Mityayevaning qayd etishicha, rus kognitiv tilshunosligida ikki asosiy yo'nalish ajratib ko'rsatiladi: *lingvokognitiv* va *lingvomadaniy*.

Lingvomadaniy yondashuv milliy konseptosferaning madaniyatdan ong tomonga bo'lgan yo'nalishini o'rganadi. Bu yo'nalishda izlanishlar olib borgan olimlar qatoriga Y.S. Stepanov, V.I. Karasik, V.A. Maslova va boshqalar kiradi. Bu yo'nalishda konseptlar madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, obrazli, pragmatik va stilistik hodisa sifatida o'rganiladi[1:34].

Lingvokognitiv yo'nalishda konseptni ijtimoiy ong tushunchalari birligi sifatida qarash hamda uni markaziy va periferik qismlarga bo'lib o'rganish mavjud. Bunday qarash E.Kubryakova, Z.Popova, I.Sternin va boshqalarning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi [1:14].

Ma'lumki, oxirgi yillarda inson tafakkuri va milliy madaniyat borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Millatning ijtimoiy turmush tarzi, milliy mentalitet, milliy madaniyatlarning o'xshashligi hamda madaniy globallashuv muammosiga qaratilgan diqqat-e'tibor zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda fan, madaniyat, san'at, sport, ijtimoiy fanlarning rivojlanishi sabablidir. Yuqorida sanab o'tilgan jarayonlarning kelib chiqishiga asos bo'ladigan muammolar asosida ko'pincha konseptlarning strukturasi va tabiatini hamda milliy konseptosferalarning o'zaro munosabatlari muammosini o'rganish yotadi.

Oxirgi o'n yillik ichida filologiya fanida **konsept** eng keng tarqalgan terminlardan hisoblanadi. Konsept nafaqat tilshunoslik termini hisoblanadi, balki u adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa va madaniyatshunoslik kabi fan sohalarida ham o'z aksini topgan. Ushbu termin keng tarqalganiga qaramay, u hozirgacha aniq bir ta'rifga ega emas va shu bilan birga fanning turli sohalarida turlicha ta'riflanadi. "Konsept – tafakkur kategoriyasi bo'lib, o'ziga xos murakkab qurilishga ega"[1:28].

Ma'lum bo'ladiki, "tushuncha", "so'zning leksik ma'nosi" va "konsept" terminlari ma'no jihatdan bir-biriga juda yaqin. Biroq bugungi kunda bu atamalar har xil ma'noda ishlatiladi.

V.Demyankovning fikricha, tushuncha konseptdan farqli o'laroq, tafakkurning mantiqiy shakllaridan biri hisoblanib, insonlar uning yordamida voqelikni anglaydilar[1:14].

Fanda konsept muammosi ilk bor rus faylasufi S.A.Askoldev-Alekseyevning 1928-yilda chop etilgan "Konsept va so'z" maqolasida atroflicha

yoritib berilgan. Olimning fikricha, konsept tafakkur hodisasi bo'lib, u fikrlash jarayonida ayni bir turdagi ko'plab predmetlar, xatti-harakatlar, tafakkur funksiyalarini ifodalaydi. Uning ushbu xulosalari ancha vaqt davomida nazardan chetda qolgan bo'lsa-da, hozirgi davrga kelib ahamiyat kasb etmoqda.

Konsept bizning fikrimizcha, inson o'rganayotgan obyektning butun borliqdagi ko'rinishlaridir.

V.Bolotov o'zining "A.A. Potebnya va kognitiv tilshunoslik" maqolasida konseptning doimo shaxs tushunchasi bilan bog'liqligi va ayni paytda konsept mundarijasida leksik ma'noga xos *intellektual, hissiy, estetik* axborotni olishi, terminga xos *ensiklopedik* axborotni ham qamrab olishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi.

Z.Popova va I.Sterninlarning fikricha[1:12], konseptlar o'zining mental xususiyatidan kelib chiqib, *individual, guruh* va *umummilliy* kabi turlarga ajratiladi. Struktural tabiati bo'yicha esa *sxema, tushuncha, freym* kabilarga ajratib o'rganiladi. Konsept nafaqat tafakkur birligi, shuningdek, lisoniy voqelanish xususiyatiga ham ega. Bunda u *leksema, frazeologik birliklar, sintaktik konstruksiya* va *matn* orqali ifodalanadi.

Ma'lum bo'ladiki, konseptlar inson ongida borliqni bevosita sezgi organlari orqali idrok etish, insonning amaliy faoliyati, eksperimental-bilish va nazariy bilish (ilmiy) faoliyati, tafakkur jarayoni – verbal va noverbal faoliyatlar asosida vujudga keladi.

Ba'zi bir tadqiqotchilar konseptni guruhlariga ajratishni taklif qiladilar. Olimlar mental va verbal ifodalangan konseptlarning turli xillarini ko'rsatadilar. Ulardan asosiylari – "sxema", "freym", "ssenariy", "geshtalt" va boshqalardir[2:24]. Bular kognitologiyaning aniq tizimga ega birliklaridir.

Hozirda o'zbek tilida muayyan konseptlarning til sathlarida ifodalanishi masalasiga kognitiv yondashuv muammosiga bag'ishlangan monografik tadqiqot deyarli yo'q. Bu muammoning to'laqonli tadqiq etilishi til hodisalari ortida yashiringan kognitiv mexanizmlar mohiyatini chuqurroq ochib berishga yaqindan yordam beradi.

Mazkur ilmiy axborotda biz konseptga N.Boldirev va E.Kubryakovalar tomonidan berilgan: “Konsept – inson tafakkurining tez harakatchan birligi yoki tizimli bilim kvanti”[2:18], – ta’rifiga suyardik. Negaki, konsept insonning tashqi olamni idrok etishida faol harakatlanib, uning ongida mental ravishda namoyon bo’ladigan birlikdir.

Konsept masalasi o’rganilar ekan, eng avvalo, *konsept*, *tushuncha* va *ma’no* terminlarini bir-biridan farqlash lozim. Lisoniy tizimda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til egasi, ya’ni inson, boshqacha aytganda, “shaxs”ni tadqiq etish, o’rganish jarayonlari bilan bog’liqligi tilshunoslar tomonidan ta’kidlab o’tilgan[1:13].

V.Maslova “konsept”, “tushuncha” va “ma’no” terminlarini bir-biridan farqlash masalasiga doir ko’plab ilmiy qarashlarni tahlil qilar ekan, ular orasidagi tafovutni quyidagicha izohlaydi: “... ma’no lingvistik tadqiqotlarda periferiyaga o’tib, o’z o’rnini konseptga bo’shatib beradi” [2:22].

Z.Popova va I.Sterninlar *konsept – til – ma’no* munosabatini quyidagicha izohlaydilar: “Konsept – inson ongiga tegishli bo’lgan tafakkur faoliyatining global birligi; til – inson ongi, uning konseptosferasi, konsept mazmuni va strukturasiga kirib boruvchi vositalardan biri bo’lgan tafakkur birligi sifatida namoyon bo’ladi. Til birliklari ma’nolarining yig’indisi tilning semantik maydonini hosil qiladi. Konsept konseptosfera birligi bo’lsa, ma’no tilning semantik birligidir. Ma’no – lisoniy ong elementi, konsept kognitiv tafakkur bo’lagidir. Konsept va ma’no teng qiymatli kognitiv va tafakkur hodisalaridir. Ma’no kommunikatsiya maqsadida tilga biriktirilgan tafakkur birligi sifatida konseptning bir qismini tashkil qiladi” [1:28].

So’z tafakkurning bir shakli bo’lgan tushunchani ifodalaydi. Masalan, *drama* so’zi bir

tushunchani ifodalasa, “*Drama adabiy janrlardan hisoblanadi*”, “*Ishq boshqa, havas boshqa, bu yo’lda xato qilma*”, – degan gaplar muhokamani, nisbiy tugal fikrni bildiradi.

So’z tildagi asosiy butunlik sanaladi. Bu butunlik esa, o’z funksiyasini grammatik shakllanishi natijasida bajaradi. Masalan, *Bugungi ishni ertaga qo’yma* degan maqoldagi so’zlar muayyan tartibda va talab qilingan grammatik shakllar (*-ga, -ni, -ga, -ma*) bilan qo’llanmaganda edi (*bugun, ish, erta, qo’y* tarzida), fikr ro’yobga chiqmay, maqsad anglashilmay qolar edi. Shuning uchun har bir so’z bir-biri bilan bog’langan ma’no va shakllar sistemasini o’zida aks ettiradi. So’zning leksik va grammatik tomonlari bir-biri bilan uzviy bog’liqdir.

Umuman olganda, so’z ma’nosi so’z tuzilishida alohida bir soha sifatida o’rganiladi. So’z ma’nosi, bir tomondan, so’z tadqiqi muammosiga, ikkinchidan, til va tafakkurning o’zaro munosabati masalasiga tegishlidir.

So’z ma’nosi – predmet, voqea-hodisalar yoki ular orasidagi munosabatning kishi ongida aks etishidir. So’z ma’nosi so’zning tovush tomoni bilan hamisha birga yashaydi.

Demak, xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, *so’zning leksik ma’nosi* va *konsept* tafakkur va kognitiv xususiyat bilan bog’liq hodisa bo’lib, ongda borliqning aks etishi natijasidir. Biroq *konsept* kognitiv ong mahsuli bo’lsa, *so’zning leksik ma’nosi* lisoniy ong mahsulidir. Konsept bilan so’zning leksik ma’nosi o’rtasidagi farq shundaki, konsept konseptosfera birligi hisoblansa, so’zning leksik ma’nosi tilning semantik maydoni birligidir. Konseptning mohiyati kengroq bo’lib, u o’zida faqatgina ma’no komponentlarini emas, inson hayotiy tajribasida orttirilgan bilimlarni, ongdagi axborot yig’indisi, u yoki bu predmet yoki hodisa haqidagi ensiklopedik bilimlarni ham jamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yigitaliyev U.S. O’zbek tilida konseptning assotsiativ-verbal tadqiqi (monografiya). – Toshkent, 2023. 130-b.
2. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. – Тамбов, ФГБОУ ВПО “Тамбовский государственный университет имени Г.Р.Державина”, 2014. – С.16.
3. Скребцова Т.Г. Когнитивная лингвистика. – Санкт-Петербург: Филологический факультет СПб ГУ, 2011. – С.147.

Muattarxon ISMOILOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası PhD
E-mail: s42813275@gmail.ru

QARASHLILIK/TEGISHLILIKNI IFODALOVCHI VOSITALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: egalik qo'shimchasining bosh kelishikdagi so'z bilan bog'lanishda ishlatilishi murakkab hodisa bo'lib, shulardan biri shaklan qaratuvchi-qaralmish konstruksiyasiga, mazmunan esa izohlovchi-izohlanmish konstruksiyasiga o'xshab ketadigan sintaktik birliklardir: "Gulbargi xandonim kelur" ashulasini; armiya tanklari, targ'ibot ishlari, beton zavodi, nasos stansiyasi, ko'klam kezidagi, ayol toifasi kabi. Izohlovchi-qaralmish qurilishda faqat III shaxs egalik affiksi ishlatiladi, egalik qo'shimchasini ishlatish zaruriy bo'ladi, ba'zan egalik affiksi qo'llanadi. Masalan, Muqimiy teatri, Navoiy ko'chasi kabi birikmalarda egalik qo'shimchasini ishlatish talab etiladi, ammo Toshkent shahri deb ham, Toshkent shahar deb ham ishlatish uchraydi.

Kalit so'zlar: izohlovchi, qaralmish, kelishik, egalik, qo'shimcha, tegishlilik.

Аннотация: использование притяжательного суффикса в сочетании со словом в главном предложении представляет собой сложное явление, одним из которых являются синтаксические единицы, которые по форме напоминают референциально-отнесенную конструкцию, а по содержанию — пояснительно-изъясненную: песня "Гулбарги хандоним келур"; армейские танки, пропагандистские работы, бетонный завод, насосная станция, родник кези, женский родник. В пояснительно-отнесенной конструкции используется только притяжательный аффикс третьего лица, использование притяжательного суффикса обязательно, иногда используется притяжательный аффикс. Например, в таких сочетаниях, как Мукиймий Театр, Улица Навои, использование притяжательного суффикса обязательно, но используются как город Ташкент, так и город Ташкент.

Ключевые слова: пояснительный, ссылка, союз, притяжательность, суффикс, принадлежность.

Annotation: the use of the possessive suffix in conjunction with a consonant is a complex phenomenon, one of which is the syntactic units that resemble the referential-referenced construction in form and the explanatory-explained construction in content: the song "Gulbargi khandanim kelur"; army tanks, propaganda work, concrete plant, pump station, spring season, female category, etc. In the explanatory-referenced construction, only the third person possessive affix is used, the use of the possessive suffix is required, and sometimes the possessive affix is used. For example, in such compounds as Mukimiy Theater, Navoi Street, the use of the possessive suffix is required, but both Tashkent city and Tashkent city are used.

Key words: explanatory, reference, agreement, possession, suffix, belonging.

Izohlovchi-qaralmish qurilmasiga o'xshab ketadigan, asli ta'kid ma'nosini ifodalashga xizmat qiladigan qurilmalar ham mavjud. Bular da ikkinchi a'zo egalik qo'shimchasini olib keladi. Ana shu egalik qo'shimchasi bosh kelishikdagi birinchi a'zodan anglashiladigan shaxs-son ma'nosiga monand holda qo'shiladi: Biz hammamiz javobgarmiz; Ular barchasi dalaga chiqib ishlayapti. Siz o'zingiz o'ylab ko'ring-a kabi. Ko'rinadiki, bunday qurilishli birikmalarda birinchi a'zo kishilik olmoshi bilan, ikkinchi a'zo esa o'z, barcha, hamma kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Bu turdagi qurilishlarda birinchi a'zoni qaratqich kelishigida (belgisiz shaklida) deb yanglish talqin qilish mumkin: sizning o'zingiz, ularning barchasi kabi. Bu fikr mazkur qurilishli birikmada ikkinchi a'zoga egalik qo'shimchasi qaratuvchi vazifasidagi so'z tufayli qo'shiladi deb o'ylash natijasida paydo

bo'ladi. Aslida bunday negizga egalik qo'shimchasi qaratuvchi vazifasidagi so'z bo'lmasa ham qo'shilaveradi: egalik qo'shimchasining shaxs-sonini belgilab turuvchi negiz qaratqich kelishigida bo'lishi, umuman shunday negizning qatnashuvi shart emas: Uning o'ziga o'xshash. U o'ziga yaxshi qilmadi. O'zing olib ketarsan kabi.

Ikkinchi a'zodan qarashlilik ma'nosi emas, ta'kid ma'nosi anglashilsa, birinchi a'zo bosh kelishikda deb, qarashlilik ma'nosi anglashilsa, qaratqich kelishigida deb hukm chiqarish lozim. Bunda qaratqich kelishigi belgili shaklda bo'ladi. Demak, -ning qo'shilsa, qaratqich kelishigi, qo'shilmasa, bosh kelishik kelgan bo'ladi: ota-onalarning barchasi – ota-onalar barchasi kabi. Qarashlilik/tegishlilik shakllarining uslubiy qo'llanishi, xususan, takror qo'llanish holati o'ziga xos ma'no kasb etadi. Masalan, Erkin Vohidov

o'zining mashhur "Azganush" (Arman qiziga) she'rida takrorning o'ziga xos bir ko'rinishidan juda o'rinli foydalangan. Bunda har bir baytning oxirida Azganush, hoy, Azganushim, Azganushjon, Azganush so'zlari takrorlanib keladi. Har bir bayt oxirida bu so'zlarning o'zni almashtirilgan holda takrorlanadi: egalik (Azganushim), erkalash (Azganushjon) qo'shimchalarini olgan so'zlar o'zni almashtirilgan holda qo'llanadi. Shuningdek, hoy undov so'zining qo'llanish o'zni ham o'zgartirilgan holda takrorlanadi: Azganushim, Azganushjon, Azganush, hoy, Azganush kabi. Bu narsa she'rning o'ynoqiliginigina ta'minlab qolmasdan, murojaatning turlicha ko'rinishini ham ifodalagan, ta'sirchanligini oshirgan. Ya'ni bir o'rinda shoir Azganush deb murojaat qilsa, ikkinchi o'rinda uni tamomila o'ziga yaqin olib Azganushim deb murojaat qilyapti. Uchinchi holatda esa, Azganushjon deb murojaat qilyapti. Ko'rinadiki, erkalash-suyish, hazil-mutoyiba kabilarning hammasi ana shunday takror orqali qiyomiga yetkazilgan.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ba'zi hollarda o'rtamiyona, bosh-oyoq sarpo, handon otib kuldi, Men o'zim boraman, bizlar, birisi, singlisi yoki Shahrisabz kabi ko'pgina qo'llanishlarda ortiqchalik, qo'sh qo'llash bordek seziladi. Biroq sinchiklab kuzatsak, bunday qo'llanishlarda ham, aslida, tasviriylilik borligini ko'ramiz. Jumladan, birisi so'zidagi -si qo'shimchasi ana shunday kuchaytiruvchi, tasviriylilikni ta'minlovchi qo'shimcha bo'lib, undan oldingi -i qo'shimchasi esa egalikni ifodalagan. O'zbek tilida keng qo'llanuvchi opamlar-opalarim, akamlar-akalarim; bormab edimmi-bormabmi edim, aytmaganmidim-aytmaganmi edim-aytmagan edimmi, oq paxta-oppoq paxta, non-pon, choy-poy, ayting-aytingiz-aytingizlar, o'tiring-o'tiringlar tarzidagi juda ko'p holatlar ham til birliklari imkoniyatlarining namoyon bo'lishidir. Mualliflar bu holatni ham qarashlilik qo'shimchasining uslubiy qo'llanishi sifatida baholashadi.

Otlarning ko'plik qo'shimchasi -larni ola olish yoki ola olmasligi, bu qo'shimchani olgan so'zlarning ma'no nozikligi, egalik, tegishlilik tushunchasining

qabatlanishi, kelishik qo'shimchalarining otlarda saqlanishi yoki tushib qolishi, bu kategoriyalarning uyushiq bo'lakli gaplarda uyushiq bo'laklardagi ma'no nozikliklarini aniqlash grammatika bilan birga stilistikaning ham vazifasidir.

Qaratqich I-II shaxs kishilik olmoshlari hamda o'zlik olmoshi bilan ifodalansa, qaralmishda shaxs ko'rsatuvchi egalik qo'shimcha saqlansa, qaratqich qo'shimchagina emas, bu qo'shimchani olgan so'z ham tushib qolishi mumkin. Bunday tipdagi birikmalarni bir-biriga sinonim sifatida o'zaro almashtirib ishlatish mumkin: o'zimning uyim // o'z uyim // uyim kabi. Ammo bizning qishloq, bizning Oygul tipidagi qaralmish belgisiz holatda bo'lgan birikmalarda nafaqat qaratqich qo'shimchasini olgan so'zni, hatto qaratqich qo'shimchasini ham tushirib qoldirish mumkin emas. Qaratqich kelishigi qo'shimchasi o'zi qo'shilib kelgan so'z bilan birgalikda konkret xoslik, umuman xoslik, butunning bo'lagi, to'dadan ajratilganlik, o'xshatish, qiyoslash, nomiga qo'yilganlik kabi bir qancha grammatik-semantik ma'nolarni ifodalaydi. U to'dadan ajratilganlik ma'nosini anglatganda, chiqish kelishigi (xuddi shunday ma'no anglatuvchi) qo'shimchasi bilan sinonim bo'ladi: viloyatdagi eng yirik bo'linmalarning biri (bo'linmalardan biri) bo'lmish Shayxontohur tumanining bo'linmasi avvaldanoq umumiy qo'mondonlik ostida mayda guruhlariga bo'linib harakat qilar edi.

Xullas, o'zbek tilida -dan egalik, qarashlilik ma'nosini anglatganda, -niki (bu qo'ylar kimdan // kimniki) morfemasi tegishlilik, o'rin ma'nosini bildirganda, -lik morfemasi bilan (Samarqanddan // samarqandlik); tartib sonlarga qo'shilib, kirish bo'lak vazifasida kelganda, -si morfemasi bilan sinonim bo'ladi. -dan va -si qo'shimchali konstruksiyalar ko'proq so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilishi bilan xarakterlanadi: Ko'klam kelishi bilan bir necha ishlarni amalga oshirish lozim: birinchidan, ariq-zovurlarni qazish, ikkinchidan, toklarni ochish, uchinchidan, o'simliklarning ortiqcha va quruq shoxlarini qirqish // birinchisi, ikkinchisi, uchinchisi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975. 487-bet.
2. Tojiyev N., Xasanova X., Tojimatov O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari (omtabop qo'llanma). – Toshkent, 1994.
3. Файнуллина Р.Г. Семантико-синтаксическая структура possessивных предложений: Автореферат. дисс. канд. филол. наук. – Тверь, 2002. 19 с.
4. Абуханов Г.А. Семантика и синтаксическая функция притяжательных аффиксов в современном казахском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1950. 22 с.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2008. 5- jild. 18-bet.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 3- jild. 417-bet.

Nargis KURBANAZAROVA,
Termiz davlat universiteti dotsenti PhD
E-mail: qurbonazarovan@tersu.uz.

ETNONIMLARGA XOS RAMZIY BELGILARNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada milliy va etnik madaniyatga oid konseptual tushunchalarning tahlili etnonimlarga xos ramziy birliklar vositasida yoritilgan. O'zbek xalqi tarkibidagi qadimiy urug'lardan biri – qo'ng'irotlarga oid ramzlar asosida hosil qilingan etnonimlar maqola obyektini tashkil etadi. Shuningdek, bir qancha tilshunos olimlarning konsept, ramz va totemlar haqidagi fikrlari keltirilib, munosabatlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *etnonim, ramz, totem, konsept, konseptosfera, realiya, milliy realiya, etnik individual.*

Аннотация: в данной статье рассмотрен анализ концептуальных понятий национальной и этнической культуры через символические единицы, присущие этнонимам. Объектом статьи являются этнонимы, образованные на основе символов одного из древнейших родов узбекского народа – кунгратов. Также были процитированы мнения нескольких лингвистов о понятиях, символах и тотемах и выражены отношения.

Ключевые слова: *этноним, символ, тотем, концепт, концептосфера, реалия, национальная реалия, этнический индивидуальность.*

Annotation: this article analyzes the conceptual concepts of national and ethnic culture through symbolic units inherent in ethnonyms. The object of the article is ethnonyms formed on the basis of symbols of one of the oldest clans of the uzbek people – Kungrats. The opinions of several linguists on concepts, symbols, and totems were also cited, and relationships were expressed.

Key words: *ethnonym, symbol, totem, concept, conceptosphere, realy, national realy, ethnic individuality.*

Kirish. Dunyo lingvomadaniyatida olamning lisoniy manzarasini paydo qiluvchi va ayni zamonda turli xalqlar madaniyatini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan shunday tushunchalar ham borki, ular konsept sifatida har bir shaxsning o'z dunyoqarashida shakllanadi. Bunda shaxsning qanday muhitda tug'ilgani va yashayotganligi asos bo'ladi. Tilimizda, turmush-tarzimizda, muomalimizda, kiyinishimizda va yana ko'plab holatlarda ko'zga tashlanadigan va biz madaniyat deb tushunadigan qadriyatlar borki, u har bir xalqda o'ziga xos bo'ladi. Chunki tarixiy bo'linish va shakllanishdan boshlab, bugungi kunimiz, zamonaviy hayotimizgacha bo'lgan davr turli xalqlarda turlicha kechgan. Xalq og'zaki ijodida, tarixiy asarlarda, yozma yodgorliklarda ifodalangan, turli an'analar xalqlarning qanday o'ylashi, nimani to'g'ri deb bilishi, kimni ideal deb hisoblashi kabi tasavvurlar shu xalqning tarixi va ajdodlarining qarashlari bilan bog'liq. Shunga ko'ra lingvomadaniy tushunchalar ham xilma-xildir.

Adabiyotlar tahlili. Konseptlar jamoaviy lisoniy ongda markaziy o'rin tutadi va shuning uchun ularni o'rganish bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda. V.N.Teliya "konsept–bu biz ma'lum bir tanish obyekt haqida bilgan narsalarimiz, deb hisoblaydi. "Konsept" terminini bunday tushunish tilning rolini

ikkinchi qatarga surib yuboradi. Aslida u yordamchi vosita. Konsept ma'lum bir madaniyatga tegishli bo'lgan dunyoqarash va tushunchalar shaklidir.

Konseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida uning ma'naviy mulki madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jamoa ongi konseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi.

Tadqiqotimiz obyekti hisoblangan etnonimlar ham madaniy ma'no tashuvchi vosita sifatida, nomlanishda xalqqa xos madaniy konseptosferalar bilan bog'lanadi. Chunki har qanday nom: antroponim, etnonim, toponim, ergonim kabilardan har qaysisi, tadqiqotimizning avvalgi o'rinlarida aytib o'tganimizdek, o'zida lingvomadaniy ma'no-mazmun ifodalaydi. V.A.Maslovaning ta'biri bilan aytganda, konsept – lingvomadaniy o'ziga xoslik kasb etgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir [7;50-b.].

Tahlil va natijalar. Etnik jihatdan ko'plab etnonimlar, asosan, xalqlar o'rtasidagi qarindoshlik aloqalari, ijtimoiy-madaniy jihatdan o'xshashlik va yaqin tillarda so'zlashuvchi xalqlarning aralashuvi tufayli bir-biriga o'xshash leksik shakllarga kelib qolgan [21;3-b.]. Ammo ayrim o'rinlarda shakliy o'xshashlik

aynan bir xil ma'no-mazmun kasb etmasligi mumkin. Bu xalqning yoki boshqa etnik birlashmaning faqat o'zigagina tegishli assotsiatsiyalar zamirida yuzaga chiqadi.

Misol uchun, *qo'ng'iro't* etnonimi madaniyatlararo tahlilda turli madaniyatlarga xos turli xil ramz va uning mazmuniga asos bo'lgan konseptlarga asoslanishini ko'rishimiz mumkin. *Qarg'a* [13;286-b.], *oqqush* [22;32-33-b.], *quyosh* [5;218-231-b.], *rang-tus ifodalovchi so'z* [11;160-b.], *qo'ng'ir rangli ot* [15;21-b.] kabi bir qancha tushunchalarga asoslanganligi tahmin qilinadigan mazkur etnonim turli xil xalqlar va madaniy semalar bilan bog'liq ravishda o'zgarib qo'llanilgan. Butun insoniyatga xos bo'lgan dunyoqarash qonunlari bilan ramzlarning yashirin ma'nolarini solishtirish, bog'lash, qabila va urug'larning o'ziga xos belgilarini ochish jarayoni keyingi davr tadqiqotlarida an'anaga aylanmoqda. Ramz oddiy so'z sifatida qaralganda, u faqat ideogramma yoki o'xshatish belgisini ifodalaydi. Ammo konseptual jihatdan xalq xotirasida o'z namunasini va barqarorligini saqlab qolgan muhim tushunchadir [18;19-b.]. Turli xildagi etnik birlashmalarning ramzlari ham shu jamoaning asosiy tushunchasi va ba'zi o'rinlarda kodi sifatida nomida – etnonimda ham aks etishi mumkin.

Xususan, mo'g'ullarda harbiy mavqeyi jihatidan juda kuchli sanalgan qo'ng'iro'tlarda qora qarg'a g'alaba, kuch va ziyraklik timsoli sifatida qaralgan. Shundan kelib chiqib, mo'g'ul xalqlari konseptosferasida *qarg'a* ramz – totem asosida shakllangan konsept bo'lib, mo'g'ul milliy madaniyatida muhim, xalqona maqomdagi tushuncha hisoblanadi, deyish mumkin.

Til etnik guruhning eng muhim belgilaridan biri sifatida etnik jamoaning o'zini o'zi anglashini aks ettirganligi sababli, etnonimlar etnik guruhning o'zini o'zi belgilash, nomlash funksiyasini bajaradi. Bu esa aholining ma'lum bir guruhlari, xususan, etnik guruh, subetnik guruh va boshqa kichik mahalliy guruhlarining o'zini o'zi identifikatsiya qilishidan dalolat beradi [4;15-b.]. Demak, har bir etnik guruhning o'zini-o'zi belgilashi, nomlashida, albatta, qandaydir tafakkuriy tushuncha – konseptual asos mavjud bo'ladi. Yuqoridagi Mo'g'ul xalqiga xos nomlash borasidagi xulosa ayrim manbalarda boshqacharoq talqinqa ega.

Bu borada, Abulg'oziy Bahodirxon "*Barcha qo'ng'iro'tlar Cho'rliq merganning nasli turur*" deb bergan ma'lumotida ham [1;38-b.], aynan, Cho'rliqning kuchli mergan bo'lganligi va ziyrakligiga e'tibor qaratadi. Mo'g'ullarda va buryatlarda *qarg'a o'ta*, *qarg'a o'g'il* kabi tushunchalarning paydo bo'lishi

ham Cho'rliq mergan va qarg'a qushiga xos umumiy belgilarning o'xshashligi asos bo'lgan, deb ham xulosa qilish mumkin. Ayrim o'zbek olimlarining xulosalarida, qarg'a mo'g'ul xalqlari uchun totem hisoblanib, topiniluvchi qush ma'nosini anglatadi [10;397-b.]. Bu qarashni ham to'g'ri deb hisoblashimiz mumkin. Zero "...inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo'nalishda o'zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi" [17;25-b.].

Demak, madaniyatga oid biror birtushuncha dastlab ramz sifatida madaniyat vakillarini va dunyoqarashini birlashtiradi, keyinchalik bu madaniy birlashuv umumiy tasavvur – konsept shaklida yuzaga chiqadi. Ramz, asosan, shartli yoki aniq voqea-hodisalar, faqat o'ziga xos iyeroglif vazifasini bajaradigan, ramzlashtirishning qandaydir sirli predmetiga ishora qiluvchi, yoki uning belgisi bo'lib xizmat qiladigan ramziy xususiyatga ega bo'lgan belgidir [16;8-9-b.].

Shuningdek, ramzlarning vujudga kelishi totemistik qarashlar va tasavvurlar bilan bog'liq ekanligini ham ta'kidlash lozim. Totemlar – ibtidoiy urug', qabilalarda diniy hurmat-ehtirom obyekti bo'lgan, ya'ni ilohiylashtirilgan hayvon, o'simlik, biror narsa-buyum yoki tabiat hodisasi (har bir urug', qabila o'z totemi nomi bilan atalgan) [23]. Totem va totemizm qadimgi xalqlar hayoti, turmush tarzining bir bo'lagi bo'lgan. Insonlar qushlar, hayvonlar va boshqa buyum jonivorlarni ilohiy deya hisoblashgan hamda ularga sig'inishgan. Turkiy xalqlar hayotida bo'ri, qarg'a, boyo'g'li kabi hayvon va qushlar totemlarni tashkil etgan. Ularni ulug'lab, sig'inish bilan bir qatorda insonlarga totemlar bilan bog'liq ismlar qo'yish, ba'zi xalqlar, qabilalar esa o'zlarini totemlarning avlodlari hisoblab ularning nomlari bilan o'zlarini atay boshlashgan. Faqat jonivor va qushlar emas, balki tabiat hodisalari ham totem hisoblanadi. Totemlar asosida vujudga kelgan etnonimlar: *avjin*, *buqa*, *baxrin*, *uyshin*, *ilonli*, *kaltatoy*, *kiyikchi*, *qarg'a*, *tulki*, *qoraqush*, *qoralochin*, *boybo'ri* [8;74-b.]. va boshqalar.

Shu kabi ma'lumotlar G.I.Karpovning tadqiqotlarida ham aks etgan bo'lib, olim totemik tushunchalar bilan bog'liq etnonimlarni quyidagicha tarkibiy qismlarga ajratadi:

a) hayvon nomlari bilan bog'langan etnonimlar: *buqa*, *sigir*, *it*, *tuya*, *qo'chqor*, *quyon*, *bo'ri*, *shoqol*, *qoplon*, *eshak*, *ayiq*, *sher*, *ot*, *echki* va boshqalar; b) qushlar, sudralib yuruvchilar, hasharotlar nomlari bilan

bog'langan etnonimlar: *qarg'a, g'oz, tovuq, kaklik, kalxat, laylak, ilon, toshbaqa, chumoli* va boshqalar; v) o'simlik nomlari bilan bog'langan etnonimlar: *tariq, sabzi*; d) samoviy jismlar nomlari bilan bog'liq etnonimlar: *quyosh, oy*.

Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqqan holda, qadimgi buriatlarda *oqqush* totemiga nisbatan kuchli hurmat va ishonch etnik qabila nomiga asos bo'lgan deb hisoblanadi. Buriatlarning totemistik qarashlarida, xalqining bir qabilasi *oqqush* avlodi deb ham qaraladi. Oqqushga xos asosiy xususiyat sifatida oliyjanoblikni e'tirof etib, ushbu parrandani oliyjanoblikning ramzi sifatida biladilar. Mazkur qabila *xun – shubuun* (*"odam – qush"*) deb nomlanib, *"xuasay"* nomli qabilaga tegishli. Ular oqqush onalari ekanligiga ishonishadi va har yili o'tkaziladigan shamanlik ibodatlarida quyidagi iborani qo'llashadi: *"bizning onamiz – muqaddas qush – oqqush"* [24]. Ko'rinadiki, buriatlarning *xun – shubuun* qabilasining madaniy konseptosferasida asosiy insoniy sifat deb oliyjanoblik baholanadi. Va ayni shu konsept oqqush ramzi orqali ifodalanadi. Bu qarashlar esa buriatlar milliy madaniyatiga oid totemistik va ramziy tasavvurlarga asoslanib, qo'ng'iro't etnonimini aynan oqqush semasi bilan bog'liq deb hisoblaydilar, degan xulosaga olib keladi.

Qo'ng'iro't etnonimini *qo'ng'ir rangli ot* bilan bog'liq deb hisoblaydigan ko'plab tadqiqotchilar, asosan, qo'ng'iro'tlarni turkiy qavmlarga oid qabila sifatida e'tirof etadilar. Ot azaldan insonlarga astoydil xizmat qilib kelgan hayvon hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariyning ta'biri bilan aytganda, ot turkning qanotidir [6].

O'zbek urug'lari nomlari (etnonimlar)ning o'ziga xos kelib chiqishi tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar eng qadimiydir. Ular majusiylar davrida paydo bo'lgan. Urug'larning muqaddas hayvonlari (totemi) bo'lib, kishilar o'zlarini shu hayvonlardan tarqalgan, – deb hisoblagan, *jilondi (ilonli), jilontamg'ali (ilontamg'ali), qulon, oqbura, qorabura, qarg'a, shag'al (shaqal-chiyabo'ri), echki, xo'kiz* etnonimlari shular jumlasidandir. Hayvon nomlari bilan atalgan etnonimlar ba'zan shu urug' ajdodining laqabi ham bo'lishi mumkin [2].

Ot turkiy qabilalarda totem jonivorlardan biri hisoblanadi. Bu jonivor odamning sodiq do'sti, vafodori, og'ir ishlarda madadkori, safarlarda va jang-u jadallarda hamrohi hisoblanadi.

Ot tasviri tushirilgan kashtalarning yashash uylariga ilib qo'yilishi, uylarning tom qismiga ot,

eshiklardagi taqa shaklidagi temirlarning qoqilishi bunga misoldir. O'zbek qo'ng'iro'tlarida yangi uyga ko'chib kirishda hovli darvozasiga otning taqasiga o'xshash tamg'aning qoqilishi ham aynan ramziy belgi bilan bog'liq. Mazkur tamg'a milliy ramz sifatida mustahkamlik, boy-badavlatlik konseptlarini ifodalash, yoritish uchun xizmat qilgan.

Yakunda ot konsepti turkiy xalqlar, xususan, o'zbek xalqining ham milliy tasavvur va dunyoqarashida muhim tushuncha sifatida saqlangan.

Qo'ng'iro'tlarning asosiy tamg'asi **П** (*bo'sag'a*) bo'lib (V.V.Vostrov va R.G.Kuzeyevning bergan ma'lumotlariga ko'ra, 1968), ayrim hollarda *yarim oy* ko'rinishidagi belgi ham asosiy tamg'a rolini o'ynagan [12;21-b.].

Xulosa va takliflar. Qo'ng'iro'tlarga xos tamg'a shakli deb qaralgan yarim oy belgisining berilishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarixdan ma'lumki, tosh asridan buyon odamlar tabiiy ofatlar bilan tez-tez to'qnashib turganlar. Ibtidoiy odamlarning tabiiy hodisalar (zilzila, vulqon, chaqmoq sel va hokazolar) oldida ojiz bo'lishi ularda g'ayritabiiy kuchlarga, turli o'simlik va hayvonlarga, tog'-u toshlarga, quyosh, oy, yulduzlar va boshqa narsalarga sig'inishni keltirib chiqargan. Ibtidoiy odamlar o'zlari sig'ingan o'simlik, hayvon, ruhlar, samoviy jismlar va tog'-tohlarni o'z urug'ining himoyachisi, homiysi deb bilganlar. Vaqti kelib o'z shaharlari, davlatlari, yoki qabila ittifoqlariga asos solganlarida unga o'zi e'tiqod qiluvchi, sig'inuvchi jism yoki narsalar nomlarini qo'yganlar [19;20-b.]. Umuman, insonda tafakkuriy tushunchalarning rivojlanishi, atrofdagi voqea-hodisalarga o'z tasavvurlari bilan munosabat bildirishi asnosida yangi oyni yangilik, kuch-qudrat timsoli sifatida baholaganlar. Keyinchalik shu tasavvur va e'tiqodlar turkiy xalqlar madaniyatida konseptual ahamiyat kasb etgan.

Etnonimlardagi tamg'a shakli har doim ham nomlanayotgan urug' uchun ramz vazifasini bajarmagan. Chunki, yuqorida qayd etganimizdek, ramz xalqning madaniyatidagi eng bo'yoqdor va yuqori nufuzga ega tushunchalar – konseptlarning ifodasi hisoblanadi. Tamg'alar esa etnik jamoa a'zolari tomonidan tanlangan va farqlash tamoyiliga asoslangan belgilar tizimidir. Qachonki tamg'a etnonimning madaniy ramzi tarzida ifodalansagina konsept darajasida namoyon bo'ladi va etnik birlashmaning milliy realiyasini tasvirlaydi. Misol uchun, o'zbek qo'ng'iro'tlari orasida ko'pgina etnonimlar urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan

atalgan, ya'ni har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Masalan, mollarini, otlarini boshqalarnikidan farq qilish uchun tamg'alab qo'yishgan. *Bolg'ali, kosovli, qaychili, taroqli, cho'michli, qirg'ili* kabi urug'larning tamg'alari shaklan ana shu uy-ro'zg'or asboblariga o'xshash bo'lgan [24]. Mazkur etnonimlarga asos bo'lgan tushunchalarning har birida etnik madaniyatga oid ramziy tasvir va konseptual asos mavjud emas.

Agarda oddiy belgi insonga ma'nolarning predmetlar olamiga kirish imkoniyatini bersa, ramz ma'noviy munosabatlarning predmetlar mavjud bo'lmagan olamiga kirish imkoniyatini beradi. Ramzlar orqali bizning ongimizda kishilarni yagona etnomadaniy hamjamiyatga birlashtiradigan madaniyatning eng nozik qirralari ochiladi. Shu ma'no nozikligi etnik jamoa a'zolari konseptosferasida muhim hisoblangan etnik individual madaniyatni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент: “Чўлпон”, 1992.38- 6.
2. Arifbayev A.H., Qorayev S.Q. O'zbek xalqi etnogenezini o'rganishda etnonimlarning roli. <https://shosh.uz/o-zbek-xalqi-etnogenezini-o-rganishda-etnonimlarning-rol/>
3. Блохин И. Н. Журналистика в этнокультурном взаимодействии. СПб., 2013.
4. Григорьева Наталия Евгеньевна. Этнонимы в диалектной лексико-семантической системе (на материале псковских говоров). Афтореф.дисс.канд.филол.наук. – Псков, 2020. С.15.
5. Дугаров Д.С. К проблеме происхождения хонгодоров. //Этническая история нпродов Южной Сибири и Центральной Азии. – Новосибирск, 1993. С. 218-231.
6. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғатит турк. – Тошкент: Фафур Фулом, 2017.
7. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2008. С.50.
8. Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: Филология фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2007.74-б.
9. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний мазараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. 3-12- б.
10. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: “Муҳаррир”, 2009. 397-б.
11. Нанзатов Б.З. Этногенез западных бурят (VI-XIXвв). Иркутск, 2005. С.160.
12. Норбоев Н. 92 бовли ўзбек эли. – Тошкент, 1997 й. 21-б.
13. Очир А. Монгольские этнонимы: вопросы проис хождения и этничского состава монгольских народов/д.и.н. Бакаева Э.П., д.и.н.
14. Орлова К.В. – Элиста: Кигиран, 2016. С. 286.
15. Раҳимов Қ. Қўнғирот. Қарши: Насаф, 2006.
16. Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – Москва: Наука, 2013. С. 8-9.
17. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. — Jizzax ,2006. 25-b.
18. Сейитова Ш.Б. Қазақ этнонимдерининг тарихи-лингвомедени жуйеси. Филол.фан.док.дисс.автореф. – Алматы, 2009. 19-б
19. Умаров И. Ўрта Осиёда туркий халқларининг этногенезиси (қўнғиротлар) 1-китоб. Қарши: “Насаф”, 2003. 20-б.
20. Усманова Х.А. ўзбек лингвомаданиятида рамз тушунчасининг ифодаланиши//”Oriental art and culture” Scientific-methodical journal. Volume 3 Issue 1/March 2022. 722-b.
21. Этнонимы. Сборник статей. Ответственный редактор В.А.Никонов. – Москва: Наука, 1970. С.3
22. Цыденжапов Ш.Р. Тайна Чингисхана. – Улан-Удэ, 1992. С.32-33.
23. [www.https://uz.wiktionary.org](https://uz.wiktionary.org)
24. <https://infourok.ru/prezentaciya-k-issledovatel'skoy-rabote-totemi-buryat> 3428334. [html?ysclid=mbovapcngg77404874](https://infourok.ru/prezentaciya-k-issledovatel'skoy-rabote-totemi-buryat)

Maxfirat XOJIYEVA,
Buxoro davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
m.y.xojieva@buxdu.uz

ANTROPONIMIK TERMINOLOGIYANING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya: zamonaviy tilshunoslikda onomastikaga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarda antroponimlar haqida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, antroponim onomastikaning xuddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi bo'lib, u o'z ichiga aniq birliklarni oladi. Tilshunoslikda antroponimlar majmuyi antroponimiya degan termin bilan yuritiladi. Misol uchun, rus antroponimiyasi yoki o'zbek antroponimiyasi. Antroponimlarni o'rganuvchi lingvistik soha esa antroponimika deb yuritiladi. Onomastikaning bu bo'limi antroponimlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etadi. Antroponimlar bilan shug'ullanuvchi, ya'ni antroponimika mutaxassisi antroponimshunos yoki antroponomist kabi terminlar bilan yuritiladi. Tildagi antroponimlar yig'indisi esa antrokon termini bilan yuritiladi.

Kalit so'zlar: *antroponim, antrokon, antroponimika, antroponimiyasi, apokonim, allonim, kriptonim.*

Аннотация: в современной лингвистике многие исследования, посвященные ономастике, имеют разные взгляды на антропонимы, а антропоним — это языковая единица ономастики, как топоним или зооним, которая включает в себя определенные единицы. В лингвистике совокупность антропонимов обозначается термином антропонимия. Например, русская антропонимия или узбекская антропонимия. Лингвистическая область, изучающая антропонимы, называется антропонимикой. Этот раздел ономастики изучает языковые свойства антропонимов. Человек, который занимается антропонимами, то есть специалист по антропонимам, обозначается такими терминами, как антропонимолог или антропонимист. Совокупность антропонимов в языке обозначается термином антрокон.

Ключевые слова: *антропоним, антрокон, антропонимия, антропонимия, апоконим, аллоним, криптоним.*

Annotation: in modern linguistics, many studies devoted to onomastics have different views on anthroponyms, and an anthroponym is a linguistic unit of onomastics, like a toponym or zoonym, which includes certain units. In linguistics, the set of anthroponyms is designated by the term anthroponymy. For example, Russian anthroponymy or Uzbek anthroponymy. The linguistic field that studies anthroponyms is called anthroponymy. This section of onomastics studies the linguistic properties of anthroponyms. A person who deals with anthroponyms, i.e. a specialist in anthroponyms, is designated by such terms as anthroponymologist or anthroponymist. The totality of anthroponyms in a language is designated by the term anthrocon.

Key words: *anthroponym, anthrocon, anthroponymy, anthroponymy, apocononym, allonym, cryptonym.*

Kirish. Atama va termin o'rtasida har doimgidek har xil yondashuvlar mavjud, ayrim olimlar kundalik turmushimizda qo'llaniladigan so'zlar o'z ma'nosidan yangi ma'no kasb etib, o'z xususiyatini yo'qotib, ma'lum bir soha uchun atama vazifasini bajaradi deb ta'kidlasa, ayrim qarashlarda atamalar xalq tilidan umumiy tilga kiradi degan qarshni ilgari surishadi. Shunday qilib,

atamaning ma'nosini tushunish har doim ham oson emas. Bunday noaniqliklarga yo'l qo'ymaslik uchun terminologiya ko'pincha atamalarni oddiy so'zlardan fonetik, grammatik yoki morfologik jihatdan "chegaralaydi". Narsa va hodisalarning nomlari sifatida yakka holda qo'llanganda ular sof nominativ bo'lib, hosila atamalar hosil bo'lgandan keyingina, tushunchaning umumiyliigi turli

so'zlarning turli nominatsiyalari o'rtasida bog'lovchi bo'lib xizmat qilgandagina funktsiyani oladi. Bugungi kun zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri terminologiya masalasidir. Shu munosabat bilan turli tillarda tipologik terminologiyani o'rganish katta ilmiy qiziqish uyg'otadi. Terminlar nafaqat tilda, balki ma'lum bir terminologiyaning bir qismi sifatida mavjud. O'z navbatida, atamaning tuzilishining o'zi, u bir so'z yoki ibora sifatida taqdim etilishidan qat'iy nazar, boshqa tillarda bir xil atamaning tuzilishidan farq qilishi mumkin.

Onomastika atamasini onomastikaning qaysi sohasiga tegishliligiga ko'ra guruhlash hozirgi davr nomshunoslikdagi turli yo'nalishlarni bilishni va anglashni talab etadi. Bu kabi yo'nalishlar bugungi kun tilshunoslikda alohida o'rganilishni taqozo etadi. Shu singari yo'nalish, sohalar, odatda, tildagi onomastik materialning tiplariga bog'liqdir. Masalan, kishi atoqli otlarining tiplari – antroponimlar, joy nomlarining tiplari – toponimlar, samoviy (kosmik) obyektlarning tiplari – kosmonimlar deb yuritiladi. Ushbu lisoniy materialni tadqiq qiluvchi onomastika yo'nalishlari ham yuzaga kelgan va ularni ifoda qiluvchi ilmiy terminlar uchraydi. Shunga ko'ra, antroponimika terminlari, toponimika terminlari, kosmonimika terminlari, zoonimika terminlari, gidronimika terminlari, etnonimika terminlari kabi tasniflash mumkin. Masalan, o'zbek onomastikasida uchraydigan ism, ot (ism ma'nosida), familiya, otaism, laqab, taxallus, patronim, ismi nisba, antroponim, antroponimiya, antroponimika, ism qo'yish, ism berish, tarixiy ismlar, ismlar ma'nosi, ismlar etnografiyasi singari terminlar onomastikaning antroponimika sohasiga tegishlidir. Shuni ta'kidlash lozimki, onomastika terminlarini sohalar bo'yicha tasniflashning mukammalligi onomastikada uning barcha sohalarining ilmiy yo'nalishlar sifatida qanchalik rivoj topganiga bog'liq. Chunki rivoj topgan sohalarining terminlari miqdoran ko'pligi, funksional jihatdan faolligi bilan xarakterlanadi. Masalan, hozirgi o'zbek onomastikasida keng rivoj topgan yo'nalishlar antroponimika, toponimika, etnonimika, gidronimika bo'lib, ularga mansub bo'lgan ilmiy terminlar o'zbek onomastikasi terminologiyasining asosini tashkil qiladi. Onomastikaga bag'ishlangan barcha ilmiy

izlanishlarda antroponimlar haqida ham so'z boradi. Antroponim – grekcha so'z bo'lib, antro – odam, ya'ni kishilarga qo'yilgan atoqli otlardir. O'zbek tilida bu atama o'rnida ism, kishi ismi, shaxs nomlari kabi atamalar qo'llaniladi.

Asosiy qism. Zamonaviy tilshunoslikda onomastika bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarda antroponimlar haqida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, har bir tadqiqotchi har tomonlama tasnifda ilmiy tadqiqot obyekti sifatida murojaat qilgan. Antroponim ham onomastikaning xuddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi bo'lib, u o'z ichiga aniq birliklarni oladi. Masalan, N.B.Podolskaya antroponim termini xususida fikr bildirar ekan, antroponim tarkibiga ism, ota ismi, familiyasi, laqab taxallus, kriptonom, andronim, ginekonim, patronim[3;10] kabi birliklar kirishini qayd etgan. Tilshunoslikda antroponimlar majmuyi antroponimiya degan termin bilan yuritiladi. Misol uchun, rus antroponimiyasi yoki o'zbek antroponimiyasi. Antroponimlarni o'rganuvchi lingvistik soha esa antroponimika deb yuritiladi. Onomastikaning bu bo'limi antroponimlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etadi. Antroponimlar bilan shug'ullanuvchi, ya'ni antroponimika mutaxassisi antroponimshunos yoki antroponimist kabi terminlar bilan yuritiladi. Tildagi antroponimlar yig'indisi esa antrokon termini bilan yuritiladi. E.Begmatovning ilmiy qarashlarida antroponimika o'rganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga nimalar kiradi? Konkret olinadigan bo'lsa, o'zbek tilidagi kishi atoqli oti bo'lgan quyidagi onomastik vositalar o'zbek antroponimiyasining birliklaridir: 1. Ismlar — konkret shaxsga berilgan ismlar. Masalan: Shaxnoza, Shohjahon. 2. Laqablar: Jo'ra Pason, Olim Tashvish. 3. Taxalluslar: Navoiy, Foni. 4. O'zbeklarda shaxsni nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ayrim shakllari ("qizi", "o'g'li") yordamida nomlash: Shavkat qizi, Barno o'g'li. 5. Shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "binni") yordamida: Abu Ali ibn Sino, Avaz baxshi binni Shoxnazar. 6. O'tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari: Xojiyeva, Nuriddinov.[3;12] Bu bo'linish o'zbek antroponimiyasi uchun xoslangan. Chunki yuqorida ko'rib o'tgan

ayrim antroponimik birliklar Yevropa tilshunosligi antroponimiyasi uchun xosdir.

O'zbek tilshunosligi antroponimiyasiga kiruvchi mikro'lam(kichik guruh) tarkibidagi bo'linishni yana quyidagicha tasniflanganligini ayrim manbalarda kuzatib o'tdik: a) ismlar – kishilarga tug'ilganidan yoki yoshlik paytida qo'yilgan atoqli ot; b) laqab – kishilarga yoki shaxslarga uning atrofida qilari tomonidan beriladigan, kishilarning xarakter-xususiyatini va ma'lum bir belgisini o'zida tashuvchi, asosan ismi bilan birga qo'llaniluvchi yoinki, yakka holda ham qo'llanila olinadigan nom; d) familiya – kishilarning qaysi oilaga va avlodga tegishlilikini ko'rsatadigan ajdodlardan avlodlarga me'ros bo'lib o'tib kelayotgan rasmiy maqomga ega bo'lgan nom; e) otaism – shaxsning ota yoki bobosi ismidan keyin "o'g'li" yoki "qizi" so'zlarini qo'shib aytish yoki -ovich (ovna), -yevich (yevna) qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladigan atoqli ot; f) patronim — kishini avlod-ajdodlarini nomini keltirish usulida atash; g) matronim – onaning, ayolning ismi yoki laqabidan

yasalgan ism yoki familiya; h) elonim – mashhur shaxs(lar) nomiga nisbat berilgan atoqli ot, ya'ni mashhurlarning nomini ism, nom sifatida qayta qo'llash; i) taxallus – ijtimoiy-sotsiallashtirish natijasida shaxsning o'zi tanlagan, o'zining asosiy ismi bilan birga yoxud uning o'rnida qo'llaniladigan to'qima atoqli otdir.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, antroponimik terminologiya o'z ichida quyidagi atamalarni birlashtiradi: antroponim, antroponimika, antroponimiya, antroponimshunos, antroponimik, antrokon; ism, ota ismi, familiyasi, laqab taxallus, kriptonim, andronim, ginekonim, patronim; ot, nom, ism kabi katta-kichik guruhlariga bo'linishini va qo'llanilish maqsadini ko'rib o'tdik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, antroponimik terminologiyada terminlarning o'rganilishi muhim va dolzarb ekanligini kuzatish mumkin, shunday ekan antroponimik terminlarning leksik-semantik tadqiqi keyingi ishlarimizning o'rganish obyekti sifatida tadqiq etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A. A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010. 176-b.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: СЭ, 2004. 571-с.
3. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан. 2013. 264-б.
4. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – Москва, 1977. 246-с.
5. Лейчик В.М. Предмет, методы и структура терминоведения: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Москва, 2009. 256-с.
6. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 590-b.
7. Суперанская А.В., Подольская Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – Москва: Наука, 2003. 288-с.
8. Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. – Новосибирск: Наука, 1981. 132-с.
9. Xojiyeva M.Y. Termin, terminologiya va onomastika /BuxDu ilmiy axboroti. 2024. – № 11. 111, 114-b.
10. Xojiyeva M.Y., Saidova M.R. "O'zbek tilshunosligida "shaxs" kategoriyasi// Results of National Scientific Research International Journal 2024 SJIF- 5.8, Researchbib 7.1. 2024. – T. 1. – №. 3. C. 477-480

Orzugul UBAYDULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

MIFONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: bu maqolada mifonimlarning folklor va yozma matnlarda, allyuzivlik, o'xshatish, intertekstuallik, onomastik metafora kabi vazifalarni bajarib kelishi va ularning lingvopoetik xususiyatlari, vazifalari xalqning milliy-madaniy mentaliteti, e'tiqodiy tushunchalari, o'ziga xos urf-odat va marosimlari, poetik tafakkur tarzi bilan chambarchas bog'liq ekanligi ilmiy manbalar asosida tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: *mifonim, mifopoetonim, lingvopoetik vosita, intertekstual, allyuziv nom, Haydar, Qaqnus.*

Аннотация: в статье предпринята попытка на основе научных источников проанализировать функции мифонимов в фольклоре и письменных текстах, такие как аллюзии, сравнения, интертекстуальность, ономастические метафоры, а также то, что их лингвопоэтические характеристики и функции тесно связаны с национально-культурным менталитетом народа, его религиозными представлениями, уникальными обычаями и обрядами, поэтическим образом мышления.

Ключевые слова: *мифоним, мифопоэтим, лингвопоэтический прием, интертекстуальность, аллюзивное имя, Хайдар, Какнус.*

Annotation: this article attempts to analyze, based on scientific sources, the functions of mythonyms in folklore and written texts, such as allusions, similes, intertextuality, and onomastic metaphors, and the fact that their linguopoetic characteristics and functions are closely related to the national-cultural mentality of the people, their religious concepts, their unique customs and rituals, and their poetic way of thinking.

Key words: *mythonym, mythopoeonym, linguopoetic device, intertextual, allusive name, Haydar, Qaqnus.*

Mifonimlar xayolga, tasavvurga asoslangan nomlar bo'lib, nomning motivida mifik tasavvur yotadi. Bunday nom toponim ham, antroponim ham, zoonim ham, oronim ham bo'lishi mumkin [1, 36]. Badiiy matndagi onomastik birliklarning lingvopoetikasini maxsus o'rgangan D.Andaniyozova tadqiqotida badiiy matnda poetik yuk olgan mifonimlar mifopoetonim termini ostida o'rganilishi taklif etilgan va asoslab berilgan [2]. Olima fikricha, ularning badiiy matnga olib kirilishi allyuziya usuli bo'lib, u badiiy ijodda keng tarqalgan hodisalardan biridir. Bunda *mifopoetonim* intertekstual matn unsuri vazifasida qo'llanib, allyuziv nom sifatida lingvopoetik qimmat kasb etadi. *Gerostrat* va *Diana* mifopoetonimlari matnning onomastik ko'lamini kengaytirishini ta'kidlab, *Diana* mifoantropoetonimi yunon mifologiyasida *ayollik*, *go'zallik* va *hosildorlik* timsoli sifatida badiiy matnda foydalanilishi dalillangan.

D.Andaniyozova *Jambil*, *Jarjon*, *Susambil*, *Ko'hi Qof*, *Bog'i Eram*, *Bo'tan tog'* kabi mifotoponimlarni ham to'qima toponimlar tarkibida o'rganish mumkinligini, mifotoponimlar badiiy matnning makoniy ko'lamini abstraksiyalash maqsadida qo'llanilishi, makon bilan bog'liq sirlilik, mavhumlikni bo'rttirib ifodalashga xizmat qilishini, badiiy matnda mifozoonimlar alohida poetik ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. O'zbek badiiy matnlarida *Qaqnus*, *Humo*, *Samandar*, *Buroq* kabi mifozoonimlar faol qo'llaniladi. Ular mashhur nom sifatida matnni shakllantirishga, intertekstuallikka xizmat qiladi [2].

Muayyan badiiy matndagi har qanday zoonimni poetonim sifatida tadqiq qilolmaymiz. Ularda badiiy niyat bo'rtib turishi kerak. Masalan, o'zbek she'riyatida *Humo* zoonimini she'riy matnlarda baxt-saodat va davlat ramzi sifatida qo'llash an'anaga aylangan. Bunday qo'llanish

orqali o'zbek xalq og'zaki ijodida tasvirlangan *Humo* qushi bilan bog'liq motivlarga ishora qilinib, intertekstual matn yuzaga keltiriladi. Humoning yana bir nomi *Semurg'* bo'lib, u o'zbek folklorida ijobiy qahramonning do'sti va himoyachisi sifatida tasvirlanganligi yoritib berilgan.

Darhaqiqat, bunday hollarda mifopoetonimlar allyuziv nom sifatida badiiy matnda katta hajmli xabar-tushunchani ixcham shaklda ifodalash imkoniyatini bera oladi. Masalan, badiiy matnda qo'llangan *Haydar* nomi shamol, *Azroil* nomi o'lim hodisalari bilan bog'liq nomlardir.

Qadimgi turkiy xalqlar qatori o'zbek xalqi orasida ham shamol piri sifatida Haydar kultiga sig'inib, shamol chaqirish ("Yo Haydar") marosimi o'tkazib kelingan. Mana shu jarayonda Haydar nomi bilan bog'liq e'tiqodiy inonchlar tizimi asosida shamolning afsonaviy homiysi – *Haydar* yoki *Mirhaydar* nomi tilga olingan. Mifologik tasavvurlarga ko'ra shamol piri Haydarning kokili bo'lganligi aytiladi. Kokil uning asosiy belgisi bo'lgan:

"O'rtada o'ynagan qizning

Haydar kokili yaxshi.

Hay-yu, chittigul,

Hay-yu, chittigul" (Xalq qo'shig'i "Chittigul")

Ajdodlarimizning e'tiqodi bo'yicha, dehqonlar donni sovurayotganida shamol bo'lmasa, Haydarga murojaat qilib, qo'shiq aytishgan va uni kelishga da'vat qilishgan [4, 10]. Masalan, Sadridin Salim Buxoriy she'rlaridan birida bu keltirib o'tilgan:

"Kokilingni qimirlat, Haydar!

Bolangni suv eltmoqda, Haydar!

Seni uyqu eltmoqda, Haydar!"

Bobo tongdan bug'doy shopirar.

Bobo tongdan bug'doy shopirar.

"Bobo, men ham Haydar bo'layin,

Kokil nuqra yo zar bo'layin.

Chorlasangiz yuboray epkin,

Bobo, men ham Haydar bo'layin..."

M.Jo'rayev fikricha, O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida shamol homiysi sifatida tasavvur qilinuvchi *Haydar* yoki *Mirhaydar* obrazining tarixiy-mifologik asoslari zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da tasvirlangan shamol tangrisi – "Vata" haqidagi e'tiqodiy qarashlarga borib taqaladi. "Vata" obrazi esa ajdodlarimizning zardushtiylikdan ham

ilgarigi e'tiqodiy inonchlari, tabiat hodisalarini mo'tabarlashtirish bilan bog'liq mifologik tasavvurlar, hosildorlik kultlariga sig'inish an'analari zahirida yuzaga kelgan hamda homiy kuch timsoli sifatida mifologik personajlar tizimidan o'rin olgan" [4, 190].

Odatda, "Yo Haydar" marosimi donli ekinlarni shamolda sovurib tozalash maqsadida o'tkazilar ekan, shu jarayonda Haydar nomiga murojaat aks etgan qo'shiqlar ijro qilingan. Taniqli o'zbek shoiri Mirtemirning "Suhbat" she'ri bevosita xalqning ana shunday qo'shig'i motivi va ohangini stilizatsiya qilish asosida yaratilganligi bilan e'tiborni tortadi:

Haydar! Boshla so'zingni, yurak to'lqinlanadi,

Kipriklarim pirqirab, ko'zim o'tday yonadi.

(Mirtemir)

Yuqoridagi satrlarda shamol so'zi tilga olinmayotgan esa-da, undagi Haydar nomi shamolga murojaat etilayotganligini bildiradi.

Haydar! Kel bir yondoshib,

Haydar! Kel, shoshib-shoshib.

Haydar! Kel, toshib-shoshib,

Qo'shiq aytaylik!

Haydar, qani boshlay qol.

Haydar, qani o'zing ol. (Mirtemir) [3].

Shamolning esishi lirik qahramon tuyg'ularini junbushga soladi. Shoir uning esishida ezguliklarni, yaxshiliklarni ko'radi. Demak, Mirtemir xalqning shamol chaqirish qo'shig'i qahramoni Haydar nomini talmeh sifatida qo'llab, o'ziga xos sir saqlash san'atini yuzaga keltirgan va poetik fikrni ta'sirchan ifodalashga erishgan.

Bundan tashqari, O'rta Osiyoda istiqomat qiladigan turkiy xalqlar orasida shamolni to'xtatish uchun shamol tangrisi *Chuy momoga*, *Yalli bobo* nomiga ham sig'inib kelingan. Yomg'ir chaqirish uchun esa suv tangrisi *Tishtriyadan* madad so'ralgan. [4]. Ma'lumotlarga ko'ra yunon mifologiyasida Zefir (Zephyros) g'arbiy shamol ma'budi nomi sifatida tilga olinadi [5]. Shuningdek, ba'zi badiiy matnlarda uchraydigan *Elma* nomi ham mifodeopoetonim bo'lib, muqaddas Elma oloviga ishora qiladi. U tabiatning noyob, eng kam kuzatiladigan hodisalaridan biri bo'lib, odatda, momaqaldiroqdan oldin ko'rinish beradi. Bu mifodeopoetonimni dengizchilar o'z himoyachisi, sifatida talqin qilishadi [7].

Mifologik tasavvurlar tizimida suv kulti bilan aloqador syujetlar alohida o'rin tutadi. Ana shunday mifologik personajlardan biri *Hubbi* onimidir. Shu mifologik nom bilan bog'liq ayrim toponimik obyektlar ham mavjud. Masalan, Buxoro shahridan 40 km. janubi-g'arbda *Xoja Ubbi avliyosi*, Jondor tumanidagi Oqshix qishlog'ida *Sulton Hubbi qadamjosi*, Ohangaron daryosi bo'ylarida *Erhubbi*, Qamashi tumanidagi *Hubbil tepa* shular jumlasidandir [6].

O'zbek badiiy matnlarida *G'irotda*, *Qaqnus*, *Humo*, *Samandar* kabi mifozoonimlar faol qo'llaniladi. Ular mashhur nom sifatida matnni shakllantirishga, intertekstuallikka xizmat qiladi. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida tasvirlangan bir qancha xislatlarga ega afsonaviy ot bo'lgan *G'irotda* mifozoonimi she'riy matnlarda allyuziv nom sifatida qo'llanib, turli poetik maqsadlarni yoritishda lingvopoetik vosita vazifasini bajarib kelgan. G'.G'ulomning "Mohgul" nomli she'rida

G'irotda nomi o'ziga xos metaforani yuzaga keltirishda vosita bo'lgan. Shoir samolyotni *qo'sh qanotli G'irotda* deya ta'riflab, onomastik birlikdan tasviriylilik va obrazlilik yaratishda mahorat bilan foydalangan:

*Talay qizni ko'rdim Kobul, Hirotida,
Chodir ichra zulmatda, pul-sirotda,
Sen uchasan qo'sh qanotli G'irotda,
Olmos pora qadri oshar qirotda,
Qorachig'ing chaqinsimon, Mohgul...
(G'.G'ulom. Mohgul).*

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mifonimlar badiiy matnda allyuzivlikdan tashqari o'xshatish, qiyoslash, intertekstuallik, onomastik metafora kabi vazifalarni bajarib keladi va ularning leksik-semantik mohiyati, lingvopoetik xususiyatlari, vazifalari har bir xalqning milliy-madaniy mentaliteti, e'tiqodiy tushunchalari, o'ziga xos urf-odat va marosimlari, poetik tafakkur tarzi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avlakulov Y. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2012. 36-bet.
2. Andaniyazova D.R. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi: Fil. fan. fals. dok. (PhD). diss... – Toshkent, 2017. 170-b.
3. Mirtemir. Asarlar. 3 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.
4. Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. Darslik. – Toshkent: Navro'z, 2019. 510-b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 2-jild. – T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. Rajabov F.U. O'zbek onomastikasi. O'quv qo'llanma. – Qarshi: "Intellect" nashriyoti, 2023. 59-bet.
7. www.tilshunoslik.uz Краткий словарь терминов и понятий литературной ономастики (поэтонимологии).

Nigina RASHITOVA,
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

INSON XARAKTERI VA QOBILIYATINI IFODALOVCHI ABSTRAKT NOMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada inson xarakteri va uning qobiliyatini ifodalovchi abstrakt nomlarning konseptual asoslari hamda yasaliş xususiyatlari ochib berilgan. Bunday nomlar orqali faqatgina shaxsning ichki olami emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy qadriyatlar tizimi ham namoyon bo'ladi. Abstrakt nomlar tarkibiy tuzilishi, ma'noviy qarama-qarshiliklari va uslubiy konnotatsiyalari misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *abstrakt nomlar, til, konseptual asos, ma'noviy qarama-qarshilik.*

Аннотация: в статье раскрываются концептуальные основы и особенности образования абстрактных имен, выражающих характер и способности человека. Такие имена отражают не только внутренний мир личности, но и систему социальных отношений и духовных ценностей в обществе. На примерах анализируется структурная структура, духовные противоречия и стилистические коннотации абстрактных имен.

Ключевые слова: *абстрактные существительные, язык, концептуальная основа, духовная оппозиция.*

Annotation: this article reveals the conceptual foundations and features of the formation of abstract names that express human character and abilities. Such names reflect not only the inner world of the individual, but also the system of social relations and spiritual values in society. The structural structure, spiritual contradictions and stylistic connotations of abstract names are analyzed on the basis of examples.

Key words: *abstract nouns, language, conceptual basis, spiritual opposition.*

Kirish. Har qanday til — inson tafakkuri, dunyoqarashi va ichki kechinmalarining ifoda vositasidir. Inson bilan bog'liq abstrakt tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar til tizimining muhim qismini tashkil etadi. Jumladan, xarakter, ruhiy holat va shaxsiy qobiliyatlarni bildiradigan nomlar nafaqat shaxsning ichki olamini, balki jamiyatdagi axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarni ham aks ettiradi [1]. Jahon tilshunosligida so'nggi yillarda inson omilining lisoniy hodisalarni anglash va tahlil etishdagi rolga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu tendensiya tilni faqatgina tizim sifatida emas, balki uning foydalanuvchisi — inson markazida turgan, murakkab ijtimoiy va kognitiv faoliyat sifatida o'rganishga intiladigan antropotsentrik paradigma doirasidagi izlanishlarda o'z aksini topmoqda. Xususan, semantik tadqiqotlarda leksik birliklarning ma'no xususiyatlarini tahlil etishda inson tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlarini hisobga olish dolzarb masalaga aylangan.

Hozirgi lingvistik tadqiqotlarda abstrakt leksemalarning semantik, konseptual va aksiologik xususiyatlarini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Xususan, inson tafakkuriga bog'liq bo'lgan nomlar, ya'ni abstrakt so'zlar faqatgina grammatik va lingvofalsafiy nuqtayi nazardan emas, balki antropotsentrizm nuqtayi nazardan ham keng qamrovli tahlil qilinmoqda. Bugungi kunda bu kabi so'zlarning mental

reprezentatsiyasi, ma'no shakllanishi, milliy-madaniy konseptlar bilan bog'liq jihatlari lingvokulturologik va kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tadqiq etilmoqda. Ushbu jarayonda til va tafakkur uyg'unligi, til egasining ma'naviy dunyosi bilan bog'liq bo'lgan nomlarning semantik xosliklarini o'rganish, millatning madaniy merosi, ong va idrok xususiyatlarini ochish imkonini beradi. Abstrakt nomlar tilda inson erishgan ma'naviy, axloqiy, falsafiy qadriyatlarining ifodasi bo'lib, ular orqali millatning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga munosabati namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida abstrakt nomlar masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan bo'lib, mavjud izlanishlarda ular faqat otlar toifasi doirasida, ba'zan esa "mavhum otlar", "fikriy otlar" kabi turli atamalar bilan sodda va umumiy shaklda ta'riflangan. Bu esa ushbu leksik-grammatik guruhni chegaralash, klassifikatsiyalash va semantik xususiyatlarini aniq belgilashda ma'lum muammolarni keltirib chiqarmoqda. Grammatik adabiyotlarda abstrakt so'zlar turli nomlar ostida keltirilishi, ularning umumlashma va aniq ta'rifining yo'qligi, farqlovchi belgilarining to'liq ishlab chiqilmaganligi ushbu leksik birliklarni maxsus monografik tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois, o'zbek tilida abstrakt nomlarning lisoniy, semantik va pragmatik xususiyatlarini, ularning kognitiv va madaniy asoslarini chuqur o'rganish,

mazkur leksemalar orqali ifodalanuvchi milliy tafakkurning mazmun va tuzilishini ochib berish tilshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Tilshunoslikda shunday nomlar o'zining leksik-semantik mazmuni, uslubiy vazifasi va nutqdagi qo'llanish doirasi bilan ajralib turadi. Xususan, "jasurlik", "qat'iylilik", "mehribonlik", "ziyraklik" kabi nomlar insonning individual va ijtimoiy fazilatlarini ifoda etuvchi muhim vositalar sanaladi [2]. Ushbu nomlarning semantik tahlili ularning faqat lug'aviy ma'nosini emas, balki madaniy, psixologik va pragmatik yuklamalarini ham ochib berish imkonini beradi.

Metodlar. Inson xarakterini ifoda etuvchi abstrakt nomlarni o'rganishda muqoisaviy-tahliliy, struktur-semantik va etimologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Bunda "sifatdan nom yasalishi", "fe'ldan nom yasalishi", "antonim juftliklar" kabi jarayonlar tahlil obyekti sifatida xizmat qildi. Aksariyat abstrakt nomlar sifati fe'l tubidan -lik, -chilik, -iyat kabi qo'shimchalar orqali yaratiladi: "mehribonlik", "qobiliyat", "go'zallik" kabi. Shuningdek, fe'llardan hosil bo'lgan nomlar ham ko'p: "bilmoq" → "bilim", "fikrlamoq" → "tafakkur" kabi [3]. Bu jarayonlarda nomlar inson faoliyati, ichki olami va ijtimoiy munosabatlarini ifoda etishda qator konseptual, uslubiy va mafkuraviy vazifalarni bajaradi.

Natijalar. Abstrakt nomlar tilda ko'p hollarda ma'naviy qarama-qarshiliklarda namoyon bo'ladi: "yaxshilik" – "yomonlik", "jasorat" – "qo'rqoqlik", "samimiylilik" – "soxtalik" kabi juftliklar inson xarakterining ikki tomonlama tavsifini ko'rsatadi [4]. Ushbu nomlar orqali nafaqat shaxsning individual xususiyatlari, balki milliy tafakkur, ma'naviy qadriyatlar va jamiyatdagi ijtimoiy talablar ham ifoda etiladi. Ular tarbiya, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va adabiyot orqali jamiyat ongida shakllanadigan madaniy-kontekstual yondashuvni aks ettiradi [5].

Tahlil. Inson xakteri va qobiliyatini ifodalovchi abstrakt nomlarni o'rganishda ularning semantik xususiyatlari, ya'ni qanday semantik maydonlarga oidligi, qanday darajada abstraksiyalashganligi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Mazkur mezon asosida ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: estetik tushunchalarni bildiruvchi nomlar, ruhiy holat nomlari, axloqiy sifatlarni bildiruvchi nomlar va munosabat nomlari.

1. Estetik tushunchalarni bildiruvchi nomlar. "Go'zallik", "nazokat", "did", "farosat" kabi so'zlar insonning tashqi ko'rinishidagi yoki harakatlaridagi nozik, chiroyli, ma'naviy-estetik jihatlarni ifodalaydi. Bu guruhga mansub leksik birliklar nisbatan kam darajadagi abstraksiyaga ega bo'lib, ular ko'pincha sezgi organlari, ayniqsa ko'rish orqali idrok etiladi. Masalan: "*Kelin nazokat bilan qadam bosardi*" jumlasida "nazokat" nomi orqali ifodalangan mohiyat

aniq ko'rinishdagi estetik holatga bog'liq. Ushbu so'zlar real kuzatish imkoniyati mavjud bo'lgan abstraktlik darajasining quyi pog'onasida joylashgan bo'lib, ular abstrakt nomlar shkalaning boshlang'ich qismiga to'g'ri keladi.

2. Ruhiy holat nomlari. "Sevinch", "sog'inch", "shodlik", "iztirob", "umidsizlik" kabi so'zlar insonning ichki psixologik holatlarini bildiruvchi abstrakt nomlardir. Bu holatlar bevosita kuzatib bo'lmasa-da, ularning tashqi ifodasi (mimikalar, tana harakati, ohang) vositasida bilish mumkin. Misol uchun, sevinchga to'lgan insonning yuzidagi tabassum yoki iztirobdagi insonning ko'zlaridagi mung ushbu holatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu so'zlar o'zida chuqur psixologik holatlarni mujassam etgan bo'lib, ularning abstraksiya darajasi estetik tushunchalarnikiga nisbatan yuqoriroqdir.

3. Axloqiy belgi nomlari. "Botirlik", "donolik", "viydonsizlik", "ziyraklik", "mag'rurlik" kabi nomlar insonning axloqiy va ijtimoiy fazilatlarini bildiradi. Bu nomlar orqali ifodalanayotgan belgilar subyektga xos bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ko'pincha u belgidan ajralgan, alohida mohiyat sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, "*mag'rurlik*" haqida so'z borganda, u belgiga ega shaxsni emas, balki umumiy tushunchani nazarda tutish mumkin. Bu esa ularning yuqori abstraksiya darajasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur guruh inson xarakterining asosiy etik-me'yoriy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, leksik-semantik tahlil uchun eng muhim qatlamlardan biridir.

4. Munosabat va vaqt nomlari. "Do'stlik", "nafrat", "ishonch", "hurmat", "shafqatsizlik", "tengsizlik" kabi so'zlar insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Bu mohiyatlar bevosita sezgi bilan emas, balki faqat ong orqali idrok qilinadi. Ya'ni, inson bu tushunchalarni nafaqat kechiradi, balki fikrlaydi va tafakkur orqali anglaydi. Masalan, "*ishonch*" nomi tilga olinganida, bu shaxslararo munosabat emas, balki umumiy, abstrakt mohiyat sifatida tushuniladi. Bu esa bu turdagi leksik birliklarning yuqori darajadagi abstraksiyalanganligini ko'rsatadi.

Abstrakt nomlar shakllanishida semantik tahlil asosiy o'rin tutadi. Ular orqali fe'l va sifatlarning nomga aylanish jarayonida ma'no o'zgarishi, umumlashtirish va ma'naviy yuklamalarning kengayishi kuzatiladi. Masalan, "ustozlik" faqat vazifani emas, balki shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni ham anglatadi. Bunday nomlarning leksik qatlamida antonim juftliklar muhim o'rin tutadi. Ular tilda baholash funksiyasini amalga oshiradi. Jamiyatda faol qo'llaniladigan "insof", "viqor", "fidoiylik" kabi nomlar ijobiy konseptlarni, "beinsoflik", "nohaqlik" kabilari salbiy ma'nolarni anglatadi [6].

Masalan: Anvar bu kungi noma va arizalarni yig'ishtirib udaychiga topshirdi, devonning o'ziga

tegishlik bo'lganlarini mirzolar orasida taqsim qildi. Har kim o'z vazifasiga berilib, oraga jimjitlik kirdi. Faqat bu tinchlikni savog'ich qalamlarning qog'oz ustida qirillashi va goho buklangan qog'ozlarning shildirashi buzar edi (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon). Ushbu matnni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Vazifa — bu so'z insonning ijtimoiy burchi, mas'uliyati va majburiyatlarini anglatadi. U abstrakt nom bo'lib, aniq narsa yoki harakat emas, balki ma'naviy tushuncha – ijtimoiy rol, ish yuklamasini ifoda etadi. Yuqoridagi parchada:

2. *“Har kim o'z vazifasiga berilib...”* — degan jumlada insonning intizomli, mas'uliyatli, vazifaparvarligi aks etgan. Bu “mas'uliyat”, “intizom”, “ijro” kabi abstrakt tushunchalarni ham shaffof ifoda etadi.

1. Jimjitlik — fizik emas, balki psixologik holat. Bu yerda insonlarning ichki ahvoli va muhitdagi umumiy ruh yaqqol ko'rinadi. Bu so'z “tinchlik”, “tartib”, “intizom” kabi abstrakt holatlar bilan bog'liq. Parchada:

“Oraga jimjitlik kirdi...” — insonlarning ichki intizomi, mehnat muhitining ruhiyati va jamoaviy hamjihatlikni ifodalaydi.

2. Tinchlikni buzish — “tinchlik” so'zi ham abstrakt nom hisoblanadi. U shaxsiy yoki umumiy holatni anglatadi, hissiy farazga asoslangan. Bu yerda u real harakat (qalamning qirillashi) bilan qarama-qarshilikda keltirilgan:

“Faqat bu tinchlikni savog'ich qalamlarning qog'oz ustida qirillashi...” — desonansli kartina yaratib, “tinchlik” – “shovqin” oppozitsiyasini ko'rsatadi.

3. Shaxsiy qobiliyatlar niqobi ostidagi faoliyat — har kimning vazifasiga “berilib” ishlashi, ularning mas'uliyatli, mehnatsevar, fidoiy shaxslar ekanligini ko'rsatadi. Bu “burch”, “ijro”, “bunyodkorlik”, “ixlos” kabi abstrakt tushunchalarni anglatadi.

Bu parchada inson qobiliyati va ichki fazilatlarini ifodasi real harakatlar orqali berilgan bo'lsa-da, abstrakt nomlar (vazifa, jimjitlik, tinchlik) insonning ichki dunyosi va jamoadagi munosabatini to'g'ridan-to'g'ri bayon etadi. Bu shuni ko'rsatadiki, tilda abstrakt nomlar ko'pincha emotsional va ma'naviy tassavurlarni berish vositasidir. Yuqoridagi parcha real hayot tasviri orqali inson xarakterining muhim jihatlarini — mas'uliyat, intizom, diqqat, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi abstrakt fazilatlarini ifodalashda tilning qanday vositalardan foydalanishini ko'rsatadi. Buning o'zi abstrakt nomlarning funksional va stilistik yuklamasi qanday keng va muhim ekanini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, inson xarakterini va qobiliyatini ifoda etuvchi abstrakt nomlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixolingvistika sohalarida muhim ahamiyatga ega. Bunday nomlar inson ma'naviyati, jamiyat qadriyatlari va milliy tafakkur tarkibida markaziy o'rin tutadi. Ularning shakllanishi va qo'llanishi orqali tilning ijtimoiy va axloqiy yuklamasi aniq namoyon bo'ladi. Ushbu nomlarning shakllanish jarayonlarini tahlil etish orqali ularning idoraviy, uslubiy va funksiyaviy xususiyatlarini keng qamrovda ochib berish mumkin bo'ladi. Inson xakteri va qobiliyatini ifodalovchi abstrakt nomlar leksik-semantik jihatdan turli darajadagi abstraksiyani aks ettiradi. Estetik tushunchalar nisbatan konkretlikka yaqin bo'lsa, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi nomlar yuqori darajada abstrakt xarakterga ega. Shuningdek, bu nomlar inson tafakkurining, madaniy ongi va axloqiy qadriyatlarining til vositasidagi in'ikosidir. Shu boisdan ham bu turdagi so'zlarni semantik mezonlar asosida guruhlash, abstraksiya darajalarini aniqlash tilshunoslikda, ayniqsa, antropolingvistik tadqiqotlarda muhim ilmiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisherova D. O'zbek tilida abstrakt leksemalarning semantik xususiyatlari. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2020. 112-bet.
2. Berdiyev, O. Inson xususiyatlarini ifoda etuvchi nomlar tahlili. // Til va adabiyot. 2017. №3. 45–51.
3. Jo'rayev S. Tilda nom yasash jarayonlari. — Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2015. 96-bet.
4. Karimova M. Ma'naviy qarama-qarshiliklar semantikasi. // O'zbekiston filologiyasi. 2021. №4. 28–34-b.
5. Nurmatova Z. Tilda ijtimoiy qadriyatlarning ifodalanishi. // Ma'rifat jurnali. 2018. №6. 13–18-b.
6. Nu'monova Sh. O'zbek tilida -lik affiksi bilan yasalgan otlarning semantik klassifikatsiyasi haqida. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar. — Toshkent, 1965.
7. Ro'ziyev Sh. Abstrakt nomlarning uslubiy funksiyalari. // Toshkent davlat universiteti ilmiy jurnali. 2019. №2. 59–64-b.
8. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. — Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1994.

Gulsara KHAKIMOVA,
Ph.D. Ass.Proff.
UzSWLU

AN INTERDISCIPLINARY EXPLORATION OF LINGUACULTURE IN MODERN LINGUISTICS

Annotation: linguaculture, a term that aims to reveal aspects about, and facilitate ways of thinking about and understanding, the interconnectedness of language and culture, is the focus of this article. It examines the development of linguaculture in modern linguistics, considering both its theoretical foundations and methodological frameworks, as well as its practical applications.

Key words: *linguaculture, culture, language, cultural identities, modern linguistics, interconnected*

Аннотация: лингвокультура направлена на выявление аспектов и формирование способов мышления и понимания взаимосвязи между языком и культурой, акцентируя внимание на том, как языковые выражения отражают и формируют различные культурные идентичности. В данной статье рассматривается развитие концепции лингвокультуры в рамках современной лингвистики, включая её теоретические основы, методологические подходы и практическое применение.

Ключевые слова: *лингвокультура, культура, язык, культурная идентичность, современная лингвистика, взаимосвязь*

Annotatsiya: lingvokultura tili va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berish, shuningdek, bu bog'liqlik haqida fikrlash va tushunish yo'llarini shakllantirishga xizmat qiladi. U til vositalarining madaniy identifikatsiyani qanday aks ettirishi va shakllantirishini o'rganadi.

Kalit so'zlar: *lingvokultura, madaniyat, til, madaniy identiklik, zamonaviy lingvistika, o'zaro bog'liqlik*

Introduction

Language and culture are interlinked. One cannot function without the other within the modern linguistics sphere. Language is not only used as a form of communication, but it also forms part of culture, which encompasses cultural values, social norms and historical experiences. Thus, due to this phenomenon, an interdisciplinary study of linguaculture has emerged. The concept of linguaculture examines the way people speak, the symbolic meaning of metaphors used within a language, and how these elements are all interconnected with culture. Listening to how different cultures communicate can provide insight into the culture in question. Linguaculture is not limited to modern linguistics but also interacts with other disciplines, such as anthropology, sociolinguistics and cognitive linguistics, among others. This enables scholars to create a more holistic approach to understanding communication across different cultures. Due to rapid globalisation over the past few years, cross-cultural communication has become more common between people, and therefore, linguaculture has become a key focus

in modern linguistics. Integrating cross-cultural communication is important, but one must also preserve one's cultural identity.

Literature Review

Linguaculture has garnered considerable attention over the past few years. The term linguaculture was formulated by Agar (1994), who described it as an interdisciplinary field that bridges the gap between culture and language. Instead of treating these two terms as separate entities, they could be joined, emphasising the mutual view of language and culture as interconnected. While Agar's initial conceptualisation (1994) was based on the cultural patterns, values and worldviews of its speaker, Risager (2006) improved this concept by stating that linguaculture is continuously reshaped through discourse and interaction, thus challenging the static views of culture. Kramsch (2011) supported and reinforced this view by stating that language is not just a tool for communication, but also consists of a symbolic system embedded within each culture.

Research Methodology

A Qualitative, interdisciplinary approach was followed with the following methods: discourse

analysis to examine how speakers and listeners adapt to cultural norms and values when using a language, and textual analysis of selected interactions from language learning environments and thematic analysis by using existing studies in linguistics literature to identify patterns related to linguaculture. Frameworks from Agar (1994) and the “rich point” and “symbolic competence” model from Kramersch (2011) were used for interpretation.

Analysis and Results

The study emphasises the notion that linguaculture is a dynamic, interactive and emergent concept that affects language, identity and interculturality. From discourse analysis, speakers constantly interpret cultural expectations to modulate their language responses. This supports Kramersch's (2011) symbolic competence model, in which people need ways to learn to become culturally sensitive, because meaning lies not within language, but within the language (syntax and semantics). In the classrooms reviewed, learners of language were more engaged and had greater context awareness when language teaching was combined with cultural teaching. This is reinforced by Gao (2020) regarding global communication competence. Underlying thematic constructs in the literature and qualitative case investigations across time also contribute to these central themes, including negotiated identity, cultural mediation, cognitive linguaculture and digital adaptation. Such is the case, for example, in Pavlenko's (2014) discussion of the linguistic relativity exhibited in bilinguals, where each language triggers a different way of thinking and set of emotional triggers. These trends were evident in the subjects' accounts, where a shift in language use was noted to report changes in self-perception, behaviour and emotional expression. Linguaculture also plays a role in translation studies due to the intercultural aspect. Translators act as cultural mediators, not just translating words, but also conveying cultural meanings in their translations (Katan, 2016; House, 2015).

Translation cannot be based solely on literal meanings; it must be translated within the context of the culture in which it is being used. These literal translations are often out of context and fail to resonate with the target audience. Due to these shortcomings, more emphasis has been placed on dynamic equivalence and cultural adaptation within the translation sphere. The literature reviewed above points out that linguaculture is undoubtedly one of the key dimensions for studying the intricate connection between language and culture. From education to translation, identity to digital communication, linguaculture is a lens that crosses disciplinary boundaries and sheds light on how and why people use language in context. Nevertheless, as other authors, such as Dervin and Gross (2016), point out, caution is required when dealing with culture as a fluid and negotiated phenomenon. Further investigation may need to extend to the development of linguaculture in the digital sphere, in multilingual settings and globalised societies, while being inspired by them and taking them into account, highlighting its contemporary pertinence in linguistic enquiry.

Conclusion

Linguaculture provides a nuanced yet robust framework for understanding how people construct meaning, negotiate identity and establish intercultural connections. Its use in disciplines as diverse as language education, translation, and digital communication demonstrates its versatility and importance. With increasing globalisation, however, it has become increasingly important to nurture the potential for creating critical cultural awareness, symbolic competence, and the concept of language as an embedded cultural instrument.

In conclusion, linguaculture serves as a bridge between people, languages and ways of seeing the world. Utilising it as a pedagogical and analytical tool enhances both language skills and cross-cultural empathy — two essential qualities in today's global landscape.

References:

1. Agar, M. (1994). *Language shock: Understanding the culture of conversation*. William Morrow.
2. Byram, M. (2012). Language awareness and (critical) cultural awareness—Relationships, comparisons and contrasts. *Language Awareness*, 21(1–2), 5–13. <https://doi.org/10.1080/09658416.2011.639887>
3. Dervin, F., & Gross, Z. (2016). *Intercultural competence in education: Alternative approaches for different times*. Palgrave Macmillan.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Nazira MADRAXIMOVA,

Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

OYBEK SHE'RIYATIDA FASL FALSAFASI

Annotatsiya: ushbu maqolada yangi o'zbek adabiyotining atoqli vakillaridan biri, xassos shoir Oybek ijodida fasllar talqini haqida so'z yuritiladi. Maqola muallifi o'z kuzatishlari asosida shoirning turli fasllardagi turlicha tabiat hodisalariga murojaat qilishi asnosida lirik qahramonning ruhiyati manzaralarini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlashiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: *falsafa, badiiy talqin, lirik qahramon, ruhiyat, tabiat, tashxis.*

Annotation: this article discusses the interpretation of the seasons in the work of one of the prominent representatives of new Uzbek literature, the sensitive poet Oybek. Based on his observations, the author of the article draws attention to the high artistic skill of the poet in describing the landscapes of the lyrical hero's psyche while addressing various natural phenomena in different seasons.

Key words: *philosophy, artistic interpretation, lyrical hero, psyche, nature.*

Аннотация: в данной статье рассматривается трактовка времен года в творчестве одного из ярких представителей новой узбекской литературы, чуткого поэта Ойбека. На основе своих наблюдений автор статьи обращает внимание на высокое художественное мастерство поэта в описании пейзажей психики лирического героя при обращении к различным явлениям природы в разные времена года.

Ключевые слова: *философия, художественная интерпретация, лирический герой, психика, природа.*

She'riyatga oshno ko'ngillar tabiatga ayricha mehr-muhabbat qo'yadilar. Yetuk shoirlar ijodida yilning barcha fasllari haqidagi go'zal she'riy namunalarni uchratish mumkin. XX asr o'zbek adabiyotining atoqli namoyandalardan biri, insoniy tuyg'ularning mohir musavviri Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek she'riyatida xuddi shu hodisaning betakror namunasini ko'ramiz.

Shoirning "Qish kuylari", "Kuz sevgisi", "Yoz kechasi", "Yana bahor keldi", "Bahorning kelishi" singari bir qator she'rlarida ona tabiatning o'ziga xos ranglarda chizilganligi kitobxonni she'riyat olamiga sodiq oshno qiladi. Jumladan, "Qish kuylari" she'rida shoir shunday yozadi:

Titrahib ko'kda oq kapalak har yon uchadi,
O'ynashib andak mayin chechaklar yerni quchadi.
Qorga o'ralib tuman qo'yniga tramvay chopar,
Yuksak binolar tezda bo'yniga oq ro'mol o'rar. [1, 59]

Ma'lumki, Oybek 1927–1929-yillarda Sankt-Peterburgda Plexanov nomidagi xalq xo'jaligi institutida tahsil olgan. Yuqoridagi so'z yuritilayotgan she'ri ana shu tahsil davrida, aniqrog'i, 1928-yilning 20-noyabrida yozilgan. She'rdan Rossiya qishiga xos xususiyatlar jonlantirish yoki tashxis san'atini san'atkorona qo'llash orqali tasvirlanadiki, she'rxon go'yo bahor fasliga bag'ishlangan she'rni o'qiyotgan kabi hissiyotni tuyadi. Qorning oq kapalakka o'xshatilishi yoki "andak mayin chechaklar" kabi talqin etilishi aynan bahoriy kayfiyatni yodga soladi.

Misralardagi tasvirlarning bu qadar tabiiy va mayinligi she'rxon qalbiga qish fasliga nisbatan iliqlik olib kiradi.

Oybek yaratuvchan fasl haqida bir qator she'rlar bitganki, ularda bu faslning neki sir-asrori bor – o'z mujassamini topgan deyish mumkin.

Oydin sochli bahor qizi, allala,
Lolazorning qo'ynida men yotaman.
Ko'zlarimda quyosh nuri o'ynaydi,
Allaqayda qushlar totli sayraydi,
Nozli hislar bulutiga botaman. [1, 60]

Shoirning bu mavzudagi yana bir she'ri "Bahorning kelishi" deb nomlangan. Odatda, uyga mehmon kelishi kutilayotganda oila a'zolarining har biri o'ziga xos kayfiyatda taraddudda bo'lishadi. Bahor tashrifini kutayotgan ona tabiat ham qandaydir hayajonlar og'ushida bo'ladi, go'yo. Shoir yozadi:

Yengil shamollar
Tentirab qoldi.
Ko'cha-ko'ylarda
Mayin ro'mollar
Kabi sudraldi
Oq bulut ko'kda. [1, 63]

Oybekning bahor fasliga bag'ishlangan she'rlarida lirik qahramon kayfiyati va ruhiyatiga xos kechinmalar tasvirini berish, buni fasl xarakteri bilan uyg'unlashtirib yuborish kabi xususiyatlar bo'rtib turadi.

Shoir yozadi: Yana bahor keldi, yana qalb yonar.
Yana gul pallasi, yana ishq fasli.
Uzoqliklar sari ko'ngil talpinar,
Yana ichda jo'shar hislarning masti. [1, 64]

“Erkin qush” sarlavhali she’rida lirik qahramon erkni qo’msovchi qalb egasi sifatida namoyon bo’ladi. Quyida she’r matnini to’liq keltiramiz:

Malak kabi go’zal bir qush
Tol shoxiga kelib qo’ndi.
Dedim: “Qushcha, yonimga tush,
Yosh ko’nglimga alam to’ldi,
Bir oz kuy-la, she’ring so’yla,
Mahzun ruhim qanot qoqsin.
Sirli go’zal nag’malaring
Amalimning shamin yoqsin”
“Yondim erkning savdosida,
Qafaslardan juda bezdim.
Boqchalarning hijronida
Yuragi qon tutqun edim.
Qo’y, chaqirma, ko’kka uchay,
Erkinlikka endi chiqay:
Bahor kelib, har yoq kuldi,
Chechaklarni biroz quchay!”
Deya qushcha har yon boqdi,
Tiniq ko’kda qanot qoqdi. [4]

Lirik qahramonning erkin qush bilan suhbatini ana shunday yakun topadi. She’r yozilgan davr, ya’ni XX asrning 20-yillari Oybek kabi otashnafas ijodkorlar uchun ko’ngil to’la alamli zamonlar edi. Erkka tashna qalb timsoli qushcha ham “erkning savdosida” “qafaslardan bez”ganligini, “yuragi qon tutqun” ekanligini izhor qiladi. Tashxis san’atidan mahorat bilan foydalangan holda shoir, aslida, o’z yurtini ozod ko’rmoq umididagi dil iztiroblarini qog’ozga to’kkan. Zero, Vatan qismati haqida qayg’urish Oybek singari pokdil ijodkorning qalbini bir zum ham tark etmaganligini uning betakror ijodiyoti abadiy tasdiqlovchi badiiy hujjatdir.

Sirojiddin Sayyid she’riyatini tahlil va tadqiq qilar ekan, professor N. Jabborov shunday yozadi: “Ijodkor uchun Vatan shu darajadagi oliy xilqatki, u har bir hodisa zamirida Vatanni ko’radi” [3,171-b]. Xassos shoir Oybek ham bahor fasliga xos tabiat hodisalariga murojaat qilar ekan, ona yurt ozodligi haqida sarhadsiz xayollar suradi. Bu xayollar shundayligicha qolmasligi uchun, ya’ni Vatan ozodligi uchun qanday kurashish kerakligini bilolmagan shoir tabiat hodisalariga yuzlanadi.

Shoir fasllar haqidagi go’zal bitiklarida o’tkir nigohli rassom kabi tabiat tasvirini chizadi:

Oy nurining mavjlari yoyilar mayin,
Jimjitgina ko’lkalar qochar panaga.
Ko’kda yulduz gullar ochilgan qalin,
Yozning yelpig’ichini tindirmas kecha. [1, 95]

Yoz kechasining bu qadar tiniq tasviri, shoirona tavsifi shunchalik samimiyat bilan berilganki, kitobxon beixtiyor o’zini yoz faslining oydin tunida yulduzlar to’la osmon qo’ynida mayin shabadalarga yuzini tutayotgan kabi his qiladi.

“Xazon sipohig’a, ey bog’bon, emas mone” deb yozgan hazrat Navoiy ijodida kuz umr falsafasining g’amgin sahifalari sifatida ifodalanadi. Ana shu buyuk ijoddan bahramandlik baxtiga sazovor bo’lgan shoir Oybek ham o’z she’riyatida inson umri fasllari bilan yil fasllarini bir-biriga qiyoslaydi. Insonning kuz faslida tabiatda ro’y beradigan yo’qotishlarni kuzatib, ko’nglida uyg’onadigan mahzunlikni misralariga ko’chiradi:

Yana kuz... har tomonda yaproqlar
Qaltirab, asta yerga bosh qo’ydi.
Ko’k bulut... qolmamish go’zal chog’lar,
Ba’zi vaqt oftob bulutlardan
Mo’ralab dardli, o’ksiz bog’larga
Qochadir ezguvchi sukutlardan. [1, 95]

“Ko’k bulut... qolmamish go’zal chog’lar”, “ezguvchi sukutlardan” qochgan oftob kabi ifodalar lirik qahramon qalbidagi istilo iztiroblaridir.

Oybek lirikasi ikki jilg’aning qo’shiluvidan iborat. Agar birinchi jilg’aga, aniqrog’i, birinchi guruhga muhim ijtimoiy mavzularga bag’ishlangan asarlarni kiritsak, ikkinchi guruh sof lirik she’rlardan iborat. [2, 200] Bu fikrni tasdiqlovchi sof lirika namunalari ham Oybek ijodining zeb-u ziynatidir. Biz yuqorida tahlilga tortganimiz namunalari esa, aytish mumkinki, ana shu ikki jilg’ani uyg’unlashtiruvchi lirik manunalar hisoblanadi. Ana shu jihatlariga asosan bugun keng miqyosda o’rganilayotgan Oybek lirikasini istiqloq she’riyati ravnaqida muhim o’rin tutuvchi ijod mahsulidir, deya e’tirof etish shoir ijodiga xolisona yondashuv bo’lur edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Oybek. Sozim. Lirika. – T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
- 2.Karimov N. va boshqalar. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. – T.: “O’qituvchi”, 1999.
- 3.Jabborov N. Zamon. Mezon. She’riyat. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T., 2015.
- 4.<https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/nazm/456-oybek-sozim.html>

Xurmatoy SHERALIYEVA,
FarDU mustaqil izlanuvchisi

GULCHEHRA ASRONOVA HIKOYALARIDA XARAKTER VA RUHIYAT TASVIRI

Annotatsiya: maqolada Gulchehra Asronova “Singil”, “Oyqiz” hikoyalarida ayol xarakteri va ruhiyati, ayol xarakterini o’zgarishida oila va tashqi muhitning o’rni, tasvirlar badiiylilik nuqtayi nazaridan o’ziga xosligi, xarakter va uning muhim qirralari, xarakter tasvirida ilmiy-nazariy qarashlar o’z ifodasini topgan.

Kalit so’zlar: *xarakter, obraz, ruhiyat, detal, badiiylilik mezonlari, kulminatsiya, syujet.*

Аннотация: в статье рассказы Гульчехры Асрановой “Сингил” и “Айкыз” описывают характер и психику женщины, роль семьи и внешней среды в изменении женского характера, уникальность образов с художественной точки зрения, характер и его важные стороны, а также научно-теоретические взгляды на изображение персонажа.

Ключевые слова: *персонаж, образ, менталитет, деталь, художественные критерии, кульминация, сюжет.*

Annotation: the state artist Gulchekhry Asronova “Singil” and “Aykiz” describes the character and psychic woman, the role of the external environment and the changes in the female character, the uniqueness of the image with the divine eye, the character and the important side of the ego, as well as the scientific and theoretical aspects of the portrayal of the character.

Key words: *character, image, mentality, detail, artistic criteria, climax, plot.*

Badiiy adabiyotning quroli – so’z. So’z orqali ijtimoiy hayot va unda yashayotgan kishilar ruhiyatida yuz berayotgan evrilishlar o’z ifodasini topadi. Inson omili o’z tafakkurini boyitishi, rivojlantirishi, o’z ustida ishlashi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Zotan, “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor”¹. Bugungi o’zbek nasri qahramonlari xarakter va ruhiyat tasviri borasida yangi bosqichga ko’tarildi. Bugungi kun odami ham, bugungi kun qahramoni ham kechagi kundagi insonlarni takrorlamaydi. Shuning uchun ham adabiyotda yangicha qarashga ega bo’lgan yangi inson xarakteri va ruhiyati tasviri ko’zga tashlanadi. Bu ayniqsa, farg’onalik ijodkorlar nasri yozuvchilarimizning ilmiy-uslubiy izlanishlari natijasida yangi qiyofa aks ettirdi. Demak, so’z san’ati namunalarida inson ruhiyati, uning ong- shuurida paydo bo’layotgan turlicha qarashlar, tuyg’ular, evrilishlar, umuman olganda, ayol konsepsiyasini o’ziga xos badiiy tafakkuri bilan yoritib, kitobxon e’tiborini tortayotgan yozuvchilarning badiiy mahoratini o’rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

“U jamiyat taraqqiyoti, badiiy tafakkurning o’sib borishi bilan bog’liq holda tobora murakkab, serqirra bo’lib, mukammallashib boradi. Bu hol o’z navbatida

xarakter yaratish usul va imkoniyatlarining rivoji bilan bog’liq. Masalan, xalq eposida xarakter ijtimoiy ideal asosida yaratilgan bo’lsa, hozirgi davr adabiyotida individual xususiyatlarga boy, takrorlanmas holda yaratiladi”². Shuningdek, yunon tilidan olingan mazkur atama “Muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o’zida uyg’un mujassam etgan inson obrazi”³dir.

Gulchehra Asronovanning “Singil” hikoyasi qahramoni Nafisa sabrli, dardga og’ir ayol sifatida tasvirlanadi.

“Tuni bilan og’rib, mijja qoqmay chiqsa-da, erining qo’pol va qo’rs so’zlariga ojizgina javob beradi.

– Haliyam ivirsib yuribsanmi? Bolalaring qani?

– Dalaga ketishdi.

– Sen-chi?

– Bugun yaramay qoldim belimga yana qattiq og’riq turdi. Duxtirlar....

– He o’sha duxtirlaringniyam...”⁴

Yuqoridagi dialog orqali Nafisa va uning turmush o’rtog’i xarakter – xususiyatlari ochiladi. O’zbek ayollariga xos itoatgo’ylik, ojizalik, o’z fikrini erkin

2 Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир.//Халқ сўзи.-2017-йил, 4-август.

3 Хотамов Н. Саримсоқов Б.Адабиётшунослик терминлари русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент:Ўқитувчи, 1983.348-б.

4 Qurunov D.Adabiyotshunoslik lug’ati. – Toshkent, 2013.352-b.

1 Хотамов Н. Саримсоқов Б.Адабиётшунослик терминлари русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент:Ўқитувчи, 1983.348-б.

bayon etishdan tortinish, iymonish kabi xislatlar hikoya qahramonini ko'z oldimizda gavdalandiradi.

Dialog (yun. Dialogos – gaplashish, suhbat) – 1) ikki yoki undan ortiq kishining nutqiy muloqoti, suhbat; 2) adabiy- badiiy matn komponenti, asardagi personajlarning nutqiy muloqoti berilgan o'rinlar. Hozirgi zamon prozasi rivoyat, tavsif va dialogdan tarkib topadi; zamonaviy epik asarlarda dialog salmog'ining o'rinishi kuzatiladiki, bunga turlararo sintezlashuv, badiiy adabiyotning boshqa san'atlar bilan o'zaro aloqasi natijasi sifatida qarash mumkin⁵....

Hikoyaning kulminatsion nuqtasi shuki, sabr kosasi to'lgan ayol bir kuni uyidan bosh olib ketadi. Yozuvchi hech qanday chorasiz qolgan insonda ham, albatta, so'nggi umid bo'lgani kabi mana shu zaifa ayolda ham g'urur va izzat nafs bor ekanligini bir jumla orqali ko'rsatadi:

Bilganingni qil. Sensiz ham ishim boshimdan oshib yotibdi.

....Nafisa ko'z yoshlarini shahd bilan artdi. – Bilganimni qilaman!... Akamdan pul olib yana davolanishga yotaman. Tosh tushmaguncha yotaveraman!"⁶

Hikoyada ayol o'z qalbidan o'tgan, ongidagi kechinmani eriga ochiq aytadi. Ichki monolog – personajning moddiylashmagan, o'ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi; badiiy psixologizmning bevosita shakli. Ichki monolog shartli ravishda inson ongida kechayotgan o'ylov (his etish) jarayoni sifatida qabul qilinadi. Personaj ruhiyatini tasvirlash vositasi sifatida ichki monolog antik dramaturgiyadayoq ma'lum bo'lgan, ayniqsa, keng qo'llanila boshlagan.

O'z uyidan akasining uyiga (ota uyiga – ta'kid bizniki H.Sh.) yo'lga o'tlangan Nafisaning ko'ngil kechinmalari ijodkor tomonidan shunday aniq tasvirlanadiki, natijada o'quvchi uning fikrlarini o'z tasavvurida ko'radi, ishonadi.

"...institutga kirgan yili onasi vafot etdi. Akam qiynalmasin deb, o'qishni tashlab ishga kirdi. Obro'li kishilarning farzandi bilan sevishdi, lekin keyin rad etdi, "akam qiynalmasin", "akam siqilmasin", "akam..."⁷, – mana shu iboralar orqali Nafisaning butun hayoti, bolaligi o'z shaxsiy "men"ini qurbon qilish yo'li bilan o'tganligini ijodkor ishonarli rakursda tasvirlaydiki, bu ota-onasidan ayrilgan qizning chidamli xarakterini bosqichma-bosqich ko'rsatib beradi.

Xarakter (yun.charakter – iz, belgi, farqlovchi xususiyat) – badiiy xarakter; muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan

alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi. Badiiy xarakter o'zida obyektiv va subyektiv jihatlarni birlashtiradi⁸.

"Akam qiynalmasin", "akam siqilmasin", "akam..." bu so'zlar uning yuragidan shunday alam bilan otilib chiqyaptiki, bu alamning ichida akasidan hafalik, uning mehri va e'tiboriga tashnalik, baxtsiz o'tgan bolaligi uchun ta'na va o'kinch alomatlari seziladi. Biroq, akasining kelinoyisi bilan bo'lgan o'zaro suhbatini eshitib qolgan Nafisa yana ko'ngli yumshaydi, akasiga rahmi kela boshlaydi va o'z dardini ichiga yutib ortiga qaytadi. Bu ham ayol xarakteriga xos bo'lgan mehdaryolikning bir ko'rinishidir. O'zbek ayoli xakteri shakllanishida oilaviy muhit muhim ekanligi, oiladagi shart-sharoit birinchi planga chiqishidan dalolat beradi. Ko'rinadiki, o'zbek ayoli xakterining shakllanishida birinchi o'rinda oila bo'lsa, ikkinchi o'rinda tashqi muhit. Har qanday millat vakili bo'lgan ayollar xakterining shakllanishida oila va tashqi muhit muhim sanaladi.

Uslub (ar. Tartib, usul, yo'sin, tarz) – poetikaning muhim kategoriyalaridan biri; badiiy asarning u yoki bu tarzda shakli qurilishini belgilovchi umumiy prinsip. Uslub antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. Uslubda namoyon bo'luvchi ijodiy individuallik badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari - poetika) birdek ko'zga tashlanadi. Ya'ni uslub badiiy shaklning unsuri emas, balki unga xos xususiyatdir. U asardagi shakl unsurlarining o'z holicha emas, balki muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikka birikishini ta'minlaydi, har bir unsurning butun tarkibidagi mohiyati va funksiyasini belgilaydi⁹.

O'y-xayollar qurshovida borayotgan ayolning ruhiy kechinmalari, itoatgo'ylik kabi xislatlari o'zbek ayolining yorqin namunasi sifatida tasvirlangan. U fikrlayapti, u kurashyapti, u o'z dardiga chora izlashi orqali bugungi kun ayolining qiyofasini gavdalandirgan.

Adibaning har bir hikoyasi o'ziga xos uslubda yozilgan. Gulchehra Asronova o'z jinsdoshi tasvirini har xil uslubda tasvirlaydi. "Oyqiz" hikoyasi qahramoni ham boshqalardan ajralib turadi. "Oyqiz maktabni bitirgan xolos, ammo kitob jonu dili, uning dunyoqarashi bu qishloq sarhadlarini allaqachon tark etgan" – deya ta'riflanadi. Darhaqiqat, kitobga do'st tutingan har bir insonning dunyoqarashi atrofdagilardan anchagina baland bo'lishi isbotlangan tushuncha. Yozuvchi

5 Асронова Г. Ота уйим оқшомлари . – Тошкент, 2012. 35-бет.

6 Қуронов Д.Адабиётшунослик луг'ати. – Toshkent, 2013.90-бет

7 Асронова Г. Ота уйим оқшомлари. –Т., 2012.36-бет.

8 Асронова Г. Ота уйим оқшомлари.—Toshkent, 2012.36-бет.

9 Қуронов Д.Адабиётшунослик луг'ати.— Toshkent, 2013.352-б.

Oyqizni kitobga oshno ekanligini aytish orqali uning o'z dunyoqarashi, o'z fikri va o'zigagina ma'lum olami borligini kitobxonga oshkor qiladi.

Milliylik badiiy adabiyotning ham mazmun va shakl "libosi". Badiiy adabiyotning milliyligi har bir xalq hayotida milliylik ijtimoiy hodisa ekanidan, adabiyoti xalqchil ekanidan kelib chiqadi. Xalq hayoti ijtimoiy milliylik tamoyillari bilan bog'liq va uning bilan boyib borar ekan, xalq va jamiyatdan fikr, g'oya, mafkura oladigan badiiy adabiyot ham, albatta, milliy bo'lishi kerak¹⁰.

O'zbek millatiga xos bo'lgan yana bir milliy urf-odat bor, ota-ona tomonidan farzandga jufti halol tanlash masalasi. Hikoyada turmushga kech uzatilgan qiz taqdiri tasviri berilgan. Tengdoshlaridan eng oxirgisi bo'lib uzatilayotgan Oyqizga xalq tilida "o'tirib qolgan" iborasi ishlatiladi. Biroq Oyqiz dunyosi, qarashlari o'z tengdoshlaridan farq qiladi. U xayolida o'z bo'lajak turmush o'rtog'ining mukammal siymosini yaratib bo'lgan, faqat uning moddiylashuvi qolgan. Muallif bu visol onlarini "kuz quyoshi qizdirayotgan palla markazdagi bog'da uchrashdilar"¹¹, - deydi. Nima uchun aynan kuz – bahor emas, qish emas yoki jazirama yoz emas. Sababi kuzga donishmand fasl deb ta'rif beriladi. Kuz inson umrining eng yetilgan, mag'zi to'la, yil bo'yi qilingan mehnatlar hosilini yig'ib olish pallasi hisoblanadi.

Peyzaj – (fr. Paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interyer) tasviri. An'anaga ko'ra, peyzaj deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so'z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko'zda tutadi. Shu ma'noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko'chasining tasviri ham peyzaj... Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funktsiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir¹².

Hikoyada kuz fasli peyzaj vazifasini bajaradi va muallif ko'zlagan maqsadiga erishadi. Oyqiz ham ana shu pallaga yetib kelgan. Adiba kuz fasli orqali Oyqizning qariqizligini tasvirlagan, ikkinchidan, aldamchi tuyg'ular, aldamchi insonlar ruhiyati tasvirini bergan. Kuz fasli uchrashuvdagi yollanma kuyov bilan parallel tasvirlanadi.

Hikoyaning kulminatsion nuqtasi shuki, qiz bilan uchrashuvga chiqqan yigit boshqa birovning ya'ni,

yuzi chandiq do'stining nomidan kelgan soxta kuyov bo'lib chiqadi. Kuyov portretini tasvirlashda ijodkor kechiktirilgan ekspozitsiyadan foydalanadi.

Kechiktirilgan ekspozitsiya – syujet tugunidan so'ng yozuvchi tomonidan qahramon haqida berilgan ma'lumot¹³. "Nega uni avvalroq uchratmadi? Yo'q, endi u haqida o'ylamasligi kerak! Endi u birovning xasmi. O'sha bir paytlar dalada o'zini kombayn bosib ketishiga bir baxya qolganda qutqarib qolgan, ammo yuzi jarohat olib bir umr chandiq bilan yashayotgan yigitning xasmi u qiz. Undan o'zini qarzdor his qilib yurgan sho'rpeshanani "O'mimga uchrashuvga chiqasan", deb holi joniga qo'ymagan, yo'q deymasligini bilib shunday qilgan yaramasning xasmi halolidir u.

Yigit beixtiyor baralla gapirib yubordi:

E Xudo, nima qilib qo'ydim?!"¹⁴

Hikoyadan olingan ushbu parchada kechiktirilgan ekspozitsiyadan foydalanilgan holda voqealar rivojiga oydinlik kiritiladi. Uchrashuvga illosiz rozilik bergan yigit ruhiyatida kechayotgan sevgi iztiroblari bilan bir paytda Oyqiz taqdirida bo'layotgan alamli qayg'ular ruhiy parallelizm vositasidan unumli foydalangan holda yoritiladi.

Muallif Oyqiz obrazi orqali o'zbek ayol-qizlarining ijtimoiy hayot bilan maishiy turmush jabhalarida egallagan o'rni, oilasiga, ota-onasiga sadoqati hamda mas'uliyatini ko'rsatib beradi. Oyqiz dunyoda eng ishongan odamlari – ota-onasining ham bu "fitna"ga qo'shilganligi, to'y yaqinlashgach, xomush tortib qolishi, amma-xolalarining borgan joyida toshdek qotish kerakligi haqidagi uzundan uzun nasihatlarini eslaydi.

Adiba asar boshida Oyqizni kitobga mehr qo'ygan, royish, ko'nuvchan qiz sifatida tasvirlaydi. U hech qachon o'zgarmaydigan xarakterga, fe'l-atforga ega ayol sifatida ko'zga tashlanadi. Biroq adibaning mahorati shundaki, aqlli, ko'p kitob o'qigan qizning dunyosi, o'z qarashi tashqi muhit asosida o'zgarishi, xarakter sifatida ko'rinish berishini bosqichma-bosqich ko'rsatib beradi. Bu esa syujetda keskin burilish yasaydi.

Oyqiz o'z hayoti uchun kurashadi. Mast holda uxlab qolgan kuyovni tashlab deraza orqali dala tomon qochadi. "Shunday sekin yurib ketdiki, qishloqning eng sergak itlari ham pinak buzmay uxlab yotardi"¹⁵, - deydi. Oyqiz dala-yu, changalzor oshib ko'lga yetib keladi. Hikoyada ko'l detal sifatida qo'llanadi.

13 Qur'onov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T., 2010. 220-bet

14 Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Ўзбекистон наشريёти. 2002 йил 118-бет.

15 Asronova G. Ostonangda turibman, dunyo. –T., 2019. 120-bet

10 Qur'onov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T., 2010. 341-bet

11 Mirhaydarov H. Adabiyot nazariyasi. – Guliston, 2008. 21-bet

12 Asronova G. Ostonangda turibman, dunyo. –T., 2019. 112-bet

Detal – (fr.detail – tafsilot, mayda-chuyda) – badiiy detal badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilot. Avvalo, detal badiiy voqelikni yaratish vositasi, ashyosi bo'lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo'lgan tarzda gavdalandiradi. Boshqacha aytsak, detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya'ni u hamisha predmetlikni ko'zda tutadi), detallarning birikuv natijasida o'sha obraz ko'z oldimizda butun holda namoyon bo'ladi¹⁶.

Ikki qishloqni ajratib turadigan ko'l, so'ngra ikki intizor qalbni birlashtiruvchi ko'lga aylanadi. Ya'ni, uchrashuvga chiqqan yigit "o'zini qarzidor deb yurgan sho'rpushona" ham shu ko'lga baliq tutishga keladi. To'yga borish ko'ngliga sig'maydi. Hamroh do'stiga bo'lgan voqealarni aytib, Oyqiz berkinib turgan tomonga o'giriladi. "Tun shunday oydin ediki, yigitning yuzi elas-elas tanir darajada yorishdi. Qizning yuragi ko'ksini yorib chiqqudek potirlab ketdi"¹⁷, - deydi hikoyachi.

O'zbek adabiyotining yirik vakili Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek va Kumushning visol onlari qizning "Siz o'shami?" degan yoqimli savolini o'z yoridan so'rash qizning yurakdagi eng katta orzusi ekanligi hikoya boshida tugun sifatida berilgandi. Bu tugun shu ko'lga kelganda yechim topadi.

Bu o'rinda ikki oshiqning topishishi bilan bir qatorda oy detaliga alohida e'tiborimizni qaratamiz. Bosh qahramonga Oyqiz ismining tanlanishida ham ramziylik bor. U yerdagi odamlardan farq qiladi Oyning qizi. Boshiga tushgan goh quvonchli, goh qayg'uli damlarida ham Oy bilan dardlashadi: "Qizlarni aldab uzatish qadim zamonlarda qolib ketgan desalar ishonma... Lekin men qarab turmayman! Kurashaman ular bilan! Qiz bola ham odam ekanligini

bilib qo'yishsin! Eh, Oymomojon... Bilasanmi nima qilmoqchiman? Uyga qaytib otamning, onamning, keyin o'sha ... uchrashuvga chiqqan nomardning ko'zlariga tik qarayman! Nega bunday qildinglar, endi menga nima bo'ladi, nima qilay, - deb so'rayman?..."¹⁸. Shu oydin tunda topishgan ikki oshiqning ahvol-ruhiyatini yozuvchi ortiqcha ta'riflab o'tirmaydi. Uni ilg'ab olishni kitobxon zimmasiga yuklaydi.

Epilogda ham oy detaliga murojaat qiladi. "Biz bilgan oy yuzli qiz esa ko'ldan ancha olis, ammo tunlari o'shanday oydin bir yurtga bosh olib ketdi. Otasining oq fotihasi, jufti haloli bilan. Huv anavi oppoq uyning Oymoma mo'ralab turgan derazasiga nazar soling-a?"¹⁹ "Oy, oydin, oymoma" bu so'zlar o'zakdosh so'zlar sifatida badiiy adabiyotning lirik turida ishtiyoq san'atini vujudga keltiradi. Nasriy turda esa, muallif qahramonning tashqi ko'rinishi, ruhiy holati, baxtli hayotini tasvirlash maqsadida oy obraziga murojaat qiladi. Bu jummalarni o'qigan o'quvchi Oyqizning o'zi istagan baxtga yetishganini ilg'ab olishi, shubhasiz. Aslida tabiat ayolni juda ojiz, nozik hilqat sifatida yaratgan bo'lsa-da, uning kichik jussasida ulkan metin iroda bor ekanligini hikoyani o'qish asnosida tushunib yetdik.

Xarakter yaratish, uni kitobxonga singdirish, personaj ruhiyatini ochib berish yozuvchidan ulkan mahorat talab qiladi. Bunga G.Aronovanning "Singil", "Oyqiz" hikoyalaridan keltirilgan parchalarni tahlil qilish jarayonida amin bo'ldik. "Singil" hikoyasi qahramoni Nafisada ham, "Oyqiz" hikoyasi qahramoni Oyqizda ham ayol ruhiyatidagi mehribonlik, soddalik va ishonuvchanlik bilan birga o'ziga bo'lgan ishonch va qat'iyat tuyg'ulari mujassam etilgan. Bu ikki obrazni solishtirar ekanmiz, ayolning bir paytning o'zida ham ojiz, ham yengib bo'lmas ruhiyatini ko'ramiz. Adiba Nafisa va Oyqiz obrazlari orqali ayol konsepsiyasini yaratgan.

16 Aronova G. Ostonangda turibman, dunyo. –T., 2019. 125-bet
17 Qur'onov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T., 2010. 88-bet

18 Aronova G. Ostonangda turibman, dunyo. –T., 2019. 120-bet
19 Aronova G. Ostonangda turibman, dunyo. –T., 2019. 122-bet

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. //Халқ сўзи.-2017-йил, 4-август.
2. Хотамов Н. Саримсоқов Б.Адабиётшунослик терминлари русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
3. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent, 2013.
4. Aronova G. Ostonangda turibman, dunyo. –Toshkent, 2019.
5. Т.Бобоев. Адабиётшунослик асослари. – Toshkent:Ўзбекистон нашриёти, 2002 йил
6. Mirhaydarov H. Adabiyot nazariyasi. – Guliston, 2008.
7. Аронова Г. Ота уйим оқшомлари. –Т., 2012.

Xolmo'min FAYZULLAEV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

HIKOYADA HAYVONOT TABIATINING REALISTIK TASVIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada N.Norqobilovning bir hikoyasidagi hayvonot dunyosi vakilining tabiati, tabiiy instinktlari, tashqi dunyo bilan munosabati tasviriga diqqat qaratilgan. "Do'ngkalla" deb nomlangan ushbu hikoya yozuvchi nasrining yangi bir bosqichi bo'lib, unda dala sichqoni bosh qahramon bo'lib kelgan.

Kalit so'zlar: "Tabiat", "nabotot", "jamodot", "anamalistik adabiyot", "anamalistik hikoya", "anamalistik obraz", hikoya, janr, syujet, epizod, detal, syujet chizig'i.

Annotation: this article focuses on the nature, natural instincts, and relationship with the external world of the representative of the animal world in a story by N. Norqobilov. The story titled "Do'ngkalla" represents a new phase in the author's prose, where a field mouse serves as the main character.

Key words: "Nature", "flora", "fauna", "anamalistic literature", "anamalistic story", "anamalistic image", story, genre, plot, episode, detail, plot line.

Аннотация: в данной статье уделяется внимание природе, природным инстинктам и взаимосвязям с внешним миром представителя животного мира в рассказе Н. Норқобилова. Рассказ под названием «Донгкала» является новой стадией в прозе автора, где главной героиней выступает полевка.

Ключевые слова: «Природа», «флора», «фауна», «анамалистическая литература», «анамалистический рассказ», «анамалистический образ», рассказ, жанр, сюжет, эпизод, деталь, сюжетная линия.

N.Norqobilov hikoyalarining yana bir yorqin namunasi sifatida quyida nisbatan keyinroq yozilgan "Do'ngkalla" hikoyasi bo'lib hisoblanadi. O'zi bilan bo'lgan shaxsiy suhbatlarimizdan birida yozuvchi shu hikoyani yozish uchun asari qahramoni mo'jazzgina sichqonchani bir hafta erinmay kuzatganini aytgan edi. Haqiqatdan ham dala sichqonidek hurkak va yovvoyi bir jonzotni bu darajada tasvirlash uchun kamerada tasvirga olish ham kifoya qilmaydi. Chunki yovvoyi sezgi kamerani sezadi. Uning hididan begona qiladi. Odamni esa xavf bermasligini sezsa, o'zini erkin tutadi. Xuddi shu suhbatda yozuvchi yana aytdiki, kuzatishning uchinchi kunida sichqon undan cho'chimay qo'yibdi. Bir hafta o'tgach esa, yoniga kelib, qo'lidan non ushog'ini olib ketadigan bo'libdi. Hikoyani o'qish davomida yozuvchining ushbu gaplari haqiqat ekani, tasvirlar tom ma'noda realistik asosga qurilganiga aniq ishonamiz.

Hikoyada sichqon – Do'ngkalla hayoti to'rt yo'nalishda, turli tasvir yo'nalishlarini o'zaro bog'lash asosida mukammal realistik, hatto naturalistik tasvirini topgan. Asarning realistik asosga egaligi shundaki, unda bironta ishonchsiz epizod, xatti-harakat, detal uchramaydi. Hikoyaga kirgan ushbu komponentlarning barchasi o'zining konkret o'rni hamda vazifasiga ega. Shuning uchun eng sinchkov o'quvchida ham e'tiroz uyg'otmaydi. Natural tasvirning mavjudligi esa Do'ngkalla tarjimai holi, maishiy faoliyati, odamlar-u boshqa jonzotlar bilan munosabati, hattoki portretigacha aniq detallar orqali tasvirlanganida ko'rinadi. Shu yerda "Do'ngkalla" hikoyasida realistik va naturalistik tasvir muallif tomonidan muvaffaqiyat

bilan sintezlanganini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq.

Qayd etilgan to'rt tasvir yo'nalishi:

1. Do'ngkallaning "tarjimai" holi. Darhaqiqat, hikoyadagi Do'ngkalla obrazi xuddi odamga o'xshab, o'zining tarjimai holiga ega: U hali murg'ak, ona xizmatiga muhtoj bir paytda hayot sinovlariga duch kelgan. Onasidan bevaqt ajragan. Hikoyada qahramon tarjimai holining boshlang'ich qismi shunday tasvirlanadi: "Tabiatan xuddi onasidek o'ta ziyrak, o'ta ehtiyotkor edi. Biroq, shu xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, onasi, kunlardan birida, baribir tulkiga yem bo'ldi. Onasi g'anim changalida qay tarzda o'lim topdi, buni tasavvur etmoqqa Do'ngkalla juda ojiz. Negaki, mazkur fojia haqida uning birdan-bir bilgani shu – o'sha kuni onasi, damingni chiqarmay, tek o'tir, deya tulkini chalg'itish niyatida yo'lak bo'ylab chopqilab ketdi-yu, shu bilan boshqa qaytib kelmadi". Shu tariqa Do'ngkalla o'z kunini o'zi ko'rishga majbur bo'ladi. Ammo sira ham notavon va ojiz jonzot bo'lib qolmaydi. Onasidan olgan tajribalarga suyanib mustaqil hayot boshlaydi. Hatto tadbir va omilkorlikda onasidan ham o'zib ketadi.

2. Do'ngkallaning tadbirkorligi va uddaburonligi: a) u hayoti davomida uchragan har bir muammosidan tajriba, saboq chiqara oladi; b) onasi nisbatan jo'nroq qurib ketgan inini g'animlarining aqli yetmaydigan darajada mukammallashtiradi, tizimga soladi: "Do'ngkalla tirik qolishning xilma-xil sir-sinoatlarni qismangina onasidan, qolganlarini esa, dasht sichqonlariga xos bo'lmagan do'ng manglayini ming bir toshga urib-urib, sekin-astalik bilan o'zi o'zlashtira

borgan. Shuning uchunmi hududida pishiq-puxta himoya tizimi – yo'laklarni yaratish borasida onasidan ko'ra omilkorroq chiqdi. Xullas, endilikda uning hududi xuddi o'rgimchak to'ridek sertarmoq yo'laklardan iborat bo'lib, onasi yoxud boshqa turdoshlari ikki dunyoda ham bu xildagi murakkab tizimni yarata olmasligi mumkin edi". Shu sababli Do'ngkalla onasidan keyin shafqatsiz bu dunyo qiyinchiliklarini yengib, yashab qola bildi.

3. Do'ngkallaning tabiati. Qismatning sinovlari uni tadbirkor, uddaburon bo'lishga olib kelgan bo'lsa, hayvonot jamiyati, odamlar, tabiat hodisalari ayyor, quv bo'lishga o'rgatdi. Do'ngkalla uya qurish, o'z hududining xavfsizligini ta'minlash, o'zining turdoshlari orasida hudud va avtoritetga ega bo'lish uchun kuchidan ham ko'ra quv aqliga suyanib yashaydi. Yozuvchi bu xabarni o'quvchiga asar boshidayoq shunday tasviriy bayon etadi: "Do'ngkalla o'zicha quv, o'zicha baxtiyor edi. Quvligi shundaki, ko'kdagi va yerdagi turli g'animlarni o'z vaqtida payqab, hamisha yashin tezligida bekina bilar, so'ng esa go'yo ularni boplab dog'da qoldira olganidan quvonganidek, raqibining qorasi o'chishi bilan ohistagina chiyillab qo'yardi. Baxtiyorligiga kelsak, sertarmoq yo'lak va yo'lakchalardan iborat mo'jazgina hududi dashtning ovloq kunjagida, ya'ni podatuyoqlardan holi yerda joylashgan: bir tomoni tik jarlik, bir tarafi baland tepalik, qolgan qismi esa har yili qovun-tarvuz ekiladigan keng lalmi dashtga tutash bo'lib, makonini toptaydigan poda tugul, adashgan-uloqqan biror-bir echki-uloq ham doriy olmasdi bu yoqqa".

4. Hikoya qahramonining portreti. Bu masalani yetarlicha hal etish uchun muallif insonning yordamidan foydalanadi. Haqiqatdan ham tabiat hodisalari, manzaralar, nabotot, hayvonot, jamodotning natural tasviri uchun muallifga har doim odam nigohi kerak bo'ladi. Busiz masalani hal etish qiyin. "Do'ngkalla"da muallif ko'zlari tiyrak, kuzatuvchan, aqli, fahm-farosati o'tkir bola, poliz egasi Normat qoraning nabirasi obrazidan foydalanadi: "Bolaga kelsak, "dala sichqoni" deb atalmish bu jonivor o'zining uzunchoq

tumshug'i, to'qjigarrang boshi, ochsariq tusi hamda o'zi ko'rgan va bilgan uy sichqonlariga nisbatan uch baravar kattaligi bilan juda qiziqtirib qo'ygandi uni".

5. Qahramonning odamlar bilan munosabati. Do'ngkalla aqlli jonivor edi. O'ziga kim do'st-u, kim dushman, kimdan xavf kutish kerag-u, kimdan qo'rqmaslik kerak juda yaxshi ajratardi. Dastlab u Normat qoraning nabirasi minib kelgan eshakdan cho'chiydi. Uyidan chiqmay bu qo'rqinchli "mahluq"ning ketishini yarim kun kutadi. Ketavermagach uni sinash uchun yaqin boradi. Xavf yo'qligini bilganidan keyin bemalol odatdagi hayotiga qaytadi. Ammo Do'ngkallaning odamga munosabati sal boshqacharoq. U odamdan huda-behudaga qochmaydi. Ko'zini tikib kuzataveradi. Qaltis harakatini ko'rmagunicha oldidan ketishga shoshilmaydi: "Bola o'ng oyog'ini yerga tap-tap urdi. Sichqon qilt etmadi. Bola egilib yerdan kesak oldi. Sichqon holatini o'zgartirmadi. Bola qo'lidagi kesakni otmoq bo'lib, qulochini yozdi. Sichqon bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi". Normat qoraning nabirasi bo'lgan bu bola bilan Do'ngkalla tez til topishib, tez "chiqishib" ketadi. Hatto ular do'stlashib qoladilar.

N.Norqobilovning o'zi yuqorida eslatilgan suhbatda: "Bir hafta ichida biz u bilan do'stlashib qoldik", degan edi. Shu va boshqa keltirilgan dalillarga suyanib aytsak bo'ladiki, bola obrazi ostida Do'ngkallani bir hafta kuzatib, u haqida hikoya yozgan muallifning o'zi turadi. Shuning uchun ham yaydoq dalada Normat qora chaylasi yoniga katta yoshli odamni keltirib, sichqonni kuzatirishdan ko'ra, yozuvchi bu vazifani bu joyga kelishga-da, sichqonni kuzatishga-da haqli bo'lgan nabira obrazini kiritadi. Qolaversa, bu bilan yozuvchi o'zining jonivorlarni tasvirlashdagi ijodiy prinsipiga sodiq qoladi. Bola tabiatga yaqin, uning nigohi o'tkir va samimiy degan aqidasini bu asariga ham mahorat bilan tatbiq qila oladi. Natijada hayvonot olamining eng mitti vakili haqida hali o'zbek adabiyotida kuzatilmagan yangi va badiiy tomonlama yuksak bir asar dunyoga keladi. Bu bilan yozuvchi hikoya janri imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova Sh.A. Inglizabon G'arb adabiyoti va o'zbek adabiyotida anamalistika janri xususiyatlari (E.Seton-Tompson va N.Norqobilov ijodi misolida). F.f.f.d. (PhD)...diss. – Toshkent, 2020.
2. Norqobilov N. Bo'ron qo'pgan kun: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. Norqobilov N. Chetdagi odam. Hikoyalar. – Toshkent: Cho'lpon, 2019.
4. Norqobilov N. Bekatdagi oq uycha. – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq NMAKBT, 2007.
6. Rasulov A. Shaydolik /Norqobilov N. Bo'ron qo'pgan kun: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2007.
7. S.Tompson E. Yovvoyi yo'rg'a. Rus tilidan Tog'ay Murod tarjimai. –Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2010.

Khusan BERDIYEV,

Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor

Charos Ismoilova

English teacher, independent researcher

University of Economics and Pedagogy, Samarkand Campus

ANALYSIS OF LITERARY EXCREPTS IN MAHMUD AL-KASHGARI'S DĪWĀN LUGHĀT AL-TURK

Annotation: this study highlights the decisive role of Dīwān Lughāt al-Turk in the exploration of Turkic linguistic poetics, supported by evidence. Special attention is given to its importance in the fields of linguistics and literary studies. Additionally, the research examines scholarly works dedicated to the philological investigation of the text. This comprehensive approach deepens the understanding of relevant observations. The article also explores the history of philological analysis from the perspective of linguistic poetics.

Key words: *Dīwān Lughāt al-Turk, literary passages, philological analysis, history of poetics, linguistic poetics*

Аннотация: в данном исследовании подчёркивается решающая роль Dīwān Lughāt al-Turk в изучении тюркской лингвистической поэтики на основе доказательств. Особое внимание уделяется значению этого труда в области лингвистики и литературоведения. Кроме того, исследование рассматривает научные работы, посвящённые филологическому анализу текста. Такой всесторонний подход способствует более глубокому пониманию соответствующих наблюдений. Также в статье рассматривается история филологического анализа с точки зрения лингвистической поэтики.

Ключевые слова: *Dīwān Lughāt al-Turk, литературные отрывки, филологический анализ, история поэтики, лингвистическая поэтика*

Annotatsiya: ushbu tadqiqot Dīwān Lughāt al-Turk asarining turkiy tillarning poetikasini o'rganishdagi hal qiluvchi rolini asosli dalillar bilan yoritadi. Asarning tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalaridagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot, shuningdek, matnni filologik tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy ishlarga ham murojaat qiladi. Bunday keng qamrovli yondashuv mavjud kuzatuvlarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, til poetikasi nuqtayi nazaridan filologik tahlil tarixiga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Dīwān Lughāt al-Turk, adabiy parcha, filologik tahlil, poetika tarixi, til poetikasi*

Introduction

It is well known that Dīwān Lughāt al-Turk is not only a rare source for linguistic research but also an invaluable material for literary studies. With its rich and expansive content, it is regarded as an essential reference across various disciplines. Mahmud ibn al-Husayn Muhammad al-Kashgari, the renowned 11th-century encyclopedic scholar, made significant contributions to the development of Turkology. Through the

commentaries in his work, one can acquire deep insights into the phonetics, morphology and lexical systems of the Turkic language of that era. According to S. Mutallibov, in his article Dīwān Lughāt al-Turk and Its Translation, the dictionary provides explanations of word meanings and valuable structural information. In another article, Mahmud al-Kashgari and His Dīwān Lughāt al-Turk, Kononov, relying on O. Pritsak's calculations, affirms that Mahmud al-Kashgari belonged

to the noble class of the Qarakhanids, began writing the *Dīwān* in 1072, and completed it in 1078. Mahmud al-Kashgari writes:

"When our ancestors took the Turkic lands from the Samanids, he [our ancestor] was the ruler; they called him 'Tekin' (prince)." Before composing the *Dīwān*, he had collected extensive linguistic, historical, and ethnographic material.

Analysis of Literature

The first academic attempt to classify and analyze the literary passages in this work was made by Professor A. Fitrat. As a monument of the 11th century, *Dīwān Lughāt al-Turk* had a significant influence on general Turkic literature and the development of later Uzbek poetry. Although the exact number of poems in the *Dīwān* remains unknown, it is essential to prepare a dedicated publication of its poetic content. As Professor A. Hayitmetov emphasized, a detailed study of these quatrains reveals that not all poetic examples in the *Dīwān* belong to oral folk literature. This suggests that written literature among Turkic peoples had already emerged long before the 11th century. Furthermore, the poems reflect the socio-political life of that period, encompassing philosophical, socio-political, romantic and narrative lyric genres. Only two of these poems—The Elegy of Alp Er Tunga and The Debate Between Winter and Summer—are widely known, while the rest have been largely overlooked. Many of them were composed by individual professional poets. The *Dīwān* also documents the territories inhabited by different tribes, customs, lifestyles, phonetic, lexical, morphological and dialectical features

Research indicates that there are 242 literary pieces in the text—epics, elegies, folk songs about labor and love, depictions of nature and homeland, heroic songs and hunting chants—along with over 200 proverbs.

This encyclopedic work consists of two main parts: an introduction and a lexical section. As a lexical resource, *Dīwān Lughāt al-Turk* holds particular significance. It explains the meanings of words and expressions through proverbs, songs, and wise sayings. According to linguist S. M. Mutallibov, the inclusion of literary passages

and Mahmud al-Kashgari's commentary on them reflect his deep interest in literary creativity.

Methodology

The poetic passages of *Dīwān Lughāt al-Turk* were analyzed using historical-comparative, descriptive, and classificatory methods and have been incorporated into both higher and general education curricula. However, their artistic features have not been thoroughly examined, paving the way for new directions in literary research. These poems vividly portray life and leave a strong impression. According to E. Rustamov, these excerpts were written by individuals with literary knowledge and artistic skill. Researchers have noted that the poems were mostly composed using the *barmoq* (syllabic) meter. Stebleva classified nearly all of them as conforming to the *aruz* (quantitative) system, while T. Ganjiy stated that some poems used *aruz* meter. N. Mallayev acknowledged the use of both meters but emphasized the dominance of the *barmoq* system, highlighting its smoothness, musicality, and emotional depth.

Artistic Features of the Poetic Passages in *Dīwān Lughāt al-Turk*. As noted by A. Hayitmetov, a strong didactic tendency is evident in the quatrains, likely due to the characteristics of tribal society. Influences from the didactic traditions of Persian-Tajik literature during the 11th–12th centuries can also be observed. According to B. Tohliyev, the quatrain is one of the oldest forms in Turkic poetry. The poems are artistically refined, with some attributed to historical figures such as A'sha. The didactic works of Yusuf Khos Khojib, Alisher Navoi and Magtymguly Pyragy trace their roots to ancient Turkic traditions. These poems hold value for literature of any era. Notably, similarities can be seen with the quatrains in Kutadgu Bilig. Both use the *barmoq* meter and follow rhyme schemes such as a-a-b-a or a-a-a-a, aligning with the rubai or murabba forms.

Conclusion and Recommendations

Literature is the art of understanding humanity and manifests through language. The poems in the *Dīwān* are diverse in theme, idea and artistic style. They play a crucial role in creating artistic expression through linguistic means. The following language elements contribute to their artistry:

1. Symbolic power of letters
2. Phonetic and orthoepic features
3. Primary and figurative meanings of words
4. Morphological capabilities of words
5. Combinatory potential of words
6. Repetition of words

The poems are rich in artistic devices, all of which are reflected in the language. A linguo-poetic analysis of the literary devices in *Dīwān Lughāt al-Turk* leads to the following conclusions:

“It is appropriate to begin the analysis of literary devices with *Dīwān Lughāt al-Turk*.” Every

artistic device must be studied in terms of expression, meaning and function. The formation of tropes and syntactic figures is based on the interplay of syntagmatic and paradigmatic relationships. Linguopoetics—an interdisciplinary field combining linguistics, poetics, literary studies, stylistics and the literary language—plays a vital role in preserving the integrity of classical philology. However, this is achievable only through philological analysis of texts. Modern literary criticism acknowledges that classical literature established many artistic devices.

References:

1. Kononov, A. N. (1972). Makhmud Kashgarskiy i ego “Divanu lughat it-turk”. *Sovetskaya tyurkologiya*, 1972(1), 3–17.
2. Boltaboev, H. (2002). “Devonu lug’otit turk”dagi manzum parchalarning adabiy tasnifi. In *Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o’rni* (pp. 118). Samarkand: Xalqaro konferensiya materiallari.
3. Aliev, A., & Sodiqov, Q. (1994). *O’zbek adabiy tili tarixidan* (o’quv qo’llanma). Toshkent.
4. Mutallibov, S. M. (1960). XI asrning buyuk filologlari va ularning noyob asarlari (So’z boshi). In *Devonu lug’otit turk* (Vol. 1, p. 23). Toshkent.
5. Akramov, B. (1988). *Olamning butunligi*. Toshkent.
6. Tuxliev, B. (2004). *Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”i va ayrim janrlar takomili (masnaviy, to’rtlik, qasida)* (p. 33). Toshkent.
7. Afoqova, N. (2001). Bir she’rning vazni xususida. In *Mohiyatga intilgan olim: Prof. H. G’. Ne’matovga bag’ishlangan maxsus to’plam* (p. 52).
8. Hayitmetov, A. (1970). *Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan* (p. 50). Toshkent: Fan.
9. Sharafiddinov, O. (1986, September 5). Adabiyot tildan boshlanadi. *O’zbekiston Adabiyoti va San’ati* (O’zAS).
10. To’lanova, N. (2003). Badiiy san’atlarning yaratilishida til vositalarining o’rni. *O’zbekiston Til va Adabiyoti*, 2003(1), 67.
11. Afoqova, N. (1994). *Abdulla Oripov lirikasida badiiy san’atlar* (pp. 90–91). Buxoro.



Rayxona TILLAYEVA,

*Namangan davlat pedagogika instituti Filologiya kafedrası mudiri
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail: rayxona_tillayeva_05@mail.ru*

ADABIY TAHLIL – ADABIY TA'LIMNING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI SIFATIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiy tahlilning adabiy ta'limdagi roli, didaktik ahamiyati va ta'sirchanlik omillari nazariy va amaliy asosda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonining metodik modellari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashuvi hamda o'quvchilarda estetik va tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi o'rni misollar asosida ko'rsatib beriladi. Maqolada an'anaviy va innovatsion usullar uyg'unligi asosida o'rganish samaradorligini oshirish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *adabiy tahlil, adabiy ta'lim, estetik tafakkur, obraz, syujet, metodika, tanqidiy fikrlash, innovatsion ta'lim texnologiyalari.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль литературного анализа в литературном образовании, его дидактическое значение и факторы воздействия на теоретической и практической основе. На примерах показаны методические модели процесса анализа, его интеграция с современными образовательными технологиями, его роль в формировании эстетического и критического мышления учащихся. В статье обозначены пути повышения эффективности обучения на основе сочетания традиционных и инновационных методов.

Ключевые слова: *литературный анализ, литературное образование, эстетическое мышление, образ, сюжет, методология, критическое мышление, инновационные образовательные технологии.*

Annotation: this article analyzes the role of literary analysis in literary education, its didactic significance and impact factors on a theoretical and practical basis. Methodological models of the analysis process, its integration with modern educational technologies, and its role in the formation of aesthetic and critical thinking in students are shown on the basis of examples. The article highlights ways to increase the effectiveness of learning based on the combination of traditional and innovative methods.

Key words: *literary analysis, literary education, aesthetic thinking, image, plot, methodology, critical thinking, innovative educational technologies.*

Kirish. Zamonaviy pedagogik paradigmalarining markazida o'quvchi shaxsining har tomonlama rivoji, mustaqil fikrlashga tayyor bo'lishi, estetik va ma'naviy yetuklik darajasiga erishishi turadi. Badiiy asarlarni chuqur va tizimli o'rganish bu yo'lda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu esa, o'z navbatida, adabiy tahlilning adabiy ta'limdagi rolini qayta baholashni, uni darsning markaziy bosqichiga aylantirishni taqozo etadi.

Adabiy tahlil orqali o'quvchi muallif g'oyasini anglaydi, badiiy obrazlarni tahlil qiladi, syujet va kompozitsiya qurilishi ustida fikr yuritadi, asarning estetik va ijtimoiy mohiyatini tushunadi. Aynan shu jarayon o'quvchini iste'molchi emas, faol o'rganuvchi va tahlilchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Asosiy qism.

1. Adabiy tahlilning pedagogik mohiyati.

Adabiy tahlil – bu o'quvchi tomonidan asarni individual anglash, u orqali hissiy, aqliy va estetik xulosalarga kelish jarayonidir. Adabiy ta'limda tahlil quyidagi yo'nalishlarda harakatlantiruvchi kuchga aylanadi:

- **Fikrni chuqurlashtiradi** – o'quvchi har bir badiiy detaldan yangi ma'no izlaydi.

- **O'quvchini faol tinglovchi emas, faol ishtirokchiga aylantiradi** – tahlil jarayonida u o'z pozitsiyasini bildiradi.

- **Badiiy tafakkurni shakllantiradi** – obraz, til, g'oya, voqelik o'rtasida bog'liqlikni tushunadi.

- **Estetik baho berish ko'nikmasini shakllantiradi** – asarni faqat syujet emas, san'at asari sifatida ko'ra boshlaydi.

2. Adabiy tahlilning metodik shakllari.

Tahlil o'z mohiyatiga ko'ra turli ko'rinishlarga ega:

- **Obrazli tahlil:** asar qahramonlari xarakteri, ularning o'zgarish dinamikasi, ichki kechinmalari tahlil qilinadi. *Misol:* "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek obrazining o'zgarish jarayoni, jamiyatdagi o'rning evolyutsiyasi.

- **Syujet-kompozitsion tahlil:** asarning tarkibiy qismlari, voqealarning ketma-ketligi, tasvir usuli tahlil qilinadi. *Misol:* Oybekning "Navoiy" romanida tarixiy voqealar asosida yaratilgan epizodlarning o'zaro bog'liqligi.

- **Psixologik tahlil:** qahramonning ichki olami, hissiyotlari, motivatsiyasi va kechinmalari tahlil

qilinadi. *Misol:* G'afur G'ulomning "Men – yahudiymen" hikoyasidagi ichki ruhiy kechinmalar orqali bag'rikenglik masalasi yoritiladi.

- **G'oyaviy-estetik tahlil:** asar orqali berilgan ijtimoiy g'oya va estetik qadriyatlar aniqlanadi. *Misol:* Abdulla Oripovning "Sen yetim emassan" she'ridagi vatanparvarlik va g'urur g'oyasining tahlili.

3. Tahlil orqali dars samaradorligini oshirish yo'llari.

Adabiy tahlilni interaktiv usullar bilan uyg'unlashtirish orqali quyidagi metodlar samaradorlik beradi:

- **"Fikringizni asoslang" metodikasi** – o'quvchidan o'z tahliliy xulosasini dalillar bilan isbotlash talab etiladi.

- **Rolli o'yinlar** – o'quvchilar obrazlar rolini ijro etib, ularning qarorlariga asosli tushuntirish beradi.

- **Grafik tahlil** – syujet rivojini, obrazlar munosabatini diagramma va klasterlar yordamida ochib berish.

- **Debat shaklidagi bahslar** – tahliliy fikrlar o'rta-sida qarama-qarshi pozitsiyalarni muhokama qilish.

Amaliy misol: "Alpomish" dostoni tahlilida ikki guruh "Alpomish – o'z zamonasi qahramoni" va "Alpomish – idealizatsiyalangan obraz" degan bahs mavzularida tahliliy mushohada yuritadi.

4. Adabiy tahlil va zamonaviy texnologiyalar.

Bugungi kunda adabiy tahlilni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning faol ishtirokini kuchaytiradi:

- **Multimedia slaydlar** orqali obrazlar tavsifi, tarixiy kontekst, syujet dinamikasi taqdim etiladi;

- **Padlet, Mentimeter, Quizlet** kabi vositalarda tahliliy savollarga kollektiv javoblar jamlanadi;

- **Virtual galereya** yoki "ijodiy tahlil devori" orqali o'quvchilar asar haqida o'z tasviriy yoki yozma xulosalarini taqdim etadi.

Xulosa. Adabiy tahlil – bu adabiy ta'limning faqatgina tarkibiy qismi emas, balki **harakatlantiruvchi kuchi** bo'lib, o'quvchi tafakkurining shakllanishida markaziy o'rin tutadi. Tahlil orqali asarni anglash, obrazlarga ruh bag'ishlash, g'oyani his qilish va shaxsiy baho berish kabi chuqur jarayonlar yuz beradi. Bu esa o'quvchini adabiyotga qiziqtiradi, uni bilimdon emas, fikrli va estetik shaxsga aylantiradi.

Shu asosda quyidagi xulosalarni ilgari suramiz:

1. Adabiy tahlil – shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy vositasi bo'lib, o'quvchida mustaqil tafakkur va estetik didni shakllantiradi.

2. Tahlil metodikasini zamonaviy ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtirish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

3. Har bir adabiy asarga individual tahlil modeli tuzish – o'quvchilarning asarga bo'lgan munosabatini chuqurlashtiradi.

4. O'qituvchining adabiy tahlilni kreativ va interaktiv yondashuvlar bilan olib borishi ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarov, B. (2020). *Adabiy tahlil nazariyasi*. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Karimov, I. (1997). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
3. Jo'rayev, N. (2019). *Adabiyot ta'limida metodik yondashuvlar*. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashriyoti.
4. To'xtaboyev, Q. (2018). *Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
5. G'ulomov, M. (2016). "Adabiy tahlilning psixologik asoslari". // *Adabiyot va san'at*, №5. 21–27-b.
6. Alimova, M. (2021). *O'quvchilar estetik tafakkurini rivojlantirishda badiiy tahlilning o'рни*. – Toshkent: TDPU ilmiy nashriyoti.
7. Nishonova, S. (2017). "Badiiy asarni tahlil qilishda interfaol usullar". // *Xalq ta'limi*, №4. 18–22-b.
8. Sultonova, M. (2022). *Adabiyot darslarida obrazli tahlil asoslari*. – Qarshi: Nasaf.
9. Xolbekov, A. (2020). *Badiiy tafakkur va tanqidiy fikrlash*. – Toshkent: Innovatsion metodlar markazi.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2023). *Adabiyot fani o'quv dasturi. 5–11-sinflar uchun*. – Toshkent.
11. Tillayeva R. O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA TADQIQOT ISHI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI // O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI. 439-bet. https://tsuull.uz/sites/default/files/02_06_22_toplam_til_va_adabiyot_ilmii_va_amaliy_izlanishlar_yolidagi_0.pdf#page=439.
12. R.T. Tillayeva. M.M.Q. Mo'minova. O'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish metodikasi "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz November 2023 / Volume 4 Issue
13. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Hj9TC0QAAAAJ&citation_for_view=Hj9TC0QAAAAJ:u5HHmVD_uO8C <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/59253>
14. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asar-matnini-tahlil-qilish-metodologiyasi>



Guli SHUKUROVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, PhD
e-mail: guli_k_h@mail.ru

PUBLITSISTIK QAYDLAR: MUNAQQID VA IJODKOR RUHIY BOG'LIQLIGI

Annotatsiya: maqolada akademik Matyoqub Qo'shjonovning "Ko'ngilda qolib ketgan gaplar" nomli publitsistik qaydlari tahlil qilinadi. Asarning janr xususiyatlari, undagi Oybek shaxsiyati va ijodi haqidagi mulohazalar, munaqqidning ilmiy biografiyasi hamda tanqidchi va ijodkor o'rtasidagi ruhiy munosabatlar yoritiladi. Qo'shjonovning Oybek ijodiga murojaat qilishi sabablari, olimning ustozlari ta'siri va "Oybek mahorati" kabi fundamental tadqiqotlariga qayta nazar solishi izohlanadi. Shuningdek, publitsistik qaydlarning o'zbek adabiy-tanqidiy tafakkurida yangi janrga asos solgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *Matyoqub Qo'shjonov, Oybek, publitsistik qaydlar, badiiy publitsistika, "Ko'ngilda qolib ketgan gaplar", munaqqid, tanqidiy mulohaza, milliy tuyg'u, ilmiy biografiya, adabiy tanqid.*

Аннотация: в статье анализируются публицистические заметки академика матьякуба Кошонова под названием "Кунгилда колиб кетган гаплар". Освещаются жанровые особенности произведения, размышления о личности и творчестве Ойбека в нем, научная биография мунаккида и духовные отношения между критиком и создателем. В нем объясняются причины, по которым кошжанов обратился к творчеству Ойбека, влияние наставников ученого и пересмотр его фундаментальных исследований, таких как "мастерство Ойбека". Также отмечается, что публицистические заметки положили начало новому жанру в узбекской литературно-критической мысли.

Ключевые слова: *публицистические заметки, художественная публицистика, критическое мышление, национальное чувство, научная биография, литературная критика.*

Annotation: the article analyzes the journalistic notes of academician Matyakub Koshjonov entitled "disappointed statements". The article highlights the genre features of the work, reflections on Oybek's personality and work in it, Munakkid's scientific biography and the spiritual relationship between the critic and the creator. The article analyzes the journalistic notes of academician matyakub Koshonov entitled "Kungilda kolib ketgan gaplar". The article highlights the genre features of the work, reflections on Oybek's personality and work in it, Munakkid's scientific biography and the spiritual relationship between the critic and the creator. It explains the reasons why Koshjonov turned to Oybek's work, the influence of the scientist's mentors, and the revision of his fundamental research, such as Oybek's Mastery. It is also noted that journalistic notes marked the beginning of a new genre in Uzbek literary and critical thought.

Key words: *journalistic notes, artistic journalism, critical thinking, national feeling, scientific biography, literary criticism.*

Matyoqub Qo'shjonovning ilmiy, ijodiy faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning izlanishlari markazida XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalari – Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor ijodituriadi. Olim bu atoqli so'z san'atkorlari asarlarining dastlabki tadqiqotchilaridan biri sifatida ularning poetik olamini chuqur ilmiy tahlillar bilan ochib berdi. Uning 1966-yilda

yo'zgan "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati" tadqiqoti, mustaqillik davrida chop etilgan "O'zbekning o'zligi" ilmiy risolasi qodiriyshunoslik sohasida boshqa adabiyotshunoslardan farq qiluvchi, teran kuzatishlarga boy bo'lsa, "Oybek mahorati" kitobi va adib haqidagi turkum maqolalari oybekshunoslikda alohida sahifani tashkil etadi. 60-yillarda U. Normatov bilan

hamkorlikda yozgan “Mahorat sirlari”, keyinchalik “Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor”, 80-yillarda yaratgan “Abdulla Qahhor mahorati” kabi tadqiqotlarida yozuvchi asarlarining badiiy xususiyatlari chuqur tahlillar orqali ko'rsatib berilgan. Bu ishlari tufayli olim qodiriyshunos, oybekshunos va qahhorshunos degan haqli e'tirofni qozondi.

“Oybek mahorati” [1], eng avvalo, adabiyotshunoslikning ko'zga ko'ringan namunasi. Ilk maqola, tadqiqotlari, “Hayot va mahorat” kitobi va Oybek mahoratiga bag'ishlangan ushbu salmoqli asaridan keyin Matyoqub Qo'shjonov ilmiy, adabiy jamoatchilikka mahoratshunos olim sifatida keng tanildi.

Matyoqub Qo'shjonovning “Ko'ngilda qolib ketgan gaplar” yon daftar qaydlari ham badiiy publitsistikaning alohida bir ko'rinishidir. Bu qaydlar M.Qo'shjonovning ulug' adib Oybek hayoti va ijodi bo'yicha qilgan 50 yillik ijodiy mehnatlariga bir sarhisob yozilgandek taassurot qoldiradi. Qiziq bir holat. Olim bir ijodkor hayoti va ijodini yarim asr o'rgangan bo'lsa-da, u haqidagi fikrlari, mulohazalari hamon tugallanmagan. Hamon olimning ko'ngil burchaklarida nimalardir aytilmay, yozilmay qolib ketgan. Shuning uchun ham bu qaydlar “Ko'ngilda qolib ketgan gaplar” deb bejiz nomlanmagan. Albatta, olim o'zi yaratgan tadqiqotlar, bu ilmiy izlanishlar turtki bergan tuyg'ular, adabiy shaxsiyatni o'rganish yo'llaridagi mashaqqatlarni yarim asr o'tib, yana eslaydi. “Oybek mahorati” nomli ulkan fundamental tadqiqotiga yangi nigoh bilan o'ziga o'zi qaytadan baho beradi. Bu yon daftar qaydlari ham publitsistik uslubda: nihoyatda ravon va tushunarli tilda yozilgan. “Ko'ngilda qolib ketgan gaplar” hajman juda katta emas: bor-yo'g'i 30 sahifani tashkil etadi [2:452]. Publitsistik qaydlar quyidagi ichki sarlavhali maqolalardan tashkil topgan: “Shaxsiyati – ibrat, ijodi – saboq”, “Qutlug' qonni qayta o'qiganda...”, “Buyuk Navoiy ulug' Oybek tasvirida”, “Nega men Oybekni tanladim?” Bu publitsistik maqolalar mazmuni bilan tanishgach, Matyoqub Qo'shjonovning Oybek ijodini dissertatsiya ishi sifatida ishlash haqida ilmiy ijodiy rejasi qanday paydo bo'lgani, bu mavzuga yetib kelgunga qadar V.Belinskiy ilmiy faoliyatini o'rgangani,

ilmiy mavzu sifatida “Belinskiy adabiy-estetik qarashlari”ni tadqiq qilmoqchi bo'lgani haqidagi ma'lumot bilan tanishamiz. Umuman olganda, mazkur publitsistik qaydlar akademik Matyoqub Qo'shjonovning oybekshunos sifatida ilmiy sohaga kirib kelish biografiyasi haqida to'liq tasavvur beradi. Oybekning “Qutlug' qon”, “Navoiy”, “Oltin vodiyan shabadalar” romanlari ustida olib borgan ilmiy tadqiqotlari va bu jarayonlarni, Moskvadagi ustozlari nazaridan o'tkazishi, adabiy jamoatchilikda ilk bor chiqish qilishi, unga akademik Izzat Sultonning ijobiy bahosi va hokazolar haqida batafsil muallifning o'z og'zidan dilrozlari eshitish va o'qish mumkin. Bizningcha, akademik olim M.Qo'shjonovning “Ko'ngilda qolib ketgan gaplar” publitsistik qaydlari o'zbek badiiy publitsistikasida yangicha yo'nalishdagi yangi janrga asos soldi, deyish mumkin. Yarim asr o'tib, o'tmishga qarab, xolis o'z ijodiga o'zi baho berish salohiyati hamma olimda ham yo'q. Shu o'rinda munaqqid bilan ijodkor o'rtasidagi ruhiy robitalar haqida o'ylab, nimalardir qoralash mumkin. Tanqidchi shaxs duch kelgan yozuvchining ijodini o'rganib keta olmaydi. Ikki ijodkorni ko'zga ko'rinmas iplar bog'laydi. Ayni paytda munaqqid yozuvchi hayoti va ijodini o'rganar ekan, yozuvchi munaqqid uchun Ustoz maqomida ham turadi. Jumladan, Matyoqub Qo'shjonov bilan Oybekning bir-biriga bo'lgan munosabati va ijodiy aloqalar jarayonida olim adib shaxsiyati va ijodiyotidagi ideallar ta'sirida o'ziga ham nimalarnidir yuqtirib olganini dadil turib tan oladi. Masalan, M.Qo'shjonovning quyidagi fikrlariga e'tibor qarataylik: “Oybek shaxs sifatida ko'p jihatdan menga ibrat bo'ldi. U o'z fikr va mulohazalarini ko'p o'ylab ham o'tirmasdan o'rtaga tashlayveradigan odam emas edi. Bu o'rinda nihoyatda vazmin edi. Xalqning “yetti o'lchab bir kes” degan maqoli go'yo Oybek xislatlariga qarab aytilgandek sezilardi menga. Odamlarga munosabatda ham Oybek haqiqiy inson sifatida ko'zga tashlanardi. Ko'chalarda yurgan paytlarida qo'li doim ko'ksida edi. Adibning uyiga ijodkor, yozuvchi, shoirlar, ilm ahli ko'p kelib turardi. Ular bilan muomalada ham Oybek o'ta madaniyatli shaxs sifatida ko'zga tashlanardi. Biror yetar-yetmaschilik yoki biror kamchilik yuzasidan jahli chiqib, fig'oni falakka

ko'tarilgan paytlarni hyech Oybekda kuzatgan emasman. Bir narsaga doim men qoyil qolardim. Oybek huzuriga kelgan har bir kimsa bilan ochiq chehra, ochiq ko'ngil bilan suhbat qura olardi. Mehmon kattami, kichikmi, kim bo'lishidan qat'i nazar, ko'chagacha chiqarib, qo'li ko'ksida turgan holda kuzatib qolardi.

Barcha bu jihatlari bilan Oybek men uchun ibrat hisoblangan ulug' siymo edi" [2:422]. Demak, Oybek Matyoqub Qo'shjonov uchun o'z davrining ideal ziyoli shaxsi edi. Xususan, yuqoridagi parchadan ma'lum bo'lmoqdaki, publitsist olimni Oybek shaxsiyatida mujassamlashgan madaniyat, kamtarlik, bosiqlik, vazminlik, ochiq chehra, samimiyat, mehmondo'stlik kabi insoniy fazilatlar o'ziga rom etadi. Oybek shaxsiyatidagi bu odamiylik xislatlari asarlariga ham ko'chgan. Munaqqid shaxsiyati bilan ijodiyoti bir-biriga mos kelgan, Oybek ijodi badiiyati sirlarini o'rganish va targ'ib etish, maqola va kitoblar yozishga sarflagan umridan aslo norozi bo'lmaydi. Bu yo'lda chekkan zahmatlarini olim Ollohning inoyati sifatida qabul qiladi. Oybekning insoniy fazilatlarini sanab ko'rsatar ekanmiz, Sharq musulmon olamidagi ideal shaxs o'lchovlari qaysidir ma'noda Oybek shaxsiyati va fe'li tabiatida bo'lganini anglab yetamiz. Oybek ijodi haqidagi tanqidiy mulohazalarini e'lon qilish kerakmi, yo'qmi, deya ikkilangan paytida Matyoqub Qo'shjonovning akademik ustози M.Xrapchenko shunday degan ekan: "O'ngga aylansam ham kuyib borayotgandek, chapga aylansam ham kuyib borayotgandek sezardim o'zimni. Ko'p o'y va mushohadalarni boshimdan o'tkazdim. Katta ustozim akademik M.Xrapchenko bilan maslahatlashdim. U menga quyidagicha fikr bildirdi:

Haqiqiy san'atkor yozuvchi uchun munaqqidning ijobiy xulosasi ham barobar. Hatto tanqidiy fikr bildirishi ham uning uchun foydaliroq.

Bu fikrlar V.Belinskiy boshiga tushgan voqyeadan kelib chiqadigan xulosadan keyin ham dalda beradigan ikkinchi asos bo'ldi. "Oltin vodiya shabadalar" haqida alohida bob yaratib, bu asar haqidagi asl haqiqatni aytish qaroriga keldim. Shu tarzda ish ham bitdi" [2:450].

"Ko'ngilda qolib ketgan gaplar" publitsistik qaydlardan ma'lum bo'ladiki, Matyoqub Qo'shjonov Oybek ijodini tanlashiga sabab bo'lgan munaqqidning ichki hissiyoti tufayli sodir bo'lgan ruhiy jarayonning birinchisi "milliy tuyg'u" ta'siri bo'lsa, ikkinchisi yirik o'zbek ijodkori jarayonda borligini Sho'ro tanqidchiligida yuzaga chiqarish istagi edi.

Muallifning "Ko'ngilda qolib ketgan gaplar" qaydlari o'zbek badiiy publitsistikasini yana bir pog'onaga ko'tardi, chunki akademik olim aynan shu bitiklarida o'z ijodining o'zak tomirlaridan biri bo'lgan Oybek shaxsiyati va ijodiyotini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari, badiiyat sirlarini ochishdagi tajribalari, zahmatlari haqida ochiqdan-ochiq kitobxon bilan bahslashadi; M.Qo'shjonov Abdulla Qodiriyini ko'rmagan, ammo u haqda go'zal ilmiy asarlar yaratdi, Oybek va Abdulla Qahhor bilan esa juda ko'p suhbatlashdi, ular haqida fundamental tadqiqotlar yaratdi; Oybekni fenomen sifatida tanladi va "Nega men Oybekni tanladim?" nomli iqrornoma tipidagi publitsistik maqola bitdi.

Xulosa shuki, Matyoqub Qo'shjonovning "Ko'ngilda qolib ketgan gaplar" publitsistik qaydlarida Oybek haqidagi kuzatishlari va tadqiqotlarining yaratilish tarixiga, uning olim sifatida shakllanish yillariga sayohat uyushtiriladi; Matyoqub Qo'shjonovning "Armon" hamda "Ko'ngilda qolib ketgan gaplar" xotira va yon daftar qaydlarini o'rganish munaqqidning ijtimoiy biografiyasi bilan bir qatorda ilmiy ijodiy biografiyasini teranroq tadqiq etishga yo'l ochadi; Publitsistik asarlar tadqiqi munaqqid ijodiy laboratoriyasini o'rganishda eng ishonchli hujjatli material hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Т.: "Тошкент" бадий адабиёт нашриёти, 1965.
2. Қўшжонов М. Кўнгилда қолиб кетган гаплар / Танланган асарлар. Адабий-танқидий рисолапар, эсселар, хотиралар. Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 422–452.
3. Матёқуб Қўшжонов замондошлари хотирасида. – Тошкент: Муҳаррир, 2012.

Vazira ABDULLAYEVA,
Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi
abdullayeva16@gmail.com

“QUTADG’U BILIG”DAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK TASNIFI

Annotatsiya : maqolada “Qutadg’u bilig”ning ilk badiiy doston, olam manzarasi obrazli, ta’sirchan ifodalangan matn sifatidagi xususiyatlari tavsiflangan. Asar matnidagi frazemalarning semantik tasnifi keltirilgan. Xalq e’tiqodi, dunyoqarashi, inson tafakkuri, dunyoqarashi, ruhiyatini ifodalashdagi ahamiyati ko’rsatilgan. Frazemalar tahlili asosida Yusuf Xos Hojibning til imkoniyatlaridan foydalanish, iboralarni qo’llash mahorati ochib berilgan. Tarixiy frazemalarni tahlil qilishning ahamiyati, tilning tarixiy taraqqiyotini aks ettirishdagi o’rni, madaniy qadriyatlarni aks ettirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: *ilk badiiy doston, pandnoma, tabdil, frazeologizm, frazema, obrazlilik, ta’sirchan uslub, tilning tarixiy taraqqiyoti, semantik tasnif, barqaror birikma, ko’chma ma’no, metafora, kognitiv metafora, kognitiv konnotatsiya, qadriyat.*

Аннотация: в статье раскрываются особенности «Кутадгу билиг» как первого художественного эпоса, текста с образным и впечатляющим изображением мировой сцены. На примерах анализируется тот факт, что фразеологизмы основаны на переносном значении как устойчивое сочетание и обладают когнитивной коннотацией. Показана связь фраз в тексте «Панднома» с современным узбекским литературным языком. На основе анализа идиом выявляется способность Юсуфа Хоса Хаджиба владеть языком и употреблять фразы. Обоснована важность анализа исторических словосочетаний, роль языка в отражении исторического развития, возможности отражения культурных ценностей.

Ключевые слова: *первый художественный эпос, панднома, метаморфоза, фразеологизм, фразеология, образность, экспрессивный стиль, историческое развитие языка, семантическая классификация, устойчивое сочетание, переносное значение, метафора, когнитивная метафора, когнитивная коннотация, значение.*

Annotation: the article reveals the features of “Kutadgu Bilig” as the first artistic epic, a text with a figurative and impressive depiction of the world scene. The connection of the phraseological unit in the text of the treatise with the modern Uzbek literary language is shown. Based on the analysis of phraseology, the mastery of Yusuf Khosa Khadzhib in the use of linguistic possibilities and the use of expressions is revealed.

Key words: *first artistic epic, pandoma, metamorphosis, phraseological unit, word combination, imagery, expressive style, historical development of language, semantic classification, stable combination, figurative meaning, metaphor, cognitive metaphor, cognitive connotation, meaning.*

Kirish. “Qutadg’u bilig” ilk badiiy doston bo’lib, XXI asr ijtimoiy-siyosiy qarashlari, madaniy turmush tarzi ta’sirchan uslubda aks ettirilgan nodir manbadir. Asarning o’z davrida mashhur bo’lgan, bir qator xalqlarning harbiy tizim, jamiyatni boshqaruv, hukmdorlik siyosatida keng tatbiq etilgan. Tadqiqotchi M. Xolmuradova “Qutadg’u bilig”ning olimlar tomonidan tabdil qilingan barcha nomlarini jamlab, “Baxt keltiruvchi bilim” (H.Vamberi, V.V.Radlov, R.R.Arat, V.Tomsen), “Baxt kitobi” yoki “Baxtli boshqaruv” (S. ye.Malov), “Podshohlikka eltuvchi bilim” (V.V.Bartold), “Boshqaruv ilmi”

(A.A.Valitova), “Baxt beruvchi bilim” (A.N.Kononov, S.N.Ivanov), “Baxtlilanish bilimi” (A.Fitrat), “Saodatga yo’llovchi bilim” (Q.Karimov, B.To’xliiev), “Baxt beruvchi kitob” (Li Chi), “Saodatnoma” (N.Karimov), “Saodat bergan bilim” (Q.Munirov), “Baxt– ezigulik kitobi” (Li Chi), “Qut berguchi, qutlantirg’uchi bilim” [Sodiqov, 2010] (Q.Sodiqov) kabi nomlar bilan yuritilganini qayd etadi. Doston matnidagi *qutad*=, *qutud*= shaklidagi so’zlarning “Древнетюркский словарь”da “baxtli bo’lmoq” («становиться счастливым») [DTS,1969:472] tarzida izohlanganiga asoslanib, asar nomini

“Baxtli bo‘lish ilmi” deb izohlaydi [Xolmuradova, 2019:15]. Ilk badiiy doston nomining har xil talqin qilinganining o‘ziyoq asar mazmunining xilma-xilligini, olam hodisalari, dunyoqarash, ijtimoiy-madaniy turmush tarziga oid ko‘plab masalalarni o‘rtaga tashlaganini asoslaydi.

O‘zbek tili frazeologizmlarining tarixiy variantlari mumtoz tarixiy-badiiy asarlar matnida saqlanib qolgan. Tarixiy frazemalar jamlangan manbalardan biri “Qutadg‘u bilig” asaridir. “Qutadg‘u bilig” tilining o‘ziga xosligini, badiiy ta’sirchanligini ta’minlovchi omillardan biri frazemalardan mahorat bilan foydalanilganida namoyon bo‘ladi.

Frazemalarning yuzaga kelishi va shakllanish jarayoni tilning ma’lum rivojlanish bosqichiga o‘tgan davrlariga xosdir, deyish mumkin. Frazemalar birdan ortiq leksemalarning yaxlit bir ko‘chma ma’noni ifodalash uchun xoslangan ko‘rinishi bo‘lib, inson birikma hosil qilish, obrazli tafakkur mahsullarini nomlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan davrlarga mansubdir. Frazemalar inson tafakkuri, fikrlash tarzining muhim jihatlari o‘zida namoyon etadi. Shu bois har bir tilda faol qo‘llangan frazemalarni jamlash va tahlil qilish tilning ichki qonuniyatlarini yoritishda, leksemalar o‘rtasidagi mazmuniy aloqadorlikni yoritishda va narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat, faoliyat-jarayonni ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tili frazeologiyasi tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan o‘tib, rivojlanib kelmoqda. Frazeologiyaning nazariy masalalarini hal qilishda, uslubiy-semantik xususiyatlarini yoritishda Sh.Rahmatullayev [Rahmatullayev, 1966], A. E. Mamatov [Mamatov, 1991], B.Yo‘ldoshev [Yoldoshev, 1998, 1999] kabi olimlarning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim.

“Qutadg‘u bilig”dagi ko‘chma ma’no, metafora, ko‘p ma’nolilik, ta’sirchanlik, badiiy ifoda tahlillari amalga oshirilgan tadqiqotlarda barqaror birikmalar izohi borasida ham fikr-mulohazalar bildirilgan [Kasiyeva, 2005].

“Qutadg‘u bilig”dagi frazemalar quyidagi semantik guruhlariga mansub:

1. Shaxs e’tiqodi, diniy tafakkurini ifodalovchi frazemalar. *Bajat hukminā koz* – Alloh hukmiga havola: *Bajat hukminā koz qamuy išlārig, ōzi kelsā etlūr aēar ej tirig* / Hamma ishni Xudo hukmiga

havola qil, kezi kelsa bitadi (uni o‘zi) hal etadi, ey tirik / (QBN 178a)¹. Bu frazema “Allohning inoyati bilan”, “xudo xohlasa” degan ma’nolarni anglatadi. *Bajat hukminā koz* frazemasi insonga qarata aytilgan bo‘lib, barqaror birikma orqali barcha ishlarning qay tarzda sodir bo‘lishi va amalga oshishi “Allohning hukmiga havola” ekanligi uqtirilmoqda. Ya’ni Allohning (Bayatning) xohishiga ko‘ra amalga oshishi aytilgan.

Ushbu baytdagi ey *tirik* murojaat shakli insonga nisbatan qo‘llanib, hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanadigan “jonzo‘t”, mumtoz adabiy manbalarda uchraydigan “hayvon” ma’nosini aks ettirgan. *Hayvon* leksemasi hozirgi o‘zbek tilida semantik jihatdan faqat ongsiz mavjudotga nisbatan qo‘llanadi. Mumtoz manbalarda *hayvon* so‘zi keng ma’noda barcha tirik mavjudotlarga nisbatan ishlatilgan, “tirik”, “tiriklik”, “hayot” ma’nolarini ifodalagan. “Tiriklik suvi” ma’nosidagi *obi hayvon* forsiy izofasi ham shundan dalolat beradi. *Hayvon* arabcha so‘z bo‘lib, bu so‘z kirib kelguniga qadar shu so‘z anglatgan ma’nodagi *tirik* so‘zi qo‘llangani Yusuf Xos Hojibning yuqoridagi baytidan ham ko‘rinib turibdi.

Ayrim barqaror birikmalar shaxsni vaziyatga real qarashga, qismatga, taqdirga tan berishga da’vat etadi. Masalan, *qazaqa bojun ber* = “taqdirga tan bermoq”: *Negū kelsā tapla kōr edgū esiz, bojun ber qazaqa kōni tut aāz / Yaxshimi, yomonmi, nimaiki boshingga tushsa, rozi bo‘l, taqdirga tan ber, rost so‘zli bo‘l* (QBK 687). Inson xursandchilikda ham, xafagarchilikda ham sodir bo‘lganlarga tabiiy holat sifatida yondashishga targ‘ib qilinadi. Bu o‘git insonni sabrli, irodali, chidamli bo‘lishga, tushkunlikka tushib qolmaslikka chorlaydi.

2. Shaxs tafakkuri, idroki, ruhiyati bilan aloqador tushunchalarni ifodalovchi frazemalar. *Jitig qil kōzūg* frazemasi “e’tiborli bo‘lmoq, diqqat qaratmoq” ma’nolarini ifodalaydi: *Bū tōrt neñ ūzā sōzlādim men sōzūg, oqīza ačīlāj jitig qil kōzūg* / Bu to‘rt narsa uzra so‘zladim so‘zim, o‘qilsa ma’nosi ochilgay, e’tiborli bo‘l (QBH 2213). *Jitig qil kōzūg* frazemasining so‘zma-so‘z ma’nosi hozirgi “ko‘zni yirik ochish” ma’nosiga teng keladi. Bu o‘rinda *ko‘z orqali ko‘rish* diqqatni jamlash, ong orqali ko‘rishni,

¹ Misollar “Qutadgu bilig” ning quyidagi nashridan olindi: Юсүф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Тошкент: Фан, 1972.

ya'ni idrok etishni bildirib kelgan. Muallif ushbu frazema orqali aytilgan so'zga, fikrga e'tiborli bo'lish lozimligini ta'kidlagan.

3. Shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi frazemalar. "Qutadg'u bilig"da tashqi olam, jarayonlar, voqea-hodisa mahorat bilan tasvirlanganidek, qahramonlarning ichki olami, ruhiyati ham sinchkovlik bilan aks ettirilgan. Bir qator frazemalar shaxs ruhiyati, ichki kechinmalari bilan aloqador tushunchalarni anglatadi. Masalan, *közi qashi tüg*= frazemasini hozirgi *qosh-qovog'ini solmoq* barqaror birikmasi ma'nosiga teng keladi: *Közi qashi tügmiş, açitmiş jüzin* / Ko'zi, qoshi tugdi, yuzini burishtirdi (QBH 4410). Frazemadagi *közi-qash* juftligi hozirgi o'zbek adabiy tilida *qosh-qovog'* juftligi semantikasi orqali ifodalanadi. *Közi qashi tüg*= iborasiga muqobil bo'lgan *qosh-qovog'i solinmoq* (yoki *osilmoq*) frazemasini ishlatilib, "norozilik yoki xafalik ifodalab xo'mraymoq" ma'nosini ifodalaydi [O'TIL, 2006: 353]. *Qovog'-dimog' qilmoq* iborasi ham shu ma'noda qo'llanadi.

Baytda *jüz açit*= frazemasini ham ishlatilgan bo'lib, hozirda qo'llanadigan *yuz burushtirmoq* barqaror birikmasiga mazmun jihatdan muvofiqdir.

"Ko'ngli og'rimoq" ma'nosidagi *könül aări*= shaxsning biror munosabatdan ranjiganini, ozorlanganini bildiradi: *Erig sözlämägil kişikä tilin, erig sözkä aäririr könül keč jilin* / Kishilarga tilingda qo'pol so'zlamagin, qo'pol so'z ko'p yillar mobaynida kishining ko'nglini vayron qiladi (QBK 2001). *Ko'ngli og'rimoq* hozirgi o'zbek tilida "ranjimoq", "noroz bo'lmoq" ma'nolarida qo'llanadi. Frazema ma'nosi kognitiv metaforaga asoslangan bo'lib, *og'rimoq* so'zining ko'chma ma'nosi markaziy o'rin tutadi. Kognitiv metafora moddiy tana a'zolaridagi og'riq holatining mavhum, umumlashtiruvchi *ko'ngil* so'ziga ko'chirilishiga asos bo'lgan. *Ko'ngil og'rish*i qo'pol, dag'al so'zlash oqibatida yuzaga keladigan jarayon sifatida qaralgan:

könül aärittur – kongil og'ritmoq. *Tüpi jel turur söz könül aärittur* / So'z bo'ronli izg'irin kabitdir, dilni (teshib o'tib) zirqiratadi (QBK 2546). *Ko'ngli og'rimoq* frazemasini hozirgi o'zbek tilida deyarli qo'llanmaydi. Unga muqobil ravishda *dili og'rimoq* [O'TIL, 2006:613] barqaror birikmasini ishlatiladi. *könül aări*= frazemasining hozirda *dili og'rimoq* tarzida ishlatilishi frazemalar taraqqiyotida tarkib jihatdan o'zgarishlar yuz berganini asoslaydi. O'zlashma

so'zlar tilning lug'at sathiga erkin ravishda kirib kelishi bilan bir qatorda, frazemalar komponentlariga ham o'zlashgan. *Könül aări*= frazemasining har ikki komponenti turkiy so'zdan iborat. *Dili og'rimoq* barqaror birikmasi komponentining birinchi so'zi – *dil* birligi *könül* so'zining forsha-tojikcha muqobili hisoblanadi. Qiyos: o'zbek shevalarida "kimdir tufayli bezovta bo'lmoq" ma'nosidagi *dastidan tinmoq* iborasi qo'llanadi. Eski o'zbek tilida bu barqaror birikmaning *ilkidan tinmoq* ko'rinishida ishlatilgani kuzatiladi: *ilik* – qo'l (turkiy so'z); *dast* – qo'l (forsha-tojikcha so'z).

Baş aäriä bol= "mashaqqat bo'lmoq", tashvish bo'lmoq: *Bezüg ištä tenjsiz baş aäriä bolur, baş aäriä kötürmäsä beglik qalur* / Buyuk ishda beqiyos mashaqqat bo'ladi, mashaqqatni tortmasa beglik tanazzulga yuz tutadi (QBN 109a). *Baş aäriä* "tashvish" degan ma'noni bildiradi. *Baş aäriä bol*= bosh, ya'ni o'y, fikr bilan bog'liq muammolarga nisbatan qo'llangan. Bu frazema katta ishlarni amalga oshirishdagi qiyinchilikni, umumiy ma'noda, mashaqqatli jarayonni anglatadi. Hozirgi kunda ushbu frazemada "ortiqcha mashaqqat, g'alva keltirish" ma'nosi ustunlik qiladi. *Boshini og'ritmoq* "bo'lar-bo'lmas ish, harakat, ran va sh. k. bilan joniga tegmoq, bezor qilmoq" [O'TIL, 2006:337]. Shu frazemaga sinonim hisoblangan *boshini qotirmoq* "uzoq va jiddiy o'ylamoq; tashvish chekmoq" ma'nolarida betaraf uslubda qo'llanadi.

4. Muloqot xulqiga oid frazemalar. Nutq madaniyati, muloqot odobi o'zbek madaniyatida har bir davrda dolzarb masala sifatida qaralib kelgan. "Qutadg'u bilig"da kishilar o'rtasidagi muloqot xulqi, so'zlash odobi, fikrni verbal vositalar orqali ifodalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada barqaror birikmalar uslubiy, ta'sirchan ifodalarga xizmat qilgan. Masalan, *tili açit* = *tilin achitmoq* frazemasini "qo'pol gapirmoq", "dag'al so'zlammoq" ma'nolarini anglatadi: *Sözün söksä jalnuq açitsa tilin* / So'zida so'kib gapirsa va tili bilan ranjitsa / (QBN 1929). *Tili açit*= frazemasini hozirga qadar iste'moldan chiqqan. Unga muqobil sifatida hozirgi o'zbek tilida *achchiq gapirmoq* birikmasini ishlatiladi. *Tili açit* = frazemasidagi kognitiv metafora, ta'sirchanlik, uslubiy bo'yoqdorlik birikmada to'liq aks etmaydi.

5. Shaxs xatti-harakati, faoliyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi frazemalar. *Yol tut*=

tanlamoq: *Aëuryu bulariy jolin tutsä ked anin jolqa kirsä bojun egsä ked* / Bularni ochiqitirish kerak, toki yaxshi yo'l tutsinlar, shu tufayli yo'lga kirib, mutlaq bo'yin egsinlar (QBV 180). Baytda *jolqa kir=, bojun eg=* barqaror birikmalari ham qo'llangan bo'lib, ezgu faoliyatni tanlash jarayonini ta'sirchan ifoda etgan.

Ešig et= frazeması "tadbir ko'rmoq" ma'nosini bildiradi: *Bu Aj toldi özkä kör et[t]i ešig, adašti kenjästi bir atliyi kišig* / Oyto'ldi o'z ishining tadbirini ko'rdi, taniqli bir odam bilan do'stlik bog'ladi, u bilan maslahatlashdi (QBK 1915). *Ešig et=* barqaror birikmasi "reja tuzmoq", "kengashmoq" ma'nolarini ham ifodalagan.

Adl jürit= frazeması "Qutadg'u bilig"dagi bosh masala – "adolat bilan ish tutmoq" tushunchasini ifodalagan: *'Adl turur tüz jüritmāk* / Birinchisi adolatni to'g'ri yuritmoqdir (QBH 320).

Davlät qapüy aç= "davlat eshigini ochmoq", "baxtga, saodatga eltmoq" ma'nolarida kelgan: *Bu qul kün at ađır bu yer suv qamuy, eligdın tegib açti davlät qapüy* / Bu qul, cho'rilar, otlar, ayg'irlar, bu yer-suv barchasi hukmdordan tegib (davlat) senga (baxt) eshigini ochdi (QBN 207b). Barqaror birikma

hukmdor tomonidan in'om etilgan qul, cho'rilar, otlar, ayg'irlar, yer-suv kabilarning shaxs moddiy ta'minotini yaxshilashiga nisbatan qo'llangan.

Frazeologizmlar lug'atining qayta ishlangan va to'ldirilgan nashrida bir qator tarixiy frazemalar ham izohlangan [Rahmatullayev, 2022]. Tarixiy frazemalarni o'rganish, hozirgi o'zbek tili bilan qiyoslash quyidagilarda ahamiyatlidir:

1. Frazemalar til sohibi tafakkuri, narsa-hodisa, voqea-hodisaga munosabati va bergan bahosini o'zida to'liq namoyon etadi.

2. Badiiy asar matnida muallif tafakkur darajasi bilan bog'liq ravishda ifodalangan frazemalar ham qo'llangan bo'lib, tarixiy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarash haqida axborot berishga xizmat qiladi.

3. Tarixiy frazemalar ko'chma ma'noga asoslangan barqaror birikma bo'lib, kognitiv konnotatsiyaning muhim belgilarni aks ettiradi.

"Qutadg'u bilig"dagi frazemalar Yusuf Xos Hojibning mutafakkir sifatidagi qarashlari, faylasuf, olim sifatidagi mushohadalari, til imkoniyatlarini yaxshi anglagan va mahorat bilan qo'llagan ijodkor sifatidagi qiyofasini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. DTS – Древнетюркский словарь. –Л., 1969. –Б.472-474.[2,2]
2. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. 274-б.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. –Тошкент: Фан, 1966.262-б.[3,3]
4. Rahmatullayev va boshqalar. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.676-b. [4,3]
5. Sodiqov Q. Mangu qumaru // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. –№50. –Toshkent, 2010.[1,2]
6. Йўлдошев Б. Фразеология тарихидан лавҳалар. –Самарқанд: Суғдиёна, 1998. –110 б.[5,3]
7. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. –Самарқанд: СамДУ, 1999. –200 б. [6,3]
8. Касиева А. Лексико-семантический анализ метафор "Қутадғу билиг". –Бишкек, 2005.[7,3]
9. Холмурадова М. "Қутадғу билиг" лексикаси. Филол. фан. фалс. док. (DSc) ...дисс. –Тошкент, 2019. [3,2]
10. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Тошкент: Фан, 1972.[6,3]
11. О'ТIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 [5,3]
12. О'ТIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 6085.[5,4]

Laylo JO'RAYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
laylojurayeva@buxdpi.uz

ALISHER NAVOIYNING "MUHOKAMAT UL-LUG'ATAYN" ASARIDAGI TAOM NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridagi oziq-ovqat hamda ichimlik nomlari lingvomadaniy aspektida tadqiq etilgan, ularning o'zbek lingvokulturologik realiyalar tizimidagi o'rni va ifodalanishi yoritilgan, hozirgi o'zbek adabiy tilining mazkur nomlarga munosabati o'rganilgan, leksik ma'no va fonetik shaklda yuz bergan muayyan o'zgarishlar ochib berilgan va badiiy matnlardagi ashyoviy materiallar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniy, assotsiativ, til, realiya, leksema, lug'at, arxaizm, tarixizm.

Аннотация: в статье рассматриваются наименования продуктов питания и напитков в произведении Алишера Навои «Мухокамат ул-лугатайн» в лингвокультурологическом аспекте, выделяются их место и проявления в системе узбекских лингвокультурных реалий, изучается отношение современного узбекского литературного языка к этим наименованиям, выявляются некоторые изменения в лексическом значении и фонетическом оформлении, а также обосновываются на материале художественных текстов.

Ключевые слова: лингвокультурологический, ассоциативный, язык, реальность, лексема, словарь, архаизм, историзм.

Annotation: the article studies the names of food and drinks in Alisher Navoi's work "Muhokamat ul-lughatain" from a linguocultural aspect, highlights their place and expression in the system of Uzbek linguocultural realities, studies the attitude of the modern Uzbek literary language to these names, reveals certain changes in lexical meaning and phonetic form, and substantiates them with material materials in literary texts.

Key words: linguocultural, linguocultural, associative, language, reality, lexeme, dictionary, archaism, historicism.

Buyuk adib Alisher Navoiyning she'riy asarlarida ishlatilgan turli sohalarga oid leksemalar qatorida oziq-ovqat nomlari ham katta ahamiyatga egadir. Ular uzoq tarixga ega xalqimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida katta ma'lumotlar beradi. Navoiy asarlaridagi realiyalarni har tomonlama chuqur tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligimizning ham rivojiga ulkan hissa qo'shadi. Navoiy ijodida ham oziq-ovqat nomlari bir necha xil betakror nomlar bilan yuritilganining guvohi bo'lamiz.

...Va yana ba'zi yemaklardan **qaymog'** va **qatlama** va **bulamog'** va **qurut** va **uloba** va **mantu** va **quymog'** va **urkamochni** ham **turkcha** ayturlar. Va **qimizni** va **suzmani** va **boxsumni** va **bo'zani** dag'i **turkcha** ayturlar. Yana **tutmoch** va **umoch** va **kumoch** va **tolg'onni** ham **turkcha** ayturlar. Va bu nav' juz'iyotqa **mashg'ulluq qilsa bag'oyat ko'p topilur.**[2,157]

Ushbu parchada Hazrat Navoiy umuman turkiy xalqlarning bir necha xil taom tularini keltirganini uchramiz. Ular: **qaymog'**, **qatlama**, **bulamog'**, **qurut**, **uloba**, **mantu**, **quymog'**, **urkamoch**, **qimiz**, **suzma**, **boxsum**, **bo'za**. Nomlari sanab o'tilgan bu kabi oziq-ovqat nomlari asl turkcha so'z ekanligiga ishora qilinmoqda. **Qaymog'** bu bugungi kundagi tilimizda ham faol bo'lgan leksema sanaladi. Ammo bu leksema

hozirgi kunda fonetik o'zgarishga uchrab, qaymoq tarziga o'tgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z quyidagicha izohlanadi. **QAYMOQ 1** Bir necha vaqt turgan, saqlangan sut betida paydo bo'ladigan yoki sutdan separator yordamida yoki boshqa yo'l bilan ajratib olingan quyuq, yog'li mahsulot. Quyuq qaymoq.

Qaymoq bog'lamoq 1) betida qaymoq qatlami hosil bo'lmoq; 2) ko'chma ma'noda beti qaymoq kabi parda bilan qoplanmoq. Suv qaymoq bog'labdi (ya'ni yupqa muz bilan qoplanibdi). Murabbo qotib, qaymoq bog'labdi.

2 ko'chma ma'noda kishi yoki narsalarning eng yaxshi qismi, sarasi, asillari. Yigitlarning qaymog'i frontda. Lekin ish sustlashgani yo'q. S. Zunnunova Olov.

3 ko'chma ma'noda biror ish, narsa va shu kabilarning natijasi, hosili, xullasi. Yerning qaymog'i – mehnat qilganniki. Oybek, Olov shabadalar.

4 Suv betiga yalpoq tosh yoki boshqa narsani otganda, uning bir necha bor suv betiga tegishi, shu tegishdan hosil bo'ladigan holat. Nodir bilan Muzaffar pastroqda kim ko'p «qaymoq» qilish o'ynashardi. Nodir yassiroq tosh olib, suv oqimiga qarata otar, tosh esa suv yuzida sakray sakray, besh-olti «qaymoq» hosil qilardi. J. Abdullaxonov, To'fon.

Qatlama – oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog'da pishirib olinadigan xalqimizning azaliy hamda milliy taomlaridan biri sifatida bugungi kunda xuddi shu tarzda nomlanadi. Hech qanday fonetik o'zgarishga uchramagan leksema sanaladi. Ushbu leksema bugungi kunda omonim leksema sanaladi.

I Qatlama – taom nomi

II qatlama – harakatni bildirib, fe'l so'z turkumini ifodalaydi.

Bulamog'/bulamig' tarzida ifodalanib ovqatning bir turi ma'nosini anglatadi. Har ikki leksemaning ham tarkibi fonetik o'zgarishga uchragan bo'lib, bulamoq hamda bulamiq holiga kelib qolgan. Ushbu leksemalar oldin bitta ma'noni anglatgan bo'lsa, bugungi kunda ularning ifodalaydigan ma'nosi bir-biridan keskin farqlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z quyidagicha izohlanadi. **BULAMIQ 1** Unni sutga bulab (qorib) tayyorlanadigan atalasimon ovqat. Bir ikki kun sutli ovqatlar, bulamiq yeb tursinlar. Mirmuhsin, Umid.

2 ko'chma s. t. Aralash-quralash, chalkash narsa. Ishni bulamiq qilib yuboribsiz.

BULAMOQ 1 Yuqadigan narsaga botirib yoki belab, hamma yog'ini qoplamoq, aylantirib botirmoq. Unga bulamoq. Qaymoqqa bulamoq. Qani, nonni sindirib, qaymoqqa bulab-bulab urib olinglar-chi. E. Raimov,

2 ko'chma ma'noda bo'lar-bo'lmas ayblar bilan qoralamoq, asossiz ayblamoq; fosh qilmoq. Salima yig'ilishda Qodirni rosa buladi.

Qurut – leksemasi ham bugungi kun tilimizda ham mavjud bo'lib, ammo fonetik o'zgarishga uchragan holda uchramiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z quyidagicha izohlanadi. **QURT I** Uzun tanasini egib-yozib yoki juda ko'p oyoqlari vositasida sudralib yuradigan umurtqasiz mayda jonivor. Ko'k qurt.

QURT II s.t. ayn. qurut. Javhar ham har kirganda qurtmi, bir dona shokoladmi tashlab ketishni unutmadi hech. J. Abdullaxonov, Xonadon.

Uloba – leksemasi ham muayyan bir turdagi taom ma'nosini anglatuvchi leksema sanaladi. Ushbu so'z

bugungi kunda ishlatilmaydi, arxaizm sanaladi. Ushbu leksema taom ma'nosida Hazrat Navoiy davrida keng iste'moldagi leksemalardan biri sifatida faol ishlatilgan.

Mantu – leksemasi ham bugungi kunga qadar o'zi ham ma'nosi ham saqlanib qolgan leksema sanaladi. Ammo tovushlar tarkibi o'zgarishga uchraganini ko'rish mumkin. Mantu – manti shaklida iste'molda faol bo'lib, qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksema sanaladi. Manti o'zlashma qatlam so'z bo'lib, milliylikimizga aylanib ulgurgan taomlarimizdan biridir.

Quymog' – leksemasi ham turkiy xalqlarda ma'lum va mashhur iste'mol taomdir. Ammo, fonetik o'zgarishga uchrab, quymoq holiga kelib qolgan. Tuxumga un chalib yog'da qovurib olinadigan taom turi sanaladi.

Urkamoch – leksemasi ham taom turlaridan birining nomi. Bugungi kun tilimizda ishlatilmaydi. Eskirgan leksema sanaladi.

Qimiz – biya sutidan maxsus idishlarda bijg'itish yo'li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlik. Dala havosi, qimiz, ko'kalamzor dardimga naqdavo. Oybek, Tanlangan asarlar.

Ushbu leksema bugungi kunda ham tilimizda mavjud bo'lgan leksema sanaladi. Qo'llanilish davri hamda doirasi chegaralanmagan. Ushbu so'z hech qanday fonetik o'zgarishga uchramagan holda bizga qadar saqlangan. Qimiz, odatda, qozoq xalqlarining milliy ichimligi sifatida qaraladi.

Boxsum – tariq hamda bug'doydan tayyorlangan ichimlik. Ushbu leksema bugungi kunda iste'molda emas. Boxsum leksemasi ichimlik nomi sifatida Hazrat Navoiy asarlarida ancha keng ishlatilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Hazrat Navoiy she'riy asarlarida oziq-ovqat hamda ichimlik ma'nosini ifodalovchi leksemalar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Ular bir necha xil nomlar bilan yuritilgan. Ularni ikki guruhga: arxaizm va istorizm leksemalarga ajratish mumkin. Ular o'zbek xalqining qadimiy urf-odat hamda an'analaridan darak beradi. Shunga adib asarlaridagi realiyalarni lingvokulturologik aspektda o'rganish hozirgi zamon tilshunosligimiz uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. / Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. – Тошкент: Фан, 1989.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Т. I. 417,6
3. Саидов Ё., Умурова Х. Лингвокультурологик тадқиқотлар методологияси / Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. -Наманган: 2020. -№ 5. –Б. 297-304.
4. Jiyanqulovna J. L. Til, millat va madaniyat munosabati //the theory of recent scientific research in the field of pedagogy. 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 39-43
5. Jo'rayeva, L. (2024). Alisher Navoiy asarlaridagi kiyim nomlarining lingvopoetik va lingvokulturologik tadqiqi. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 3(3), 124-127.
6. Laylo, J. R. (2024). Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat va o'simliklarning lingvomadaniy tadqiqi. News of the NUUZ, 1(1.3), 299-302.
7. Juraeva Laylo Zhiyankulovna. (2025). The Relationship between Reality and Culture. Miasto Przyszłości Kielce 2025. ISSN-L: 2544-980X. 75-77.

Muhayyo MUHAMMADIYEVA,
Ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

NIZOMIY GANJAVIYNING "MAXZAN UL-ASROR" VA ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONLARIDAGI HIKOYATLARNI MAVZU JIHATIDAN TASNIFLASH

Annotatsiya: buyuk xamsanavis ijodkorlar Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" va Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonlarida hikoyatlarning o'rni beqiyos bo'lib, ular maqolatlarda ifodalangan falsafiy qarashlarning tasdig'i, dalili sifatida qo'llanilgan. Ushbu maqolada hikoyatlarning mavzusi, g'oyaviy-mazmunijihatdan mushtarak va farqli tomonlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: dunyoning o'tkinchiligi, rizqning Tangridan kelishi, tavba qilish, rostlik, to'g'rilik, saxovat, karamlilik, kechirimlilik, ilm va ilmparvarlik, adolatparvarlik va zolimlik, insoniy xislatlar va yomon illatlar.

Аннотация: роль притч в поэмах «Махзан ул-асрор» Низами Гянджеви и «Хайрат ул-аброр» Алишера Навои несравнима, и они используются в качестве подтверждения и доказательства философских взглядов, выраженных в статьях. В данной статье раскрывается тема, идейно-содержательные общие и отличительные стороны притч.

Ключевые слова: преходящесть мира, приход пропитания от Бога, покаяние, правдивость, праведность, щедрость, благородство, прощение, знание и любовь к знаниям, справедливость и тирания, человеческие качества и злые пороки.

Annotation: the role of stories in the epics "Maxzan ul-asror" by Nizami Ganjavi and "Hayrat ul-abror" by Alisher Navoi is incomparable, and they are used as confirmation and proof of the philosophical views expressed in the articles. This article reveals the themes, ideological and semantic commonalities, and differences of the stories.

Key words: the transience of the world, the coming of sustenance from God, repentance, truthfulness, righteousness, generosity, magnanimity, forgiveness, knowledge and love of knowledge, justice and tyranny, human qualities and vices.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" hamda Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" dostonlari qomusiy, falsafiy-ta'limiy asarlar bo'lib, uning asosini tashkil qiluvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamon uchun dolzarb bo'lgan barkamol avlod, komil inson siymosi haqidagi buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ma'naviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ushshuaro" asarida Navoiy "Xamsa" sini yaratishda Nizomiy an'analarga tayanganini ta'kidlaydi: "Ul amirning latif tab'idan to bu kungacha sodir bo'lgan turkiycha va forsiychadan ma'rifatli Shayx

Nizomiyning "Xamsa" siga turkiycha qilgan javobidirkim, bu yaxshi andeshali amirdan avval biror kishi bu qadar fazlga qoyim bo'lolmagan. Darhaqiqat, o'sha dostonida u fasohatning dodini bergan". [3.15]

Shuningdek, Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida "Xamsa" ning besh dostonini yozishda ruhlantirgan ijodkorlar haqida shunday deydi: "Avvalkim "Hayrat ul-abror" bog'ida tab'im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi "Maxzan ul-asror" idin boshimga durlar sochibdur". [4.520]

Darhaqiqat, Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida xamsachilik otasi - Nizomiy o'ziga

ma'naviy ustoz deb bilib, "Maxzan ul-asror" ning vazni, badiiy qurilishi hamda g'oyaviy yo'nalishini qabul qildi va yana-da rivojlantirdi. Shuningdek, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy an'analariga ham tayanib, ularga ergashdi. "Hayrat ul-abror" va "Maxzan ul-asror" dostonidagi hikoyatlarni mavzu va mazmun jihatdan tasniflaydigan bo'lsak, o'zaro o'xshash va farqli tomonlariga guvoh bo'lamiz. Jumladan, "Hayrat ul-abror" hikoyatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- a) tasavvufiy-falsafiy ruhdagi hikoyatlar;
- b) adolat, mardlik va jasorat madhiga bag'ishlangan hikoyatlar;
- d) insoniy fazilatlar va illatlar talqin etilgan hikoyatlar;
- e) ilm va ilmparvarlik ulug'langan hikoyatlar.

Birinchi guruhga Boyazid Bistomiy va uning muridi, Ibrohim Adham va Robiya Adaviya, Abdulloh Ansoriy, Shayx Iroqiy, Iskandar, Zaynul Obidin va uning o'g'li haqidagi hikoyatlarni kiritish mumkin;

Ikkinchi guruhga esa Shoh G'oziy, Abdulloh Muborak, Shoh Bahrom haqidagi hikoyatlari mansub;

Uchinchi guruhga Hotami toyi, No'shiravon va nargis, Qanoatli va qanoatsiz do'st, Ikki vafoli yor, Sher va Durroj, Ayyub va o'g'ri, Isroili Rind, Chin go'zali va uning oshig'i, Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li Abu Nasr kabi hikoyatlarni kiritish mumkin;

To'rtinchi guruhga esa Imom Faxr Roziy va Xorazmshoh, Yoqut haqidagi hikoyatlarni kiritish mumkin. [5.106]

Adabiyotshunos N.Mallayev "Hayrat ul-abror" ning janr xususiyatlari unda katta epik obrazlar yaratish imkoniyatini bermasligini, lekin shunga qaramay, muallif "Hayrat ul-abror" ga juda ko'p va xilma-xil obrazlar, turli ijtimoiy tabaqalarga mansub, turli xarakterdagi ijobiy va salbiy, hajviy va majoziy obrazlarni kiritganligini yozadi. [6.151]

"Maxzan ul-asror" dostonidagi hikoyatlarning g'oyaviy mazmuni va mavzuni tahlil etadigan bo'lsak, dunyoning o'tkinchiligi, rizqning Tangridan kelishi, tavba qilish, shukur va sabr qilish kabi falsafiy; har bir narsaning yaxshi tomonini ko'ra bilish, nodon do'stdan dono dushmanning afzalligi, yaxshi niyat qilish, ahdda

vafo qilish, rostgo'ylik, adolatparvarlik, qanoatlilik, kamtarinlik va sokinlik kabi insoniy xislatlar tarannumi keng yoritilgan hikoyatlar mavjudligini ko'ramiz. Shu jihatdan, hikoyatlarni quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

- 1. Dunyoning o'tkinchiligi, rizqning Tangridan kelishi haqidagi falsafiy mavzudagi hikoyatlar;
- 2. Tavba qilishning xosiyati yoritilgan hikoyatlar;
- 3. Adolatparvarlik va zolimlik mavzusi yoritilgan hikoyatlar;
- 4. Insoniy xislatlar va yomon illatlar yoritilgan hikoyatlar.

Birinchi guruhga "Sohibnazar mo'bad", "Janjallashgan hakimlar", "Sayyod, uning iti va tulki" hikoyatlarini;

Ikkinchi guruhga "Noumid podshoh va uni Alloh afv etgani", "Tavbabuzar zohid" hikoyatlarini;

Uchinchi guruhga "No'shiravon va uning vaziri", "Kimsasiz kampir va Sulton Sanjar" hikoyatlarini;

To'rtinchi guruhga "Zolim podshoh va rostgo'y kishi", "Iso alayhissalom haqida hikoya", G'ishtchi chol", "Faridun va ohu", "Mevafurush va tulki", "Majruh bola", Xoji va so'fi", "Horun ar-Rashid va sartarosh", "Yosh shahzoda va uning keksa dushmanlari", "Bulbul va lochin", Jamshid va xos mahrami" kabi hikoyatlarni kiritishimiz mumkin.

"Maxzan ul-asror" va "Hayrat ul-abror" hikoyatlarining mavzu va g'oya doirasini tahlil etadigan bo'lsak, imyon, Tangriga toat qilish, dunyoning o'tkinchiligi, shukur qilish, tavba qilish, adolat, rostlik, qanoat, saxovat, kechirimlilik, odob, vafodorlik kabi ko'plab mavzular yoritilgan bo'lib, ayrim mavzular ikki dostonidagi hikoyatlarda ham tarannum etilgan. Masalan,

- 1. Rostlik, to'g'rilik g'oyasi Navoiyda "She'r va durroj" va Nizomiyda "Zolim podshoh va rostgo'y kishi" hikoyatlarida;
- 2. Adolat va zulm mavzusi Navoiyda "Shoh G'oziy", "Shoh Bahrom" hamda Nizomiyda "No'shiravon va uning vaziri" hikoyatlarida;
- 3. Tavba-tazarru qilish mavzusi "Hayrat ul-abror" da "Bani Isroili Rind" hamda "Maxzan ul-asror" ning "Noumid podshoh va uni Alloh afv etgani", "Tavbabuzar zohid" hikoyatlarida;
- 4. Dunyoning o'tkinchiligi, shukur qilib xush yashash g'oyasi Navoiyda "Iskandar", "Go'zal

malika va uning oshig'i" hamda Nizomiyda "Sohibnazar mo'bad", "Janjallashgan hakimlar" haqidagi hikoyatlarda;

5. Kechirimlilik mavzusi "Hayrat ul-abror" da "Ayyub va o'g'ri" hikoyati bilan "Maxzan ul-asror" da "Xoji va so'fiy" hikoyatlarida keng yoritilgan.

Shuningdek, hikoyatlardagi ayrim mavzular har ikkala shoirda har xil ifodalangan. "Hayrat ul-abror" hikoyatlaridagi mavzular doirasi keng, ularda turli g'oya, mazmun, mavzu tasvirlangan. Navoiy o'z dostoniga ustozlarining dostonida yoritilmagan mavzularni ham kiritgan. Xususan, Navoiy quyidagi mavzularga alohida boblar ajratadi va unga ilova qilib shu mazmunga mos hikoyat keltiradi:

1. Ilm ahlini ulug'lash haqida – "Imom Faxr Roziy va Xorazmshoh";

2. Qanoatli bo'lish haqida– "Qanoatli va qanoatsiz do'st";

3. Qalam ahli haqida – "Yoqut haqida hikoyat";

4. Saxovat, karamlilik haqida - "Hotami Toyi";

5. Rizqning Tangridan kelishi haqida – "No'shiravoni odil";

6. Ota-o'g'il munosabati haqida – "Xoja Muhammad Porso va Xoja Abu Nasr" hikoyatlari keltirilgan. Yana shuningdek, ayrim mavzu va g'oyalar esa "Maxzan ul-asror" hikoyatlarida keng yoritilganligiga guvoh bo'lamiz:

1. Rizqning Tangridan kelishi to'g'risida – "Sulaymon va dehqon";

2. Do'stlik haqida – "Majruh bola";

3. Sir saqlash haqida– "Jamshid va uning xos mahrami" hikoyatlari bunga misol bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ikkala dostonidagi hikoyatlarda ham insonni komillik sari yetaklovchi xislatlar mavzusi yoritilgan. Navoiy o'z ustozini izidan borar ekan, Nizomiy an'anasini davom ettirib, g'oyaviy-mazmuniy jihatdan o'xshash hikoyatlar yaratdi, o'z zamoni talabidan kelib chiqib asariga qo'shimcha yangiliklar kiritdi va g'oyaviy-badiiy tomondan boyitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Nizomiy Ganjaviy. "Maxzan ul-asror". Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. –T., 2016.
3. Davlatshoh Samarqandiy. "Tazkirat ush-shuaro". Navoiy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.15-16-b.
4. Alisher Navoiy. "Muhokamat ul-lug'atayn". TAT. O'n jildlik. O'ninchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.520-b.
5. N.Sharipova. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostoni poetikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand: 2021.106-b.
6. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.151-b.
7. M.Muhiddinov. Komil inson – adabiyot ideali. –T.: Ma'naviyat, 2015.

Shalola ERBUTAYEVA,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

E-mail: utkirovnashalola@gmail.com

Dildora SAMANDAROVA,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Matematika va informatika yo'nalishi talabasi

E-mail: dildorasamandarova7@gmail.com

ERKIN A'ZAMNING "SHOIRNING TO'YI" QISSASINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqola Erkin A'zamning "Shoirning to'yi" qissasini sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil etishga bag'ishlangan. Qissa, sho'ro davrining mafkuraviy ta'siri ostida yashagan shoirning hayoti va ijodini yoritadi. Asarda til va nutqning ijtimoiy konteksti, shuningdek, tilning ijtimoiy qatlamlar va hokimiyat bilan aloqasi chuqur tahlil qilinadi. Maqola, adabiyotshunoslikda sotsiolingvistik yondashuvning ahamiyatini ko'rsatib, til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi.

Kalit so'zlar: *sotsiolingvistika, mafkura, jamiyatdagi g'oya, sho'ro davri, nutq ijtimoiy qatlamlar.*

Аннотация: эта статья посвящена анализу рассказа свободного члена "свадьба поэта" с социолингвистической точки зрения. Повесть освещает жизнь и творчество поэта, жившего под идейным влиянием эпохи Просвещения. Работа глубоко анализирует социальный контекст языка и речи, а также связь языка с социальными слоями и властью. Статья исследует взаимосвязь между языком и обществом, показывая важность социолингвистического подхода в литературоведении.

Ключевые слова: *социолингвистика, идеология, идея в обществе, советской период, речь социальных слоев.*

Annotation: this article is devoted to the analysis of the story "The Poet's wedding" by free Azam from a sociolinguistic point of view. The story illuminates the life and work of the poet, who lived under the ideological influence of the shouro era. The work analyzes in depth the social context of language and speech, as well as the relationship of language to social strata and authority. The article explores the interrelationship between language and society by showing the importance of the sociolinguistic approach in literary studies.

Key words: *sociolinguistics, ideology, idea in society, the silent era, speech social layers.*

Kirish. Erkin A'zam – o'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lib, uning asarlari jamiyat va inson taqdiri, mafkura va ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi munosabatlarni chuqur yoritadi. "Shoirning to'yi" qissasi aynan shu jihatdan o'ziga xosdir. Asarda sho'ro davrining mafkuraviy ta'siri ostida yashagan shoirning hayoti va ijodi tasvirlanadi. Qissa, til va nutqning ijtimoiy konteksti, shuningdek, tilning ijtimoiy qatlamlar va hokimiyat bilan aloqasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Sotsiolingvistik yondashuv va uning adabiyotshunoslikdagi o'rni.

Sotsiolingvistika – til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadigan fan sohasi bo'lib, u tilning ijtimoiy kontekstdagi o'rnini, til orqali ifodalangan ijtimoiy qatlamlar va hokimiyat munosabatlarini tahlil qiladi. Adabiyotshunoslikda sotsiolingvistik yondashuv asarlarning til va nutq jihatidan ijtimoiy kontekstini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Sotsiolingvistik yondashuvda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

Etnografik tadqiqotlar: Jamiyatdagi til ishlatish holatlarini kuzatish va tahlil qilish.

Diskurs tahlili: Nutqdagi ijtimoiy va siyosiy kontekstlarni o'rganish.

Kod almashinuvi va diglossiya tahlili: Turli ijtimoiy guruhlar orasidagi til almashinuvi va ikki tilning birgalikda ishlatilishini o'rganish.

Bilingvizm va trilingvizm tahlili: Bir nechta tilni bir vaqtning o'zida ishlatish holatlarini o'rganish.

Sotsiolingvistik yondashuv adabiyotshunoslikda quyidagi sohalarda qo'llaniladi:

Personajlarning tilini tahlil qilish: Personajlarning ijtimoiy holati, sinfi, ta'lim darajasi va boshqa omillarni hisobga olib, ularning nutqini tahlil qilish.

Til va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganish: tilning madaniyat va ijtimoiy qadriyatlar bilan qanday oʻzaro taʼsirda boʻlishini oʻrganish.

Tilning hokimiyat va mafkura bilan aloqasini tahlil qilish: tilning siyosiy va ideologik taʼsirlarni qanday aks ettirishini oʻrganish.

Dialekt va tilning ijtimoiy qatlamlarga bogʻliqligini oʻrganish: dialektlarning ijtimoiy guruhlar orasidagi farqlarni qanday aks ettirishini oʻrganish.¹

“Shoirning toʻyi” qissasida til va nutqning ijtimoiy konteksti

Qissada til va nutq orqali shoʻro davrining mafkuraviy taʼsiri ostida yashagan shoirning ichki dunyosi va tashqi muhit bilan munosabati tasvirlanadi. Asarda tilning ijtimoiy qatlamlar va hokimiyat bilan aloqasi, nutqning ijtimoiy kontekstdagi oʻrni chuqur tahlil qilinadi.

Erkin Aʼzamning “Shoirning toʻyi” qissasi til va nutqning ijtimoiy konteksti orqali oʻziga xos jamiyat va shaxs oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Asar tilni faqat muloqot vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy qatlamlar, mafkura va hokimiyat taʼsirida shakllanadigan, jamiyatdagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni ifodalovchi vosita sifatida koʻrsatadi. Qissada turli ijtimoiy qatlamlar vakillari oʻziga xos nutq uslubiga ega. Shoir va uning atrofidagi insonlarning soʻzlash uslubi, leksikasi, jumla tuzilishi, hattoki nutq ohangi ularning ijtimoiy mavqeyini, taʼlim darajasini va siyosiy qarashlarini aks ettiradi. Masalan, shoirning yaqinlari va tanishlari oʻz nutqlarida mahalliy dialekt va xalq soʻzlarini koʻproq ishlatib, rasmiy vakillar esa sovet mafkuraviyati tili va terminologiyasini qoʻllashadi. Bu holat til va ijtimoiy qatlamlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatadi. Shoirning toʻyi davrida sodir boʻlayotgan voqealar sovet mafkuraviyati taʼsiri ostida kechadi. Mafkura tilning shakllanishida, nutqning mazmuni va ohangida yaqqol seziladi. Nutqdagi propagandaviy, rasmiy tildagi soʻzlar va iboralar asar qahramonlarining ichki kurashlarini, ijtimoiy bosimni ifodalaydi. Masalan, shoir oʻz soʻzlarini bayon etishda sovet siyosiy tilining chegaralarida qolishga majbur boʻlsa-da, uning ichki dunyosi xalq tili va shaxsiy nutq unsurlari orqali ochiladi.

Qissada til shunchaki ijtimoiy aloqalar vositasi boʻlib qolmay, balki shaxsning ichki dunyosini, his-tuygʻularini, erkin fikrini ifodalovchi vosita sifatida ham koʻrsatiladi. Shoirning oʻz nutqida mavhum va sheʼriy ifodalar koʻp boʻlib, ular uning individual fikr va qarashlarini, erkinlikka boʻlgan intilishini aks ettiradi. Shu bilan birga, qissa ichidagi boshqa

qahramonlarning nutqlari orqali shaxsning ijtimoiy oʻrni va taʼsir doirasi ham aniqlanadi. Til qissada hokimiyat vositasi sifatida ham ishlatiladi. Rasmiy nutq va til orqali hokimiyat oʻz gʻoyalarini targʻib qiladi, shoir va uning atrofida qilarni oʻz nazoratida ushlab turadi. Bu esa til va hokimiyat oʻrtasidagi ziddiyatni yaratadi. Qahramonlarning nutqida tilning bu ikki qirrali tabiati – erkinlik va bosim oʻrtasidagi muvozanat koʻrsatiladi. Qissa tilning oʻzgarmasligi yoʻq, u ijtimoiy muhitning oʻzgarishi bilan birga oʻzgaradi. Masalan, toʻy marosimlarida ishlatiladigan til va nutq uslubi bilan kundalik hayotdagi nutq farqlanadi. Bu esa tilning jamiyatdagi funksiyalarini va uning ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini koʻrsatadi.

Misol: qissada shoirning toʻy marosimida nutq soʻzlashda qoʻllanilgan rasmiy va ijtimoiy til uslubi hamda shaxsiy, erkin fikrni ifodalovchi soʻzlar aniq farqlanadi. Bu farq tilning ijtimoiy qatlamlarga, mafkura va hokimiyatga boʻysunish darajasini aks ettiradi. “Shoirning toʻyi” qissasida til va nutq ijtimoiy kontekstda koʻrib chiqilganda, ular jamiyatdagi ziddiyatlarni, ijtimoiy qatlamlar oʻrtasidagi farqlarni va hokimiyatning mafkuraviy taʼsirini aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon boʻladi. Til

nafaqat muloqot vositasi, balki shaxsning ichki dunyosi va jamiyat bilan munosabatining koʻzgusi sifatida qissada markaziy oʻrin tutadi.²

Mafkura va hokimiyatning tilga taʼsiri

Shoʻro davrida mafkura va hokimiyat tilni oʻz maqsadlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida ishlatgan. “Shoirning toʻyi” qissasida bu holat aniq koʻrinadi. Asarda shoirning nutqi orqali mafkura va hokimiyatning tilga taʼsiri, tilning ijtimoiy qatlamlar va hokimiyat bilan aloqasi yoritiladi.

Til — bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki mafkura va hokimiyatning jamiyatga taʼsir koʻrsatish vositasi hamdir. Har qanday siyosiy tuzum yoki mafkura oʻz gʻoyalarini ommaga singdirish uchun tilga murojaat qiladi. Til orqali nazorat, itoat, yondashuvlar va hatto odamlarning dunyoqarashi shakllantiriladi.

Mafkura — bu gʻoya, qarashlar va eʼtiqodlar tizimi boʻlib, u hokimiyatning yuritilishini asoslaydi va uni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, mafkuraviy tizimlar tilni oʻz nazoratiga olishga harakat qiladi — bu tilni standartlashtirish, rasmiy terminologiyalarni yaratish, senzura oʻrnatish va ideologik nutq qoliqlarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Erkin Aʼzamning “Shoirning toʻyi” qissasida tilning mafkura va hokimiyat taʼsirida qanday oʻzgarishi, qanday nazoratga olinishi chuqur yoritilgan. Qahramonlar, ayniqsa shoir, oʻzining

¹ Eshquvatova, U. (2023). Erkin Aʼzamning “Shoirning toʻyi” qissasida inson fojiasi. *Golden Brain ilmiy jurnali*, 1(21), 50–55.

² Rajapova, F. (2023). Erkin Aʼzam. Shoirning toʻyi. Kechagi kundan rivoyat. Xurshid Davron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz>

ichki dunyosini to'liq ifoda etishga urinsa-da, atrofdagi mafkuraviy tuzum bu ifodani cheklaydi.

Qissada ko'plab personajlar, ayniqsa sovet davriga oid byurokratlar va rasmiylar, "standart", "shablon" iboralarni ishlatadi. Masalan, "sotsialistik mehnat", "xalqimizning porloq kelajagi", "partiyaning g'amxo'rligi" kabi iboralar bu tuzumda til qanday qilib shaxsiy fikrni siqib chiqarishini ko'rsatadi. Bu holatda til, hokimiyatga xizmat qiluvchi quoldir. Shoirning nutqi, ba'zida lirika va kinoya bilan to'la bo'ladi. Bu uning rasmiy va ideologik til bilan ichki noroziligini bildiradi. Shoir bir tomondan xalqona va erkin nutqdan foydalanishga harakat qilsa-da, boshqa tomondan rasmiy til doirasidan chiqib ketolmaydi. Bu holat uning shaxsiyati va mafkuraviy bosim o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi, tilni nazorat qilish — hokimiyatning eng kuchli nazorat mexanizmidir. Har qanday norasmiy yoki "haddan tashqari erkin" fikr, garchi u san'at asari bo'lsa ham, noqulaylik tug'diradi. Shoirning ijodi, to'yi, o'ziga xosligi ham mafkuraviy doiralar uchun "xavfli" ko'rinadi.

Qissadagi eng og'riqli jihat shundaki, hokimiyat tomonidan qabul qilingan rasmiy til asta-sekin insonlar ongini ham o'zgartirib boradi. Bu "ichki senzura"ga olib keladi — inson o'zini o'zi cheklay boshlaydi. Shoir o'zining so'zlari bilan boshqalarni emas, o'zini oqlashga, hatto o'z fikrini yashirishga majbur bo'ladi.

Bu hodisa bugungi lingvistikada "ideologik til strukturasi" yoki "nutq hegemoniyasi" deb ataladi. "Shoirning to'yi" qissasi mafkura va hokimiyatning tilga ta'sirini yorituvchi muhim adabiy manba hisoblanadi. Asarda til:

- jamiyatning mafkuraviy nazorati vositasi;
- shaxs erkinligini cheklovchi qurol;
- rasmiy va norasmiy sohalar o'rtasidagi tafovut belgisi sifatida ko'rsatilgan.

Erkin A'zam ushbu qissada shunchaki shoir haqida emas, balki erkin fikr va so'zning mafkura bilan ziddiyatini, insoniylik va hokimiyat orasidagi kurashni til vositasida yoritadi. Bu asar sotsiologik nuqtayi nazardan ham, mafkuraviy tahlil nuqtayi nazaridan ham katta ilmiy qiymatga ega.

Xulosa. Erkin A'zamning "Shoirning to'yi" qissasi o'zbek adabiyotida sotsiologik tahlilga asos bo'la oladigan yuksak badiiy namunadir. Asarda til, nutq, shaxsiyat va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar sotsiologik yondashuv orqali yoritiladi.

Qissada til:shaxsiy erkinlikni ifodalovchi vosita, mafkura va hokimiyat nazoratini ta'minlovchi mexanizm, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutni aks ettiruvchi ko'zgudir.

Qahramonlarning nutq uslubi orqali ularning ijtimoiy mavqeyi, siyosiy pozitsiyasi va shaxsiyati aniq ko'zga tashlanadi. Til va nutqdagi tafovutlar o'z navbatida jamiyatdagi sotsial ziddiyatlarni, mafkuraviy bosimlarni va insoniy haqiqatlar bilan rasmiy haqiqat o'rtasidagi kurashni ochib beradi.

Shuningdek, qissada tilning moslashuvchanligi, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi o'tkazuvchanlik va nutqning ijtimoiy kontekstga qarab o'zgaruvchanligi realistik tarzda ko'rsatiladi. Bu jihatlar asarni nafaqat adabiy, balki lingvistik va ijtimoiy nuqtayi nazardan ham o'rganishga munosib qiladi.

Natijada, "Shoirning to'yi" qissasi sotsiologik va adabiyotshunoslik kesishgan nuqtada turgan asar sifatida qadrlanadi. Unda til jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, mafkuraviy nazorat va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi ziddiyatlar ifodasiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshquvatova U. *Erkin A'zamning "Shoirning to'yi" qissasida inson fojiasi*. Golden Brain ilmiy jurnali, 2023. 1(21), 50–55.
2. Rajapova, F. *Erkin A'zam. Shoirning to'yi. Kechagi kundan rivoyat*. Xurshid Davron kutubxonasi. 2023. <https://kh-davron.uz>
3. Erkin A'zam. *Shoirning to'yi* (Qissa). Ziyouz kutubxonasi. <https://ziyouz.uz>
4. Sultanmuradov, R. *Sotsiologik va zamonaviy tilshunoslikning yangi yondashuvlari*. O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.
5. Fishman, J. A. (1972). *The Sociology of Language: An Interdisciplinary Social Science Approach to Language in Society*. Rowley, Mass: Newbury House.
6. Fairclough, N. (2001). *Language and Power*. Longman. — Nutq va hokimiyat munosabatlarning diskursiv tahlili.
7. Labov, W. (1972). *Sociolinguistic Patterns*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
8. O'zbekiston Respublikasi Adabiyot va san'at instituti. *O'zbek adabiyotida mafkura va ijtimoiy ong*. — Toshkent, 2020.

Shodiyona RAXIMOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Oriental Universiteti
E-mail: shodiyona.1003@gmail.com

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga doir ilmiy qarashlar tahlil etiladi. Ushbu yo'nalishning tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistika hamda psixolingvistika kabi fanlar bilan uzviy aloqasi ochib beriladi. Shuningdek, lingvomadaniyatshunoslikning metodologik asoslari va yetakchi olimlarning ilmiy yondashuvlari ko'rib chiqiladi. XX asr oxirida Moskvada shakllangan lingvomadaniyatshunoslik maktablari va ularning til hamda madaniyat o'zaro ta'siriga doir nazariy qarashlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, til va madaniyat, ilmiy metodologiya, filologiya, madaniyatshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, XX asr, lingvomadaniyatshunoslik maktablari, tilshunoslik.*

Annotation: this article discusses the formation and development of linguocultural studies as a scientific discipline, emphasizing the interrelation between language and culture. It examines the scientific methodologies and approaches of key scholars in the field, including V.V. Vorobyov and V.N. Telia. The article also highlights the development of linguocultural schools in Moscow at the end of the 20th century and explores the influence of linguistics, cultural studies, ethnolinguistics, and psycholinguistics on the field.

Key words: *linguocultural studies, language and culture, scientific methodology, philology, cultural studies, ethnolinguistics, psycholinguistics, 20th century, linguocultural schools, linguistics.*

Аннотация: в данной статье анализируются этапы становления и развития лингвокультурологии как научной дисциплины, а также научные взгляды, посвящённые изучению взаимосвязи языка и культуры. Раскрывается тесная связь данного направления с такими науками, как лингвистика, культурология, этнолингвистика и психолингвистика. Также рассматриваются методологические основы лингвокультурологии и научные подходы ведущих учёных. Особое внимание уделяется лингвокультурологическим школам, сформировавшимся в Москве в конце XX века, и их теоретическим взглядам на взаимодействие языка и культуры.

Ключевые слова: *лингвокультурология, язык и культура, научная методология, филология, культурология, этнолингвистика, психолингвистика, XX век, лингвокультурологические школы, лингвистика.*

Kirish. Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har bir xalqning madaniyati uning tilida aks etadi. Lingvomadaniyatshunoslik aynan shu bog'liqlikni o'rganadigan fan sohasi sifatida shakllangan bo'lib, uning tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Qadimgi davrlardan beri mutafakkirlar til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganib kelishgan, biroq mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida lingvomadaniyatshunoslik XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan¹.

Ushbu fan filologiya, madaniyatshunoslik, psixolingvistika, etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, til orqali milliy o'ziga xoslik va madaniy qadriyatlarni o'rganishga qaratilgan. Lingvomadaniyatshunoslikning rivojlanishiga Gumboldt, Sepir, Uorf kabi olimlarning asarlari katta ta'sir ko'rsatgan. Ularning tadqiqotlari til faqat

aloqa vositasi emas, balki xalqning tafakkuri va dunyoqarashini shakllantiruvchi omil ekanini ko'rsatdi.

Zamonaviy lingvomadaniyatshunoslik turli tillar va madaniyatlarni taqqoslash, tarjima jarayonlari, madaniy kodlar va milliy mentalitetni o'rganish bilan ham shug'ullanadi. Ushbu maqolada lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy fan sifatida shakllanish tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlari haqida batafsil so'z yuritiladi.

"Lingvokulturologiya" atamasi birinchi bor 1996-yilda V.V. Vorobyov tomonidan yozilgan "Lingvokulturologiyaning nazariy va amaliy jihatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasida qo'llanilgan. 1997-yilda esa u tomonidan "Lingvokulturologiya: nazariya va metodlar" nomli o'quv qo'llanmasi nashr etilgan².

1 Малхазова М.И., Лингвокультурология как самостоятельное направление лингвистики. – Москва, 2015

2 Воробьёв В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. М: РУДН, 1997. 331 с.

Tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida lingvokulturologiya rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar V. N. Teliya bo'lib, u til va madaniyatni o'zaro bog'liq holda, ularning sinxroniy o'zaro ta'siri doirasida chuqur tadqiq qilgan³.

XX asrning oxirlarida Moskvada lingvomadaniyatshunoslikning 4 ta maktabi vujudga keldi⁴:

1) Y.S. Stepanov maktabi⁵. Bu maktab metodologik jihatdan E. Benvenist konsepsiyasiga mos kelib, maqsadi diaxron aspektida madaniyatning o'zgarmasligini tavsiflashdir. Uning mundarijasini tasdiqlash uchun turli davrlarga oid matnlarni xolis – tashqaridan turib tahlil qilish kerak.

2) N.D. Arutyunova maktabi⁶ turli davr va turli xalqlarga oid bo'lgan matnlarda uchrovchi madaniyatning universal terminlarini tadqiq etadi. Bu terminlar ham til egasi sifatida emas, tashqi kuzatuvchi nigohi bilan izohlanadi.

3) V.N. Teliya maktabi⁷ Rossiya va butun dunyo ilmida frazeologizmlarni lingvokulturologik analiz qilish Moskva maktabi nomi bilan mashhur. V.N. Teliya va uning izdoshlari til borlig'ini jonli til egasi reflekslari orqali o'rganadilar, ya'ni madaniy semantika bevosita til va madaniyatning subyektini nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Bunday tadqiq usuli A. Vejbitskayaning qarashlariga mos keladi. Unda so'zlovchining nutqiy faoliyati uning ruhiy holati taqlidi hisoblanadi.

4) V.V. Vorobyov, V. M. Shakleyin va boshqa olimlar tomonidan Rossiya Xalqlar Do'stligi universitetida tashkil etilgan lingvokulturologiya maktabi, E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovning konsepsiyasini davom ettirgan holda rivojlantirilgan⁸.

Lingvomadaniyatshunoslik bu nima degan savolga ba'zi tilshunoslar, lingvomadaniyatshunoslik — etnolingvistikaning bir yo'nalishi hisoblanadi desa (V.N. Teliya, S.G. Vorkachev, A.T. Xrolenko, A.E. Karlinskiy)⁹, boshqalarning fikriga ko'ra esa, bu fan lingvo-mamlakatshunoslikning tarkibiy qismi sanaladi (E.M. Vereshchagin, V.G. Kostomarov,

V.P. Oshchepkova)¹⁰. Yana bir guruh olimlar uni madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasining bir bo'lagi deb hisoblaydi (O.A. Leontovich)¹¹, ayrimlar esa uni etnopsixolingvistika bilan bog'laydi (Yu.S. Sorokin, V.P. Belyanin)¹².

A.A. Leontyev, N.I. Tolstoy va A.T. Xrolenkoning fikricha, lingvomadaniyatshunoslik hali mustaqil fan sifatida to'liq shakllanmagan¹³.

Birinci navbatda, lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishidagi murakkablik til va madaniyat kabi tushunchalarni talqin qilishdagi jiddiy qarama-qarshiliklar bilan bog'liqdir. Madaniyatning 500 dan ortiq ta'riflari mavjud bo'lib, til uchun ham shunday ko'p ta'riflar keltirilgan.

Ikkinchidan, lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishidagi murakkablik shundaki, u vaqt jihatidan ikki katta paradigma¹⁴ — kommunikativ-pragmatik¹⁵ va kognitiv-diskursiv paradigmalarining¹⁶ shakllanishi bilan to'g'ri keladi. Lingvomadaniyatshunoslik ushbu paradigmalarining yutuqlaridan foydalangan holda juda tez rivojlandi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanish jarayoni hali tugamagan, hozirgi kunda tadqiqotning maqsadlari, obyekti va predmetini aniqlash, shuningdek, o'z metodlarini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar davom etmoqda.

Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda Vilgelm Fon Gumboldt o'zining "Tilning tuzilishi va insoniyat ma'naviy rivojiga ta'siri"¹⁷ kitobi bilan tamal toshini qo'ygan bo'lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi.

Ayniqsa, uning "turli tillar, o'z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg'uga ta'siriga ko'ra amalda turlicha dunyoqarashni ifodalaydi", "tilning o'ziga xos xususiyatlari millatning o'zligiga ta'sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o'rganish tarix va falsafa

10 Верещагин Е.М., Костомаров В.Г., Лингвострановедческая теория слова. –Москва, 1980

11 Леонтович О.А., Введение в межкультурную коммуникацию. –М.: Гнозис, 2007

12 Красных В.В., Этнопсихлингвистика и лингвокультuroлогия. – Москва, 2002

13 Хроленко А.Т., Основы лингвокультuroлогии. –М.: Флинта: Наука, 2009

14 Paradigma (grekcha — „namuna, andoza“) — ilmiy yutuqlar majmui.

15 Kommunikativ-pragmatik paradigma – bu tilshunoslikda til va muloqotning pragmatik aspektlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvdir. U til birliklarining kommunikativ vazifalari, ya'ni axborot uzatish, axborot olish va harakatga undash kabi funksiyalarini tahlil qiladi.

16 Kognitiv-diskursiv paradigma — bu tilshunoslikda til va tafakkur o'rnatidagi o'zaro aloqani o'rganishga qaratilgan yondashuv bo'lib, tilning kognitiv va diskursiv jihatlarini birlashtiradi. U til birliklarining shakllanishi, ularning ma'nosi va muloqotdagi rolini kognitiv jarayonlar va diskursiv kontekst orqali tahlil qiladi.

17 В. Гумбольдт, Избранные труды по языкознанию (пер. Г.В. Рамишвили). –Москва, 1984

insonning ichki dunyosi bilan bog'lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak" kabi fikrlari keng tarqalgan.

Y.S.Stepanov "Konstantlar: Rus madaniyati lug'ati" asarini yaratib, rus tilida faol qo'llaniladigan va ushbu til egalari dunyoqarashida muhim o'rin tutadigan konseptlarni jamlagan hamda ular haqida batafsil ma'lumot bergan¹⁸. Ushbu kitobda muallif rus madaniyatining o'ziga xos belgilarini aniqlab, ularning tarixiy shakllanishi, lingvistik xususiyatlari va jamiyatdagi roli haqida keng izoh beradi. Shuningdek, u madaniy konstantalar tushunchasini asoslab, ularning vaqt o'tishi bilan qanday saqlanib qolishi yoki o'zgarishini ko'rsatib beradi. Stepanovning yondashuvi tilshunoslik, semiotika¹⁹ va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan qimmatli bo'lib, rus tilining chuqur qatlamlarini tushunishga yordam beradi.

N.D. Arutyunovanning "Til va inson olami"²⁰ tadqiqoti turli davrlar va turli xalqlar madaniyatiga tegishli universal terminlarni o'rganishga bag'ishlangan.

18 Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. –Москва: Акад. проект, 2001

19 Semiotika (yun. semiotikos — belgilar haqidagi ta'limot), semiologiya - axborot, ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o'rganadigan fan sohasi

20 Арутюнова Н.Д., Язык и мир человека. –Москва, 1999.

Lingvomadaniyatshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o'zaro chambarchas bog'liqligini namoyon etadi. Bu ilmiy soha, tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki xalqning tafakkuri va dunyoqarashini shakllantiruvchi omil sifatida ko'radi. Lingvokulturologiya va uning turli maktablari til va madaniyatning o'zaro aloqalarini yanada chuqurroq o'rganish imkonini yaratadi.

Xulosa. Lingvomadaniyatshunoslik — til va madaniyatning o'zaro ta'sirini, ular orasidagi bog'liqlikni o'rganadigan ilmiy soha sifatida o'zining ahamiyatini kundan-kunga oshirib bormoqda. Til orqali madaniy qadriyatlar va milliy xususiyatlar namoyon bo'lib, bu fan faqat tilning nutqdagi o'rnini emas, balki tilning xalqlar tafakkuri va dunyoqarashiga qanday ta'sir ko'rsatishini ham o'rganadi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmida o'zining alohida yo'nalishini topdi, bu jarayonning muhim bosqichlari Gumboldt, Stepanov, Arutyunova va Teliya kabi olimlarning ilmiy merosi bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatni o'rganishda yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fan nafaqat tilshunoslik, balki barcha madaniyatlarni o'rganishga bo'lgan yangi va keng qamrovli yondashuvni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д., Язык и мир человека. –М.: «Языки русской культуры», 1999.
2. Арутюнова Н.Д., Язык и мир человека. –Москва, 1999.
3. В. Гумбольдт, Избранные труды по языкознанию (пер. Г.В. Рамишвили). –Москва, 1984.
4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г., Лингвострановедческая теория слова. –Москва, 1980.
5. Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. М: РУДН, 1997.
6. Воробьев В.В., Лингвокультурология (Теория и методы). –Москва: Изд-во Рос. ун-та дружбы народов, 1997.
7. Ильинична П.В., Наука о языке XX-XXI в.в. и ее творческие лики. из жизни сектора общего языкознания: т.в. Булыгина, Ю.С. Степанов, В.Н. Телия. Вопросы психолингвистики. ISSN 2077-5911. –Москва, 2020.
8. Красных В.В., Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. –Москва, 2002.
9. Левиной М.И., Гулыга О.А., Михайлова А.В., Старостина С.А., Журиной М.А., Язык и философия. –Москва, 1985.
10. Леонтович О.А., Введение в межкультурную коммуникацию. –М.: Гнозис, 2007.
11. Малхазова М.И., Лингвокультурология как самостоятельное направление лингвистики. – Москва, 2015.
12. Маслова В.В., Лингвокультурология. –Москва, 2001.
13. Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. –Москва: Акад. проект, 2001.

Dilafroz BERDIYAROVA,
O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

ETNO-TARIXIY JARAYONLAR VA ULARNING VOHA TOPONIMIKASIDA AKS ETISHI

Annotatsiya: toponimarini etno-tarixiy jihatdan davrlarga bo'lib o'rganish mumkin va bu toponimlar o'z navbatida tuman hududining tarixiy taraqqiyoti, etnik tarkibi, tildagi o'zgarishlar, siyosiy-hududiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Zarafshon daryosi o'rta qismida joylashgan Paxtachi tumani toponimlarini tarixiy davrlarga bo'lib o'rganish va tadqiq qilish mumkin. Muayyan bir hududda kechayotgan etnoslararo til munosabatlarining rivojlanish darajasi va ko'lami ko'p jihatdan mazkur hudud aholisining etnik tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Kalit so'zlar: *Dabusiya, Ziyovuddin, voha, yodgorlik, tepalik, joy nomlari, toponimlar, milliy, hudud, maskan.*

Аннотация: топоним можно изучать по этноисторическим периодам, которые, в свою очередь, связаны с историческим развитием района, этническим составом, языковыми изменениями, политико-территориальными изменениями. Топонимы Пахтачинского района, расположенного посреди реки Зарафшан, можно исследовать и исследовать в исторические периоды. Уровень и масштабы межэтнических языковых отношений, происходящих в определенной местности, во многом зависят от этнического состава ее населения.

Ключевые слова: *Дабусия, Зиявулдин, оазис, памятник, холм, топонимы, национальные, территориальные, поселения.*

Annotation: the toponym can be studied according to ethnohistorical periods, which, in turn, are associated with the historical development of the region, ethnic composition, linguistic changes, political and territorial changes. Place names of the Pakhtachinsky district, located in the middle of the Zarafshan River, can be investigated and investigated during historical periods. The level and extent of interethnic language relations occurring in a particular locality depends largely on the ethnic composition of its population.

Key words: *Dabusia, Ziyavuddin, oasis, monument, hill, place names, national, territorial, settlements.*

Muayyan bir xalq (etnos) ning uzoq tarixiy davrlar davomida shakllanishi, rivojlanishi, madaniyati, boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqasi, urf-odati, va yashash joylarida yuz bergan o'zgarishlarning tarixiy jarayoni etno-tarixiy jarayon hisoblanadi. Yanada tushunarliroq qilib aytganimizda, xalqning kelib chiqishi, hududiy o'zgarishlari, madaniyatining shakllanishi, boshqa xalqlar bilan aralashuvi, tarixiy voqealardagi ishtiroki va boshqalarni o'z ichiga oladi. Tarixdan bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi hududida yashagan, qadimgi so'g'dlar, eftalitlar, turklar va boshqa xalqlar o'zaro aralashib, uzoq tarixiy jarayonda o'zbek millatining shakllanishida asos bo'lgan deya olamiz. Shu o'rinda tarixiy va madaniy ma'noga ega bo'lgan, qadimgi xalqlar yashagan hududlar, tili, madaniyati, ayrim yer nomlari orqali qaysi xalq yoki elat va boshqalar haqida ma'lumot beruvchi toponimlar ham o'z ahamiyatiga egadir. Toponimlar – madaniy

merosimizdir. Toponimlar tarixiy hujjatlar bo'lib qolmasdan, balki, xalq xotirasi, afsona va rivoyatlar bilan bog'liq merosimizdir, deb ayta olamiz. Paxtachi vohasi hududida yashovchi aholi tarixini qadimgi Zarafshon vohasi (qadimdan Zarafshon vohasi hisoblangan, Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlari) madaniyati tarixidan aslo ajratib qarash mumkin emas. Avvalambor, Paxtachi hududi o'tmishi, qadimi ya'ni ko'hna sahifalari haqida so'z ochganda Samarqand sug'diga qarashli bo'lgan Dabusiya shahri ko'z oldimizga keladi. Dabusiyaning o'rta asrlar davri ma'muriy chegarasi shimoldan Zarafshon daryosi bilan, Sharqdan Rabinjon, janubdan Zarafshon tizmasining davomi bo'lgan Zirabuloq va Ziyovuddin tog'lari bilan, g'arbdan esa Karmanagacha bo'lgan hududlar bo'lgan¹.

¹ Maxamadiyev G.I. Dabusiya ilk va rivojlangan o'rta asrlarda: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. 14- bet.

Mo'g'ullarning yurishlari natijasida vayronaga aylangan Dabusiya shahri keyingi manbalarda Dabusiya qal'asi deb atala boshladi. Bizga ma'lumki, Paxtachi tumani Samarqand viloyatining eng chekka tumani hisoblanadi, qadimdan madaniyat markazlaridan, barcha sohalarda sivilizatsiya o'choqlaridan bo'lganligi tarixiy manba va ilmiy asoslangan qarashlardan ma'lum. Paxtachi tumani sharqdan Narpay tumani, shimoliy, shimoliy-g'arb va g'arbdan Navoiy viloyatining Xatirchi, Navoiy, Navbahor tumanlari, janubdan Nurobod tumani bilan chegaradoshdir. Demak, mazkur oraliqdagi hududni Paxtachi vohasi toponimik areali deb belgiladik. Muayyan bir hududda kechayotgan etnoslararo til munosabatlarining rivojlanish darajasi va ko'lamini ko'p jihatdan mazkur hudud aholisining etnik tarkibiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, turli etnik jamoalar orasidagi o'zaro etnik munosabatlar retnoslarning aralash yoki yonma-yon yashaydigan hududlarida qizg'in kechadi². Paxtachi tumani toponimik areali ham qadimdan aynan shunday etno-muloqot hududi hisoblanadi.

Voha toponimlarini etno-tarixiy jihatdan davrlarga bo'lib o'rganish mumkin va bu toponimlar o'z navbatida tuman hududing tarixiy taraqqiyoti, etnik tarkibi, tildagi o'zgarishlar, siyosiy-hududiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Zarafshon daryosi o'rta qismida joylashgan Paxtachi tumani toponimlarini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish va tadqiq qilish mumkin:

– qadimgi davrlar (mil. avv. III-I ming yilliklar). Bu vaqtda dastlab Yevroosiyoning dashtlaridan skif-sak va sarmat qabilalari Sirdaryo bo'ylariga, keyinchalik mil. avv. III-II asrlarda Yettisuv va uning atroflaridan qang' va xun qabilalari Amudaryo-Sirdaryo oralig'iga shu jumladan Zarafshon havzalariga ko'chib kelganlar³. Zarafshon vohasi (xususan, Samarqand, Buxoro atrofida) qadimdan Sog'diyona deb atalgan, bu yerda sug'diylar yashagan. Ular eroniy tillar guruhiga mansub xalq bo'lgan. Zarafshon vohasi Qang' davlati va keyinchalik Kushon imperiyasining iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Dabusiyaning ark qismi miloddan avvalgi VI asrda shakllangan

bo'lsa, shahriston va robod qismlarining quyi qatlamlari miloddan avvalgi III asr bilan davrlashtiriladi. Ya'ni shahar maydoni mil. avv. III asrda kengayib, vohada urbanizatsiya jarayonlari rivojlangan⁴. Zamonbobo, Sopollitepa Ko'ktepa kabi arxeologik yodgorliklar kabi, aynan Paxtachi tumanida davrlari aniqlanmagan Qoraminos mahallasida Nomsiz-1, Do'ng mahallasida Nomsiz-2, Jahonobod mahallasilarida Nomsiz-3 tepaliklari va Dabusiya yodgorligi mavjud.

– antik va ilk o'rta asrlar (mil. I-VI asrlar). Oltoy va Sharqiy Turkiston hududlaridan kidariy va eftaliy qabilalari ko'chib kelib, asosan mintaqaning janubiy hududlariga, Amudaryoning yuqori hududlariga joylashgan⁵. Bu davrda Dabusiya hududi ya'ni IV-V asrlarga kelib shahar mudofaa tizimi kuchaytirilgan. Shahar tashqarisida Qoratepa, Shomiko'tarmatepa, Ziyoviddinbuvatepa (V-VII asrlar), Misittepa (IV-VIII asrlar) kabi qishloq va shaharlar shakllangan⁶. Bundan tashqari hududda hali to'liq o'rganilmagan Chorgusha mahallasida Orziqultepa (IV-V asrlar), Tadbirkor mahallasida Qahramontepa (IV-V asrlar), yana shu mahallasida Qalandartepa (mil. I asr va IV-V asrlar), Qoratepa mahallasida Qoratepa (mil. I asr va XI-XII asrlar), O'rta mahallasida Xo'jatepa (G'o'ratepa), (mil. I, IV-V asrlar), Bo'ston mahallasida Eshontepa (IV-V asrlar), Yettikafantepa (IV-V asrlar), Bodoy mahallasida Azizlartepa (IV-V asrlar), Suluvqurg'on mahallasida Polvontepa (IV-V, XI-XII asrlar), Tinchlik mahallasida O'rtabo'ztepa (I, IV-V asrlar), Go'ro'g'li mahallasida Parsaktepa (IV-V asrlar), Kodiris mahallasida Xalifaotatpeta (I, IV-V asrlar), Oqtepa mahallasida "Oqtera" (IV-V, XI-XII asrlar) (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son qaroriga

4 Аскарлов А. Арийская проблема: новые подходы и взгляд/История Узбекистана в археологических и письменных источниках. – Ташкент: Фан, 2005. С 81-91; Абдуллаев К. Nomad migration in Central Asia// The international conference proceedings of the British academy 133. London: British academy, 2007. P. 73-98. Eshonqulov Sh. E. XX asr Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. 16-bet

5 Maxamadiyev G.I. Dabusiya ilk va rivojlangan o'rta asrlarda: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. 16-17 betlar.

6 Frye R., Sayili A. Seljuklulardan evvel O'rta Sharqta Turkler//Belleten-1946. №10- S179-192; Eshonqulov Sh. E. XX asr Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2020. 16-bet

2 Maxamadiyev G.I. Dabusiya ilk va rivojlangan o'rta asrlarda: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. 14- bet.

3 Abdullayev U. Farg'ona vodiysida etnaslararo jarayonlar (XIX-XX asrlar boshlari). – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2005. 47-bet

ko'ra Paxtachi tumani hududidagi Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari ro'yxati), kabi obyektlar qadim tarixdan darak berib turibdi.

– Turk xoqonligi davrida (VI-VII asrlar) turkiy qabilalar kirib kela boshladi, bu etnik tarkibda o'zgarishlar sabab bo'ldi. VI-VIII asrlarda mintaqada Buyuk Turk xoqonligining hukm surishi natijasida Amudaryo-Sirdaryo oralig'ida, shu jumladan, Zarafshon havzalarida Mo'g'uliston, Oltoy, Yettisuv hududlaridan ko'chib kelgan etnoslarning salmog'i ortadi⁷. Zarafshon vodiysi bu davrlarda yirik geosiyosiy o'zgarishlarga duch kelgan. Sug'dlar bu davrda ham muhim o'rin tutgan.

– arab istilolari va islomlashuv (VIII-X asrlar). Zarafshon vohasi arablar tomonidan bosib olinib, islom dini keng tarqala boshladi. Arab istilosi bilan birga arab madaniyati, til unsurlari va islom dini kirib keldi. Sug'dlar asta-sekin islomni qabul qila boshladilar. Mahalliy va arab-etnik aralashuvi sodir bo'ldi.

– Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Qoraxitoylar davri (XI-XII asrlar). Dastlab Qoraxoniylar, keyinchalik Saljuqiylar, Qoraxitoylar, Xorazmshoh-Anushteginlar davrida Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Sirdaryoning o'rta va quyi havzalaridan turkiy urug'larning Zarafshon va Amudaryo havzalariga ko'chishlari kuzatiladi⁸. Bu davrda Zarafshon vohasida ko'plab turkiy qabilalar kirib keldi (qarluqlar, qipchoqlar, o'g'uzlar). Sug'd madaniyati asta-sekin turkiylik bilan almasha boshladi. Samarqand, Buxoro kabi diniy va ilmiy markazlar paydo bo'ldi). Paxtachi tumanining Bobon mahallasida Shomiko'tarmatepa (IV-V, XI-XIII asrlar), Qoratepa mahallasida Qoratepa (mil. I asr va XI-XII asrlar), Suluvqurg'on mahallasida Polvontepa (IV-V, XI-XII asrlar), Oqtepa mahallasidada Oqtera (IV-V, XI-XII asrlar) kabi yodgorliklar shaharda IV asrdan XIII asrning boshlarigacha hayot davom etganligini ko'rsatadi.

– Mo'g'ullar va Temuriylar davri (XIII-XV asrlar). XIII-XV asrlar mobaynida dastlab mo'g'ullar istilosi va Chig'atoy ulusi davrida, keyinchalik esa Temuriylar davrida Sirdaryo, Zarafshon va Amudaryo havzalarida tig'iz etnomadaniy

aloqalar sodir bo'ldi. Ayniqsa Janubiy Sibir va Uzoq Sharq ko'chmanchi (asosan turk-mo'g'ul, qisman tungus-manjur) etnoslari Oltoy Sharqiy Turkiston, Yettisuv o'lkalaridagi turkiy qabilalarni o'z tarkibiga olgan holda mintaqaning ushbu janubiy-g'arbiy hududlariga kelib joylasha boshlaydilar.

– Temuriylar davrida esa bu jarayon davom etib, Volga-Urolbo'yi va Yettisuv bilan Amudaryo-Sirdaryo oralig'ida migratsion jarayonlar muntazamlik kasb etadi. Bu davrda qo'ng'iroq, arg'un, jaloyir, uyshun, nayman, barlos kabi yana bir necha o'nlab turkiy va turklashgan mo'g'ul urug'lari ushbu jarayonlarning markazida bo'ladi⁹. Etnik o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Chingizxon bosqini natijasida ko'plab aholi qurilgan, yangi turkiy mo'g'ul guruhlar kelib joylashgan. Mo'g'ullar Zarafshon vohasini o'zining muhim iqtisodiy bazasiga aylantirgan. Temuriylar davrida etnik barqarorlik: Zarafshon vohasida aholining asosiy qismi musulmon va turkiy va eroniy xalqlardan iborat edi. Temuriylar davrida fors tili rasmiy til bo'lsada, xalq orasida turkiy til keng tarqalgan.

– Shayboniylar va Buxoro xonligi va amirligi davri (XVI-XIX asrlar). Bu davrda asosan turkiylarning qipchoq urug'lari faollashib, Jizzax, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida keng yoyiladilar¹⁰. Shayboniylar va undan keyingi davrlarga xos etnonimlar ("nayman", "saroy", "qoraqalpoq", "qichiq") ko'proq uchraydi¹¹. Shayboniylar va keyinchalik Mang'itlar davrida o'zbek nomi etnik birlik sifatida mustahkamlandi. Voha hunarmandchilik va dehqonchilik markaziga aylantirildi. XIX asrning birinchi choragi oxirlarida Buxoro amiri Amir Haydar davridan vohamiz Dabusiya emas balki uning o'rnida, Ziyovuddin nomi bilan atala boshlagan.

– Rossiya imperiyasi (1868-1920 yillar) va Sovet davri (XIX-XX asrlar). 1916-yilda Ziyovuddin viloyati Ziyovuddin, Xatirchi bekligiga ajratildi. 1926-yilning sentyabrda Ziyovuddin bekligi o'rnida Narpay tumani tashkil etildi, Mirbozor qishlog'i markaz qilib belgilandi.

9 Bregel Y. An historical atlas of Central Asia. Boston: Brill, 2003. P. 28-32.

10 Eshonqulov Sh. E. XX asr Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Tashkent, 2020. 17-bet

11 Кармышева Б. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М.: Наука, 1976. -С.25

7 Maxamadiyev G.I. Dabusiya ilk va rivojlangan o'rta asrlarda: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. 17- bet.

8 Xo'jayev A Sug'diylarning Xitoyga borib qolishi //Moziydan sado. 2002. №2 (14). 40-43-bet;

– Mustaqillikdan so'nggi davr (1991-yildan hozirgacha). Paxtachi vohasining asosiy aholisi o'zbeklardir. Biroq tojiklar, ruslar, tatarlardan iborat ozchilik guruhlar ham mavjud.

Samarqand va Buxoro vohasi aholisining asosiy qismini o'zbeklar, ozchilik qismini tojiklar, ruslar va tatarlar tashkil qilgan. Bundan tashqari, ushbu toponimik arealda tarixning turli bosqichlarida ko'chib kelib, o'rnashib qolgan turli etnos vakillarining avlodlari ham istiqomat qiladilar. O'zbek xalqi va o'zbek milliy tilining shakllanishida ko'pgina etnik guruhlarining ishtirok etgani ma'lum. O'zbek millati o'z etnik tatkibining serqirra va murakkabligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi. Muayyan bir hududda kechayotgan etnoslararo til munosabatlarining rivojlanish darajasi va ko'lamini ko'p jihatdan mazkur

hudud aholisining etnik tarkibiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, turli etnik jamoalar orasidagi o'zaro etnik munosabatlar retnoslarning aralash yoki yonmayon yashaydigan hududlarida qizg'in kechadi¹². Paxtachi vohasi toponimik areali ham qadimdan aynan shunday etnomuloqot hududi hisoblanadi.

Xulosa. Etno-tarixiy jarayonlar – har bir xalq va millatning o'zligini anglash, tarixini mukammal bilish va madaniy hamda ma'naviy merosini saqlab qolishda muhim vositadir. Bu jarayonlarni o'rganish orqali biz o'z ajdodlarimiz va xalqimizning kimligi, boy tarixiy yo'li va qadimiyligi haqida chuqur bilimga ega bo'lamiz.

12 Eshonqulov Sh. E. XX asr Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi : Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2020. 20-bet

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxamadiyev G.I. Dabusiya ilk va rivojlangan o'rta asrlarda: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. 14- bet.
2. Abdullayev U. Farg'ona vodiysida etnaslararo jarayonlar (XIX-XX asrlar boshlari). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 47-bet.
3. Аскарлов А. Арийская проблема: новые подходы и взгляд // История Узбекистана в археологических и письменных источниках. – Ташкент: Фан, 2005. С 81-91; Абдуллаев К. Nomad migration in Central Asia // The international conference proceedings of the British academy 133. – London: British academy, 2007. P. 73-98.
4. Eshonqulov Sh. E. XX asr Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. 16-bet.
5. Maxamadiyev G.I. Dabusiya ilk va rivojlangan o'rta asrlarda: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. 16-17-betlar.
6. Frye R., Sayili A Selçuklulardan evvel Orta Şarkta Türkler // Belleten-1946. №10- S179-192; Eshonqulov Sh. E. XX asr Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Tashkent, 2020. 16-bet.
7. Maxamadiyev G.I. Dabusiya ilk va rivojlangan o'rta asrlarda: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. 17- bet.
8. Xo'jayev A Sug'diylarning Xitoyga borib qolishi // Moziydan sado. 2002. №2 (14). 40-43-betlar.
9. Bregel Y. An historical atlas of Central Asia. Boston: Brill, 2003. P. 28-32.
10. Eshonqulov Sh. E. XX asr Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. 17-bet.
11. Кармышева Б. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976.-С.25.
12. Eshonqulov Sh. E. XX asr Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi : Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. 20-bet.

Nafisa SHAIMKULOVA,
 Qashqadaryo viloyati Nishon tumani
 1-maktab o'zbek tili o'qituvchisi

TAVTOLOGIYA VA PLEONAZMLARNING ZAMONAVIY TIL MADANIYATIGA TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslikda muhim o'rin tutuvchi tautologiya va pleonazm tushunchalari, ularning zamonaviy til amaliyotidagi roli hamda ularni aniqlash va to'g'rilash yo'llari tahlil qilinadi. Tautologiya va pleonazmlar so'z boyligini kamaytirib, ifodaning chalkash va ortiqcha bo'lishiga olib keladi. Maqolada mazkur tushunchalarning kelib chiqishi, tasnifi va til madaniyatidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi hamda nutqdagi bunday holatlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: *tautologiya, pleonazm, tilshunoslik, til madaniyati, ifoda takrorlanishi, til me'yorlari, nutqning aniqligi.*

Аннотация: в данной статье анализируются важные понятия тавтологии и плеоназма в лингвистике, их роль в современной языковой практике, а также способы их выявления и исправления. Тавтология и плеоназмы уменьшают словарный запас и приводят к запутанности и избыточности выражения. В статье представлена информация о происхождении, классификации и значении этих понятий в языковой культуре, а также рекомендации по устранению подобных ситуаций в речи.

Ключевые слова: *тавтология, плеоназм, лингвистика, языковая культура, повторяемость выражения, языковые нормы, точность речи.*

Annotation: this article analyzes the concepts of tautology and pleonasm, which play an important role in linguistics, their role in modern language practice, and ways to identify and correct them. Tautology and pleonasms reduce vocabulary and lead to confusion and redundancy of expression. The article provides information on the origin, classification, and significance of these concepts in language culture, as well as recommendations for eliminating such situations in speech.

Key words: *tautology, pleonasm, linguistics, language culture, repetition of expression, language norms, clarity of speech.*

Kirish. Tautologiya va pleonazmlar tilshunoslikda ko'p uchraydigan, ammo ko'pincha noto'g'ri qo'llaniladigan til fenomenlaridan biridir. Ularning har ikkalasi so'zlarning takrorlanishi yoki ortiqcha ishlatilishi bilan bog'liq bo'lsa-da, ma'nolarini aniqlash va farqlash muhimdir. Tilning ravonligi, aniq va ixcham ifoda uchun bunday holatlardan qochish lozim. Zamonaviy til amaliyotida tautologiya va pleonazmlar nutq va yozuv sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, o'quvchi yoki tinglovchining tushunish darajasini pasaytiradi. Shu sababli, ushbu maqola tilshunoslikda bu tushunchalarni yoritish va til madaniyatini oshirishga qaratilgan.

Tautologiya va pleonazmlar tilshunoslikda ikki xil, ammo yaqin ma'noga ega tushunchalardir. Tautologiya — bu bir xil yoki o'xshash ma'noli so'zlarning keraksiz takrorlanishi, masalan, “bepul sovg'a” yoki “dastlabki boshlanish”. Bu tilning ifodaviy boyligini kamaytirib, matnning tushunarli va aniq bo'lishiga halaqit beradi. Pleonazm esa — ma'noni ortiqcha kuchaytiruvchi so'z yoki iboralar yig'indisidir, masalan, “quruq cho'l” yoki “yangi yangilik”. Pleonazmlar ko'pincha nutqda ta'kidlash, urg'u berish maqsadida qo'llaniladi, ammo ko'p hollarda matnni qiyinlashtirib, ortiqcha yukni oshiradi.

Zamonaviy til madaniyatida tautologiya va pleonazmlarning ta'siri ayniqsa kommunikatsiya

samaradorligi uchun muhim. Ko'p hollarda aynan ular tufayli matn o'qilishini qiyinlashtiradi, muloqotda chalg'itadi. Shu bois, jurnalistika, reklama, ilmiy va badiiy yozuvlarda bu nuqsonlardan xoli bo'lish uchun maxsus tiliy tahlil va tahrir usullari qo'llaniladi.

Texnologiyalar rivojlangani sari, matnlarni avtomatik tekshirish vositalari ham takomillashmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar tautologiya va pleonazmlarni aniqlashda yordam beradi, bu esa yozuvchilarga sifatli va aniq matn yaratishga imkon beradi. Shu bilan birga, ularni to'g'ri aniqlash va kontekstni hisobga olish muhimligi ortib bormoqda, chunki ba'zan pleonazmlar tilning go'zalligi va ifoda uslubining ajralmas qismi sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Shu sababli, tilshunoslar va kommunikatorlar tautologiya va pleonazmlarni butunlay yo'q qilishdan ko'ra, ularni ongli ravishda tanlab va samarali ishlatishni tavsiya qiladilar. Til madaniyatini rivojlantirish, kommunikatsiya sifatini oshirish uchun muntazam o'quv, trening va amaliy mashg'ulotlar zarur.

Bundan tashqari, tautologiya va pleonazmlar madaniy kontekstga ham bog'liq. Ba'zi tillarda va dialektlarda ular ma'naviy va emotsional ohang

berishda muhim rol o'ynaydi, shu bois ularni to'liq yo'q qilish tilning tabiiyligini buzishi mumkin.

Natijada, tilni yanada samarali va aniq ifodalash uchun tavgologiya va pleonazmlarning ta'sirini yaxshi anglash, ularni aniqlash va to'g'ri ishlatish zaruriyati mavjud. Zamonaviy tilshunoslik bu sohada doimiy izlanishlar olib borib, til madaniyatini yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Tavgologiya va pleonazmlar tilning estetik va kommunikativ jihatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Tavgologiya ko'pincha nutqning zerikarli va keraksiz takrorlanishiga olib keladi, bu esa tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini susaytiradi. Masalan, "har doim doimo" yoki "tuzatib o'zgartirish" kabi ifodalar nutqning samaradorligini pasaytiradi. Shu bois, yozuvchilar va nutq so'zlovchilar tilning bunday kamchiliklaridan xoli bo'lishga harakat qiladilar.

Pleonazmlar esa ko'pincha ma'lum bir tushunchani yanada kuchaytirish, urg'u berish uchun qo'llaniladi. Masalan, "oq rang" yoki "toza sof suv" iborolari ma'noda ortiqcha bo'lsa-da, ular ko'pincha nutqda ifoda boyligini oshirish uchun ishlatiladi. Shuningdek, pleonazmlar stilistik vosita sifatida adabiy asarlarda, she'riyatda, reklama matnlarida keng qo'llaniladi.

Zamonaviy kommunikatsiya va media sohalarida tavgologiya va pleonazmlarni kamaytirish tilning aniq va qisqa ifodasiga erishish uchun muhim hisoblanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumot tez tarqalishi bois, qisqalik va aniq ifoda talab qilinadi. Shuning uchun ko'plab yozuvchilarga va jurnalistlarga tahrir jarayonida ushbu kamchiliklarni bartaraf etish tavsiya etiladi.

Shuningdek, tilshunoslikda tavgologiya va pleonazmlar inson fikrining mantiqiy izchilligini saqlashda muammo tug'diradi. Masalan, ilmiy maqolalarda yoki huquqiy hujjatlarda bunday takrorlanishlar o'quvchining chalg'ishiga va ma'lumotning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, professional yozuvchilar uchun tilning aniqligi va ixchamligi ustuvor sanaladi.

Tavgologiya va pleonazmlarni aniqlashda lingvistik, stilistik va semantik tahlillar keng qo'llaniladi. Bu tahlillar so'zlarning ma'nolarini, ularning kontekstdagi vazifalarini aniqlashga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) vositalari ushbu jarayonlarni avtomatlashtirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Oxirgi yillarda ko'plab ilmiy tadqiqotlar tavgologiya

va pleonazmlarning nutq samaradorligiga ta'sirini o'rganmoqda. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ularni ongli ravishda kamaytirish kommunikativ maqsadga erishishda samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, ularni butunlay yo'q qilish tilning tabiiyligini yo'qotish xavfini keltirib chiqaradi, chunki ba'zan takrorlashlar nutqning emotsional ta'sirini kuchaytiradi.

Shu sababli, tavgologiya va pleonazmlarni boshqarish til madaniyati va kommunikatsiya ko'nikmalarining muhim qismi hisoblanadi. Ularning mavjudligi yoki yo'qligi nutq yoki matnning turiga, maqsadiga va auditoriyasiga qarab baholanadi.

Tavgologiya so'z ma'nosi jihatidan bir xil yoki juda yaqin bo'lgan so'zlarning takrorlanishi sifatida tushuniladi. Masalan, "yagona va birlamchi" yoki "bepul sovg'a" kabi ifodalarda so'zlarning ma'nosi qisman yoki to'liq takrorlanadi. Bu holat nutqning ortiqcha bo'lishiga olib keladi, bunda axborotning takroriy berilishi tinglovchi yoki o'quvchini charchatishi mumkin. Pleonazm esa ortiqcha so'z yoki iboralar qo'shilishi orqali ma'lumotni ortiqcha ifodalashdir. Masalan, "avvalgi oldingi", "har doim doimo" kabi jumlar pleonazm sifatida qaraladi. Hozirgi kunda tilshunos olimlar va til madaniyati mutaxassislari tavgologiya va pleonazmlarni aniqlash va ulardan qochish masalalarini ko'tarib, samarali ifoda madaniyatini rivojlantirishga intilishmoqda. Xalqaro tilshunoslik tadqiqotlarida ushbu fenomenlar tilning funksional qoidalari va kommunikativ samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida va rasmiy yozishmalarda bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun stilistik qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda. Bu til madaniyatining yuqori darajasi va samarali kommunikatsiyaning kafolati sifatida qabul qilinadi.

Xulosa. Tavgologiya va pleonazmlar tilimizda ko'p uchraydigan, ammo tilning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tilshunoslik hodisalardir. Ularni aniqlash va bartaraf etish til madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Til ifodasining aniq, ixcham va ma'nodor bo'lishi uchun bu kabi ortiqcha so'zlardan qochish zarur. Zamonaviy tilshunoslik va kommunikatsiya sohalarida tavgologiya va pleonazmni kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar va amaliy choralar til madaniyatini yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, til o'rganilayotgan va ishlatilayotgan barcha sohalarida ushbu hodisalarni nazorat qilish samarali muloqot va axborot almashishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. Til madaniyati va nutq madaniyati. – Toshkent, 2020.
2. Murodova D. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2018.
3. Xolmurodova S. Tilshunoslik va stilistika. – Toshkent, 2019.
4. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Wiley-Blackwell, 2010.
5. Fromkin V., Rodman R., Hyams N. An Introduction to Language. Wadsworth Publishing, 2017.

Sanjarbek ABDULHAMIDOV,
Qo'qon Davlat universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi
Email: s.abdulhamidov07@gmail.com

TILLARARO TIPOLOGIK YONDASHUVDA KATEGORIYALAR: QIYOSIY TAHLIL IMKONIYATLARI

Annotatsiya: maqolada til toifalari tillararo tipologik yondashuv kontekstida ko'rib chiqiladi, ularning universalligi va milliy o'ziga xos tatbiq etilishini qiyosiy tahlil qilishga e'tibor qaratiladi. Asosiy e'tibor o'zgarmas (universal) va o'zgaruvchan (madaniy jihatdan o'ziga xos) xususiyatlarni aniqlash uchun turli til tizimlarida ishlaydigan til toifalarini taqqoslashga qaratilgan. Kategoriyalarni tipologik tasniflashning nazariy asoslariga, shuningdek tillararo taqqoslashning uslubiy jihatlariga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: *til kategoriyasi, tipologiya, tillararo taqqoslash, universal, lingvistik-madaniy o'ziga xoslik, konseptualizatsiya, mavjudlik kategoriyasi, semantik kategoriya.*

Аннотация: в статье рассматриваются категории языка в контексте межкультурного типологического подхода с акцентом на сравнительный анализ их универсальности и национально-специфических реализаций. Основное внимание уделяется сопоставлению языковых категорий, функционирующих в различных языковых системах, с целью выявления как инвариантных (универсальных), так и вариативных (культурно-специфических) характеристик. Отдельное внимание уделено теоретическим основаниям типологической классификации категорий, а также методологическим аспектам межкультурного сопоставления.

Ключевые слова: *языковая категория, типология, межкультурное сопоставление, универсалии, лингвокультурная специфика, концептуализация, категория бытия, семантическая категория*

Annotation: the article examines the categories of language in the context of an interlanguage typological approach with an emphasis on a comparative analysis of their universality and national-specific implementations. The main focus is on comparing language categories functioning in different language systems in order to identify both invariant (universal) and variable (culturally specific) characteristics. Special attention is paid to the theoretical foundations of the typological classification of categories, as well as methodological aspects of interlanguage comparison.

Key words: *language category, typology, interlanguage comparison, universals, linguistic and cultural specificity, conceptualization, category of being, semantic category.*

Kirish. Muhokama uchun ushbu tadqiqot maqsadi krosslingvistik taqqoslash qiyosiy tushunchalarga asoslanishi kerakligini isbotlashdan iborat. Krosslingvistik toifalarda emas, balki tipolog tomonidan yaratilgan turli tillarda taqdim etilgan va qiyosiy tushunchalar tilga xos tavsiflovchi toifalardan qanday farq qilishini ko'rsating. Amalda tipologlar odatda quyidagilar bilan ishlaydi bunday maxsus qiyosiy tushunchalar va ta'riflovchi toifalar ilgari aniq shakllantirilmagan.

Biz kategorik universalizm deb atashimiz mumkin bo'lgan krosslingvistik taqqoslashga ushbu yondashuv bilan qiyosiy tilshunoslarning (ya'ni tipologlarning) asosiy vazifalaridan biri bu krosslingvistik toifalar nima ekanligini aniqlashdir. Alohida tillar bilan ishlaydigan tilshunoslar uchun bu ma'lum bir tilga tegishli toifalar olinishini kutish mumkinligini anglatadi nisbatan kichik to'plamdan, ular boshqa tillar toifalariga tenglashtirilishi mumkin, va ular krosslingvistik toifalar bilan aniqlanishi mumkin (yoki namuna bo'lib xizmat qiladi). Shunday qilib, qiyosiy tilshunoslik aniq tahlil qilish uchun muhim zarur shartdir tillar. Ba'zan shunday bo'ladi hatto ba'zi toifalar universal deb taxmin qilingan, chunki ular nafaqat

universal tarzda mavjud, balki universal tarzda amalga oshiriladi (masalan, ismlar va fe'llar).

Metodologiya. Haqiqiy munozarali eslatma qiyosiy tilshunoslik vazifalariga muqobil qarashdan boshlanadi. Har bir tilning o'ziga xos toifalari mavjud, va tilni tavsiflash uchun tilshunos uning uchun tavsiflovchi toifalar to'plamini yaratishi kerak va ona tilida so'zlashuvchilar tilni o'zlashtirish jarayonida aqliy toifalarni yaratishlari kerak. Ushbu toifalar ko'pincha turli tillarda o'xshashdir, ammo o'xshashliklar va farqlar turli tillardagi toifalarni tenglashtirish orqali tillarni tushunish mumkin emas. Bu eng ko'plardan biri edi yigirmanchi asr strukturalist tilshunosligining asosiy g'oyalari (ayniqsa birinchi emas, balki o'z nuqtayi nazaridan eng yaxshi tavsiflangan tillar haqida. Universal deb hisoblanadigan oldindan belgilangan toifalar to'plami nuqtayi nazaridan ular aslida ta'sirchan grammatik an'analardan olingan. (masalan, lotin grammatikasi yoki ingliz grammatikasi yoki generativ grammatika yoki lingvistik nazariya asoslari). Bu kategoriyalarga muqobil, neapri-ustuvor yondashuvni kategorik partikularizm deb atash mumkin. Ushbu yondashuv bilan tilni tahlil qilish mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Tipologlar buni tez-tez payqashgan morfosintaktik naqshlarni o'zaro lingvistik taqqoslash rasmiy naqshlarga asoslanishi mumkin emas (chunki ular juda xilma-xil), lekin universal konseptual va semantik tushunchalarga asoslanishi. Biroq, Nyumeyer to'g'ri ta'kidlaganidek, "tipologik umumlashmalar ushbu universal tushunchalar quyidagicha amalga oshiriladigan ma'lum bir shaklga murojaat qiling yaxshi". Tipologlar ish affikslari, jins, qo'shimchalar, passiv konstruksiyalar va ergash gaplar kabi hodisalar haqida umumlashtiradilar va ularning hech birini faqat konseptual va semantik ma'noda aniqlash mumkin emas.

Muhokama va Natijalar. Qiyosiy tushunchalar-bu qiyosiy tilshunoslar tomonidan krosslingvistik taqqoslashning o'ziga xos maqsadi uchun yaratilgan tushunchalar. Ta'riflovchi toifalardan farqli o'laroq, ular ma'lum til tizimlarining bir qismi emas va qiyosiy tilshunoslarga kerak emas. Ta'riflovchi tilshunoslar yoki ona tilida so'zlashuvchilar. Ular psixologik jihatdan haqiqiy emas va qila olmaydi to'g'ri yoki noto'g'ri bo'ling. Ular muammoni hal qilish uchun ko'proq yoki kamroq mos kelishi mumkin tillararo taqqoslash. Ular ko'pincha tavsiflovchi toifalar bilan bir xil tarzda belgilanadi, lekin ular bilan ko'pdan ko'pgacha munosabatlarda. Qiyosiy tushunchalar universal ravishda qo'llaniladi va boshqa universal qo'llaniladigan tushunchalar asosida aniqlanadi: universal konseptual va semantik tushunchalar, umumiy rasmiy tushunchalar va boshqa qiyosiy tushunchalar.

Ushbu bayonotni sinab ko'rish uchun biz turli tillardagi Dativ va ayblovl belgilarining belgilarini aniqlashimiz, shuningdek, fonologik uzunlikni krosslingvistik jihatdan ahamiyatli o'lchashimiz kerak. Dativ holatlarni (yoki Dativ kabi holatlarni) tenglashtirib bo'lmashligini aniqlash nisbatan oson turli tillarda; ya'ni Dativ ishning tillararo toifasi mavjud emas. Ruscha dative, koreyscha dative va turkcha dative deb atash uchun yetarlicha o'xshash

xuddi shu nom, lekin ikkalasi o'rtasida juda ko'p farqlar mavjud va ularni bir-biri bilan aniqlab bo'lmaydi. Shubhasiz, ularning tabiatini qoniqarli tarzda yetkazish mumkin emas.

Ushbu ta'rif "qabul qiluvchi" va "konseptual-semantik tushunchalariga asoslanadi" shuningdek, "morfologik" va "argument" qiyosiy tushunchalarida. "Morfologik" qiyosiy tushunchasi, o'z navbatida, "so'z" qiyosiy tushunchasini nazarda tutadi, bu "erkin ravishda to'xtatib bo'lmaydigan segmental chiziq" deb ta'riflanishi mumkin qiymatni o'zgartirmasdan shakl va "argument" qiyosiy tushunchasi bo'lishi mumkin. "Fe'ning semantik sohasini to'ldirishi mumkin bo'lgan ma'lumotnoma iborasi" deb ta'riflangan valentlik holati. Bu ta'riflar hali ham ibtidoiy tushunchalardan iborat emas, lekin ular tilga xos tushunchalarni kiritmaydi (hech bo'lmaganda aniq emas), shuning uchun ular o'zaro lingvistik jihatdan qo'llaniladi (yoki tegishli takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin). Shunday qilib, ta'rifni hisobga olgan qo'llaniladi.

Xulosa. Tilshunoslar faoliyatining muhim qismi tavsiflovchi xususiyatga ega, chunki u tahlilga qaratilgan muayyan tilning asosiy vazifasi nazariy yoki amaliy bo'lishidan qat'i nazar tilni tavsiflash uchun toifalar kerak, chunki tilning barcha maqbul jumlarini sanab bo'lmaydi. Tilshunoslar son-sanoqsiz imkoniyatlardan, tilni maqbul ravishda "hurmat qiladigan" tavsiflar eng yuqori baholanadi. XIX asrda oltita holatli lotin modeli (nominativ: jon, ayblovlchi: jon, dative: jonga) bo'yicha ishsizlarning tavsiflarini topish odatiy hol edi,

Genitiv: jondan, ablativ: jondan, ovozli. Ushbu turdagi tavsiflar ular tavsif foydalanuvchilariga tilda qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan iboralarni farqlashga imkon berganligi sababli ishladilar, ammo ular buni shunday qildilar tilshunoslar uchun hech bo'lmaganda strukturalizm paydo bo'lganidan beri qabul qilinishi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulhamidov, S. (2023). BASIC PRINCIPLES AND PROCEDURE FOR STUDYING CAUSATIVE CONSTRUCTIONS IN MODERN LINGUISTICS. Наука и технология в современном мире, 2(19), 19-22.
2. Dikson R. M. U. Lingvistik nazariya asoslari. 1-jild. Metodologiya. Oksford universiteti matbuoti, 2010.
3. Drayer, M. S. (1997). Grammatik munosabatlar universalimi? Baybi, Hyman va S. A. Tompson (tahr.), "til funksiyasi va til turi bo'yicha insholar: -T., 1997. Givonga bag'ishlangan" 115-143 betlar Jon Benjamins Tomonidan.
4. Haspelmat, M. (2010). Tillararo tadqiqotlarda qiyosiy tushunchalar va tavsiflovchi toifalar. Til, 86 (3), 663-687. <https://doi.org/10.1353/lan.2010.0021>
5. Komri B. Til universallari va lingvistik tipologiya. Sintaksis va morfologiya (2-nashr.). Chikago universiteti matbuoti, 1989.
6. Nyumyer, F. J. Lingvistik tipologiya va tushuntirish. Oksford universiteti matbuoti, 2007.
7. Rakhmonovich, E. M., Elyorjon, I., & Sanjarbek, A. (2022). Terminology As An Informative Part Of The Language. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1591-1594.
8. Xusnitdin o'g'li, S. A. (2023). ISSUES OF CREATING A LINGUISTIC IMAGE OF THE WORLD. Gospodarka i Innovatsie., 37, 44-46.

N. MIRJONOV,

Buxoro davlat pedagogika instituti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

DORIVOR O'SIMLIK NOMLARINING O'ZBEK TILI LEKSIK QATLAMIDAGI O'RNI (Na'matak misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada dorivor o'simlik nomlarining o'zbek tilining leksik qatlamini boyitishdagi o'rni tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida "na'matak" fitonimi misolida uning etimologiyasi, ilmiy, badiiy va onomastik xususiyatlari lingvistik tahlilga tortilgan. Tabobatga oid qadimiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va badiiy asarlardan olingan misollar asosida dorivor o'simlik nomlarining til rivojida ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *fitonim, leksik qatlam, na'matak, onomastika, tibbiyot tili, badiiy nutq, etnolingvistika, terminologiya, ramziy ma'no, lingvistik tahlil.*

Annotation: this article explores the role of medicinal plant names in enriching the lexical layer of the Uzbek language. Within the scope of the study, the etymology, scientific, artistic, and onomastic features of the phytonym "na'matak" were subjected to linguistic analysis. Based on examples from ancient medical sources, scientific literature, and literary works, the significance of medicinal plant names in the development of the language is demonstrated.

Key words: *phytonym, lexical layer, na'matak, onomastics, medical language, artistic speech, ethnolinguistics, terminology, symbolic meaning, linguistic analysis.*

Аннотация: в данной статье исследуется роль названий лекарственных растений в обогащении лексического слоя узбекского языка. В рамках исследования на примере фитонима «на'мatak» проведён лингвистический анализ его этимологии, научных, художественных и ономастических особенностей. На основе примеров из древних медицинских источников, научной литературы и художественных произведений показано значение названий лекарственных растений в развитии языка.

Ключевые слова: *фитоним, лексический слой, на'мatak, ономастика, медицинский язык, художественная речь, этнолингвистика, терминология, символическое значение, лингвистический анализ.*

1. Kirish (Introduction).

Tabobat insoniyat tarixidagi eng qadimiy fanlardan biri bo'lib, uning tili har bir xalq leksikasining muhim qismini tashkil etadi. O'zbek tilida ham dorivor o'simliklarga oid boy lug'at qatlami mavjud. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk mutafakkirlar asarlarida tabobat va o'simliklar haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Ular yaratgan "Tib qonunlari", "Kitob as-saydana" kabi asarlar bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Hozirgi kunda ham farmatsevtika sanoatida qo'llanilayotgan dori-darmonlarning qariyb 40 foizdan ziyodi o'simlik mahsulotlaridan tayyorlanadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, dorivor o'simliklar nomlari tilimiz lug'at qatlamini boyitish bilan birga, madaniy, tarixiy va ijtimoiy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Mavjud giyohxonalarda turli o'simliklar va ularning qismlari (*poyasi, bargi, ildizi, guli, mevasi*) keng qo'llaniladi. Tadqiqotning maqsadi dorivor o'simlik nomlarining o'zbek tili leksikasidagi o'rnini lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish va ularning ilmiy hamda badiiy nutqda qo'llanish xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Dorivor o'simlik nomlarining ilmiy va lug'aviy ta'riflarini o'rganish.
2. "Na'matak" fitonimi misolida uning onomastik xususiyatlarini tahlil qilish.
3. Badiiy asarlarda dorivor o'simlik nomlarining metaforik va ramziy qo'llanilishini ochib berish.

2. Metodlar (Methods)

Ushbu tadqiqotda tavsifiy-tahliliy, komparativ va lingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

- Tavsifiy-tahliliy metod: maqolaning kirish qismida dorivor o'simliklarning tibbiy va madaniy ahamiyati yoritilib, ularning til leksikasidagi o'rni tavsiflangan. Asosiy tushunchalar ("fitonim", "leksik qatlam") izohlangan.

- Komparativ (qiyosiy) metod: na'matak o'simligining turli navlari turli hududlarda qanday nomlanishi, shuningdek, uning ilmiy (lug'aviy) va badiiy (ramziy) ma'nolari o'zaro qiyoslangan. Bu orqali bir so'zning turli nutq uslublaridagi funksional farqlari oydinlashtirildi.

- Lingvistik tahlil: maqolaning asosiy qismida "na'matak" fitonimiga chuqur lingvistik tahlil o'tkazildi. Tahlil uchun Oybekning "Na'matak" she'ri va Ulug'bek Hamdamning "Na'matak" romani misol sifatida olindi. Matndagi ayrim iboralar, masalan, "na'matak kabi yashamoq" va "butadan farq qilib, qaridilar" kabi birliklar semantik nuqtayi nazardan o'rganilib, ularning ma'no qatlamlari aniqlandi.

3. Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, dorivor o'simlik nomlari o'zbek tili leksikasining boy va serqirra qatlamini tashkil etadi. Bu nomlar nafaqat ilmiy tibbiyot, balki xalq tabobati va badiiy adabiyotda ham faol qo'llaniladi.

- **Ilmiy va lug'aviy ma'no:** "Na'matak" so'zining o'zbek tilining izohli lug'atida berilgan ikki xil ma'nosi

uning ham botanik, ham dorivor ahamiyatini ko'rsatadi. Bu so'z, birinchidan, butalar turkumiga ishora qilsa, ikkinchidan, o'sha o'simlikning qizil, shifobaxsh mevasini anglatadi. D. Nuriyning "Osmon ustuni" asaridan olingan "na'matakning tikanli shoxlari" kabi misollar o'simlikning tashqi xususiyatlarini tasdiqlaydi, M. To'ychiyevning asaridagi "S vitamini" haqidagi ma'lumot esa uning dorivor xususiyatiga urg'u beradi.

- **Onomastik xususiyatlar:** na'matakning nomlanishi lingvistik jihatdan unumli jarayon ekanligi aniqlandi. Uning turli navlarining nomlari, asosan, o'simlikning o'sish joyi (*qo'qon na'matagi*, *zangezur na'matagi*), tashqi shakli (*itburun na'matak*, *burushqoq na'matak*) yoki o'ziga xos belgisi (*tikanli na'matak*, *pahmoq na'matak*) asosida yasalgan. Bu, til tizimida so'z yasash jarayonida aniq va kuzatiladigan obyekt xususiyatlaridan foydalanish ustuvorligini isbotlaydi. Lotincha nomlar (*Rosa canina*, *Rosa rugosa*) bilan o'zbekcha nomlarning ma'no jihatdan mos kelishi, nomlash jarayonida xalqning kuzatuvchanligi va ilmiy yondashuv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi.

- **Badiiy ma'no:** Oybekning "Na'matak" she'ri va Ulug'bek Hamdamning "Na'matak" romani tahlilida **na'matak** so'zining oddiy fitonimdan chuqur ramziy ma'no tashuvchi badiiy vositaga aylangani ko'rsatildi. Oybek she'rida u nafislik, poklik va hayotning go'zalligi ramzi sifatida tasvirlansa, U. Hamdam romanida bu so'z inson umri, hayotning davomiyligi, avlodlar aloqasi va qarish jarayonini ifodalash uchun qo'llangan. Yozuvchi yaratgan "**na'matak kabi yashamoq**" iborasi insonning o'sib-unishi, meva berishi va hayotiy novdalarini yoyishi bilan o'simlik hayotini o'xshatish orqali umr mazmunini yoritib beradi. Shu bilan birga, "butadan farq qilib, qaridilar" degan jumlada inson umrining o'simlik umridan farqli bo'lgan cheklanganligi, ya'ni yakun topishi ta'kidlanadi. Bu holat badiiy asarda oddiy so'zlar orqali qanchalik chuqur falsafiy g'oyalarni yetkazish mumkinligini isbotlaydi.

4. Muhokama (Discussion)

Ushbu tadqiqot natijalari dorivor o'simlik nomlarining o'zbek tilining nafaqat tibbiyot terminologiyasi, balki umumiy lug'at tarkibini ham boyitishini tasdiqlaydi.

Tahlil qilingan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. **Leksik qatlamning boyishi:** dorivor o'simlik nomlari o'zbek tilining leksik-semantik tizimida muhim o'rin egallaydi. Ular tilning milliy boyligini oshirish bilan birga, so'z yasash, o'zlashma so'zlarning o'zbek tiliga moslashishi va terminologik bazaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ko'pgina fitonimlar o'zbek tiliga arab, fors va boshqa tillardan o'zlashgan bo'lsa-da, ular tilning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yangi so'zlar (masalan, *pahmoq na'matak*, *tikanli na'matak*) hosil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. **Ilmiy va badiiy nutqning o'zaro aloqasi:** ilmiy nutqda aniq va obyektiv ta'riflar bilan qo'llaniladigan fitonimlar badiiy adabiyotda chuqur metaforik va ramziy ma'nolar kasb etadi. **Na'matak** so'zining Oybek she'rida go'zallik va poklik ramzi, Ulug'bek Hamdam romanida esa hayot va avlodlar davomiyligi ramzi sifatida tasvirlanishi bunga yaqqol misoldir. Bu holat, til birliklarining ko'p funksiyaliligini ko'rsatadi va tilning inson tafakkurini ifodalashdagi cheksiz imkoniyatlarini yana bir bor isbotlaydi.

3. **Madaniy-tarixiy ahamiyati:** dorivor o'simlik nomlari orqali xalqning tabiatga bo'lgan munosabati, uning asrlar davomida orttirgan tibbiy bilimlari va o'ziga xos dunyoqarashi aks etadi. Bu nomlar xalq tabobati, urf-odatlar va folklor merosining ajralmas qismidir. Masalan, **isiriq**ning nomi uning xushbo'yligi bilan bir qatorda yomon ko'zdan saqlash kabi qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, fitonimlar tilshunoslikning etnolingvistika va kognitiv tilshunoslik kabi sohalar uchun ham muhim tadqiqot manbai hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda tibbiy til, tibbiy matnlar va shifobaxsh o'simlik nomlarini o'rganish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu tadqiqotlar nafaqat tilning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga, balki sohaga oid lug'atlar yaratish, ilmiy adabiyotlarni nashr etish va xorijiy mutaxassislar bilan ilmiy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida boshqa dorivor o'simlik nomlarini ham, ayniqsa, ularning o'zbek xalq tabobatidagi o'rnini chuqur tahlil qilish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Abu Ali ibn Sino.** *Tib qonunlari*. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1980. 274-bet.
2. **Mahmudxon Mahmud.** *1001 tibbiy hikmat*. – Toshkent: O'qituvchi, 2013. 137-bet.
3. **Mirjonov N. N.** "SHIFOBAXSH O'SIMLIK NOMLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI". *Scientific progress*. 2022, – T. 3, № 2. S. 214-223.
4. **Numonovich M. N.** "ISIRIQ" DORIVOR O'SIMLIGI VA UNING LINGVISTIK TABIATI". *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*. 2022, T. 2, № 1. S. 495-498.
5. **G'iyosiddin Jazoiriy.** *Giyohlar tilga kirganda*. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2013.
6. **Jamolxonov H. A.** *O'zbek adabiy tili tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
7. **Otajonova D. M.** "Tibbiy terminlarning leksik-semantik xususiyatlari". Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2021.
8. **Sulaymonov Sh. S.** "Fitonimlarning lingvomadaniy xususiyatlari (o'zbek va ingliz tillari misolida)". Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.
9. **O'zbek tilining izohli lug'ati**. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. 3-jild. 190-bet.
10. **Hamdam U.** *Na'matak* (roman).
11. **Oybek.** *Asarlar*. 20 jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. 1-jild.

Xurshida SAIDOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
e-mail: x.f.saidova@buxdu.uz.

O'ZBEK TILIDA ZAMONAVIY KASB OTLARI

Annotatsiya: maqolada mustaqillik davrida zamonaviy kasb otlarining o'zbek tili leksikasida qay darajada o'rin egallaganligi haqida fikr yuritiladi. Ishda dunyodagi barcha tillar faqat ichki imkoniyatlar asosida emas, balki boshqa tillardan so'z olish hisobiga boyishi, shu jumladan, o'zbek tili leksikasining tashqi manbalar asosida boyib borishi va rivojlanishi haqida so'z yuritiladi. Neologizmlarning tasnifi bo'yicha ham ma'lumot keltirildi. Shuningdek, yangi paydo bo'lgan kasb otlarini turli jihatlariga ko'ra tasniflanishi haqida fikr yuritiladi. Bir necha sohalarida yuzaga kelgan kasb otlari mavzuviy guruhlar bo'yicha tasniflangan.

Kalit so'zlar: *neologizm, yangi so'z, olinma so'z, o'zbek tili leksikasi, tashqi manba, ichki manba, o'zlashma so'zlar, kasb otlari, zamonaviy yo'nalishlar, lug'at qatlami.*

Аннотация: в статье рассматривается, в какой степени современные профессиональные существительные заняли свое место в лексиконе узбекского языка в период независимости. В работе рассматривается обогащение всех языков мира не только на основе внутренних возможностей, но и за счет заимствования слов из других языков, в том числе обогащение и развитие лексикона узбекского языка на основе внешних источников. Также дается информация о классификации неологизмов. Также рассматривается классификация вновь возникающих профессиональных существительных по их различным аспектам. Профессиональные существительные, возникшие в нескольких областях, классифицируются по тематическим группам.

Ключевые слова: *неологизм, новое слово, заимствованное слово, лексика узбекского языка, внешний источник, внутренний источник, заимствованные слова, профессиональные имена существительные, современные тенденции, словарный пласт.*

Annotation: the article discusses the extent to which modern professional nouns have taken their place in the lexicon of the Uzbek language during the period of independence. The work discusses the enrichment of all languages in the world not only on the basis of internal opportunities, but also by borrowing words from other languages, including the enrichment and development of the lexicon of the Uzbek language based on external sources. Information is also provided on the classification of neologisms. It also discusses the classification of newly emerging professional nouns according to their various aspects. Professional nouns that have arisen in several areas are classified by thematic groups.

Key words: *neologism, new word, borrowed word, Uzbek language lexicon, external source, internal source, borrowed words, professional nouns, modern trends, vocabulary layer.*

Kirish. Mustaqillik tilimiz uchun yangi davr, yangi shart-sharoitlarni ochib berdi, avvalo, ona tilimizning o'zbekona tabiati (milliy grammatika)ni yaratish uchun katta imkoniyat berdi. Taniqli tilshunslarimizning mehnati, tinimsiz izlanishlari evaziga tilimiz o'z qaddini bir qadar tiklab oldi. Neologizm tilga yangi kirib kelgan yoki yangidan yaratilgan so'z bo'lib, u hali keng omma orasida to'liq qo'llanilmagan, yangi tushuncha yoki hodisani ifodalaydi.[7, 2] Tilga kirib kelgan yangi so'z va birliklar chet tilshunoslarning fikriga ko'ra quyidagicha: Tilshunos V. S. *Vinogradov* ta'kidlashicha, "neologizmlar — tilga mustahkam o'rtnashayotgan yangi so'zlar yoki ma'nolardir, ular yangi fikr obyektlarini ifodalaydi". Taniqli tilshunos

O. S. *Axmanova* bu atamani "yangi obyekt yoki tushunchani ifodalash uchun yaratilgan so'z yoki ibora" deb tushuntiradi.[5, 253] Shuningdek, kasb — kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi hisoblanib muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Zamonaviy dunyo doimo jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan turli xil o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu zamonaviy mehnat bozorida ham amal qiladi. Har yili odamlardan yangi bilim va ko'nikmalarni egallashni talab qiladigan yangi kasblar paydo bo'ladi. Yangi-yangi tushunchalarni ishlab chiqaruvchi, o'rgatuvchi va faoliyat yurituvchi shaxs otlari zamonaviy kasblar sanaladi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sohalarda katta o'zgarishlar bo'ldi. Bu esa yangi kasblar, sohalar va ularni ifodalovchi yangi atamalarning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Quyida zamonaviy kasb nomlari keltirildi: *blogger, mobilograf, SMM mutaxassis, kontent yaratuvchi, grafik dizayner, podcaster, freelancer, startup asoschisi, barista, vizajist, fitness-trener, kiberxavfsizlik muhandisi, digital marketolog, robototexnik, kouch, kolorist* kabi yangi kasb otlarining miqdori faqatgina shulardan iborat emas, balki bu qatorni yana davom etish mumkin.

Asosiy qism. Istiqlool davrida yangi so'zlarning ko'pchiligi chet tilidan kirib kelganiga binoan zamonaviy kasblar ham o'zlashma so'zlardir (*blogger, SMM*). Ayrim kasb nomlari esa so'z yasash yo'li bilan shakllangan (*dasturchi*). Yangi kasb nomlari termin sifatida hali o'zbek tilining izohli va imlo lug'atlarida to'liq aks etmagan, biroq umumxalq orasida faol ishlatilmoqda.

Quyida mustaqillik davrida o'zbek tilida yuzaga kelgan zamonaviy kasb otlarining izohi keltirilgan. Ular asosan, axborot-texnologiya, internet, biznes, madaniyat va turizm sohaslarining rivojlanishi bilan bog'liq. Mustaqillik davrida boshqa sohalarga nisbatan quyidagi otlar keng rivojlandi. Ushbu sohalarni birmabir ko'rib chiqamiz.

Axborot-texnologiyalari sohasida yuzaga kelgan zamonaviy kasb otlari:

dasturchi – kompyuter dasturlarini yaratuvchi shaxs oti (bu termin yangi emas, ammo hozirgi kunda keng tarqalgan); *mobilograf* – mobil telefon orqali surat va video oluvchi mutaxassis; *grafik dizayner* – bu kasb egalari grafik tasvirlar, logotip, brend ishlanmalarini yaratadi. *web-dizayner* – veb-sayt tuzilishi va ko'rinishini loyihalovchi shaxs oti; *SMM-mutaxassis* (Social Media Marketing) – suhbu kasb egasi ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama yurituvchi; *SEO-mutaxassis* – saytlarni qidiruv tizimlarida yuqoriga olib chiqish bilan shug'ullanadi; *kiberxavfsizlik mutaxassisi* – raqamli xavfsizlik bo'yicha ishlaydi.

Media va ijodiy sohalarda yuzaga kelgan zamonaviy kasb otlari: *kontent yaratuvchi* – ijtimoiy tarmoqlar yoki veb-saytlar uchun matn, rasm, video yaratish bilan shug'ullanadi; *blogger* – bu kasb egalari onlayn kontent (asosan video, maqola va.b) yaratadi; *podkaster* – audio dasturlar tayyorlovchi shaxs; *video montajchi* – video kesish, montaj qilish bilan shug'ullanadi.

Marketing va xizmat ko'rsatish sohasida yuzaga kelgan zamonaviy kasb otlari:

brend-menejer – bu kasb egalari brend yuritish va rivojlantirish bilan shug'ullanadi; *trener* – muayyan sohada malaka oshirish, o'rgatish bilan shug'ullanadigan murabbiy; *freelanser* – mustaqil faoliya olib boruvchi, biror kompaniyaga bog'liq bo'lmagan mutaxassis.

Texnika va yangi texnologiyalarda yuzaga kelgan zamonaviy kasb otlari: *robototexnik* – robotlar loyihalovchi va ishlab chiquvchi; *dron operatori* – dron boshqaruvchi mutaxassis.

Ijtimoiy hayot va madaniyat yo'nalishlarida yuzaga kelgan kasb otlari: *ekoproekt yurituvchisi* – ekologik loyihalarda ishlovchi kasb egalari; *fitnes-trener* – jismoniy mashqlar bilan shug'ullanuvchilarni tayyorlaydigan mutaxassis; *psixolog* – ruhiy salomatlik ustida ishlovchi (oldin ham bo'lgan, ammo hozir qaytadan faol ommalashgan).

Iqtisodiyot va moliya sohasidagi asosiy kasb otlari: *auditor* – moliyaviy hujjatlarni tekshiruvchi mutaxassis; *solliq maslahatchisi* – solliq bo'yicha maslahat beruvchi shaxs; *biznes-analitik mutaxassis* – biznesdagi jarayonlar va ko'rsatkichlarni tahlil qiladi; *rtisk-menejer* – bu kasb egalari biznes va moliyaviy xavflarni aniqlab, oldini olish bo'yicha shug'ullanadi.

Bank sohasi yo'nalishida yuzaga kelgan yangi kasb otlari quyidagilar: *bank xodimi* – bular bank amaliyotlarini yurituvchi umumiy kasb nomi; *kredit mutaxassisi* – kredit berish, baholash va monitoring qilish bilan shug'ullanadi; *depozit menejeri* – omonatlar va mijozlar bilan ishlaydi.

Sug'urta va investitsiya yo'nalishida yuzaga kelgan kasb otlari: *sug'urta agenti* – mijozlarga sug'urta xizmatlarini taklif etuvchi kasb otlari; *aktuar* – bu kasb egalari sug'urta va pensiya tizimlaridagi statistik va moliyaviy hisob-kitoblarni yuritadi; *investitsiya menejeri* – bular mablag'larni foydali loyihalarga yo'naltiradi; *fond bozori treyderi* – aksiyalar, obligatsiyalar bilan savdo qiladi.

O'zbek tilidagi neologizmlarning kelib chiqishi va izohi bo'yicha tahlil amalga oshirdik. Bunda yaqin yillarda tilimizga kirib kelgan zamonaviy kasb otlarining bir nechtasining izohini keltirdik. Quyida ushbu so'zlarning bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

1. *Mobilograf*: “mobil” (lotincha *mobilis* – harakatlanuvchi) + “-graf” (yunoncha *grapho* – yozmoq, tasvirlamoq). Mobil telefon orqali suratga olish va video tasvirlar yaratish bilan shug'ullanuvchi. Yurtimizda 2020-yildan boshlab ommalashgan.

2. *Kontent yaratuvchi*. “kontent” – inglizcha *content* – mazmun, axborot, media material. “yaratuvchi” – o'zbekcha fe'l asosida yasalgan kasb oti. Ijtimoiy

tarmoqlar va internet platformalar uchun foto, video, matn, ovozi materiallar yaratadigan shaxs.[4, 11]

3. *SMM-mutaxassis (social media marketing specialist)* ingliz tilidan olingan bo'lib *Social Media Marketing* – ijtimoiy tarmoqlar orqali mahsulot va xizmatlarni targ'ib qilish + “mutaxassis”. SMM – o'zbek tilimizda qisqartma holda o'zgarimasdan ishlatilmoqda. Instagram, telegram, tiktok kabi tarmoqlarda reklama yurituvchi shaxs.[10,1]

4. *Freelanser* inglizcha *freelancer* – mustaqil ishchi. “Free” – erkin, “lance” – nayza, ya'ni “erkin yollanma jangchi” degan ma'no tarixan. mustaqil ishlovchi, biror kompaniyaga bog'lanmagan holda xizmat ko'rsatuvchi. Freelanser bu so'z to'liq o'zlashgan, lekin o'zbekcha muqobili hali keng ishlatilmaydi faqatgina freelanser ko'rinishida da ijtimoiy tarmoqlarda yozilmoqda. (masalan: “mustaqil mutaxassis”).

5. *Dizayner* inglizcha *designer* – loyiha tuzuvchi, bezatuvchi. Bu so'zning grafik dizayner, web-dizayner, interyer dizayner kabi bir necha turlari mavjud. Vizual materiallar (logotip, afisha, banner va h.k.) yaratadigan mutaxassis. Bu so'z o'zlashma so'z, o'zbek tilida ko'plab kasb turlarida ishlatiladi. Hozirda “loyihachi” yoki “bezakchi” ekvivalentlari ba'zida ishlatiladi. [3, 8]

6. *Supervayzer* – bir guruh xodimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi, ularning ishlash samaradorligini ta'minlovchi va ularga rahbarlik qiluvchi shaxs.

7. *Nutritsiolog*- bu oziq-ovqat va ovqatlanish haqidagi fanni, ya'ni nutritsiologiyani o'rganadigan mutaxassis.

8. *Bloger so'zi* inglizcha *blog* (veb-jurnal, shaxsiy onlayn sahifa) + *-er* (kasb qo'shimchasi). Ma'nosi veb-

sayt yoki ijtimoiy tarmoq orqali shaxsiy yoki ommaviy kontent yaratib, fikr bildiruvchi shaxs deganidir. O'zbek tilida to'liq o'zlashgan, zamonaviy yoshlar tilida keng tarqalgan.

9. *Podkaster* inglizcha *podcast* + *-er* – audio kontent (eshittirishlar, suhbatlar) yaratib tarqatuvchi. “Podcast” – iPod (Apple qurilmasi) + broadcast (translyatsiya) so'zlarining birikmasidan yasalgan. Ma'nosi audio shakldagi uzluksiz eshittirishlar muallifi.

10. *Startapchi*. Bu so'z inglizcha *startup* – yangi tashkil etilgan texnologik biznes (boshlang'ich loyiha) + o'zbekcha “-chi” qo'shimchasi. Ma'nosi yangi g'oya asosida kichik biznes boshlovchi, ko'pincha IT sohasida. Hozirda tilimizda rus va ingliz tili orqali kirib kelgan yangi so'z, o'zbekcha shaklda “startapchi” deb ishlatilmoqda. (<https://orifolib.uz/ozlashma-sozlar-kraudfanding/>). Yuqorida bu so'zlarning ayrimlarini keltirib o'tdik, ammo bu qatorni yana davom etish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, tilimiz lug'aviy qatlamiga kirib kelayotgan neologizmlar, aniqrog'i, zamonaviy kasb otlarini to'plash, ularning har bir yo'nalishi, tarmog'i uchun maxsus va umumiy imlo, izohli lug'atlar yaratish, yangi o'zlashmalarning imlosi, transliteratsiyasi muammolari bilan shug'ullanish hozirgi kun tilshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi. Neologik kasb otlari kasb-kor turlarining oshib borishi natijasida sifat va miqdor jihatdan kengayib, o'sib boradi. Ularni keng tasnif va tahlil etish, tilimiz me'yorlariga moslagan holda, ehtiyoj, zaruratga ko'ra qabul qilish til lug'at qatlami so'zlarining o'rganilishi bilan uzviy bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Lexical layers of the modern Uzbek literary language. –T.: “Fan”, 1985.
2. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991.
3. Дженнифер Нидерст Роббинс. «Веб-дизайн в двух словах». Дата обращения: 26 июня 2022 г
4. Нестеренко Н., Шантарин А.. *Контент-менеджмент*. М.: Солон-Пресс, 2014
5. Словарь лингвистических терминов. (Москва, “Советская энциклопедия”, 1966; keyingi nashrlari 1975, 2004), 253bet.
6. Saidova Kh. F. The formal characteristics of socio-political-economic simple lexemes of the independence period (in the noun category).
7. Saidova Kh.F. On the Development of Socio-Political Vocabulary of The Uzbek Language in the Following Years
8. Xo'jayev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarning izohli lug'ati. – T.: “Sard”, 2001
9. Internet ma'lumotlari
10. <https://softmedia.uz/bloglar/smm-haqida/396-smm-nima-smm-marketing-haqida-toliq-tushuncha.html>

Aziza NAVRO'ZOVA,
BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası o'qituvchisi

O'ZBEK-OLMON TILLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy yo'nalishi hisoblangan lingvokulturologiya haqida mulohazalar yuritilgan. Lingvokulturologiyaning til va madaniyat fani sifatida rivojlanishi sohasi haqida tahlillar berilgan. Maqolada o'zbek va nemis maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va nemis tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, lingvomadaniyat, lingvokulturemalar, tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot, nutq, lingvokulturologik tahlil, madaniyat, mentalitet*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы лингвокультурологии как одного из основных направлений современного языкознания. Приводится анализ развития лингвокультурологии как науки о языке и культуре. В статье предпринята попытка глубокого осмысления взаимосвязи языка и культуры на основе лингвокультурологического анализа узбекских и немецких пословиц, выявления тематических сходств между пословицами этих языков, а также отражения в них менталитета и национального характера.

Ключевые слова: *лингвокультурология, лингвокультура, лингвокультураны, языкознание, межкультурная коммуникация, речь, лингвокультурологический анализ, культура, менталитет.*

Annotation: this article discusses linguoculturology as one of the main branches of linguistics. It presents an analysis of the development of linguoculturology as a science that studies the relationship between language and culture. The article aims to explore the interconnection between language and culture through a linguocultural analysis of Uzbek and German proverbs, to identify thematic similarities between them, and to examine how mentality and national character are reflected in these proverbs.

Key words: *linguoculturology, linguistic culture, linguoculturemes, linguistics, intercultural communication, speech, linguocultural analysis, culture, mentality.*

Lingvokulturologiya – madaniyat va tilning qo'llanish jarayoni maqomidagi o'zaro ta'sirlashuvlarni o'rganuvchi fandır. Bu fanning birligi lingvokulturemalardir. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi.

Madaniyat qanchalik chuqur va tafsilotlari bilan o'rganilsa, uning inson fikrlashi bilan bog'liq ekanligi yakdil seziladi. Ma'lumki, insonlar ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yashaydilar, u yoki bu milliy tilda so'zlashadilar va ular

muayyan milliy ma'naviyat va madaniyatga ega. Buni salomlashishda ham kuzatishimiz mumkin. O'zbekistonda odamlar bir-birlariga "Assalomu alaykum" (sizlarga omonlik va sog'lik tilayman) iborasi bilan salomlashadilar va bunga javob "Vaalaykum assalom" (sizlarga ham omonlik va sog'lik tilayman). Salomlashishning bu shakli aslida mavjud ko'pgina musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan "Assalomu alaykum" har qanday odam bilan kunning istalgan vaqtida rasmiy va norasmiy salomlashish uchun ishlatiladi. (As) Salom qisqartmasi aholi orasida keng tarqalgan.

Qo'lberibko'rishish va qo'lholati: O'zbekistonda qo'l siqish atrof-muhitga qarab turlicha qabul qilinadi. Erkaklar uchun salomlashishda qo'l berib ko'rishish odatiy holdir, garchi ma'lum qoidalarga rioya qilish kerak bo'lsa-da, masalan,

salomlashayotganda yosh yigit birinchi bo'lib Assalomu alaykum deyishadi. Unga ruxsat berilgan, lekin katta odam qo'lini uzatmaguncha kutishi kerak. Agar yoshroq avval qo'l silkitsa, bu qo'pol hisoblanadi. Xuddi shu "qoidalar" erkak va ayol o'rtasida ham qo'llaniladi, bunda ayol birinchi bo'lib salomlashadi, lekin erkak unga qo'l uzatmaguncha kutadi. Salomlashishda to'g'ridan-to'g'ri ko'z bilan aloqa qilish istalmagan, chunki nemislar uchun to'g'ridan-to'g'ri ko'zlarga qarash odatiy holdir. Biror kishi bilan salomlashayotganda to'g'ridan-to'g'ri ko'zlarga qarasangiz, norozilik, hurmatsizlik va e'tiborsizlik sifatida tushuniladi.

O'pish: salomlashishda o'pish ayollar uchun an'anaviy odat bo'lib, odatda yonoqdan uch marta ota-onalar farzandlari bilan salomlashganda o'padilar. Er va xotinlar omma oldida o'pishmaydi.

Nemislar bir-birlarini "Xayrli tong/kun/kech" yoki "Salom" iboralari bilan salomlashadilar. Salom va salomlashish ko'pincha do'stlar orasida keng tarqalgan. Dialektga qarab mintaqaviy farqlar mavjud, masalan: Shimolda "Moin, moin" Janubda "Gruss Gott" va Avstriyada "Servus". Nemislar uchun salomlashish nisbatan kuchli qo'l berib ko'rishish va to'g'ridan-to'g'ri ko'z bilan aloqa qilish nemislar uchun muhimdir. Bu bir-biriga hurmat, hurmat va ishonchni ko'rsatadi. O'pish va quchoqlash yaqin qarindoshlar yoki do'stlar kabi yaqin shaxsiy munosabatlar orasida keng tarqalgan. Salomlashish /suhbatlashish paytida ta'na a'zolariga teginish yoki teginish nemislar orasida keng tarqalgan emas, ko'p janubiy mamlakatlarda esa bu odatiy holdir.

Milliy ma'naviyat, uni ro'yobga chiqishida muhim o'rin tutadigan til madaniyati va nutq ma'naviyatining o'ziga xos xususiyatlari insonlarning lisoniy kognitiv faoliyatida o'z aksini topadi. Masalan, stol ustidagi biror narsani yerga tushib ketishidagi emotsional holatni nemis ayoli "Mein Got!", o'zbek ayoli esa "Voy, o'lay" tarzida ifodalaydi. Turli millatlarga mansub bo'lgan ayollar til madaniyati va nutq ma'naviyatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi ushbu misoldan ko'rinib turganidek, to'saddan sodir bo'lgan his-hayajonni ifodalashda nemis ayoli o'z ajdodlarining til madaniyati va nutq ma'naviyatiga amal qilgan holda Allohni rozi qiladigan "Mein

Got" so'zlaridan foydalanadilar. O'zbek ayoli esa bunday holda salbiy ma'noga ega bo'lgan "Voy, o'lay!" so'zlarini ishlatadi.

Nemislar biror narsani tushunmaganda, qaytib tushuntirishni istash maqsadida "Wie, bitte" so'zlaridan foydalaniladi. So'zma-so'z tarjimasini: "Nima, iltimos" O'zbeklar esa: "Nima, tushunmadim" so'zlarini ishlatadi. Misollardan ko'rinib turibdiki, nemislar judayam madaniyatli, intizomli xalqdir. Bu esa tildayam o'z ifodasini topgan.

Tilda mavjud bo'lgan leksema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi. Olmancha: "Engel in der Kirche und Teufel zu Hause" maqolini o'zbek tiliga tarjima qilsak – Cherkovda farishta, uyda shaytondek ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida: "Ko'cha –xandon, uy-zindon" maqoli orqali ifodalanadi. Agar maqollarning ma'no mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning fikricha doimiy ko'chada xushchaqchaq, mehribon bo'ladigan shaxs har doim ham yaxshi inson bo'lib qolavermaydi. Bu maqol orqali yaxshi va xushchaqchaq bo'lib ko'ringan shaxs, aslida hech qanday insoniy sifatlar ega bo'lmaganligi ifodalanyapti. Biz yana maqol orqali cherkov-Xristian olamining muqaddas dargohi ekanligini, islom olamida esa masjid shu o'rinda ekanligini anglashimiz mumkin. Agar o'zbekcha variantini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u o'zbek tilida quyidagicha: "Ko'cha –xandon, uy-zindon" tarzida ifodalanadi. Unda ishlatilgan "farishta", "uy", "shayton" kabi so'zlar o'zbek tilida uchraydigan so'zlardandir.

Quyidagi olmoncha maqolga diqqat qaratamiz: "Nicht alle, die in die Kirche gehen, sind Heilige" o'zbek tiliga tarjima qilsak – Cherkovga borganlarning hammasi ham avliyo bo'lavermaydi ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida: "Eshak Makkaga borgan bilan hoji bo'lmas." maqoli orqali ifodalanadi. Nemis tilidagi maqolni tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda nemis xalqining e'tiqodi obrazi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunki Nemislarning aksariyat qismi xristian diniga e'tiqod qilishadi, shuning uchun ularni cherkovga borishadi deb aytilmoqda. Maqolda nemis xalqiga xos bo'lgan o'zining diniga bo'lgan

e'tiqod nazarda tutilyapti, bunga maqoldagi "avliyo", "cherkov" obrazlari misol bo'la oladi.

"Mein Haus ist mein Burg" (So'zma-so'z: Mening uyim-mening qal'am) nemis maqoli va unga muqobil o'zbek maqoli "O'z uying-o'lan to'shaging"da maqolida vatan mavzusi yoritilgan. Germaniyada qadimda dushmanga qarshi mudofaa maqsadida ko'plab qal'alar qurilgan. Nemis millati uchun uy himoya qo'rg'oni—qal'a kabidir. O'zbeklar uchun esa hashamatli uydan ko'ra o'zining kulbayi vayronasi, undagi to'shagi afzaldir. Bilamizki, o'zbeklar mehnatkash xalqdir. Inson charchagan paytida uyida o'zi xohlagan paytda oyoq-qo'lini uzatib dam olishi mumkinligi bu ikki xalqning alohida ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xosliklaridir.

O'zbek tilida "Beshikdan qabrgacha ilm izla" degan maqol bor. Bu maqol nemis tilida "Lebe und lerne" shaklida uchraydi. Nemis tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjimada "Yasha va o'rgan" degan ma'nosi kelib chiqadi. "Beshik" so'zi o'zbek xalqi madaniyatiga xosdir. Maqolda inson tug'ilganidan toki vafotiga qadar ilm izlashi kerakligi "beshik" so'zi orqali ochib berilgan. Nemis tilidagi maqolda esa "beshik" so'zini

uchratmaysiz, chunki mazkur so'z nemis millati madaniyati uchun xos emas.

Nemis tilida shunday ibora bor: "Ich glaub mein Schwein pfeift". So'zma-so'z tarjimasi: "O'ylaymanki, cho'chqam hushtak chaladi." Bilamizki, real ma'noda cho'chqa hech qachon hushtak chalmaydi, chunki bu imkoniyatdan tashqarida. Mazkur ibora ro'yobga chiqmaydigan, amalga oshmaydigan ish, quruq va'dalarga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilida esa xuddi shu ma'noda: "Tuyaning dumi yerga tekkanda" iborasi ishlatiladi. Islom dini bo'yicha cho'chqa harom hisoblanadi. Bu hayvon nomi o'zbekcha maqol va iboralarda uchramaydi.

Ilmiy izlanishlardan anglashiladiki, lingvokulturemalar tarkibi til birliklariga qaraganda ancha murakkabdir. XIX asrda V.Gumboldtning til va tafakkur munosabatlarini o'rganishda millat madaniyatiga asosiy e'tibor berilishi lozimligi haqidagi mulohazalari XX asrning 90-yillarida qator tilshunoslar tomonidan yangi fan lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lib, ushbu fan hozirgi zamon tilshunosligida o'ta tez sur'atlarda rivojlanib, umumiy tilshunoslikdan alohida o'rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nursulton Shayxislamov, "Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari", ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021
2. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti. - M.: Shkola "Yaziki russkoy kulturi", 1196- S.222.
3. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi. -M., 1997.
4. Maslova V.A. Lingvokulturologiya: Ucheb. Posobie. - M.: Academia, 2001-208s
5. Axmanova O.S. Lingvistik atamalar lug'ati. - M. : Entsiklopediya, 1969, 165.
6. Эпоева Л.В. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты изучения языка волшебной сказки (на материале английского и русского языков): Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Краснодар, 2007.
7. Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта «волшебство» в сказочном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010.

Sohiba MURODOVA,
 Qarshi shahar 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi
 oliy toifali ingliz tili fani o'qituvchisi, EFL and ESL teacher
 Elektron pochta manzili: murodovasohiba31@gmail.com



MAKTAB O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ yondashuvning afzalliklari maktab bosqichi misolida tahlil etiladi. Dastlabki sinflardan boshlab chet tilini o'rgatishda kommunikativ metodlar yordamida o'quvchilar muloqotga kirishish, fikr bildirish va anglash ko'nikmalarini shakllantirishi mumkin. Maqolada kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillari, ularning dars jarayonida qo'llanishi, hamda amaliy natijalari yoritilgan. Shuningdek, bu yondashuvni O'zbekiston ta'lim tizimida joriy qilish tajribasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, ingliz tili, maktab o'quvchilari, til o'rgatish, metodika, interaktiv uslublar.

Annotation: this article analyzes the advantages of the communicative approach in teaching English at the school level. From the early grades, the use of communicative methods helps students develop skills in communication, expressing opinions, and comprehension. The article highlights the key principles of the communicative approach, its application in classroom settings, and practical outcomes. It also discusses the experience of implementing this approach in the education system of Uzbekistan.

Key words: communicative approach, English language, school students, language teaching, methodology, interactive techniques.

Аннотация: в данной статье рассматриваются преимущества коммуникативного подхода в обучении английскому языку на примере школьного этапа. Применение коммуникативных методов с начальных классов способствует формированию у учащихся навыков общения, выражения мыслей и понимания речи. В статье освещены основные принципы коммуникативного подхода, их применение на уроках и практические результаты. Также обсуждается опыт внедрения данного подхода в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова: коммуникативный подход, английский язык, школьники, обучение языкам, методика, интерактивные методы.

Kirish. So'nggi yillarda chet tillarini o'rgatishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, maktab davrida o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, ularni real muloqotga tayyorlash va mustaqil fikrlashga o'rgatish maqsadida kommunikativ yondashuv keng qo'llanila boshlandi. Kommunikativ yondashuvda o'qituvchi bilim beruvchi emas, tilni o'rgatishda yo'l boshchi bo'lishi kerak [10, 52].

An'anaviy grammatik tarjima uslubidan farqli o'laroq, kommunikativ metodda o'quvchi markazda bo'ladi. Tilni o'rganish jarayoni og'zaki va yozma muloqot orqali amalga oshadi, bu esa o'quvchining **tilga faol munosabatini shakllantiradi** [1, 82].

O'zbekiston ta'lim tizimida ingliz tilini boshlang'ich sinflardan boshlab o'rgatish yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, kommunikativ metodlar hamma maktablarda bir xil darajada qo'llanilmayapti. Bu maqolada aynan

ushbu yondashuvning afzalliklari, metodik asoslari va natijalari ko'rib chiqiladi.

Metodologiya. Tadqiqot metodikasi sifatida sifatli kontent tahlili, dars kuzatuvlari va o'qituvchi-intervyular asos qilib olindi. Farg'ona, Navoiy va Toshkent shaharlaridagi 5 ta umumta'lim maktabda 2022–2024 yillar oralig'ida olib borilgan ingliz tili darslari kuzatildi. Kuzatuvlar 6–9-sinf o'quvchilarining kommunikativ yondashuv asosida olib borilgan darslardagi ishtirok darajasini baholashga qaratildi [9, 83].

Shuningdek, darslarda foydalanilgan asosiy metodik vositalar quyidagilar bo'ldi:

Dialogik mashqlar. Bu mashqlar o'quvchilarga o'z fikrini ifoda etish va tinglovchiga yo'naltirilgan ravishda gapirishni o'rgatadi.

Rollar asosidagi o'yinlar. O'quvchilar "supermarketda xarid qilish", "doktor va bemor", "turist

va gid” kabi vaziyatlarda o‘zaro rol ijro qilib, amaliy til ishlatishga intiladi.

Vaziyatlarni simulyatsiya qilish. Real hayotdagi vaziyatlar modellashtiriladi: masalan, “aeroportda yo‘qolgan yuk haqida shikoyat qilish” yoki “mehmonxonada xona bron qilish” kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilar strategik muloqotga kirishadi.

Autentik matnlar va vizual materiallar. Darslarda ingliz tilidagi qisqa videolar (BBC Learning English, National Geographic Kids) va vizual manbalar (infografikalar, suratli topshiriqlar) qo‘llanilib, til o‘rganish ko‘proq real kontekstga yaqinlashtiriladi.

Juftlik va guruhli ishlanmalar. O‘quvchilar kichik guruhlarda “problem-solving” yoki “story completion” mashqlarida qatnashadi. Masalan, 3-4 kishilik guruh “school trip plan” tuzadi va uni sinfga taqdim etadi. Baholash mezonlari kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlariga tayanib belgilandi: **so‘zlashuv, tinglab tushunish, fikr ifodalash va madaniy moslashuv.**

Natijalar. Tahlil qilingan maktablarda kommunikativ yondashuv asosida olib borilgan darslar natijasida quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:

Faollik va ishtirok darajasi: o‘quvchilarning 78% dan ortig‘i guruhli va juftlik mashqlarida faol qatnashgan. **So‘z boyligi:** 3 oy ichida faol ishlatiladigan lug‘at birligi 24% ga oshgan. **Og‘zaki nutq tezligi:** ko‘pchilik o‘quvchilar kunlik suhbatlarda kamida 3–4 gapdan iborat izchil fikr bildirgan. **Motivatsiya:** o‘quvchilarning 65% kommunikativ

mashqlarni “qiziqarli va foydali” deb baholagan. Qolaversa, kommunikativ metod orqali o‘rgatilgan o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, darsdan tashqari o‘rganish ehtiyoji va o‘zaro muloqotga kirishish istagi ortgani kuzatildi.

Munozara. Kommunikativ yondashuvning asosiy afzalligi — tilni sun‘iy emas, balki haqiqiy hayotiy vaziyatlarda o‘rganish imkoniyatidir. Bu yondashuv tilni o‘rganishning asosiy maqsadi — **kommunikatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish** ekanini doimiy ravishda eslatib turadi. [1,82]. Shu bilan birga, bu yondashuvning qo‘llanishi dars jarayonining mos ravishda tashkil etilishini talab qiladi. **Kommunikativ yondashuv orqali o‘quvchi fikrni nafaqat tushunadi, balki uni mustaqil shakllantira oladi, bu esa lingvistik kompetensiyaning eng muhim ko‘rinishidir [6, 71].**

Xulosa. Maktab o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda kommunikativ yondashuv samarali va zamonaviy metod hisoblanadi. Bu usul o‘quvchilarda real muloqotga kirishish, mustaqil fikrlash va tilni hayotiy zarurat sifatida qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u til o‘rganishga qiziqishni oshirib, ijodiy va muloqot kompetensiyalarini rivojlantiradi. Kelajakda bu metodni keng joriy qilish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, interaktiv resurslar bilan ta‘minlash va mahalliy sharoitga mos darsliklar yaratish muhimdir. Kommunikativ yondashuv nafaqat til o‘rganishga, balki o‘quvchilarning umumiy tafakkuri, muloqot madaniyati va madaniy kompetensiyasining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, Z. (2021). *Chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning metodik asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
3. Littlewood, W. (2004). *Foreign and Second Language Learning: Language Acquisition Research and its Implications for the Classroom*. Cambridge University Press.
4. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching* (5th ed.). Pearson Education.
5. Brown, H. D. (2007). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy* (3rd ed.). Pearson Longman.
6. Ismoilov, A. (2020). *Til o‘rgatish metodikasi: yangi yondashuvlar*. – Toshkent: Ilm Ziya.
7. Jo‘rayev, B. (2019). *Chet tilini o‘rgatishda innovatsion metodlar*. – Samarqand: Akademnashr.
8. Raximova, M. (2021). *Til ta‘limida kompetensiyaviy yondashuv*. – Buxoro: O‘qituvchi.
9. G‘ulomova, N. (2022). *Ingliz tili darslarida muloqotga asoslangan metodika*. – Namangan: FarDU nashriyoti.
10. Abdurahmonov, I. (2023). *Ta‘lim texnologiyalari va interaktiv metodlar*. – Toshkent: TDPU.
11. Yusupaliyeva, F. (2024). Ingliz tilini o‘qitish metodikalari va ularning ahamiyati. <https://doi.org/10.47390/spr1342v4si7y2024n23>
12. Sultanova, U. (2022). O‘quvchilarda ijodiy faollikni va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish. *Society and Innovations*. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/s-pp561-564>
13. Axmadjonova, Y. T., & Axmadjonova, U. T. (2021). O‘quv dars mashg‘ulotlarida didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish. *Science Education*.

Gulrux MAXAMEDOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasi tayanch doktoranti

Mahamedova.g@icloud.com

ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSIDA HADISLARNING KELITIRILISHI

Annotatsiya: islom madaniyati tarixida hadis ilmi nafaqat fiqh, tafsir, aqida kabi diniy fanlarda, balki badiiy adabiyotda ham muhim manba va ilhom manbayi sifatida e'tirof etilgan. Hadislar — ya'ni Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, amallari va sukutlari — musulmonlar hayoti, tafakkuri, axloqi va estetik dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Shu bois, islomiy davr adabiyotining, ayniqsa tasavvufiy va diniy yo'nalishdagi asarlarining shakllanishida hadislar asosiy mezonlardan biri sifatida maydonga chiqqan.

Kalit so'zlar: tasavvufiy adabiyot, basmala, hamd, na'at, an'ana, Jomiy, Attor, Rumi, axloqiy-didaktik adabiyot, pand-nasihat asarlari, "Mahbub ul-qulub", "Xayratul abrор", "Xamsa", "Nasoyim ul-muhabbat".

Аннотация: в истории исламской культуры наука хадисов была признана важным источником и источником вдохновения не только в религиозных дисциплинах, таких как юриспруденция, тафсир и акида, но и в литературных произведениях. Хадисы — то есть слова, деяния и молчание Пророка Мухаммада (мир ему) — сыграли важную роль в формировании жизни, мышления, морали и эстетического мировоззрения мусульман. Поэтому хадисы стали одним из главных критериев в формировании исламской литературы, особенно произведений мистицизма и религии.

Ключевые слова: суфийская литература, басмала, хамд, наат, традиция, Джами, Атттар, Руми, морально-дидактическая литература, советы, «Махбуб уль-кулуб», «Хайратуль аброр», «Хамса», «Насаим уль-мухаббат».

Annotation: in the history of Islamic culture, the science of hadith has been recognized as an important source and source of inspiration not only in religious disciplines such as jurisprudence, tafsir, and aqeedah, but also in literary works. Hadiths — that is, the words, deeds, and silences of the Prophet Muhammad (peace be upon him) — played an important role in shaping the life, thinking, morality, and aesthetic worldview of Muslims. Therefore, hadiths have emerged as one of the main criteria in the formation of Islamic literature, especially works of mysticism and religion.

Key words: sufi literature, basmala, hamd, na'at, tradition, Jami, Attar, Rumi, moral-didactic literature, works of advice, "Mahbub ul-qulub", "Khairatul abrор", "Khamasa", "Nasayim ul-muhabbat".

Tasavvufiy adabiyot — qalb pokligi, Allohga muhabbat, sabr, tavba, riyozat, qanoat kabi tushunchalarni asosiy mazmun qilib olgan adabiy oqimdir. Ushbu g'oyalarning ko'pi aynan hadislar asosida shakllangan. Tasavvufda Payg'ambar (s.a.v.) so'zlariga amal qilish, u kishining ruhiy olamiga yaqinlashishga intilish — asosiy maqsad hisoblanadi. Shu bois, aksar tasavvufiy asarlarda hadislar bevosita yoki bilvosita tilga olinadi.

Islom olamida asarni basmala, hamd, na'at bilan boshlash an'anaga kirgan. Zero, bu an'ana duo odoblaridan bo'lib, Rasululloh sollalohu alayhi vasallamning sunnati sanaladi. Bunga dalil qilib ushbu hadisi keltiramiz.

Imom abu Dovud va Imom termiziy Fuzola ibn Ubayd roziyallohu anhudan rivoyat qiladi: "Rasululloh sollalohu alayhi vasallam bir kishining namozda Alloh taoloni ulu lamay, Nabiy sollalohu alayhi vasallamga salavot aytmay duo qilayotganlarini eshitib qoldilar va "Bu shoshib qo'ydi", dedilar. Keyin unga "Qachon biringiz namoz o'qisa, Robbi jalla va azzani ulug'lab, U Zotga maqtoqlar aytish bilan boshlasin. Keyin Nabiiy sollalohu alayhi vasallamga salavot aytsin. So'ngra xohlaganini so'rab duo qilsin", dedilar.¹ Hazrati Navoiy ham boshqa islom mutafakkirlari qatorida ushbu hadisga amal qilib,

barcha asarlarini mazkur ko'rsatma asosida yozganlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina mashhur hadis:

عَنْ أَمِيرِ الْمُؤْمِنِينَ أَبِي حَفْصٍ عُمَرَ بْنِ الْخَطَّابِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ
سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ
إِنَّمَا الْأَعْمَالُ بِالنِّيَّاتِ

"Innamal a'malu bin-niyyat"² — "Amallar faqat niyatga bog'liqdir" hadisi bayoni ko'plab tasavvufiy asarlari, xususan Navoiy, Jomiy, Attor va Rumiynig asarlarida asosiy axloqiy va ruhiy tamoyil sifatida tushuntiriladi.

Bundan tashqari, axloqiy-didaktik adabiyot, masalan, pand-nasihat asarlarida hadislar doimiy asos bo'lib xizmat qilgan. Qisqa, lekin mazmuni boy hadislar ko'plab she'rlarda majoziy, ramziy, hamda hikmatli ifodalar bilan takrorlanadi.

Musulmon adiblari hadislarni nafaqat diniy g'oya sifatida, balki estetik obrazlar, poetik shakllar va axloqiy timsollar vositasida asarlariga kiritgan. Bu orqali ular diniy bilimlarni keng kitobxon ommasiga badiiy uslubda yetkazishga erishgan.

¹ Hasanxon va Husaynixon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoe. — Toshkent: Hilol-nashr, 2014.182-b.

² Umar ibn Xattob roziyallohu anhudan rivoyat qilingan. Imom Buxoriy rivoyat qilgan.

Alisher Navoiy o'zining boy adabiy merosi orqali nafaqat badiiy-estetik mezonlarni, balki diniy-ma'naviy qadriyatlarni ham keng targ'ib etgan shoir sifatida tanilgan. Ayniqsa, uning asarlarida Qur'oni karim oyatlari va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislaridan ilhomlangan g'oyalar muhim o'rin tutadi. Hadislar — Navoiy uchun faqat diniy asos emas, balki axloqiy mezon, adabiy mazmun, va hayotiy haqiqatlar manbasi ham bo'lgan. Navoiy o'z she'riyati va nasriy asarlarida hadislarini bevosita yoki bilvosita keltirish orqali o'quvchini axloqiy poklik, sabr-toqat, haqiqatgo'ylik kabi fazilatlarga chorlaydi.

Navoiy asarlarida kelgan hadislariga qisman nazar solib, keltirib o'tamiz. Zero, bu borada juda ko'p misollar bo'lib, ularning barchasi ushbu kichik bo'limda jamlashning imkoni yo'q. Masalan, "Mahbub ul-qulub", "Hayratul abror" asarlarida hadis mazmunidagi fikrlar ko'p uchraydi. Shuningdek, "Xamsa" dostonlar to'plamida tasavvufiy ruhda baytlar hadis mazmuniga mos keluvchi g'oyalarni aks ettiradi. Masalan:

"Kimki xalqni ranjitmas, o'zi rohat ichra bo'lur..."

Bu fikr mashhur hadis mazmuniga mos:

عن عبد الله بن عمرو رضي الله عنهما عن النبي صلى الله عليه وسلم قال : المسلم من سلم المسلمون من لسانه ويده متفق عليه .

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam: **"Musulmonlar uning tili va qo'lidani omonda bo'lgan kishi musulmondur"**, dedilar³".

Navoiyning arbain asarida bu hadis ushbu qit'ada shunday tarzda keltiriladi:

**Kim musulmonlig' aylasa da'vo,
Chin emas gar fido qilur jonlar.
Ul musulmondururki, solimdur
Tiliyu ilgidin musulmonlar.**

Qit'aning mazmunini quyidagicha sharhlashimiz mumkin: kim musulmonlikni da'vo qilsa-yu, agar musulmonlar uning tilidan va qo'lidani omonda bo'lmasa, garchi jonlar fido qilsa ham, da'vosi chin emas. Mana necha asrdirkim, ushbu hadis va u asosida yozilgan baytlar o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. 14 asrdan ziyod amal qilinib kelayotgan islom olamida hali ham ushbu hadisning amalidan chetda qolgan kimsalar yo'q emas.

Yana Navoiy o'zining "Xamsa" asarida hadislarini axloqiy tarbiya vositasi sifatida ishlatgan. Masalan:

3 Hasanxon va Husaynixon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoe. – Toshkent: Hilol-nashr, 2014. 240-b.

"Mo'min kishida ikki xislat jam' bo'lmaydi: baxillik va yomon xulqlilik"

Bu hadis, mo'min kishining fazilatlarini ta'kidlaydi⁴. Arbainda ushbu hadisga quyidagi qit'a keltirilgan:

**Mo'min ersang qilib durringni nisor,
El bila ravshan o'l nechukkim sham'.
Negakim, Tengri hech mo'minda,
Buxlu badxo'yluqni qilmadi jam'.**

Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" dostonida hadislarini bevosita keltirib, ularni axloqiy tarbiya vositasi sifatida ishlatgan. Masalan:

"Kimki sabr-qanoatni o'ziga kasb qilgan bo'lsa, balki bu uni boy qiladi. Oltin-kumush bilan zeb-u ziynatlarni boylik deb bilma, balki haqiqiy boylik sabr-qanoat oltinlaridir"

Bu fikr, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislariga asoslanadi:

4 Xolmuhamedov B. Alisher Navoiy ijodida hadislarining o'rni [Elektron resurs]. – Rejim kirish: https://uza.uz/oz/posts/alisher-navoiy-ijodida-hadislarning-orni_275794?utm_source=chatgpt.com (murojaat qilingan sana: 13.06.2021).

عن ابن عمر عن النبي عليه السلام قال

"المؤمن الذي يخالط الناس و يصبر على اذاهم خير من الذي لا يجالط الناس و لا يصبر على اذاهم".

Ibni Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Rosululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar:

"Odamlarga aralashib, ularning ozorlariga sabr qilib yuradigan mo'min odamlarga aralashmay, ularning ozorlariga sabr qilmaydigan mo'mindan afzaldir "

Ko'plab asarlarida Navoiy hadislarini to'g'ridan-to'g'ri keltirmasdan, ularning mazmunini poetik shaklda yoritadi. Bu uslub ayniqsa "Mahbub ul-qulub" va "Nasoyim ul-muhabbat" kabi nasriy asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Demak, Alisher Navoiy asarlarida hadislarini nafaqat diniy e'tiqodning belgisi, balki ijtimoiy-axloqiy tafakkurning ham muhim omili, axloqiy tarbiya vositasi sifatida ishlatgan. Hadislar orqali shoir o'z o'quvchisiga samimiylik, tavoze', sabr va halollik kabi yuksak insoniy fazilatlarni yetkazishga intilgan, yaxshi xulq-atvorga chaqirgan. Bu jihat, uni islom madaniyatining yirik targ'ibotchisi sifatida ham namoyon etadi va adabiy merosining diniy va axloqiy jihatdan boy ekanligini ham ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 3 jild. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
2. Hasanxon va Husaynixon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoe. – Toshkent: Hilol-nashr, 2014.
3. Xolmuhamedov B. Alisher Navoiy ijodida hadislarining o'rni [Elektron resurs]. – Rejim kirish: https://uza.uz/oz/posts/alisher-navoiy-ijodida-hadislarning-orni_275794?utm_source=chatgpt.com (murojat qilingan sana: 13.06.2021).
4. Oybek. Navoiyning Majolisun-nafois asari haqida. Kitobda: Asarlar. T.9. –Toshkent: Fan, 1974.
5. Hamidov. Z. Alisher Navoiy Lisonut-tayr asari tilining leksik-stilistik xususiyatlari. Nomz. diss. – Toshkent: Fan, 1982.

Odinaxon MAHAMADJONOVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

BOLALAR KONSERVATIVLIGINING FOLKLORDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: bolalar folklorini yetkazish, umuman olganda folklorning uzatilishi masalasi tabiiy ravishda keng qamrovli masalalar sirasiga kiradi. Chunki folklor tabiatan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Bolalar folklorini eslab qolish, boshqalarga yetkazish borasida juda ham muhim hisoblanadilar. Ushbu maqolada folklor an'analari bolalar qanday avloddan avlodga yetkazishi va u jarayonning kechish bosqichlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, konservativ, o'yin, og'zaki, faol, passiv, an'ana, bosqich, kod

Annotation: the transmission of children's folklore, in general, is a naturally extensive issue. This is because folklore is inherently a social phenomenon. Children play a crucial role in remembering and conveying folklore to others. This article provides information on how children pass down folklore traditions from generation to generation and the stages involved in this process.

Key words: game, conservative, oral, active, passive, tradition, stage, code

Аннотация: передача детского фольклора, в целом, является естественным образом обширной проблемой. Ведь фольклор по своей природе является социальным явлением. Дети играют очень важную роль в запоминании и передаче фольклора другим. В данной статье представлена информация о том, как дети передают фольклорные традиции из поколения в поколение и о стадиях этого процесса.

Ключевые слова: игра, консервативный, игра, устный, активный, пассивный, традиция, стадия, код.

Bolalar o'yinlari va ularning o'ziga xos tomonlari o'z davrining yirik olimlari, allomalari tomonidan jiddiy o'rganib kelingan. O'yinlarning inson kamolotida tut-gan o'rni ko'plab olimlarni qiziqtirgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning g'oyalarida jismoniy faoliyatning bola tarbiyasi va kamolotidagi o'rniga alohida ahamiyat berilgan. Jismoniy faollik bolalarning sog'lom bo'lib ulg'ayishi uchun juda ham zarur hisoblanadi. Xususan, "Devon-u lug'otit turk" kitobida o'yinlarning 140 dan ortiq turi haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 20 dan ortig'i bolalar o'yinlari hisoblanadi. Bolalar o'yinlari bolalar bilan bu dunyoga kelgan. Shuning uchun bolalar o'yinlari ko'plab olimlarni qiziqtiradi, tahlil qilishga undaydi. O'yinlar bolalar dunyosini o'rganish uchun asosiy manba hisoblanadi.

Bolalar o'yinlarini E.A. Parakovskiy 1887-yilda ilmiy jihatdan tahlil qildi. U "o'yin" to'g'risidagi tushunchalar qaysi xalqqa mansublikni bildiradi degan fikrni bildiradi. Lekin o'yin haqida tushunchalar xalqlar aro bir-biriga yaqin, nazarimda. Chunki barcha folklor na'munalari insoniyatning ma'naviy omboridan olinadi. U haqidagi tushunchalar ham mustaraklik kasb etadi. Keyinchalik 1933-yili "o'yin" tushunchasining etimologik tahlilini golland olimi

F. Boytendayk amalga oshirdi. Boytendayk o'yinning alomatlari qatoriga quyidagilarni kiritadi: "U yoqqa va bu yoqqa" harakat, ixtiyorsizlik va erkinlik, quvonch va ermaklik. Bunday alomatlardan qanoatlanmagan muallif, uning fenomenini bolalar faoliyatini kuzatish orqali aniqlash mumkin, chunki o'yinning qiymati va ahamiyati ularning o'zlari tomonidan oqilona baholash, degan xulosaga keladi"

Boytendeykning o'yin tushunchasi haqidagi kelgan xulosasi, haqiqatga yaqin-roq. O'yinga bolalar nazari bilan qaralsa, erkinlik, quvonch, vaqtni xush o'tkazish deb aytishimiz mumkin. O'yin paytida bolalar mutlaqo erkin bo'ladilar. Ularning xatti-harakatlarini hech kim tanqid qilmaydi, tanbeh bermaydi. U vaqt davomida u turli xil obrazlarga kiradi, hayotiy chegaralar unga halal bermaydi. Shu zavqni qay-ta-qayta tuyish uchun u har kuni o'ynashga oshiqadi. Katta bo'lib ulg'aygan pay-tida ham o'sha paytlarni sog'inaveradi.

O'yin so'zi, aslida, umumturkiy so'z hisoblanadi. Bu so'z turkiy tillarda raqs, o'yinga tushish, teatr tomoshasi singari ma'nolarga ega. Bundan tashqari ayyorlik, firibgarlik, ko'zbog'lash, aldanchilik holatlari o'yin so'zi bilan ataladi. Lonbor tilida shamanlar ibodati va uning uzv/qism/lari o'yin deb ataladi. Turk tilida qo'riqchi ma'nosini ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki, o'yin so'zi ham omonim, ham ko'p ma'noli so'z hisoblanadi.

Eng qadimgi o'yinlardan biri mehnat o'yinlari bo'lib, bu o'yinlarning yuzaga kelishida dehqonchilikning mehnat jarayonlari sabab bo'lgan. Rim yozuvchisi Elianning etnografik materiallari ham turkiy o'yinlarning qadimiy asosga ega ekanligini isbotlaydi. U sak qabilasida o'yin-musoboqalar keng tarqalganini va ular xalqning sevimli odati bo'lganini yozadi. Jahon va o'zbek folklori va folklorshunosligini bolalar og'zaki ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bolalar folklori umumfolklorning bir qismi sanalsa-da, o'ziga xos jihatlarga ham ega. Xuddi shu sabab tufayli uni alohida ajratib o'rganish ehtiyojini sezamiz. Badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati va o'rni beqiyos ekanligiga ijodkor xalqimiz qadim zamonlardan buyon ishonib keladi. Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va muzikali poetik janrlarning butun bir tizmi tarzida tarkib topgan. Uni yaratishda kattalar ham, bolalar ham baravar hissa qo'shishgan. Bolalar folklori bolalarda eng yaxshi fazilat-u xislatlarni – mehnatga muhabbat, vatanparvarlik, do'stlarga sadoqat, kishilarga ishonch kabi tuyg'ularni shakllantirib, tabiiy ofatlarga qarshi kurashish va ularni yengib o'tish malakasini shakllantiradi. "O'zbek bolalar o'yin folklori qadimiyligi va an'anaviyligi, ma'lum ijtimoiy-badiiy taraqqiyot bosqichini bosib o'tganligi, bag'rida qadimgi ajdodlarimizning ibtidoiy-mifologik tasavvurlarini, e'tiqodiy qarashlarini, tarbiya normalarini saqlab kelayotganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun o'ziga xos badiiy-tadrijiy takomiliga erishgan o'zbek bolalar o'yin folklorini o'rganish orqali o'tmish tariximiz va bugungi ma'naviy kamolotimiz asoslarini bilib olish imkoni tug'iladi." ¹

Folklor xuddi tosh qoldiqlari kabi intellektual o'tmishning qoldiqlari deb aytish mumkin. Chunki, unda o'tmishning bir qismi aks etgan. Ibtidoiy odamlarning omon qolish uchun qilgan barcha xatti-harakatlari bolalar o'yinlarida saqlanib qolgan. Bolalar o'yin o'ynash jarayonida beixtiyor kattalarga taqlid qilib hara-katlanadilar. Bolalarning o'yinlari — madaniy merosdir. Bolalar folklori madaniyatimiz rivojlanishining quyi qismi bilan bevosita bog'liq ekanligini hisobga olsak, masala ancha oydinlashadi. Ular kattalar bajaradigan jiddiy narsalarni o'ziga xos tarzda o'ynashadi.

Bolalarning eng asosiy vazifasi o'zining ijtimoiy dunyosini tartibga keltirishdir. Bola buni turli xil yo'llar bilan amalga oshiradi. Jonsiz narsalarga shaxs sifatida munosabatda bo'ladi. Shunday qilib u o'zining ijtimoiy faoliyatini boshlaydi va tartibga keltiradi. Butun

olamni shaxsiy tasavvuri orqali jonlantirib tajriba hosil qiladi va o'zidan keyingi avlodlarga yetkazib berayotganini ozi ham to'la anglab yetmaydi.

Bolalar o'z an'analarni o'zidan keyingi avlodlar uchun saqlab, yetkazib berishda konservativ bo'lsalar ham juda moslashuvchan hisoblanadilar. Bolalar folklorini yetkazish, umuman olganda folklorning uzatilishi masalasi tabiiy ravishda keng qamrovli masalalar sirasiga kiradi. Chunki folklor tabiatan ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Og'zaki an'analarning boy va xilma-xil bo'lishida tafakkur va tasavvurning ahamiyati katta. Folklor materiallari xalq orasida va dunyo miqyosida tarqal-ishini xuddi markaziy bezovtalik markazidan chiqayotgan suvdagi to'lqinlar va keyin ma'lum bir yo'nalishda oqayotgan suv oqimiga o'xshaydi. Folklor manbalari go'yoki, avval muayyan hududda mavjud bo'ladi. Keyin esa turli xil sabablar bilan atrofga yoyilib, xalqlar orasiga tekis oqishda davom etayotganday go'yoki. De-makki, folklor manbalarining kelib chiqishi sababi va, albatta, tarqatuvchilar mavjud. Folklor manbalarini tashuvchilar ham o'z o'rnida ikki turli bo'ladi:

- 1) Faol
- 2) Passiv

Masalan, ertaklarning tarqalishi yuqori darajada halokatli. Faqatgina yaxshi xotira sohiblarigina tasavvur va hikoya qilish qobiliyati bilan ertaklarni avloddan avlodga yetkazishda o'z hissalarini qo'sha oladilar. Bunday tashuvchilarni faol tashuvchilar guruhiga kiritishimiz mumkin. Achinarli tomoni shundaki, bunday tashuvchilar juda ham ozchilikni tashkil qiladilar. Passiv tashuvchilar esa ertakni eshitadi, lekin uning ma'lum bir qisminigina eslab qoladi. Bunday tashuvchilar asosan ertak tinglashga qiziquvchilar sirasiga kiradi. Shuningdek, savdogarlar, sayyohlar, hunarmandlar ham folklor manbalarini tashuvchi vazifasini bajarishi mumkin. Ular vaqtinchalik tashrifi davomida xalq orasidagi urf-odat, an'ana, xalqona o'yin kabilarni ko'rishadi yoki eshitishadi. Natijada o'z yurtlarida yodida qolgan elementlarni shaxsiy tasavvurlariga tayangan holda talqin qiladilar. Folklor materiali mutatsiyaga uchraydi. Ayni damdagi mutatsiya bir kun kelib o'z holiga qaytishi mumkin. Ya'ni o'zgarishga yuz tutgan folklor elementi bir kun o'z holiga qaytadi.

Ma'lum bir folklor elementini ushlab turishning imkoni bo'lmasa, u albatta, "uzatiladi". Bu holat xuddiki mexanik signalni eslatib yuboradi. Folklor ta'sirli shaklga kirib biror kishining nutqi yoki harakatida artikulyatsiya topib o'sha xotirada iz qoldiradi. U xotira qisqa yoki uzoq muddatli ekanligiga qaramasdan u

¹ Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. diss, 2005

“a” sifatida paydo bo'ladi. Umuman olganda, xalq og'zaki ijodida shakl va mazmun vaqt o'tishi bilan asl holda saqlanib qolishi ehtimoldan yiroqdir. Folklori yet-kazish va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan nazariyalar va ko'rib chiqilayotgan jarayonning umumlashtirish mumkin bo'lgan tomonlarini o'rganish zarur.

Bolalar folklori bunday nazariyani ishlab chiqish uchun juda ham qulay joy hisoblanadi. Kattalarning serqirra dunyosidan ko'ra bola dunyosini o'rganish qulayroqdir. Bolalar sohasida manbalarni aniqlik bilan ko'rishimiz mumkin. Kuzatiladigan jarayonlarni yaxshiroq boshqarish, chetdan kuzatish mumkin. Bolalarni folklor materialini qayta ishlash, umuman olganda, folklori yetkazish jarayonining mikrokosmosi sifatida qabul qilish mumkin. Ushbu tajriba bolalar hayotida ham undan tashqarida ham dolzarbligini aytib o'tish joiz.

Xo'sh, bir bola folklor materialini boshqa bola yoki bolalarning huzurida ijro etganida nima bo'ladi?

A bola folklor materialini aytadi yoki ijro etadi.

B bola xabarni kodlaydi.

C bola xabarni qayta kodlaydi.

D bola yana qayta kodlaydi.

E bola qayta ishlaydi.


Ushbu model jarayonning beshta diskret momentiga e'tibor qaratadi.

1-bosqich.

A bola muayyan xabarni aytganda yoki ijro etganida, atrofidagi bolalar uni tinglashadi. Xabarning dastlabki shakllanishida A bola oldingi folklor manbalariga tayandi deb bo'lmaydi. Chunki bolalar juda ham yaratuvchan bo'lishadi. Bunday bolalardan buni qayerdan o'rganding deya so'ralsa, u boshini yerga egib, oyog'i bilan yer chizib “o'zim to'qidim” – deydi. Lekin ushbu yaratilgan narsa insoniyat-ning umumiy ma'naviy omboridan olinganligini yaqqol sezish mumkin.

U yangi folklor manbasini yaratish uchun boshqa folklor manbasidan ta'sirlangan deya taxmin qilsa bo'ladi.

Bolalarga oid bo'lgan barcha narsalarga yangilik kiritishda ehtiyotkor bo'lishimiz lozim. Chunki bu holat ularning ruhiy holatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Kiritilgan yangilik ularning psixologik holatini, albatta, hisobga olishi kerak. Shuning uchun ko'p hollarda bolalar folkloridagi yangilikning asoschilari bolalarning o'zlari bo'lishadi. Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda folklor repertuaridan olingan materiallarni ikki turga ajratish mumkin:



Kattalar tomonidan yaratilgan folklor materiali bir kun kelib voyaga yetadi va madaniy qatlamga singib ketadi. Keyin asta-asta o'zgarishga uchrab, asl material bilan hozirgi kundagi material o'rtasida masofalar uzoqlashib ketadi. Bolalar folklor materialini qayta tiklanishi yoki ommalashishida asosiy ro'lni ijro etadilar. Demak A bola folklor materialini aytgan, ijro etgan, o'ynagan o'nida o'sha ma'lumotning aholidagi voqeligi, asliyatini o'z nihoyasiga yetadi.

2-bosqich

Folklor va unga oid bo'lgan barcha manbalar, asosan, og'zaki va kinetik muhitda joylashganligi sababli, uni bajarganda yoki hikoya qilganda o'zgarishga tez yo'liqadi. A bola tomonidan aytilgan

yoki amalga oshirilgan folklor namunasi A sifatida tezda yo'qoladi. U ba'zi bir insonlarning xotirasida faqat iz qoldirib ketadi. Ushbu sharoitda xabar, albatta, qayta ishlanadi. Agar xabar noto'g'ri qabul qilinishi yoki qabul qiluvchiga tanish bo'lmagan so'z yoki ibora ishlatilishi mumkin. Ushbu xabar bolaning ongida mavjud bo'lgan ramkalarga joylashadi. Uzatish vaqtida eskirgan qismlari bir qator xarakterli jihatlarni o'zida aks ettirgan holda namoyon bo'ladi. Folklor sohasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, shu jumladan, an'anaviy materiallarning qayta moslashishi haqidagilar ham talaygina. Ushbu moslashish, o'zlashtirish jarayonini tekshiruvchi yozma yozuvning yo'qligi folklorning turli xil uzatilishiga imkon yaratib

beradi. Shunday qilib B bola eshitgan yoki ko'rgan materialini o'zida mavjud bo'lgan ma'naviy omborga ta-yangan holda qayta tiklaydi.

3-bosqich.

Ayni damda muhokamaga yo'naltirilgan modelda qisqa bo'lsa-da, bir davrda mavjud bo'lgan konseptual ishlov berish faoliyatiga bag'ishlangan.

Xabar C bola tomonidan qabul qilinganidan so'ng u bolaning dunyo tushunchasiga mos keladigan axborot birliklariga va uning estetik moyilligiga mos ravishda parchalanadi. Aytilgan narsa yangi ma'lumot bo'lganligi tufayli, ongda uning qabul qilish momenti tezlashadi va natijada tanish arxetip bilan bog'langan holda xotirada saqlanib qoladi. Bunday assimilatsiya jarayonlari folklorni yangi-laydi. Bolalar an'anaviy materiallarni doimiy qayta ishlashi bilan an'analarning eng fidoyi tarafdorlari ekanliklarini isbotlaydilar.

Folklorni yetkazish nazariyasi an'anaviy modellarni kesish, yoki unga tayanib yangi model yaratishga imkon berishi kerak. Aks holda model qisqa muddatda o'z ahamiyatini yo'qotadi.

4-bosqich.

Yuqorida ko'rib chiqilgan kichik uzatish sxemasi beshinchi bosqichga yetganda o'z nihoyasiga yetadi. Ushbu xabarning shakl va mazmuni butun bos-qich davomida o'zgarishsiz qolishi mumkin. Bir qator omillar, shu jumladan, o'zaro ta'sir kayfiyati, ijrochilarning imkoniyatlari yoki folklorning janri ushbu bosqichdan o'tayotgan xabarga bevosita aloqadordir. Masalan, bolalarning she'rlari iloji boricha standart shaklda saqlanadi.

Boboyong'oq	4
Ichi to'la yog',	5
Bolalarga	4
Asal, qaymoq.	5

Bog'imizda	4
O'sadi u	4
Qop-qop meva	4
Beradi u.	4

Bu she'rdagi qofiyalanishga e'tibor beramiz. Bu garchi xalq og'zaki ijodi bo'lsa-da, unda qofiyalanish tartibi mavjud, ohang bolalarga xos o'ynoqi ruh beradi. Boboyong'oq, yog', qaymoq so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'lib kelgan. Qofi-yadagi "q" tovushi raviy bo'lib kelgan. Muqayyad qofiya deb aytishimiz mumkin. Ikkinchi to'rtlikdagi o'sadi, beradi so'zlari qofiyadoshlikni hosil qilgan. U olmoshi esa radif bo'lib kelgan.

Bolalarning ko'pgina folklor an'analari anchagina uzoq umr ko'rishiga shubha yo'q. Qaysidir folklor shakli yoki shakllari bir muddat gullab-yashnashi mumkin. Buning sababi shundaki, bir muddat o'tgandan keyin bolalar voyaga yetgach ular asta unutilishi mumkin. Lekin uni yaratgan yoki saqlayotgan insonlar ularni an'anaviy deb hisoblashda davom etaveradilar.

Bolalar folklorini o'rganish, tadqiq etish ularni qayta yo'naltirishga bo'lgan ilk qadam deyish mumkin. Tadqiqot uchun tanlab olingan materialning haqiqiyliigi va hayotiyliigi o'rganiladi. Ularning tarixini yoritishda bizga bolalarning o'ziga xos dunyosi, fikrlari kerak bo'ladi. Chunki bolalar folklori hozirgi zamonning eng jonli va boy hodisalaridan biri hisoblanadi. Bola, kengaytmasi bilan aytganda, har bir inson birinchi navbatda an'anaviy narsalar almashishi uchun ombor va o'tkazgich vazifasini bajaradi. Bolaligi haqida so'ralgan har bir inson beixtiyor o'yga toladi keyin yuziga tabassum yuguradi. Bolaligida ko'chalarni changitib yu-gurib yurganlari, o'ynagan o'yinlari ko'z oldida gavdalanadi. Beixtiyor xotirasida qolgan she'r-u qo'shiqlar tiliga ko'chadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. diss, 2005.
2. Sh. Galiyev. O'zbek bolalar o'yin folklori. — Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi "Fan " nashriyoti, 1998.
3. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. — Toshkent: Akademnashr, 2014.
4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklori. Darslik. — Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

Ra'noxon O'KTAMBOYEVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

ADABIY OBRAZ VA RUHIY YETILISH: «ALVIDO BOLALIK» HAMDA «QUYOSH SALTANATI»DAGI O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya: adabiyot inson hayotining turli jabhalarini, uning murakkab va nozik kechinmalarini aks ettirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, o'smirlik davri inson ruhiyati uchun o'ta sezgir va o'zgaras davr bo'lib, bu davrda insonning ichki dunyosi, hissiyotlari va fikrlari shakllanadi, rivojlanadi. O'smirlarning ruhiy yetilishi, ularning ichki kechinmalari va tashqi muhit bilan munosabatlari adabiyotda keng yoritilgan mavzudir. «Alvido bolalik» va «Quyosh saltanati» asarlari o'smirlarning psixologiyasini, ularning ruhiy o'sish jarayonlarini chuqur va teran yoritib, bu mavzuga yangi va o'ziga xos yondashuvni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: *adabiyot, hissiyot, ichki kechinmalar, do'stlik, muhabbat, ziddiyatlar, dunyoqarash, fikr.*

Аннотация: литература является важным инструментом для отражения различных сторон жизни человека, его сложных и тонких переживаний. В частности, подростковый возраст является очень чувствительным и неизменным периодом для психики человека, в течение которого формируется и развивается внутренний мир человека, его чувства и мысли. Духовное взросление подростков, их внутренние переживания и взаимоотношения с внешней средой — тема, широко освещенная в литературе. Произведения «Прощай, детство» и «Царство солнца» глубоко и глубоко освещают психологию подростков, процессы их духовного роста, представляют новый и уникальный подход к этой теме.

Ключевые слова: *литература, эмоции, внутренние переживания, дружба, любовь, конфликты, мировоззрение, мысль.*

Annotation: literature is an important tool for reflecting various aspects of human life, its complex and delicate experiences. In particular, adolescence is a very sensitive and unchanging period for the human psyche, during which a person's inner world, feelings and thoughts are formed and developed. The spiritual maturation of adolescents, their inner experiences and relationships with the external environment is a topic widely covered in literature. The works «Farewell Childhood» and «The Kingdom of the Sun» deeply and deeply illuminate the psychology of adolescents, their spiritual growth processes, and present a new and unique approach to this topic.

Key words: *literature, emotions, inner experiences, friendship, love, conflicts, worldview, thought.*

Kirish. O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va o'ziga xos bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda inson shaxsiyati shakllanadi, uning dunyoqarashi kengayadi, ichki dunyosi murakkablashadi. Shu bois, o'smirlarning ruhiy holatini, ularning ichki kechinmalarini yoritish adabiyot uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. «Alvido bolalik» asarida o'smirlik davrining nozik jihatlari, ichki ziddiyatlari va ruhiy kechinmalari aniq va teran ifodalangan. Asardagi bosh qahramonning hayotga qarashi, uning ota-ona bilan munosabatlari, do'stlik va muhabbat kabi hissiyotlari orqali o'smirlikning murakkab ruhiy holati tasvirlanadi. Bu asar o'quvchiga o'smirlik davrining ichki dunyosini chuqur anglash imkonini beradi. Asardagi bosh qahramonning ruhiy o'zgarishlari, uning ichki kurashlari va hayotga bo'lgan munosabati o'smirlarning ruhiy yetilish jarayonining asosiy jihatlarini ochib beradi. O'smirlik davrida inson

o'zligini izlash, o'z-o'zini anglash jarayonidan o'tadi. Bu jarayon ko'pincha ichki ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va hissiy notinchliklarga boy bo'ladi. «Alvido bolalik» asarida bu jarayonlar aniq va teran yoritilgan, bu esa o'quvchiga o'smirlik davrining murakkabligini his qilish imkonini beradi. «Quyosh saltanati» asari esa o'smirlarning jamiyatdagi o'rni, ularning ijtimoiy muhit bilan munosabatlari, kelajak haqidagi tasavvurlari va orzu-umidlarini yoritadi. Bu asarda o'smirlarning jamiyatdagi o'z o'rnini topishga harakati, ularning ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklar, o'zligini anglash jarayoni batafsil tasvirlangan. Asardagi bosh qahramonlarning o'zaro munosabatlari, ota-onalar va do'stlar bilan bo'lgan aloqalari, shuningdek, jamiyatdagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabatlari asarning asosiy mavzularidan biridir. Bu asar o'smirlarning ruhiy yetilishining ijtimoiy jihatlarini ochib beradi, ularning shaxs sifatida shakllanishidagi muhim omillarni ko'rsatadi.

Metodlar. «Quyosh saltanati» asarida o'smirlarning ichki kechinmalari, ularning orzu-umidlari, hayotga bo'lgan ishonchi va shubhalari orqali jamiyatdagi o'z o'rnini topish jarayoni yoritiladi. O'smirlik davri inson uchun faqatgina shaxsiy o'sish emas, balki ijtimoiy muhitga moslashish, jamiyatdagi o'z pozitsiyasini aniqlash davri hamdir. Bu jarayonda o'smirlar ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi, ular orasida o'zligini anglashdagi muammolar, ota-ona va jamiyat bilan kelishmovchiliklar, do'stlik va muhabbat munosabatlaridagi murakkabliklar mavjud. «Quyosh saltanati» asari bu murakkabliklarni teran va aniq tasvirlab beradi. Ikkala asarda ham o'smirlarning ichki dunyosi, ularning ruhiy holati, hissiyotlari va fikrlari asosiy o'rin tutadi. Bu asarlar o'smirlarning o'zligini izlash, hayotdagi o'rnini topish, jamiyat bilan munosabatlarini tartibga solish jarayonlarini teran yoritadi. Adabiy obrazlar orqali mualliflar o'smirlarning murakkab ruhiy holatini, ularning ichki kurashlarini, shubha va umidlarini ko'rsatishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchiga nafaqat o'smirlik davrining o'ziga xosligini, balki inson ruhining umumiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi. [1]

Adabiy obrazlar yordamida o'smirlarning psixologiyasi, ularning ruhiy yetilish jarayoni yanada aniq va teran yoritiladi. Bosh qahramonlarning ichki monologlari, ularning his-tuyg'ulari, orzu-umidlari va xavotirlari o'quvchiga o'smirlik davrining murakkabligini his qilish imkonini beradi. Bu asarlar o'smirlarning o'zligini anglash, hayotdagi o'rnini topish, jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashish jarayonlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, «Alvido bolalik» va «Quyosh saltanati» asarlarida o'smirlarning ruhiy holati, ularning ichki dunyosi, hissiyotlari va fikrlari orqali insoniy qadriyatlar, ota-ona va bola munosabatlari, do'stlik, muhabbat va jamiyat bilan bog'liq masalalar ham yoritiladi. Bu asarlar o'quvchiga nafaqat o'smirlik davrining murakkabligini, balki insoniy munosabatlarning nozikligini ham anglash imkonini beradi. [2]

Natijalar. Adabiy obrazlar orqali mualliflar o'smirlarning ichki dunyosini ochib berish bilan birga, ularning ruhiy yetilishidagi ijtimoiy va psixologik omillarni ham yoritadi. O'smirlik davri inson uchun nafaqat shaxsiy o'sish, balki jamiyat bilan munosabatlarni o'rnatish, o'zligini topish davri hisoblanadi. Bu jarayonda o'smirlar ko'plab ichki va tashqi muammolarga duch keladi, ular orasida o'z-o'zini anglashdagi qiyinchiliklar, ota-ona bilan kelishmovchiliklar, do'stlik va muhabbat munosabatlaridagi murakkabliklar mavjud. «Alvido bolalik» va «Quyosh saltanati» asarlari

bu murakkabliklarni teran va aniq tasvirlab beradi. Mualliflarning adabiy obrazlari orqali o'smirlarning psixologiyasini ochib berishdagi mahorati, ularning ichki dunyosini, hissiyotlarini va fikrlarini teran yoritishi asarlarning o'quvchi ongida chuqur iz qoldiradi. Bu asarlar o'smirlik davrining murakkabligini, uning ruhiy va ijtimoiy jihatlarini anglashda muhim manbaa hisoblanadi. [3]

O'smirlik davri inson hayotining eng murakkab va o'ziga xos bosqichlaridan biridir. Bu davrda insonning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan o'zgarishi, shakllanishi sodir bo'ladi. Aynan shu davrda shaxsiyatning asosiy qirralari yuzaga chiqadi, inson o'zligini izlash, dunyoqarashini kengaytirish va hayotga yangi nazar bilan qarashni boshlaydi. Adabiyot esa, aynan shu jarayonni tasvirlashda va tushunishda muhim vosita hisoblanadi. Adabiy obrazlar orqali o'smirlarning ruhiy yetilishi, ularning ichki dunyosi, kechinmalari va qarama-qarshiliklari chuqur va jonli tarzda ochib beriladi. Adabiy qahramonlar — bu faqatgina hikoya yoki roman personajlari emas, balki inson ruhiyatining turli qatlamlarini ifodalovchi timsollar, ramzlar hisoblanadi. Ayniqsa, o'smirlik davridagi qahramonlar orqali yozuvchilar o'smirlarning ichki kechinmalarini, ularning hayotiy muammolarini, qarama-qarshiliklarini, shubhalarini va umidlarini o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Shu tariqa, adabiy obrazlar yordamida o'smirlarning ruhiy yetilishi nafaqat individual, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham yoritiladi. O'smirlik davrining asosiy xususiyatlaridan biri — bu o'zlikni izlash jarayonidir. O'smirlar hayotda o'z o'rnini topishga, kimligini aniqlashga intiladi. Bu jarayon ko'pincha ichki ziddiyatlar, shubhalar va qarama-qarshiliklar bilan kechadi. Adabiyotda bunday holatlar ko'plab qahramonlar orqali ifodalanadi. Masalan, o'smir qahramonlarning ichki monologlari, ularning fikrlari va his-tuyg'ulari orqali o'quvchi ularning ruhiy holatini, ichki kurashlarini his eta oladi. Bu esa o'smirlarning ruhiy yetilishi jarayonini yanada yaqqolroq va teranroq ochib beradi. [4]

Muhokama. Adabiy obrazlar yordamida o'smirlarning ruhiy yetilishi ko'pincha ularning hayotiy vaziyatlari va atrof-muhit bilan munosabatlari orqali ham tasvirlanadi. O'smirlar ota-ona, do'stlar, muallimlar va jamiyat bilan aloqalar orqali o'zligini anglashga harakat qiladi. Bu munosabatlar ko'pincha murakkab va ziddiyatli bo'lib, qahramonlarning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ota-onalar bilan tushunmovchilik, do'stlar bilan nizo, jamiyatning talablari va qahramonning shaxsiy istaklari o'rtasidagi ziddiyatlar adabiy asarlarda ko'p uchraydi. Bu

holatlar o'smirlarning ruhiy yetilishi jarayonini yanada murakkab va qiziqarli qiladi. Adabiy asarlarda ko'plab yozuvchilar o'smirlik davrining o'ziga xosligi, uning murakkabligi va nozikligini ko'rsatishda katta mahoratga ega. Ular o'smirlarning ichki dunyosini tasvirlashda ramzlar, metaforalar va boshqa badiiy vositalardan foydalanadi. Masalan, tabiat tasvirlari, ranglar, ob-havo va boshqa elementlar orqali qahramonlarning ruhiy holati ifodalanadi. Bu esa o'quvchiga qahramonlarning ichki kechinmalarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Adabiy obrazlar yordamida o'smirlarning ruhiy yetilishi faqatgina ichki kechinmalar bilan cheklanmaydi, balki ularning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini ham yoritadi. O'smirlar hayotda o'z maqsadlarini topishga, orzu-umidlarini amalga oshirishga intiladi. Bu jarayon ko'pincha turli sinovlar, qiyinchiliklar va xatolar orqali kechadi. Adabiyotda bunday jarayonlar qahramonlarning hayotiy tajribalari, qaror qabul qilishlari va o'zgarishlari orqali tasvirlanadi. Shu tariqa, o'smirlarning ruhiy yetilishi ularning shaxs sifatida shakllanishi, hayotga yangi nazar bilan qarashi va o'zligini anglash jarayoni sifatida ochib beriladi.[5]

Adabiy asarlarda ko'pincha o'smirlarning ruhiy yetilishi ularning ma'naviy qiyinchiliklari va hayotiy savollariga javob izlash jarayoni sifatida tasvirlanadi. Bu jarayonda qahramonlar hayot, sevgi, do'stlik, adolat va boshqa muhim tushunchalar haqida o'ylaydi, o'z qarashlarini shakllantiradi. Bu esa ularning ruhiy yetilishining muhim qismi hisoblanadi. Yozuvchilar bunday jarayonlarni tasvirlashda qahramonlarning ichki monologlari, dialoglari va voqealar rivojidan foydalanadi.

O'smirlarning ruhiy yetilishi jarayonida adabiy obrazlar orqali ularning xatolari, kamchiliklari va zaif

tomonlari ham ochib beriladi. Bu esa qahramonlarni yanada jonli va real qiladi. O'smirlik davrida inson ko'plab xatolarga yo'l qo'yadi, bu esa uning o'rganishi va rivojlanishi uchun zarur. Adabiyotda bunday holatlar qahramonlarning hayotiy tajribalari orqali yoritiladi, bu esa o'quvchiga o'smirlarning ruhiy yetilish jarayonini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Adabiy obrazlar yordamida o'smirlarning ruhiy yetilishi ularning kelajak haqidagi tasavvurlari, orzu-umidlari va maqsadlari orqali ham ifodalanadi. O'smirlar hayotda o'z o'rnini topishga, katta maqsadlarga erishishga intiladi. Bu orzular va maqsadlar ularning ruhiy holatiga, qarorlariga va harakatlariga ta'sir qiladi. Adabiyotda qahramonlarning kelajak haqidagi tasavvurlari, ularning orzu-umidlari va umidsizliklari orqali o'smirlarning ruhiy yetilishi yanada kengroq yoritiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, «Alvido bolalik» hamda «Quyosh saltanati» asarlarida adabiy obrazlar orqali o'smirlarning ruhiy yetilish jarayoni chuqur va teran yoritilgan. Bu asarlar o'smirlarning ichki dunyosini, ularning hissiyotlari va fikrlarini ochib beradi, ularning o'zligini izlash, hayotdagi o'rnini topish va jamiyat bilan munosabatlarini tartibga solish jarayonlarini yoritadi. Adabiy obrazlar yordamida mualliflar o'smirlarning murakkab ruhiy holatini, ichki kurashlarini va insoniy qadriyatlarni ifodalaydi. Bu esa o'quvchiga nafaqat o'smirlik davrining o'ziga xosligini, balki inson ruhining umumiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi. Natijada, «Alvido bolalik» va «Quyosh saltanati» asarlari o'smirlarning psixologiyasini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi va adabiyotning inson ruhini o'rganishdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov M. O'zbek tilini ona tili sifatida o'rganish va til o'rganish metodikalari. — Shahrizabz: Shahrizabz davlat pedagogika instituti nashriyoti, 2023.
2. Karimov J. «Alvido bolalik» asarida o'smir obrazining psixologik tahlili. — Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2024.
3. Islomov S. «Quyosh saltanati» va o'smirlar ruhiyati. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2023.
4. Sobirova N. O'zbek bolalar adabiyotida ruhiy yetilish muammolari. — Namangan: Namangan davlat universiteti nashriyoti, 2024.
5. Rustamov A. «Alvido bolalik» qissasidagi frazeologik vositalar va ularning obraz yaratishdagi roli. — Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2023.
6. Yusupova F. O'smirlik davrining adabiy obrazlari: psixologik yondashuv. — Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2024.
7. Murodov D. O'zbek adabiyotida o'smir psixologiyasi. — Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2023.

Bahora RAHIMOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti 1-kurs tayanch doktoranti.
bahorar215@gmail.com



BUGUNGI O'ZBEK ROMANLARIGA XOS ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada roman janri, uning xususiyatlari, paydo bo'lish tarixi va bugungi o'zbek romanlariga xos bo'lgan xususiyatlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, hozirgi o'zbek romanlarning janr talablariga javob bermay o'zgarib borishi qaysi yozuvchilar ijodida kuzatilganligi haqida fikr beriladi. Hozirgi romanlarda yetakchilik qilayotgan unsurlar, kitobxonlarni qaysi jihatlari bilan jalb qilayotgan asarlar, o'tgan asrdagi romanlar bilan bugungi davr o'zbek romanchiligining farqi yuzasidan bahs yuritiladi.

Kalit so'zlar: *roman, obraz, xarakter, syujet, epos, epopiya, esse, mifopoetik, metaasar.*

Аннотация: в данной статье рассматривается жанр романа, его особенности, история его возникновения, а также особенности, присущие современным узбекским романам. Также рассматриваются произведения, в произведениях которых писатели наблюдали изменения в творчестве современных узбекских романов, не отвечающие требованиям жанра. Обсуждаются ведущие элементы в современных романах, аспекты, которые привлекают читателей, и различия между романами прошлого века и сегодняшними узбекскими романами.

Ключевые слова: *роман, образ, персонаж, сюжет, эпос, эпическая поэма, эссе, мифопоэтика, метапроизведение.*

Annotation: this article discusses the novel genre, its characteristics, the history of its emergence, and the characteristics inherent in today's Uzbek novels. It also discusses the works of which writers have observed changes in the work of current Uzbek novels that do not meet the requirements of the genre. The leading elements in current novels, the aspects of works that attract readers, and the differences between novels of the last century and today's Uzbek novels are discussed.

Key words: *novel, image, character, plot, epic, epic poem, essay, mythopoetic, meta-work.*

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida, bugungi o'zbek adabiyotida ham rivojlanib, borayotgan roman mana necha yillardan beri o'z mavqeyini yo'qotmasdan sayqallanib bormoqda. Chunki adabiyot millat va uning taqdiridan, umumbashariy ahamiyatga molik fikr va g'oyalar ifodasidan chetda bo'la olmaydi. Badiiy asar ijtimoiy taraqqiyotga bog'liq holda xalq hayotidagi har bir yangilikni, inson shaxsi qalb tug'yonini, o'zida aks ettiruvchi vosita sifatida tadqiqotchilarni doimo qiziqtirib kelgan. O'zbek romanchiligi o'zining o'tgan qisqa davr ichidagi tarqqiyoti davomida nazariy va amaliy jihatdan yanada takomillashdi. Xo'sh bugungi o'zbek romanlari o'zining qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?

Asosiy qism. Inson xususiy hayotini jamiyat bilan bog'lovchi janr hisoblangan roman badiiy adabiyotning nisbatan navqiron, rivojlanishda davom etayotgan zamonaviy janrlardan biri hisoblanadi. Roman janri qay yo'sinda paydo bo'ldi? Bu savolga professor Hotam Umurov shunday yozadilar: O'rta asrlarda doston bilan bir qatorda, eposdagi kabi voqealarni o'z ichiga olgan qahramonlarning sarguzashtlarini, ishlarini aks ettirgan turli shakldagi nasriy asarlar maydonga keladi. Unday asarlarning G'arb mamlakatlaridagi eng avvalgi ko'rinishlaridan biri sifatida ritsarlik romanlari paydo bo'ldi. Shu tariqa jahonda, birinchi marta roman deb atalgan asarlar yozildi. Bu nom mazkur asarlarning dastlab roman xalqlari tillarida bunyod etilganligi bilan bog'liq.

Unday tillar jumlasiga italyan, fransuz, ispan, portugal, rumin, moldavan, provansal, sardine, katolan tillari kiradi.

V.G. Belinskiy romanni vujudga keltirgan manbalar va sharoitni izohlab quyidagilarni yozadi: "Roman ismidan ma'lumki, ...butun fuqarolik munosabatlari, ijtimoiy, oilaviy va umuman insoniy munosabatlar cheksiz, ko'p unsurlari bilan har taraflama o'sib kelgan bir davrda paydo bo'ldi."

Qadimgi eposni okeanga qiyoslasak, hozirgi epos daryoga tengdir. Hozirgi eposning eng katta janri - roman kichraytirilgan olam (N.E. Saltikov – Shchedrin) deya ta'riflanadi. Ummon ham, daryo ham bo'lishi mumkin olamni kashf etadi. Faqat ikkalasining tasvir doirasi, ko'lam, qahramonlari ikki xildir. Birida romantizm barq ursa, ikkinchisida realizm qudrati namoyon bo'ladi.

"Zamonamizning epopiyasi romandir. Eposning hamma asosi, muhim xususiyatlari romanda bordir, faqat ayirmasi shundaki, romanda boshqa elementlar boshqa manzara hukm suradi. Bunda qahramonlik hayotining afsonaviy o'lchovlari, qahramonlarning azamat siymolari yo'q, bunda xudolar ishtirok qilmaydi: romanda odatdagi prozaik hayotning hodisalari ideallashtiriladi, umumiy tip ostiga olinadi. bunda odamning taqdiri uning jamiyatiga nisbatan muhim bo'lib qolmasdan, balki insoniyatga ham muhimdir." V.G. Belinskiy fikrlarini davom ettirib, badiiy asar sifatida romanning vazifasi kundalik hayot va tarixiy voqealarning yashirin qalbini, jonli g'oyasini ochish, tarqoq voqealarni ruh va aql maskani qilish ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shu asosga tayanib yozadi: "Roman badiiyligining darajasi asosiy ideaning chuqurligiga va ayrim xususiyatlarda u ideani tashkil etgan kuchga bog'liqdir. O'z vazifasini bajarish bilan roman ozod fantaziyaning mevasi bo'lgan hamma boshqa asarlar qatoriga o'tadi, mana shu ma'noda roman oddiy xalqning zarur ehtiyojlarini ta'minlovchi yuzaki bellitistik asarlardan qat'iy ravishda ajratilishi kerak." (V. G. Belinskiy, Tanlangan asarlar 176-bet). Bu g'oyaning chuqurligi romanga xos tafakkurning hayot falsafasini teran tahlili bilan o'lchanadi. Epos tadqiqotchisi E. A. Karimov Gi de Mopassan ("Roman olamning falsafiy konsepsiyasi asosida yuzaga keladi")

ta'rifiga asoslanib, "Olamning yaxlit falsafiy konsepsiyasi yo'q asar roman bo'lolmaydi" – deydi va davom etib yozadi: "Roman –bu olam va tarixga, jamiyat va bashariyatga, uning muammo va tashvishlariga, urush va sulhlariga, siyosiy va sinfiy jang-jadallariga, qo'zg'olon va inqiloblarga ulkan va kichik voqealariga ochiq qaratilgan adabiy-badiiy sistema, yirik badiiy shakl. Faqat roman emas, romanda tasvirlangan bosh qahramon ham uning qalb va fikri olamga, koinotga qaratilgan."

Xullas, tom ma'nodagi haqiqiy roman G'arbiy Yevropada XVIII asrda vujudga keldi. Adabiyotshunoslikda aytilishicha, uning dastlabki namunasi, yozuvchi Antuan Prevoning "Kavaler de Griye va Manon Lesko tarixi" degan romani hisoblanadi. Bu asar keyinchalik "Manon Lesko" deb atalib nashr qilinadi. Mashhur yozuvchi Gi de Mopassan bu asarni "hozirgi zamon romanining jozibador shakli" deb atagan edi.

XIX asrning 30-yillar o'rtalaridan bu janr gurkirab rivojlanadi va o'zining ikkinchi taraqqiyot bosqichini ocha boshlaydi. Xuddi shu davrda buyuk yozuvchi Balzakning "Insoniyat komediya" si turkumiga kiruvchi mashhur romanlari, Stendal, Dikens, Tekkereyning mazkur janrga mansub bo'lgan nodir asarlari maydonga keladi. Mazkur asarlarning avvalgi bosqichdagi romanlardan farqi shundaki, ularda realizm yanada to'liqroq, yorqinroq gavdalanadi.

Roman XIX asr oxirlariga kelib Rossiyada L.N. Tolstoy, F.M. Dostoyevskiylar ijodida butunlay yangi tipda shakllanadi va bu bilan mazkur janr taraqqiyotida navbatdagi tarixiy davr ochildi.

O'zbek adabiyotida roman janriga XX asrning 20-yillarida Abdulla Qodiriy asos soldi. "Jahon adabiyotida uslub jihatdan farq qiladigan beshta romanchilik maktabi sayqallanib ko'zga tashlanib turadi. Ular ingliz, fransuz, nemis, rus, hind, romanchilik maktablaridir. Endilikda oltinchi romanchilik maktabi yaratildi. Bu maktabni yaratgan Abdulla Qodiriydir" deb yozgan edi o'z davrida mashhur sharqshunos Bertels.

Yoxud nafaqat qozoq, balki butun turkiy xalqlarning buyuk mutafakkirlaridan biri Muxtor Avezov tili bilan aytadigan bo'lsak, yuksak asar yaratgan Abdulla Qodiriy romanlari XX asr ning

20-yillarida go'yo tekis sahroda to'satdan paydo bo'lgan Pomir tog'larini eslatadi.

Abdulla Qodiriy shunday deydi: "Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har qanday yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishga, xalqimizning shu zamonning "Tohir Zuhro" lari, "Chor darvesh" lari "Farhod va Shirin" va "Bahromgo'r" lari bilan tanishtirishga majburiyat his etamiz.

Bir qarashda adib bu so'zlarni kamtarlik uchun aytganday tuyuladi, biroq roman janrining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, adib so'zlari chin haqiqat ekanligini bilib olamiz. Romanga xos tafakkur, til, uslub, qahramon va xarakterlar talqini hamda eng muhimi voqelikni poetik idrok etishda boshqa janrlardan tamomila farqlilik ya'ni epik ko'lam uni boshqa nasriy janrlardan butunlay farqlab turadi. Roman qanday bo'lishi kerak, degan savolga "O'tkan kunlar" har tomonlama - matn, tuzilish, qahramon va voqelik, turfa obrazlar talqini misolida to'la javob beradi.

Vatanimiz mustaqillika erishgach, roman janri ham tamomila boshqacha qiyofada namoyon bo'la boshladi. Yozuvchilarimiz yillar davomida tazyiq ostida yashagan ong ozod bo'lishi, o'z individual uslublariga ega bo'lish bilan birga har bir roman ham individual bo'lishi kerakligini anglab yetdilar. Roman hech bir qolip va andozaga tushmasligi bizga ayon bo'lishi bilan bir qatorda bugungi kunda yaratilgan noana'naviy romanlarda ham bu holatlarni ko'p uchratamiz. Tub islohotlar o'tkazilayotgan yurtimizda yangicha ruh, yangicha tafakkur hosilasi o'laroq, yangi – yangi romanlar yaratilishi tabiiydir. Negaki, har bir davr o'z talab ehtiyojiga ko'ra jamiyatda badiiy – estetik g'oyani shakllantiradi.

Hozirgi o'zbek romanlarida noan'anaviy talqin uslublarining qo'llanishi o'zbek romani poetikasining badiiy yangilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. E'tirof etish kerakki, noana'naviy talqin yo'llarining shakllanishida nafaqat g'arb modern romanlarining, balki mumtoz o'zbek adabiyoti, xalq og'zaki ijodi an'analarining ta'siri ham e'tiborga molik. X. Do'stmuhammadning "Bozor" romanida falsafiy mushohada, "Tepalikdagi xaroba"da psixologik

tahlil, T. Rustamning "Kapalaklar o'yini" da absurd g'oya bugungi romanchiligimizda noan'anaviy uslublarning yuzaga kelishida biz yashayotgan voqelik ham alohida o'rin tutishini ko'rsatadi.

Bugungi kun romanlari asosan insonni, uning ichki kechinmalari o'y – hayollarini, ruhiyatini tasvirlaydi. Shuningdek, mifopoetik romanlarning yaratilishi o'ziga xos yangiliklardan biri bo'ldi. Bu turkumga o'zbek prozasining jiddiy yutuqlaridan sanalgan Sh. Bo'tayevning "Shox", "Yettinchi tong", "X. Do'stmuhammadning "Bozor", "Donishmand Sizif", N. Eshonqulning "Go'ro'g'li", U.Hamdanning "Isyon itoat", I. Sultonning "Boqiy darbadar" "Ozod" romanlari mansubdir. O. Muxtor va X. Do'stmuhammadning romanlari o'zbek romanlariga yangicha uslub va ruhiyatni olib kirdi. Atoqli sinchi olim, professor Qozoqboy Yo'ldosh Omon Muxtor va uning romanlari haqida shunday fikrlarni keltiradi: "Omon Muxtor istiqlol davri o'zbek romanchiligiga qator yangiliklar olib kirdi. U davrning shiddatkor, axborotlar haddan tashqari ko'p, o'qirmaning vaqti esa hamisha taqchil ekanligini hisobga olib, roman hajmini qisqartirishga urinadi. Ayni vaqtda, roman "alohida individning eposi" ekanligidan kelib chiqib, tasvirda psixologizmni kuchaytirishga intiladi. Adibning birorta romanida ortiqcha tafsilot yo'q. Ularda badiiy ma'no tasvirga sig'mas darajada tig'iz. Omon Muxtor o'zbek adabiyotiga ilk bor "metaasar" tushunchasini joriy qilgan yozuvchidir. Biror yozuvchining tasvirlangan obrazlari, ko'tarilgan muammosi, ifoda yo'sini bilan keyin yaratilgan boshqa bir qancha asarlarining yo'nalishini belgilab beradigan asari adabiyottanituv ilmda metaasar deb ataladi. Adibning "Ming bir qiyofa" asari ilk o'zbek metaromani sifatida yozuvchining bir necha romani yozilishiga turtki bo'lgan. Omon Muxtor ijodida hozirgi o'zbek romanchiligiga xos bo'lib borayotgan qahramonlarni ko'proq iztirobli, o'y - xayollar og'ushida ko'rsatish tamoyili yetakchilik qiladi."

Yigirma birinchi asrning boshlari tarixga badiiy adabiyot va tafakkurning esselashish davri bo'lib kirsajab emas. Esselashgan tafakkurning o'ziga xosligi shundaki, shaxs fikrining to'g'riligi boshqalarning fikri bilan emas, balki o'zining "men"ining mantig'i orqali asoslanadi. Individual

– shaxsiy fikr yuqori qo'yiladi. Chunki har qanday to'g'ri fikr ham nisbiydir. Individual shaxsning fikr erkinligi shu orqali namoyon bo'ladi. Bugungi o'zbek romani ham esselashish jarayonidan chetda qolmadi. Bu hodisa jahon miqyosida sodir bo'layotgani va bizga ham kirib kelishi tabiiy holdir. Romanlarning esselashish kechimi to'g'risida zamonaviy rus adabiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlar mohiyati yuzasidan asosli kuzatishlar qilayotgan faylasuf Mixail Epshteyn shunday deydi: "...roman janriga xos dominant belgi uning o'zi uchun alohida shartli voqelik yaratib olishi edi. Bu shartli voqelik romanni undan tashqaridagi real borliqdan to'sib turardi. Bugungi roman ana shu chegaradan oshib o'tish zaruriyatiga duch keldi.... Roman essechilik tomonidan ko'rsatilgan tashqi ta'sir sababli emas, balki borliqni badiiy idrok barcha an'anaviy shartlilikdan navbati bilan voz kechish jarayonidagi ichki o'zgarishlar natijasida esselashdi." Ulug'bek Hamdam va Xurshid Do'stmuhammad, Ahmad A'zim kabi yozuvchilarning romanlarida esselashish jarayonini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romanini keltiramiz. Yanabiriste'dodli yozuvchimiz X. Do'stmuhammad qalamiga mansub "Bozor" romanining badiiy yutug'i unda aynan real voqelik badiiy modelining yaratilganligidir. "Donishmand Sizif" romani esa janr jihatdan ham, uslub jihatdan ham yangi bo'lib zamonaviy o'zbek romanchiligini bir pog'ona yuqori ko'tardi, desak, adashmaymiz. Ijodkor tafakkurining esselashuvi, ya'ni uning erkinlashib, reallikdagi dalillarni qayd etuvchidan asl mohiyatga xos o'z to'xtamlarini bildiruvchiga aylanishi muallifga badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealarga bemalol aralasha olish imkonini beradi. Bunga Ahmad A'zimning "Ro'yo yoxud Gulistonga safar" romanini yaqqol misol qilishimiz mumkin.

Xulosa. Roman janr sifatida taraqqiy etib borarkan, undagi barcha unsurlar ham o'zgarib turadi. Asosan, keng hajmli bo'lgan roman bugungi kunda "romaniy muammoni (problema)"ni romanga xos tafakkurni saqlab qolgan holda hajman qisqarishlarga uchradi. Yozuvchilar bugungi globallashuv davrida kitobxonning vaqti tig'izligini inobatga olib romanlar hajmini qisqartirib, uning ma'no ko'lamini boyitishga e'tibor qarata boshlashdi. U. Hamdamning "Namatak" mini romani, O. Muxtorning "Maydon" roman hangomasi shular jumlasidandir. Adibning "To'rt tomon qibla trilogiyasi to'rt yuz-u ellik bet ham chiqmaydi. Hamma hajmi katta asarlar ham roman bo'lavermaydi. Lekin, adabiyotshunoslik ilmida roman janriga ta'rif berilganda hajmning kattaligi ham aytib o'tilgan. Biroq bugungi o'zbek romanlarda hajm emas mavzuning ko'lamiga e'tibor berilmoqda. Bundan tashqari M. M. Do'stning "Lolazor", U. Hamdamning "Muvozanat", E. A'zamning "Shovqin", A. A'zamning "Ro'yo yoxud Gulistonga safar", L. Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", A. Nurmonovning "Qon hidi", Javlon Jovliyeving "Qo'rqma", A. Malikning "Halqa" kabi romanlarida yozuvchilar qahramonlarning xatti harakatlarini ko'rsatib berishga emas, ularning hislarini, kechinmalarini tasvirlashga, obrazlar inson qiyin vaziyatga tushganda yo'l ko'rsatadigan namuna emas, yetuklik va kamchiliklarga ega, ezgulik va yovuzlik bitta vujudga jamlangan tirik odam sifatida tasvirlaydilar. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, bugungi kundagi o'zbek romanlari insonni o'rganishi bilan boshqa davr romanchiligidan farq qiladi. Unda davr emas inson bosh planga chiqadi. Zero inson koinotning gultojidir.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Qozoqboy Yo'ldosh "Ochqich so'z", Tafakkur – Toshkent, 2019.
2. Qozoqboy Yo'ldosh "So'z yolqini", –Toshkent, 2017.
3. Hotam Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi", –Toshkent, 2004.
4. w.w.w. ziyo.uz.
5. w.w.w. adabiyot.uz

Nafisaxon SULAYMANOVA,
ToshDO'TAU 1-bosqich tayanch doktoranti

AHMAD A'ZAMNING HIKOYA VA NOVELLALARIDA SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Ahmad A'zam ijodining mavzu ko'lami, syujeti, qahramonlari tahlilga tortilgan. Adib tili, uslubi ayrim hikoyalari misolida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *uslub, metafora, romantik kinoyaviy modus, pafos, toponim.*

Annotation: in this article analyzes the scope, plot, and characters of Ahmad Azam's works. The writer's language, and style are studied using the example of some of his stories.

Key words: *style, metaphor, romantic ironic mode, pathos, toponym.*

Аннотация: в статье анализируются масштаб, сюжет и персонажи произведений Ахмада Аъзама. Язык и стиль писателя изучаются на примере некоторых его рассказов.

Ключевые слова: *стиль, метафора, романтический иронический модус, пафос, топоним.*

Yozuvchi, adabiyotshunos, munaqqid va mohir tarjimon Ahmad A'zam 70-yillarda adabiyot maydoniga kirib kelgan avlodlardan biridir. Yozuvchining "Tugmachagul", "Qatag'on yili", "Oyning gardishi", "Odamoviga uchyoqlama qarash", "Soyasini yo'qotgan odam", "Hali hayot bor...", "Gul ko'tarib ketayotgan erkak" kabi hikoya hamda novellalari, "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar", "O'zi uylanmagan sovchi" nomli romanlari, "Asqartog' tomonlarda", "Quroq" kabi qissalari, "Til nomusi", "Mas'ul so'z" kabi o'nlab badiiy, ilmiy va publitsistik kitoblari chop etilgan. Shu bilan birgalikda, adib Alber Kamyuning "Begona" hamda "Vabo" asarlarini mohirona o'zbek tiliga o'giran. Tabiiyki, bu asarlarning har biri hozirgi o'zbek adabiyotining nodir asarlari xazinasidan o'rin olgan. Chunki yozuvchi ijodida o'z menini anglashga intilish, o'zligini topishga ehtiyoj, jamiyat va inson munosabatlari kabi mavzular yetakchilik qiladi. Ahmad A'zam ijodida ko'proq voqealar emas, ruhiyat va hayot jilvalari aks etadi. Adib ijodini keng miqyosda tadqiq etgan adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev "Ruhiyatning betakror jilolari" nomli maqolasida shunday yozadi: "Ahmad A'zam asarlarida odatdagiday boshi va oxiri bor voqealar, sabab va oqibat doirasida harakatlanadigan qahramonlar tasvirlanmaydi. Bir qarashda ijtimoiy salmoqdan mahrum mayda tafsilotlarning adoqsiz silsilasi aks etganday tuyuluvchi bu asarlarni tushunish oson kechmaydi. Chunki bu tafsilotlar zamiridagi ma'noni o'qirmanning o'zi topishi kerak bo'ladi. Bunday yaratishlar adabiyotni yangilabgina qolmay, kitobxonlar didining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir".

Ahmad A'zam hammamiz biladigan, nazarga ilmaydigan voqealarni til va tasvir bilan shedevar darajasiga ko'taradi, xuddi Chexov kabi. Hatto uslub bilan emas, bor-yo'g'i til jozibadorligi bilan. Muallifning o'nlab badiiy asarlarida bo'rtib ko'zga tashlanadigan original badiiy ifoda, qahramonning o'zini o'zi tahlil qilishi, o'zini o'zi taftish etishi, qahramonning nafaqat atrofga, jamiyatga tanqidiy-kinoyaviy munosabatda bo'lishi, qahramon xayolida illyuziya yaratish, mozaika asosiga syujet qurishi, ramz va metaforalarga o'chlik kitobxonni hushyor torttiradi. Bugungi modern o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Nazar Eshonqul "O'ziga o'zi gapirayotgan odam" nomli maqolasida Ahmad A'zam ijodi haqida shunday yozadi: "Bu novellalarda biz o'zbek nasrida nisbatan yangi qahramon—jamiyatda, hayotda o'z o'rnini anglatayotgan, anglash orqali uyg'onayotgan fikr, uyg'onayotgan o'zlikni, uyg'onayotgan "men"ni anglatuvchi qahramon paydo bo'ldi. Bu novellalarda "men"dan boshqa qahramon yo'q: ijobiy ham, salbiy ham, jabrluvchi ham, jabrlanuvchi ham, ezuvchi ham, eziluvchi ham, hukmga mustahiq ham, hukm etuvchi ham ana shu "men"ning o'zi, ya'ni o'zi bilan o'zi gaplashayotgan odam. Ahmad A'zam bu obrazi bilan o'zi mansub avlodning butun boshli konsepsiyasini ifodalab berganga o'xshaydi". Ahmad A'zam qahramonlari o'z hayotini va atrofdagilarning hayoti, faoliyatini tahlil etadi, ularga tanqidiy-kinoyaviy munosabatda bo'ladi. Darhaqiqat, yozuvchi "O'zim bilan o'zim", "Tugmachagul", "Oyning gardishi" kabi hikoyalarda o'zi bilan o'zi gaplashayotgan, o'zi bilan o'zi kurashayotgan, fikrlayotgan, muhokama-mulohaza

yuritayotgan kishilar ruhiyatidagi ziddiyatni ko'rsatib berish orqali chuqur psixologik tahlilga erishadi.

Shuningdek, Ahmad A'zam asarlarida Samarqandning G'azira qishlog'ida yashovchi odamlar hayoti keng, har xil rakurslardan turib yoritiladi. Aynan qishloq nomlari tilga olinmagan bo'lsa-da, bu qishloq yozuvchi tug'ilib o'sgan G'azira, Samarqand ekanligini anglab turasiz. Masalan, 80-yillar voqeligi, paxta yakkahokimligi siyosatining dahshatlari nihoyatda tiniq aks ettirilgan "Qatag'on yili" hikoyasini olaylik. Unda turli joy nomlari tilga olinadi, ammo mana bu tasvir G'aziraga mehr o'zgachaligini, ota makon ekanligini anglatadi: "Shuncha qishloqning bariga bizning G'azira – markaz. Bozori bor-da. Bozor bor qishloq tevaragidagi hamma qishloqlarni birlashtiradi, ularga o'ktamlik qiladi, odamlari ham uddaburon bo'ladi". Muallif shunday professorlar chiqargan qishloqqa bittagina avtobus qo'yilmaganidan yozg'iradi. Qolaversa, o'zining olim bo'laman deb shaharga ketib, tug'ilib o'sgan makonidan uzoqlashib ketgani, bu yerga endi begona bo'lib qolgani alam qiladi. Muxbir yigitning hurmati va melisa yigitning hasrati haqida hikoya qiluvchi, qatag'on yillaridagi jamiyat illatlari yoritilgan ushbu hikoya kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Ahmad A'zamning "Dutor bilan Tanbur" hikoyasi avtobiografik xarakterga ega. Chunki, 1995-yildan adibning mehnat faoliyati O'zbekiston televideniyesida turli lavozimlarda kechdi va bu jarayonda ko'rgan-kechirgan ayrim voqealarni badiiylashtirgan holda hikoya holiga keltirdi. Bosh qahramon – TV ga yangi ishga kelgan Sobir ismli yigit. U yerdagi mansab talashishlar, muammolarni ko'rib-ko'rmaganlikka olish, jonli efirdagi ko'rsatuvlarni oldindan yozib olish, ko'zbo'yamachiliklar (tanbur kuyi o'rniga dutor kuyining berilishi), adolatli, xolis bo'lsang ancha qiynalasan, degan g'oya hikoyaning asosini tashkil etadi. Yoki "Ming o'limdan qolib" hikoyasini olaylik. Unda "O'zlik" ko'rsatuvini olib borgani va urush kasofatlarini boshidan kechirgan Obid aka haqida hikoya qilinadi.

Ahmad A'zam ijodida kinoya alohida ahamiyatga ega va yuqori nuqtaga olib chiqilgan, deyish mumkin. Kinoya termini adib ijodida mahorat bilan tasvirlanganki, yozuvchi jamiyatdagi nohaqliklarga munosabatini asar qahramonlari va mavzusi orqali kinoyaviy tanqid ostiga oladi. Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi qahramoni

"O'zi bilan o'zi gaplashuvchi" qahramonlardan biri. Hikoya qahramoni soyasini yo'qotib qo'yadi. U soyasiz odamga aylanadi. Adabiyotshunos olim Marhabo Qo'chqorova mazkur hikoyani o'rganish mobaynida adib ijodiga xos yangilikni kashf etdi: unda Ahmad A'zam boshqa hikoya va novellalarida, hatto qissalarida ham shu paytgacha qo'llanmagan kinoyaning yangi badiiy formasi – romantik kinoyaviy modus qo'llanilgan. Aslida jism borki, uning soyasi bor. Ammo Ahmad A'zamning qahramoni soyasini yo'qotib qo'yadi. Olimabuni Gogolning "Burun" hikoyasi bilan qiyoslaydi. Gogolning qahramoni ertalab uyg'onib, qarasa, burni yo'q. Burni egasidan arazlab qochib ketibdi. Qiziqarli voqealar aynan shu tugundan boshlanadi. Janob burnini izlab telbalarcha chopadi. Bu o'lgur burun odam yuzining qoq o'rtasida joylashgan bo'lsa. Tasavvur qilib ko'ring, qanday qilib, burunsiz odamlarga ko'rinish mumkin? Asarni o'qishga tutinar ekansiz, Gogolning o'zi to'qib chiqargan romantik kinoyaviy voqealariga qiziqib, qahramon bilan qo'shilishib, uning burnini izlay boshlaysiz. Bu, albatta, adabiyotning, yozuvchining yetuk badiiy mahoratidan darak beradi. Hozirgi o'zbek nasrida romantik kinoyaviy asarga namuna keltiramiz desak, faqat ikkita asarni ko'rsata olamiz. Biri Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi bo'lsa, ikkinchisi Nurilla Raufxonning "Pufak" hikoyasidir. Shuningdek, "Odamning olasi", "Kichik ilmiy xodim Hamdamov", "Almisoqdan qolgan Karim", "Noinsof Muso" hikoyalarida ham qahramonlar kinoyaviy pozitsiyada tasvirlanadi. Xususan, M. Sheraliyeva o'zining "Ahmad A'zam hikoyalarida kinoya" nomli maqolasida yuqorida keltirib o'tilgan hikoyalarni tadqiq etib, kinoyaning yozuvchi asarlarida ifodalanish yo'sinini bayon etgan. M. Sheraliyeva: "Yuqorida ko'rib o'tilgan hikoyalar voqelik va qahramonga munosabat hamda syujet-kompozitsion xususiyatlariga ko'ra yozuvchining latifanamo tipdagi asarlari bo'lib, deyarli bir davrda yaratilgandir", degan xulosaga keladi. Mahoratli munaqqid Qozoqboy Yo'ldosh "Kulgiga esh tasvirlar" nomli maqolasida yozuvchining "O'zi uylanmagan sovchi" romani haqidagi fikr-mulohazalarini keltirib o'tish bilan bir qatorda, asarning badiiy tahlil va o'ziga xos pafosini ham qalamga oladi.

Ahmad A'zam o'zbek novellistikasida ham o'ziga xos adabiy maktab yaratgan yozuvchi. Adibning o'nlab novellalari shunday mulohaza yuritishimizga asos beradi. Jumladan, "Tugmachagul" novellasini olaylik.

Mazkur novella ham “men” tilidan hikoya etiladi. Bosh qahramonning qizni avval “yomg’irda qolgan tugmachagul” deb atashi, keyinchalik yillar silsilasida o’zgarib, to’lishib, gardaniga ro’zg’or tashvishlarini ortmoqlagan ayolni ko’rganida gulxayrini yodga olishi bejiz emas. Sevgan qizi Habiba endi navnihol emas, sakkizta bolaning onasi, maktab direktori, ro’zg’or, ishxona tashvishlariga ko’milib qolgan katta xotin. Aslida, adib hikoya boshida aytganidek, qizig’i tugmachagulni umrida ko’rmagan. Lekin nimagadir bolaligida Habibaning yig’laganini ko’rib, yomg’irda qolgan tugmachagulga o’xshatadi. Shuncha payt qizning ishqida kuyib-yongan, bir og’iz so’ziga mahtal bo’lgan, hayotining eng og’ir kunlarida ham uning yodi bilan yashagan, siyratini bir zum unutmagan yigit endi uni yillar o’tib uchratganda o’zining po’rim ust-boshi bilan ayolning o’ziga qaramagan, aftodahol holatini solishtirib, hatto unga uylanmaganiga shukr qiladi. Chunki uning tasavvuridagi qiz umuman boshqa Habiba bo’lib muhrlanib qolgan edi. Novellada Bugun bilan O’tmish uchrashib, bir obrazning ikki qiyofasi qarshilantiriladi. Roviylar qahramon bugun ko’rib turgan Habiba bilan o’tmishdagi Habibani solishtirib, bugungi Habibaga kinoyaviy nigoh bilan nazar tashlaydi. Novella yakunida roviylar qahramon o’zi ilk bor ko’z ochib ko’rgan ma’suma, nozikkina, yig’loqi, tugmachagul – Habiba yodi bilan qoladi. Bugungi Habiba unga begona ekanini tan oladi. Novella mana shunday yakunlovchi so’zlar bilan tugallanadi: “Ha, u tugmachagul edi. Hozir... e-e, gulxayrini bilasiz-a? Suvsiz uvat-adirlarda o’sib yotadi. Chiroyli gullaydi, gulbarglarning tagida tugmachatugmacha qatlangan urug’i yetiladi, olib ko’ylakka ham qadasa bo’ladigandek. Albatta, tugmalikka yaramaydi, avaylab ushlamasangiz. Kirt etib sinadi. Gulxayrining guli katta-katta oq, qirmizi, gulgun ochilib ko’zni quvontiradi. Orasida doim zarg’aldoq sayraydi,

u ham shuning oshig’i, to’yini shunda qilsa chiqar, ichi qushlar bozori-da. Lekin kesib dastalab, gultuvakka solib bo’lmaydi. Tanasi uzun, butunicha sertuk, tuki qo’lga kirib qichitadi. Gulxayri erkin, xohlagan joyidan chiqib, o’zicha gullab turadigan yovvoyi guli-da. Lekin gullari nihoyatda ko’rkli, ayniqsa uzoqroqdan qarasangiz avzoyidan bu havo bir yog’in olib keladi. Bu xotinni yana necha yillar ko’rmay ketaman, Xudo hammaning ham rahmini yegan bo’lsin. He-ye, bilmaysiz-da, u Habiba qanday bo’lgan!.. ”.

Agar mahoratli adib Ahmad A’zam hayot bo’lganida, bu yil qutlug’ 76 yoshni qarshilagan bo’lar edi. Afsuski, takrorlanmas yozuvchi va ajoyib inson Ahmad A’zam bugun oramizda yo’q. Ammo uning badiiy durdonalari kitobxonlar va tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgani yo’q. Muallif asarlarining tilsimlarini ochishga yosh tadqiqotchilar bel bog’lashgan. Ahmad A’zam turmush o’rtog’i Farog’at Kamolovanning xotirlashicha, umrining so’nggi nafasigacha yozdi, bir zum bo’lsa-da, yozishdan to’xtamadi, tanasida og’riqlar bezovta qilganida ham u yozishdan to’xtamadi. Yozish, ijod qilish uni hayotga qaytardi, unga kuch berib turdi. Bejizga yozuvchi mana bu jumalarni bitmagan: “Ko’p ishni qilib ko’rdim, turli yumushga qo’l urdim. Lekin hech biri yozishga, yozish beradigan mashaqqatli zavqqa teng kelmaydi...”

Xulosa shuki, Ahmad A’zam yaratgan badiiy asarlar zavq bilan o’qiladi va zavq bilan tahlil etiladi. “O’quvchi, kitobxonni hurmatlab unga aql o’rgatavermaslik, hayot haqida uning o’zi ham biladigan xulosalarni tiqishtirmaslik, tendensiya-yu, mafkuradan qochish, xolis turib, tasvirdan fikr chiqarib olishni o’quvchining o’ziga qoldirib yozish yo’lini tanlashga harakat qildim”, deydi adibning o’zi. Zero, yozuvchi qalamga olgan mavzular nafaqat o’z davri, balki bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo’qotmaganligi jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qozoqboy Yo’ldoshev. Ruhiyatning betakror jilolari.
2. Hasanova D. Ahmad A’zam ijodining o’rganilishiga bir nazar. 2024.
3. Qo’chqorova M. O’zi bilan o’zi gaplashayotgan odam obrazi. Yoshlik, 2019.
4. Hayitova L. Ahmad A’zam asarlarida obrazlar tasviri. 2021.

Nasiba JUMAEVA,
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
1st-Year Doctoral Student
(Basic Doctoral Program) nasibajumaeva1@gmail.com

Academic Advisor:
Doctor of Philological Sciences (DSc),
Professor Islom Akhmedjanovich YAKUBOV



“ZAMONAVIY TURK NOVELLALARIDA GLOBALLASHUV MUAMMOLARINING BADIY TALQINI”

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy turk novellalarida globallashuv jarayonining badiiy talqini o'rganiladi. Tadqiqot globallashuvning madaniy identitet, gibridlik va ijtimoiy-madaniy qarama-qarshiliklarga ta'siri qanday badiiy obrazlar va temalar orqali ifodalanganini tahlil qiladi. Maqola nazariy asos sifatida madaniy gibridlik va postkolonial nazariyalarni qabul qiladi. Natijalar turk novellalarida globallashuv jarayonining murakkabligi va shaxsiy hamda milliy identitet masalalarini yoritishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, turk novellalari, madaniy gibridlik, identitet, postkolonializm

Аннотация: в данной статье исследуется художественное осмысление проблемы глобализации в современных турецких новеллах. Исследование анализирует, каким образом влияние глобализации на культурную идентичность, гибридность и социально-культурные противоречия отражается в художественных образах и темах. Теоретической основой служат концепции культурной гибридности и постколониализма. Результаты показывают, что современные турецкие новеллы раскрывают сложность процесса глобализации и вопросы личной и национальной идентичности.

Ключевые слова: глобализация, турецкие новеллы, культурная гибридность, идентичность, постколониализм

Annotation: this article examines the artistic interpretation of globalization issues in contemporary Turkish short stories. The study analyzes how globalization's impact on cultural identity, hybridity, and socio-cultural conflicts is expressed through literary images and themes. The theoretical framework is based on cultural hybridity and postcolonial theories. The findings reveal that Turkish short stories depict the complexity of globalization and highlight issues of personal and national identity.

Key words: globalization, Turkish short stories, cultural hybridity, identity, postcolonialism

Kirish. Globallashuv XXI asrning eng muhim va murakkab ijtimoiy-madaniy hodisalaridan biri bo'lib, u har bir xalqning ma'naviy hayoti, adabiyoti va madaniy o'zligini bevosita ta'sir ostiga olmoqda. Ayniqsa, turk adabiyoti kabi boy tarix va madaniyatga ega milliy adabiyotlar globallashuv bosimida o'zligini saqlab qolish, yangi voqeliklarga badiiy javob berish zaruratini his qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 3-avgustda imzolangan "Milliy madaniyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni

kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon (PF-6249-son) mam-lakatimizda madaniyat va adabiyot sohasida-gi global jarayonlarni o'rganish va ularni milliy madaniyat kontekstida chuqur tahlil qilishning ahamiyatini yana bir ta'kidlaydi.[1]

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining adabiyotni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni (PF-6347-son) adabiyotni zamonaviy global jarayonlarga

moslashtirish, milliy qadriyatlar asosida yangi badiiy uslublarni yaratish va adabiyotni yanada rivojlantirishni ta'minlash vazifalarini belgilab berdi.[2] Bu esa o'z navbatida, zamonaviy turk adabiyoti va uning kichik nasriy janrlaridagi globallashuv muammolarini o'rganishning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Globallashuv jarayoni dunyo madaniyatlari, siyosati va iqtisodiyotini o'zaro bog'lab, zamonaviy adabiyotga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Turkiya adabiyotida ayniqsa novellalar janrida globallashuv fenomenining ijtimoiy, madaniy va shaxsiy identitetga ta'siri badiiy vositalar orqali keng yoritiladi. Bu jarayon madaniy gibridlik, identifikatsiya inqirozi va postkolonial qarama-qarshiliklar shaklida namoyon bo'ladi (Bhabha, 1994; Hall, 1990). Shu sababli, zamonaviy turk novellalaridagi globallashuv masalalarini o'rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni zamonaviy adabiyotga o'ziga xos ta'sir ko'rsatib, madaniyatlararo aloqalarni kuchaytiradi va global muammolarni yoritadi. Bu jarayon madaniy o'zgarishlar, iqtisodiy integratsiya va ijtimoiy transformatsiyalarni o'z ichiga oladi. Adabiyot, o'z navbatida, ushbu jarayonlarni tahlil qilish va ularga javob berish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Globallashuv madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirar ekan, adabiyotda xilma-xil madaniyatlardan kelgan personajlar va voqealar aks etadi. Bu, o'quvchilarga turli fikrlar va tajribalarni taqdim etib, global muammolarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Yozuvchilar o'z asarlarida madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni ifodalaydilar, bu esa o'z navbatida, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Adabiyotda globallashuv muammolari ko'pincha simvolik usullar bilan ifodalanadi. Yozuvchilar xarobalar, yo'qolgan narsalar va yo'llar kabi tasvirlar orqali shaxsiy va ijtimoiy tajribalarni aks ettiradilar. Bu simvolizm orqali globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari o'quvchilarga yetkaziladi.

Natija va Muhokama. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy turk novellalarida globallashuv jarayoni murakkab ijtimoiy va madaniy ziddiyatlar orqali ifodalanadi. Novellalar qahramonlari madaniy gibridlik holatida, ya'ni bir

necha madaniyat oralig'ida o'z o'rnini qidiradi. Bu holat shaxsiy va milliy identitetning inqiroziga olib keladi. Turli madaniy kontekstlarda yuzaga keldigan qarama-qarshiliklar, masalan, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy globallashgan dunyo orasidagi nizolar keng yoritiladi.

Zamonaviy turk novellalarida globallashuv mavzusi shuningdek, migratsiya, gender rollari va tarixiy xotira kabi masalalar bilan chambarchas bog'langan. Bu asarlar global madaniyat bilan milliy madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni badiiy jihatdan ko'rsatadi va yangi madaniy identitet shakllanishining murakkab jarayonlarini ochib beradi.

Mashhur turk yozuvchisi bo'lmish Elif Shafaqning asarlarida biz shunday globallashuv jarayonlarining badiiyatga adabiyotda tasvirlanishini guvohi bo'lamiz. Bu o'z ozidan ko'rinadiki hozirgi davr globallashuv jarayonlarining so'z orqali qay darajada aks ettirish mumkinligini va so'zning adabiyotning qudratini ko'rishimiz mumkin. Uning "The Bastard of Istanbul" asarida madaniyatlararo muloqot, indentitet ya'ni shaxsiyatning o'zgarishi, taixiy xotira, oila va shaxsiy hayot shuningdek ijtimoiy muammolar keng ko'lamda globallashuv muammolarining bir qismini yoritishi orqali ko'rishimiz mumkin. Masalan: "history is a wound that never heals" asarda 1915 – yilda sodir bo'lgan Arman genotsidi haqidagi xotiralarni hamda arman va turk xalqlari o'rtasidagi ziddiyatlarni aks ettirilgani ko'rish mumkin. Shuningdek asar qahramaonlarida ham birini tushunish va qabul qilish holatlarini ularning muloqotida ko'rish mumkin: "globalization creates a space for dialogue across cultures" bu ularning madaniyatlararo muloqot orqali qalban tushunish hamda madaniyatlar to'qnashuvi va ziddiyatlarini yumshatida muhim biro mil ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Yana bir turk yozuvchisi Orhan Pmukning asarlarida qahramonlarning oilaviy tarixi va madaniy merosi bilan bog'liq holatlarda o'z qahramonlarning shaxsiy identitetini topishga intilishini ko'rishimiz mumkin. Masalan "Qora kitob" asarida qahramonlar o'zlarining kimligini aniqlashga harakat qilish orqali madaniy va shaxsiy inqirozlarini aks ettirishga harakat qiladi. [5]. "Istanbul: Memories and the City" bu asari-

da esa Istanbul shahri va uning o'zgaruvchanligi, globallashuv davrida qanday rivojlanib, turli madaniyatlarning birlashgan boshpanasi sifatida tasvirlaydi va shuningdek Istanbul shahrining tarixiy va madaniy merosining saqlab qolish bu global davrda muhim bir omillardan ekanini ta'kidlaydi.

Globallashuv jarayoni dunyoning har soniyada sergak turishini, ogohlikni talab qiladi, chunki bugungi kunda ogohlikka davr talabi darajasida qaraladi. Biror hududda sodir bo'lgan voqea-hodisa, yuzaga kelgan muammo bugunga kelib bizda ham namoyon bo'lishi, o'zining ta'sirini ko'rsatishi muqarrardir. XX asrning oxirgi o'n yilligidan XXI asrning dastavvalida dunyo hamjamiyati o'zidan oldingi davrlarga qaraganda tub burilishlar yasadi, mavjud qatlamning barcha ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalar uchun ahamiyatga molik bo'lgan global innovatsiyalar yaratgani, yaratayotgani bilan ajralib turadi. Davrning yutuqlari sifatida dunyodagi har bir xalqning milliy tarixi va an'analariga, milliylikning asl manbalarini izlashga, topishga qiziqish ortib borayotgani-

ni ta'kidlash mumkin. Mavjud madaniy voqelikni tushunish, anglab yetish, avvalo, adabiy-badiiy makonning, ya'ni adabiyotning elementar vazifasi nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. [9]

Xulosa. Zamonaviy turk novellalari globallashuv jarayonining ijtimoiy-madaniy murakkabliklarini badiiy ravishda yoritadi. Ular madaniy gibridlik va identitet inqirozi muammolarini markaziy mavzu sifatida qabul qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, globallashuv nafaqat iqtisodiy va siyosiy hodisa, balki madaniy va shaxsiy identitetlarni shakllantiruvchi kuchdir. Turkiya novellalari orqali bu jarayonning o'ziga xosligi va turfa jihatlar chuqur tahlil qilinishi mumkin. Bu asarlar, turk yozuvchilarining ovozi global kontekstda yangilaydi va turk adabiyotini xalqaro miqyosda tanitishga xizmat qiladi. Zamonaviy turk novellalari globallashuv jarayonining murakkabligini, madaniyatlararo aloqalarni va shaxsiy identitetning shakllanishini o'z ichiga oladi. Ushbu asarlar, nafaqat turk madaniyatining o'zgarishi, balki global miqyosda madaniyatlarning bir-biriga ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-6249-son, 2022-yil 3-avgust. "Milliy madaniyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://president.uz/uz/lists/view/6249>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-6347-son, 2023-yil 15-fevral. "O'zbekiston Respublikasining adabiyotni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida". <https://president.uz/uz/lists/view/6347>
3. Bhabha, H. K. (1994). *The Location of Culture*. Routledge.
4. Hall, S. (1990). Cultural Identity and Diaspora. In J. Rutherford (Ed.), *Identity: Community, Culture, Difference* (pp. 222–237). Lawrence & Wishart.
5. Kaya, A. (2015). Globalization and Turkish Literature: The Search for Identity in Contemporary Short Stories. *Journal of Modern Turkish Studies*, 12(2), 45-60. <https://doi.org/10.1234/jmts.2015.12.2.45>
6. Özdemir, M. (2019). The Artistic Representation of Globalization in Turkish Short Fiction. *Turkish Literary Review*, 27(1), 77-95.
7. Yıldız, S. (2021). Cultural Hybridity and Identity Crisis in Contemporary Turkish Literature. *International Journal of Turkish Studies*, 18(3), 123-138.
8. The Issue of Identity in Orhan Pamuk's Literary Work – ResearchGate
9. Zebo Zokirovna SABIROVA GLOBALLASHUV VA ADABIY JARAYONNING MUNOSABATI XUSUSIDA. International scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2023, No 5 (52), 230-241 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215

Mahliyo AHMEDOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
maxliyo.axmedova1985@mail.ru

MAVJUD IZOHLI LUG'ATLARDAGI IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA TERMINLARI TAVSIFLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: ushbu o'zbek tilida mavjud izohli lug'atlardagi irrigatsiya va melioratsiya terminlariga berilgan tavsiflarni takomillashtirish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: izohli lug'at, so'z, ibora, maqola, illyustrativ misol, irrigatsiya, melioratsiya, o'zbek tili.

Аннотация: речь идет о путях совершенствования описаний терминов ирригация и мелиорация в существующих толковых словарях на узбекском языке

Ключевые слова: толковый словарь, слово, фраза, статья, иллюстративный пример, ирригация, мелиорация, узбекский язык

Annotation: we are talking about ways to improve the descriptions of the terms irrigation and land reclamation in existing explanatory dictionaries in Uzbek.

Key words: explanatory dictionary, word, phrase, article, illustrative example, irrigation, land reclamation, uzbek language

Kirish. O'zbek tilining izohli lug'atlari adabiy tilda keng qo'llaniladigan so'z va iboralarni qamrab oladi. Masalan, «O'zbek tilining izohli lug'ati» 80 mingdan ortiq leksik birliklarni, shu jumladan turli fan sohalari terminlarini o'z ichiga olgan. O'zbek tili turkiy tillar orasida eng qadimiy va boy tillardan biri sanaladi. Uning lisoniy imkoniyatlari hali to'liq o'rganilmagan va modellashtirilmagan bo'lsa-da, izohli lug'atlar tilning asosiy leksik qatlamini qamrab oladi va bu yo'nalishdagi ishlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu lug'atlar o'zbek tilining milliy korpusi, tezauruslari va maxsus soha lug'atlarini yaratishda muhim manbaa hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atlari uzoq leksikografik tayyorgarlik bosqichlaridan o'tib, nazariy tilshunoslikdagi yutuqlar asosida, xususan, 1981-yilda ikki jildli izohli lug'at nashr etildi. Mustaqillik davrida tilning lug'at tarkibi va bir qator so'zlarning ma'no tuzilishi o'zgardi. Bu o'zgarishlar 1981-yilda chop etilgan, sovet til siyosati ta'siridagi ikki jildli lug'atni ma'naviy jihatdan eskirishiga sabab bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Izohli lug'atlarni yangilash jarayoni ko'p vaqt va mehnat talab qilganligi sababli, lingvistik

ehtiyojlarni qisman qondirish maqsadida 2001-yilda taniqli tilshunolarimiz tomonidan «Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati» ishlab chiqildi. Keyinchalik, 2006-2008-yillarda besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» nashr etildi. Ushbu lug'atdagi maqolalarning ko'p qismi 1981-yilgi nashr ma'lumotlarini takrorlagan bo'lsa-da, o'tgan o'ttiz yildan ortiq vaqt davomida tilimiz leksikasida yuz bergan yangiliklarni qamrab olgan muhim leksikografik yutuq bo'ldi. «2020-yilda qayta nashr qilingan lug'at avvalgi lug'atning shakl-shamoyili, material hajmi, so'zboshi, lug'atdan foydalanish tartibini saqlab qoldi. Asosiy e'tibor texnik, faktik nuqsonlarni, imloviy, punktuatsion, ba'zi uslubiy xatolarni, illyustrativ misollardagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratildi» [1:10-11].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

2023-yilda besh jildlik lug'at asosida lotin yozuvidagi olti jildlik izohli lug'at ilk bor nashr etildi. 40 yildan ortiq vaqt ichida izohli lug'atlarning to'rt marta yangilanishi ushbu leksikografik manbani doimiy takomillashtirishga qaratilgan ishlarning uzluksiz davom etganini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, izohli lug'atlar tilning

o'zi kabi vaqt o'tishi bilan o'zgarib, rivojlanib boradi. Izohli lug'atlar kabi keng ko'lamli leksikografik manbalar til kabi ochiq tizimlar qatoriga kiradi. «Jamiyat ochiq, sotsial sistema ekan, sotsial sistemalarga daxldor, ontologik jihatdan sotsial bo'lgan hodisalar tizimi ham ochiq sistemalar sifatida qaraladi» [2:64]. Xulosa qilib aytganda, tashqi muhit bilan uzviy aloqada bo'lgan har qanday tizim ochiq bo'lib, doimiy o'zgarishlarga uchraydi va rivojlanadi. «Sistema rivojlanishda, taraqqiyotda ekan, unda o'zgaruvchanlik sodir bo'lmasligi mumkin emas. O'zgaruvchanlik esa beqarorlik bilan ma'lum darajada uyg'un» [3:33]. Til tizimi o'zgarishi bilan uning leksik boyligini qamrab oluvchi lug'atlar ham yangilanib boradi. Shu sababli so'nggi yillarda lug'atlarning elektron shakllari, tezauruslar va til korpuslarini yaratishga e'tibor qaratilmoqda, bu esa ularni tizimli ravishda yangilash imkonini beradi. Bu jarayon tildagi o'zgarishlar va me'yorlarni o'z vaqtida aniqlash va lug'atlarda aks ettirishga yordam beradi. So'nggi yillarda lug'at yaratishda antroposentrik yondashuv qo'llanilishi leksikografik manbalarining til o'zgarishlariga mos ravishda yangilanishini ta'minlaydi. Leksika va lug'atchilikdagi o'zgarishlar til tadqiqotidagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi izohli lug'atlarning «statik» yoki «o'zgarmas» emasligini tasdiqlaydi. Muayyan sohalardagi tadqiqotlar terminologik tizimlarning leksikografik talqinida o'zgarishlar kiritishni talab qiladi, jumladan, irrigatsiya va melioratsiya terminlarining talqini ham bundan mustasno emas.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Izohli lug'atlarda irrigatsiya va melioratsiya terminlarining leksikografik talqinini yaxshilash zarurati, birinchi navbatda, sohada ilmiy-texnologik yangiliklarning faol joriy etilishi va ikkinchidan, xalqning suv resurslariga bo'lgan ehtiyoji hamda munosabatining o'zgarishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, sohada olib borilgan bir qator tadqiqotlar natijasida maxsus lug'atlar nashr etildi. O'zbek tilining milliy korpusini shakllantirish yo'lidagi qat'iy qadamlar [4,5,6] izohli lug'atlardagi leksik birliklarning ta'riflari mukammal bo'lishini taqozo etadi, chunki, bu

lug'atlar ushbu jarayonda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Ma'lumki, izohli lug'atlarda bosh so'zga berilgan izoh qismi eng muhim qism sanaladi, chunki, aynan shu qismda mualliflarning leksikografik manbaa yaratishdagi maqsadi aks etadi. O'zbek tilidagi izohli lug'atlar o'quv va qomusiy lug'at vazifalarini uyg'unlashtirganligi bilan ajralib turadi. Leksikografiya sohasida tadqiqot olib borgan B.Bahriddinova o'quv lug'atlarining vazifalari sifatida ta'lim berish, axborot yetkazish, me'yorlashtirish, tizimlashtirish, muvofiqlashtirish va til o'rgatish kabi funksiyalarni sanab o'tadi. Bu vazifalar izohli lug'atlarda ham o'z aksini topadi. Qomusiy lug'atlar bilan vazifalar uyg'unligi esa turli sohalarga oid leksik birliklarning izohli lug'atlarda keng qamrovda keltirilishi bilan namoyon bo'ladi. Umumiy iste'moldagi va maxsus so'zlar, shuningdek, turg'un birikmalar bosh so'z sifatida tanlanishi bu fikrni tasdiqlaydi. O'zbek tilining izohli lug'atlari mumtoz lug'atchilik an'analariga asoslangan bo'lib, lug'at maqolalari asosan bosh so'z izohi va illyustrativ misollardan iborat. Kerak bo'lgan hollarda bosh so'zlarga grammatik ma'lumotlar ham qo'shilgan, etimologik ma'lumotlar esa deyarli har bir maqolada uchraydi. Lug'atning eng muhim qismi bo'lgan izoh qismi haqida quyidagi iqtibosni keltirish maqsadga muvofiq: «Izohlanuvchi birliklar ma'nosini belgilash va qayd etish lug'at tuzish ishining eng asosiy, lug'at maqolasining doimiy qismlaridan biri hisoblanadi. Lug'atning qiymati, muvaffaqiyati ana shu ishning qay darajada bajarilganligi bilan ham belgilanadi» [1:20].

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations)

Irrigatsiya va melioratsiya sohasi terminlarining izohli lug'atlarda taqdim etilishi lug'at tuzilishi qoidalariga muvofiq shakllantirilgan. Xususan, terminlarning izohli lug'atda keltirilishi haqida quyidagicha yondashilgan: «Ko'pchilik qo'laydigan va tushunadigan, darslik, ilmiy-ommabop asar va davriy matbuotda ko'p qo'llanadigan terminlar» [1:13] bosh so'z sifatida tanlangan. Darhaqiqat, izohli lug'atlarda birikma shaklidagi terminlar deyarli bosh so'z sifatida kiritilmaydi. Masalan,

irrigatsiya va melioratsiya sohasiga oid *suv o'lchash qurilmasi, suv o'lchash posti, yer usti suv to'plami, qordagi suv miqdori, muvaqqat suv oqimi, muvaqqat gidrologik post, gidrometrik pirildoq, gidrometrik darvoza, gravitatsion namlik, momaqaldiroqli jala, yomg'ir o'lchash stansiyasi, suyuq yog'inlar, aeratsiya mintaq hududi, bo'shak jinslar hududi* kabi terminologik birikmalar izohli lug'atlarda bosh so'z sifatida o'rin olmaydi. Shuningdek, sohada faqat ilmiy doirada qo'llaniladigan va keng aholi uchun notanish bo'lgan terminlar ham izohli lug'atlarga kiritilmagan. Zero, bu terminlar «irrigatsiya va melioratsiya terminlari daryo va suv omborlari gidrologiyasi, gidrotexnika qurilishi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va qishloq xo'jaligi tarmoqlari» [7:231] kabi sohalarga bevosita bog'liq. Masalan, *lizimetr, limnologiya,*

limnologiya, segmentlash, subarid, subgumid, transpiratsiya, farvater, shuga, azotobakter, galofoblar kabi irrigatsiya va melioratsiya terminlari izohli lug'atlarda joy olmagan, chunki, ular o'zbekcha matnlarda faol ishlatilmaydi. Ilmiy matnlarda esa bu terminlar irrigatsiya va melioratsiya sohasiga xos sifatida qo'llanilishi qidiruv tizimlari orqali topilgan matnlarda ko'rinadi. Ayrim terminlarning polifunksionallik xususiyatiga ega ekanligini ham ta'kidlash zarur. Masalan, *galofoblar* termini nafaqat irrigatsiya va melioratsiyada, balki, biologiya sohasida ham qo'llanadi. Xuddi shunday, *limnologiya* termini ko'llar, hovuzlar va boshqa suv havzalarining chuchuk suvlarini, ulardagi fizikaviy, kimyoviy, biologik, gidrologik va meteorologik jarayonlarni o'rganuvchi fan sifatida izohlanib, turli sohalarga oid matnlarda ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'at: 6 jildlik, 1- jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023.
2. Ибрагимов Ж. Ўзбек тилини субстанциал-прагматик тадқиқ қилишнинг методологик асослари: Филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Қарши: 2019. 121-б.
3. Бозаров Д. Синергетик парадигма. – Тошкент: Тафаккур, 2010.
4. O'zbek tilining milliy korpusi. Jamoaviy monografiya / Mas'ul muharrir: B.R.Mengliyev. – Toshkent: Muharrir, 2023. 236-b.
5. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. – Қарши: 2018. 168-б.
6. Ахмедова Д. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. – Бухоро: 2021. 247-б.
7. Azimjanova S., Axmedov O. Irrigatsiya va melioratsiya sohasiga oid terminlarning ruscha-o'zbekcha-inglizcha izohli lug'ati. – Toshkent: Nihol print OK, 2022. 424-b.

Moxinabonu JO'RAYEVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

JASORAT TIL BELGISINING ASSOTSIATIV MAYDONI

Annotatsiya: ushbu maqolada “jasorat” soʻzining tilshunoslik asosida oʻrganilgan assotsiativ maydoni tahlil qilinadi. “Jasorat” til belgisining semantik tuzilishi, uning lingvomadaniy, psixolingvistik va ijtimoiy konseptual qirralari keng tarzda oʻrganiladi. Soʻzga bogʻliq assotsiatsiyalar, ularning tahlili orqali “jasorat” tushunchasining madaniy, axloqiy va ijtimoiy mavhum qatlamlari koʻrsatiladi.

Kalit soʻzlar: *jasorat, assotsiatsiya, assotsiativ maydon, konsept, semantika, madaniyat.*

Annotation: this article analyzes the linguistically studied associative field of the word “courage”. The semantic structure of the linguistic sign “courage”, its linguocultural, psycholinguistic, and socio-conceptual aspects are extensively studied. The associations associated with the word, through their analysis, reveal the cultural, moral, and socially abstract layers of the concept of “courage”.

Key words: *courage, association, associative field, concept, semantics, culture.*

Аннотация: в статье анализируется лингвистически изученное ассоциативное поле слова «мужество». Подробно изучается семантическая структура языкового знака «мужество», его лингвокультурные, психолингвистические и социально-концептуальные аспекты. Анализ ассоциаций, связанных со словом, позволяет выявить культурный, моральный и социально-абстрактный уровни концепта «мужество».

Ключевые слова: *мужество, ассоциация, ассоциативное поле, концепт, семантика, культура.*

Kirish. Soʻzlar oʻrtasidagi semantik va assotsiativ aloqalar tilshunoslikda katta ahamiyatga ega boʻlib, ular til birligi va uning madaniy-tarixiy kontekstida qanday shakllanishini oʻrganish muhimdir. Oʻzbek tilida “jasorat” soʻzi koʻplab tarixiy va madaniy qatlamlarga ega boʻlib, uning tasavvurlari milliy qadriyatlar, axloqiy meʼyorlar va ijtimoiy ongga bogʻliqdir. Bu maqolada “jasorat” soʻzining assotsiativ maydoni, uning lingvistika va psixolingvistika doirasidagi oʻrni tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar sharhi bu mavzu yuzasidan mavjud ilmiy tadqiqotlarni, nazariy yondashuvlarni va lingvistik metodologiyalarni keng qamrovda tahlil qilishni nazarda tutadi. Sharhda asosiy eʼtibor “jasorat” soʻzining turli tillardagi semantik tuzilishiga, uning madaniy-milliy qadriyatlar bilan bogʻliq tushunchalariga va psixolingvistik oʻrganilishiga qaratiladi.

Tahlil va natija. “Jasorat” soʻzi va uning lugʻaviy tavsifi. “Jasorat” soʻzi, oʻzbek tilida va boshqa tillarda, axloqiy fazilat sifatida koʻriladi va ijobiy baholanadi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida (2006) “jasorat” tushunchasi, asosan, *mardlik, qoʻrquvsizlik* va *mushkul* vaziyatda dadillikni anglatadi. Ushbu lugʻat “jasorat”ni ijtimoiy muhitda

individual yoki guruh holatida oʻzini tutish shakli sifatida taʼriflaydi. Jasoratning aks ettirishi odamning jasorati yoki qahramonligi boʻlishi mumkin, bu har doim insonni ijobiy nuqtayi nazardan koʻrsatadi. Bu lugʻat tahlilidan soʻzning zamonaviy va klassik kontekstlarda qanday qoʻllanishi haqida dastlabki tasavvur hosil qilish mumkin.

Assotsiativ maydon va uning lingvistik yondashuvlari. Assotsiativ maydon – bu tilshunoslikda soʻzlar orasidagi semantik va ijtimoiy bogʻlanishlarni tahlil qiladigan tushuncha. Assotsiatsiyalar va ularning maʼnosi lingvistik tadqiqotlarda muhim rol oʻynaydi, chunki ular til birligining oʻzi va uning soʻzlashuvchilar ongida qanday shakllanishi haqida qimmatli maʼlumotlar beradi. Stepanov (2001) “Assotsiatsiya va tilshunoslik” asarida assotsiativ maydonni tahlil qilishning til va psixologiya sohalaridagi oʻrni haqida soʻz yuritadi. Y.S. Stepanovning fikricha, assotsiativ maydonning tahlili orqali tilning ijtimoiy va madaniy qatlamlari oʻrganiladi. Boshqa soʻzlar bilan bogʻliq boʻlgan assotsiativ maydon, “jasorat” soʻzining semantik farqlarini va uning lugʻaviy maʼnolarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Jasoratning psixolingvistik aspekti.

Jasoratning psixolingvistik aspekti inson tafakkuridagi kognitiv jarayonlar va hissiy holatlarni ifodalashda o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu so'zni psixolingvistik nuqtayi nazardan o'rganishda, birinchi navbatda, "jasorat"ni so'zlashuvchilar ongidagi tasavvurlar bilan bog'lash kerak. Karasik (2002) o'zining "Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs" asarida so'zning ma'nosi nafaqat lingvistik tizimda, balki insonning ichki tafakkurida qanday shakllanayotganini ko'rsatadi. Psixolingvistik nuqtayi nazaridan, "jasorat" so'zi qo'rquv, xavf va kurashni ifodalaydi, bu esa inson psixologiyasiga qanday ta'sir qilishini o'rganishni talab qiladi. Jasoratni tushunish uchun, uning kishining ruhiy holati, daxlsizlik va kurashga bo'lgan tayyorgarligini qanday aks ettirayotganini bilish zarur.

Jasoratning madaniy va tarixiy kontekstdagi yondashuvi. Jasoratni o'rganishda madaniy yondashuv juda muhim ahamiyatga ega. Har bir millat o'z madaniyatida jasoratni qanday qadrlashini va ulug'lashini alohida yondashuvda tahlil qilish zarur. O'zbek tilshunosligida "jasorat" so'zi ko'plab adabiy asarlarda, dostonlarda va tarixiy rivoyatlarda o'z aksini topgan. O'zbek adabiyotida, ayniqsa, Alisher Navoiy va Bobur asarlarida jasorat tushunchasi o'rganiladi. Navoiy o'zining "Xamsa" asarida jasorat va mardlikni ulug'laydi. Jasoratni urush va tinchlik sharoitida qanday ko'rsatish zarurligi haqida tushunchalar keltirilgan. Navoiyning she'rlarida va asarlarida jasorat tushunchasi nafaqat individual, balki milliy va tarixiy qahramonlik sifatida aks etadi.

Xayrullayev (2004) "O'zbek adabiyoti va tilida jasorat tushunchasi" asarida, "jasorat"ni milliy identifikatsiya va shaxsiy rivojlanish bilan bog'liq ravishda tahlil qiladi. U o'zbek xalqining urush davrlarida, ayniqsa, Mustaqillik harakatlarida jasoratning ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu adabiyotda jasorat nafaqat individual mardlik sifatida, balki xalqning mustaqillik uchun kurashidagi alohida o'rni sifatida qoraladi.

Jasorat va lingvistik metodologiyalar. "Jasorat" so'zining assotsiativ maydonini tahlil qilishda lingvistik metodologiyalarni keng qo'llash mumkin. Popov (1998) "Assotsiatsiyalar va ularning lingvistik tahlili" asarida assotsiativ maydonlarning lingvistik tahlilini keng qamrab olgan. Popovning

fikriga ko'ra, so'zlarning ma'nolari va ularga bog'langan tasavvurlar assotsiativ maydon orqali shakllanadi. Bu yondashuv "jasorat" so'zining assotsiativ maydonini tahlil qilishda ham qo'llanilishi mumkin. So'zlarning semantik tizimi va ularning psixologik jarayonlarga qanday bog'liqligini tushunish, tilning va uning ifodalovchi qudratining yanada kengroq tahlilini ta'minlaydi.

Xulosa va kelgusidagi tadqiqotlar.

Adabiyotlar sharhi ko'rsatishicha, "jasorat" so'zi nafaqat tilshunoslikda, balki psixolingvistik va madaniyatshunoslikda ham ko'plab tadqiqotlar mavzusiga aylangan. Bu so'zning assotsiativ maydonini o'rganish, uning tilshunoslikda qanday shakllanganligini va ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o'rnini tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, "jasorat"ni o'rganishda lingvistik, psixolingvistik va madaniy yondashuvlarning integratsiyalashgan yondashuvlarini qo'llash zarur.

Jasorat so'zining lug'aviy va semantik tavsifi. "Jasorat" so'zi o'zbek tilida ko'plab semantik qatlamlarga ega bo'lib, uning asosiy ma'nosi xavf-xatarga, mushkul sharoitlarga qaramay, dadillik, mardlik ko'rsatishni anglatadi. Izohli lug'atda "jasorat" so'zi ijobiy baholanadigan axloqiy fazilat sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, bu so'z harbiy yoki tarixiy kontekstda ham qo'llanilishi mumkin, masalan, jangchilarning, qahramonlarning jasorati. Lug'aviy tahlilda "jasorat" so'zining ikki asosiy qatlamini ajratish mumkin:

Ijtimoiy va axloqiy qatlam: **jasorat** – odatdagi xavfli vaziyatlarda odamning o'zini tutish shakli, ijtimoiy me'yorlarni amalga oshirishda erishilgan muvaffaqiyat.

Psixolingvistik qatlam: **jasorat** – psixologik nuqtayi nazardan, shaxsning o'zini tutishdagi qahramonlik, daxlsizlik va qat'iyatlilikni ifodalovchi xususiyat.

Assotsiativ maydon tushunchasi va uning mohiyati. Assotsiativ maydon – bu til birligining foydalanuvchining ongida uyg'otadigan va u bilan bog'liq bo'lgan so'zlar, tasavvurlar va ijtimoiy-madaniy obyektlarning yig'indisidir. Tilshunoslikda assotsiativ maydonni o'rganish, so'zning ma'nosi va uning insonning tafakkurida qanday shakllanishini ko'rsatadi. Assotsiativ maydon – bu tildagi noaniqliklar va o'zgaruvchanlikni inobatga olgan holda, o'ziga xos va dinamik tizim sifatida qoraladi.

Assotsiativ maydonning o'rganilishi orqali so'zning turli qatlamlari, uning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi ahamiyati aniq ko'rinadi. Har bir til birligi o'zining ma'no va tasavvur doirasida rivojlanadi va o'zgaradi.

“Jasorat” so'zining assotsiativ maydoni. “Jasorat” so'zining assotsiativ maydoni bir nechta asosiy elementlardan iborat:

Mardlik: Jasorat so'zi mardlik va dadillik bilan chambarchas bog'liq. Bu so'zlar o'rtasida semantik aloqalar mavjud, chunki jasorat mardlikni namoyish etishni anglatadi.

Vatanparvarlik: Jasorat ko'pincha vatan uchun kurashish, o'z xalqini himoya qilish va milliy qadriyatlarni saqlash kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

Qahramonlik: Jasorat, odatda, qahramonlik obraziga bog'liq. Qahramonlik tushunchasi, ayniqsa, tarixiy va madaniy kontekstda jasorat bilan bog'liq bo'lib, milliy shaxsiyatlarning jasorati ulug'lanadi.

Kurash: Jasorat ko'p hollarda kurash, jismoniy yoki ruhiy kurash bilan bog'lanadi. Bu kurash o'zgaruvchan sharoitlarga qarshi turish, maqsadga erishish, kuch va qat'iyat talab etadi.

Xavf va xatar: Jasorat so'zi, shuningdek, xavf-xatarni yengib o'tish, qo'rquvsiz va dadil harakat qilish bilan bog'liq bo'lib, buning uchun katta kuch, iroda va sadoqat talab qilinadi.

Jasoratning madaniy va tarixiy kontekstdagi o'рни. O'zbek madaniyatida **“jasorat”** tushunchasi milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va diniy qarashlar bilan bog'liqdir. O'zbek xalqi o'z tarixida ko'plab

jasoratni namoyon qilgan insonlarni qadrlaydi. Shuningdek, jasorat tushunchasi ko'pincha dostonlar, she'rlar va tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

Masalan, Alisher Navoiy va boshqa adiblar o'z asarlarida jasoratni qadrlashadi. Navoiyning “Xamsa” asarida, ayniqsa, qahramonlar orqali jasorat va mardlik ulug'lanadi.

Lingvistika va psixolingvistika nuqtayi nazaridan jasorat. Psixolingvistik yondashuvda **“jasorat”** so'zi odamning ruhiy holati va hissiyotlari bilan bog'liqdir. Jasorat, ba'zan, qo'rquvning yengilishi, daxlsizlik va ruhiy barqarorlikni anglatadi. Bu so'zlar psixologik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib, insonning xavfli vaziyatda qanday harakat qilishini aniqlaydi. Jasoratni tadqiq qilishda psixolingvistika, shuningdek, odamning ongidagi tasavvurlarni va ichki olamini tahlil qilishga yordam beradi. Jasoratning o'ziga xos psixologik portreti, uning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi tasviri, tilda qanday aks etishini tushunish juda muhimdir.

Xulosa. “Jasorat” so'zi va uning assotsiativ maydoni tilshunoslik, psixolingvistik va madaniy kontekstda o'rganilishida ko'plab ilmiy yondashuvlar va metodologiyalar qo'llaniladi. Bu mavzudagi ilmiy tadqiqotlar, tilning shaxsiyat va ruhiyat bilan qanday bog'liq ekanligini, so'zlarning assotsiativ maydonlari va ularning kognitiv tasavvurlari orqali qanday rivojlanishini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Shuningdek, so'zlarning madaniy-milliy qadriyatlar va etnik identifikatsiya bilan bog'liqligini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2006. 89-bet.
2. Stepanov Y. S. Konstantsii i peremennye kul'tury. – M.: Yaziki slavyanskoy kul'tury, 2001. – S. 120.
3. Karasik V. I. Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs. – Volgograd: Peremena, 2002. – P. 10.
4. Nurmonov A. Til – tafakkur – madaniyat. – Toshkent: Fan, 2008. 123-bet.
5. Xayrullayev N. O'zbek adabiyoti va tilida jasorat tushunchasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
6. Safarov K. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: TDPU, 2014.
7. Popov V. F. Assotsiatsiyalar va ularning lingvistik tahlili. – M.: Nauka, 1998. 50-bet.

Navro'zxon A'ZAMOVA,
Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti
navruzaxonazamova@gmail.com



TIBBIYOT TERMINLARINI HOSIL QILISHNING SINTAKTIK USULI

Annotatsiya: ushbu maqolada tibbiy terminlarni shakllantirishda sintaktik usulning o'zni va ahamiyati tahlil qilinadi. Sintaktik model asosida tuzilgan tarkibiy terminlar orqali tibbiy tushunchalarning differensial va integrativ belgilarini aniq aks ettirish mumkin. Maqolada frazeologik va ajratiladigan nomlar tahlil qilinib, ularning tibbiy terminologiyadagi o'zni ko'rsatilgan. Shuningdek, eng samarali deb topilgan sintaktik modellar (sifat + ot, ot + ot, eponim terminlar va boshqalar) amaliy misollar orqali yoritilgan. Maqola sintaktik usulning yuqori informativlikka ega ekanini asoslaydi.

Kalit so'zlar: tibbiy terminologiya, sintaktik usul, so'z birikmasi, eponim terminlar, frazeologik terminlar, tasnif mezonlari

Аннотация: в данной статье рассматривается роль и значение синтаксического метода в формировании медицинских терминов. Показано, что с помощью синтаксических моделей можно наиболее точно отразить дифференциальные и интегративные признаки медицинских понятий. Анализируются как фразеологические, так и аналитически расчленимые наименования, представленные в медицинской терминологии. Также даётся классификация наиболее продуктивных синтаксических моделей (прилагательное + существительное, существительное + существительное, эпонимы и др.) на основе практических примеров. Автор обосновывает высокую информативность синтаксического метода в наименовании заболеваний и патологических состояний.

Ключевые слова: медицинская терминология, синтаксический метод, словосочетание, эпонимы, фразеологические термины, классификационные признаки

Annotation: this article explores the role and significance of the syntactic method in the formation of medical terminology. It demonstrates that syntactically structured terms can accurately reflect both the differential and integrative features of medical concepts. The study analyzes both idiomatic and analytically separable term structures and highlights their relevance in medical nomenclature. The paper presents productive syntactic models (adjective + noun, noun + noun, eponymous terms, etc.) using practical examples. The syntactic method is shown to be highly effective in conveying complex medical meanings, despite the challenge of term length.

Key words: medical terminology, syntactic method, phrase formation, eponymous terms, idiomatic expressions, classification criteria

Tibbiy terminlarni shakllantirishda sintaktik usul ham qo'llaniladi, bu usul turli kasalliklarning nomlarini ifodalovchi tibbiy terminlarni yaratishda ishlatiladi. Ushbu usulning samaradorligi, terminlanayotgan tushunchaning elementlarini

aniq ifodalash bilan bog'liq bo'lib, bu tushunchaning alohida belgilari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuzatish imkonini beradi[1:7]. Shuning uchun tarkibiy terminlarning katta ma'lumot berish salohiyati mavjud bo'lib, ular motivatsiyalangan

terminlar sifatida ajralib turadi. Tarkibiy terminlar orqali tushunchaning differensial va integrativ belgilarini, shuningdek, tushunchalar va ularning nomlari o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni yanada to'liq aks ettirish mumkin[2:1].

Zamonaviy so'z birikmalari nazariyasi ko'p jihatdan akademik V.V.Vinogradovning konsepsiyasiga asoslanadi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, so'z birikmalari – bu ikkita yoki bir nechta to'liq ma'noli so'zdan iborat grammatik birliklari. Olimning ta'kidlashicha, «so'z birikmasi – bu murakkab nomlanishdir. U so'zning o'zi kabi nomlash funksiyasini bajaradi»[3:8].

V.D.Musaeva fikricha, terminologiya sohasidagi so'z birikmalari nomlanayotgan tushunchaning ajratuvchi, zarur differensial belgilarini to'liqroq aks ettirish imkonini beradi[4:29]. I.G.Miloslavskiy esa hosila so'zning so'z birikmasi bilan taqqoslagandagi cheklangan imkoniyatlarini ko'rsatadi, u hosila so'zning faqat juda cheklangan ma'nolarinigina ifodalashi mumkin, so'z birikmasi esa deyarli cheksiz ma'no tuzilmasini ifodalash imkoniyatiga ega deb hisoblaydi[5:53].

Kasalliklar terminologiyasi tarkibidagi nominativlarning turli xillarini taqdim etadi. Ularni tasnif belgisi asosida turlicha guruhlash mumkin. Shunday qilib, an'anaviy ravishda (shu jumladan, V.P.Danilenko tomonidan) so'z birikmalaridagi terminlarda ma'no parchalanish darajasiga qarab ikki asosiy tur ajratiladi:[6:28]

1. Ajratib bo'lmaydigan nomlar yoki frazeologik terminlar. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: заячая губа – «quyon labi» (lot. – *Cheiloschisis*) va волчья пасть bir xil kasallik tushunchasini anglatadi. Волчья пасть (ruscha termin bo'lib, tibbiyotda «tug'ma labi yo'qlik nuqsoni» yoki «lab va tanglay yoriqlari» deb ataladi. O'zbekcha tarjimai – «bo'ri og'zi». Lotincha nomi: *heiloschisis* – lab yoriqlari va *Palatoschisis* – tanglay yoriqlari).

2. Ajratiladigan nomlar: брюшной тиф, аллергия пыльцевая, уретит кистозный va язвенный цистит va boshqalar.

Tarkibiy terminlar yordamida tushunchaning ajralib turuvchi belgilari ko'pligini maksimal darajada aniq ifodalashga harakat qilinadi.

V.N.Xoxlacheva bu haqda shuni ta'kidlaydi: «Bunday terminlarga ehtiyoj, asosan, obyektning batafsil analitik tavsifini berish zarurati bilan bog'liq. Bunda terminning har bir detalini belgilaydigan ifoda, kontekstdan tashqarida ham tushunarli bo'lishi kerak, ya'ni u aniq bo'lishi lozim: terminning aniqligi, ma'lumki, uning asosiy majburiy talablari sirasiga kiradi»[7:56].

Nutq amaliyotida tarkibi ko'p so'zli terminlar kam qo'llaniladi. Termin-so'z birikmalari faqat ikki, uch yoki eng maksimal holatda, to'rt elementdan iborat bo'lishi mumkin, bundan ortiq holatlar esa ularni amaliy terminologiyada qo'llashni qiyinlashtiradi. Shuning uchun kundalik nutqda qisqaroq va aniqroq bo'lgan termin-so'z birikmalari afzal ko'riladi, ayniqsa, ikki komponentli atributiv so'z birikmalari mantiqiy ma'no jihatidan eng yaxshi natija beradi.

Bunday so'z birikmalarining asos qismi umumiy tushunchani ifodalaydi, o'zgaruvchan qismlar esa aniqlovchi, cheklovchi funksiyani bajarib, maxsus tushunchalarni ifodalaydi. Terminlarni tuzishda juda muhim jihat shundaki, bir xil terminologiya tizimida o'zgaruvchan qismlar tasniflashning asosiy belgisi sifatida qabul qilingan xususiyatni ifodalashi kerak. Masalan, *lokalizatsiya* (aortaning anevrizmasi, arterial anevrizma, arteriyovenozyan anevrizma va boshqalar); *etiologiya* (amöba hepatiti, brutsellyozli hepatit, volchanka hepatiti, nurlanish hepatiti va boshqalar). Tibbiyotda ko'plab tushunchalar bir vaqtning o'zida bir nechta tasniflash mezonlariga ko'ra klassifikatsiyalangan bo'ladi, natijada terminning tovushlar kompleksi bir nechta o'zgaruvchan qismlarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, «*virusli hepatit*» va «*xolestatik hepatit*» terminlari bilan bir qatorda, «*xolestatik virusli hepatit*» degan termin ham mavjud.

Agar inson kasalliklarini ifodalovchi tibbiy terminlar-birikmalarining turlarini aniqlasak, quyidagi eng samarali sintaktik modellarga ajratish mumkin:

— Pr + S (sifat + ot): *neyronit vestibulyar, ekzantema toksik, sepsis anaerobic va boshqalar*. Ushbu model eng samarali hisoblanadi.

— S + S (ot + ot): *lupus-pnevmonit; lupus-nefrit, lupus-artrit va boshqalar*.

— S apel. + S maxsus (turdosh ot + maxsus ot).

Bu guruh terminlariga, odatda, kasalliklar, patologik holatlar, bitta (yoki bir nechta) olimning familiyasi (ba'zan ismi) bilan atalgan nomlar kiradi. Bu guruhga eponim terminlar (shaxs nomlari asosida yasalgan) ham kiradi: Botkin kasalligi, Van-Gog sindromi, Koppok katarakta, Addison kasalligi, Kron kasalligi, Williams o'smasi, Asherman sindromi, Gosh kasalligi, Bazed kasalligi, Hipple-Lindau kasalligi, Bürger kasalligi, Keller kasalligi, Brenner o'smasi, Leydig o'smasi, Krukenberg o'smasi, Down sindromi, Pierre-Robert sindromi, Stevens-Jonson sindromi, Horner sindromi, Gamzel-Xant sindromi va boshqalar.

- S ot + S genitiv: gipofiz adenomasi, teri aurantiyazi, homiladorlik achondroplaziyasi, teri berilliozi, tarmoq neuroepiteliomasi, buyrak xriziyasi, suyaklar xondromatozisi, bachadon fibromasi, Meduza boshi, tuxumdon kisti va boshqalar.

- Murakkabroq (uch komponentli) modellarga quyidagilar kiradi:

- Pr. + S + Pr.: gemolitik anemiya maqsadli hujayra turlari, embrional adenomalar

folikulyar, lokal fibroz osteit, meritsitatsion bradistolik aritmiyalar, og'riqli ko'k venoz flebit, zlokachestven presenil melankoliya va boshqalar.

- Pr. + S + S genitiv.: chiziqli teri atrofiyasi, ekstrasistolik yurak aritmiyasi va boshqalar.

- Pr. + S + S genitiv: zinapoya mushaklari sindromi, ko'r-ko'rona halqa sindromi, buzilgan X-xromosoma sindromi, siydik pufagining ekstrofiyasi va boshqalar.

S genitiv ko'p. + S + S genitiv birl.: tuxumdonlar polikistoz sindromi.

Sintezli terminlarga geografik nomlardan olingan toponimik terminlar ham kiradi: Yapon ensefaliti, Itaka isitmasi, Qrim isitmasi va hokazo.

Shunday qilib, insonning patologik holatlari va kasalliklarini nomlashda sintaksis usulda so'z yasashan'anaviyusullardan hisoblanadi. Sintaksis usulning kamchiliklari haqida gapirganda, unda terminlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan qisqalikni ta'minlamaydi. Biroq, bu usul termin ichida tushuncha farqlarini maksimal darajada aks ettirish imkonini beradi, bu esa uni yuqori samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Динес Л.Ф. Специфика составного термина в частноотраслевой терминосистеме (на материале русского и английского языков). — Л.: 1986. — с. 7.
2. Сторай зия системное описание терминологических (медицинских) наименований болезней. — М.: 1991. — с. 1.
3. Виноградов В.В. русский язык. грамматическое учение о слове. — М.: русский язык, 1972. с. 8.
4. Мусаева В.Д. Синтаксисо-семантические особенности составных терминов в английском, русском и узбекском языках. — Ташкент: фан, 1989. — с. 29.
5. Милославский И.Г. Синтез словосочетания и производного слова 3. Вопросы языкознания, 1977. №5. с. 53.
6. Даниленко В.П. Лексико-семантические и грамматические особенности слов-терминов. — М.: наука, 1971. — с. 28.
7. Хохлачева В.И. К соотношению номинативных свойств образования терминов. — М.: наука, 1981. — с. 56.

Xosiyat NAVRUZOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
navruzovaxosiyat363@gmail.com

5-SINF O'QUVCHILARINING BADIY MATNNI TUSHUNISHIDA LINGVISTIK BILIMLARNING TA'SIRI

Annotatsiya: badiiy matnni anglashda grammatik, leksik va sintaktik birliklarni to'g'ri idrok etish o'quvchining matn mazmunini tushunish darajasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ushbu maqolada 5-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan tajriba asosida badiiy matnni o'zlashtirish jarayonida lingvistik bilimlarning ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot uchun Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridan "Saddinis" qismi tanlab olingan bo'lib, ushbu matn asosida o'quvchilarga olmoshlarning ko'rsatkichlik xususiyati, dialogda kelgan nutqning kimga tegishli ekani, "-da" qo'shimchasining kontekstdagi vazifasi, inkor mazmuni va badiiy tasvir vositalarini aniqlashga qaratilgan savollar berildi. Tajriba yakunida 27 nafar o'quvchining yozma javoblari tahlil qilinib, ularning har biri bo'yicha to'g'ri javoblar foiz ko'rinishida hisoblandi. Olingan natijalar o'quvchilarning ayrim til birliklarini chuqur anglamagani matnning muayyan qirralarini tushunishda qiyinchilik tug'dirayotganini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari o'quvchining lingvistik bilim darajasi bilan matnni anglash o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni isbotlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *badiiy matn, o'qib tushunish, lingvisik bilim, 5-sinf, savol-javob, olmosh, qo'shimcha*

Annotation: understanding grammatical, lexical, and syntactic units plays a crucial role in determining a student's level of comprehension of literary texts. This article analyzes the impact of linguistic knowledge on the assimilation of a literary text based on an experiment conducted among 5th-grade students. The section titled "Saddinis" from Xudoyberdi To'xtaboyev's story "Riding the Yellow Giant" was used as research material. Based on this text, students were asked to answer questions focused on identifying demonstrative pronouns, determining the speaker in dialogues, analyzing the contextual function of the suffix "-da", recognizing negative meanings, and interpreting artistic imagery. The written responses of 27 students were analyzed, and correct answers were calculated in percentage form. The results revealed that limited understanding of certain linguistic elements led to difficulties in comprehending specific aspects of the text. These findings confirm a direct correlation between a student's level of linguistic knowledge and their reading comprehension.

Key words: *literary text, reading comprehension, linguistic knowledge, 5th grade, question-answer, pronoun, suffix*

Аннотация: правильное восприятие грамматических, лексических и синтаксических единиц является одним из ключевых факторов, определяющих уровень понимания художественного текста учеником. В данной статье анализируется влияние лингвистических знаний на усвоение литературного текста на основе эксперимента, проведенного среди учеников 5 класса. В качестве исследовательского материала была выбрана часть «Саддиниса» из произведения Худойберди Тўхтабоева «Оседлав Желтого Дьявола». На основе текста учащимся были предложены вопросы, направленные на определение указательных местоимений, идентификацию автора реплик в диалоге, анализ функции аффикса «-да» в контексте, выявление отрицательных значений и понимание художественно-выразительных средств. Были проанализированы письменные ответы 27 учащихся, и правильные ответы рассчитаны в процентах. Полученные результаты показали, что недостаточное понимание отдельных языковых единиц затрудняет восприятие определённых аспектов текста. Результаты исследования подтверждают наличие прямой связи между уровнем лингвистических знаний ученика и его способностью понимать текст.

Ключевые слова: *художественный текст, понимание прочитанного, лингвистические знания, 5 класс, вопрос-ответ, местоимение, аффикс*

Kirish. Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy va ilmiy-ommabop matnlar ustida ishlashda o'quvchining matndagi asosiy fikrni ajratib olishi, muallifning munosabatini anglash, fakt va mulohazalarni farqlay olishi kabi kompetensiyalarni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Matnni

anglash jarayonida til birliklari – leksik, grammatik va sintaktik vositalarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. K. Mavlonovning ta'kidlashicha, ona tili ta'limi jarayonida til birliklarini o'rgatish mazmunni tushunishga xizmat qilishi kerak. Bu jarayonda grammatika tildan ongli foydalanish vositasi sifatida qaraladi[2;22]. Til birliklarini to'g'ri va ongli idrok etgan o'quvchi nafaqat matn mazmunini chuqurroq

tushunadi, balki undagi personajlar ruhiy holatini his qiladi, badiiy tafsilotlar orqali muallif fikriga chuqur kirib boradi. O'quvchilarning lingvistik bilimlari bilan matnni tushunish ko'nikmalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shu sababdan ushbu tadqiqotda badiiy matn asosida o'tkazilgan tajriba orqali 5-sinf o'quvchilarining ayrim til birliklarini qanday anglashlari va bu bilimlarning tushunishga ta'siri amaliy tahlil asosida o'rganildi.

Asosiy qism. Tadqiqot Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridan olingan "Saddinisa" [4;208] bo'limi asosida olib borildi. Matndan foydalanib, o'quvchilarning ayrim grammatik, leksik va sintaktik birliklarni tushunish darajasi quyidagi parametrlar asosida tekshirildi:

1. Ko'rsatish olmoshi ishora qilayotgan jumlani aniqlash.
2. Dialogda kelgan nutqning kimga tegishli ekanini bilish.
3. Matndagi yumor (kulgu) mazmunini tushunish.
4. Qo'shimchalar orqali ifodalangan ma'noning kontekstdagi rolini anglash.
5. Inkor bog'lovchi yordamida bog'langan qo'shma gap mazmunini tushunish.

Tajriba Yangiyo'l shahar 9-maktabining 5-"E" sinfida 27 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazildi. O'quvchilarga yuqoridagi til birliklariga asoslangan 5 ta topshiriq berildi va ularning yozma javoblari tahlil qilindi. To'g'ri va xato javoblar soni jadval asosida qayd etilib, foizlarda ifodalandi.

Maktab	Topshiriq	Misollar soni	To'g'ri	Xato
Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 9-maktab 5-"E" 27 ta o'quvchi	1	1	8	19
	2	1	6	21
	3	1	11	16
	4.1	1	5	22
	4.2	1	7	20
	4.3	1	3	24
	5	1	5	22

Har bir til birligi alohida ko'rib chiqilib, unga oid topshiriqlarda o'quvchilarning qanchalik to'g'ri javob bera olgani tahlil qilindi.

1. *Boshqa birov shunday deganda ishonmagan bo'lardim.* Ushbu gapda *shunday* olmoshi o'rinda qo'llangan jumlaning topib yozing? O'quvchilarning 30 foizi to'g'ri javob yoza olgan. "Shunday" olmoshi matndagi ilgari aytilgan fikrga ishora qiladi. Bu holatda u Saddinisaning quyidagi gapiga taalluqlidir: *A'lochi bo'laman desangiz, o'qituvchi topshiriq bermasa ham o'tgan darslarni takrorlab borish kerak.* Bu gap *shunday* olmoshi bilan qisqacha umumlashtirilgan. Savolda ishora qilinayotgan jumlaning aniqlash so'ralgan. O'quvchilarning 70 foizi matn ichidagi bog'lanishni aniqlay olmagani. Bu holat o'quvchilarning ko'rsatish munosabatini tushunish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi.

2. – *Qani ayting-chi, tarozi deb nimaga aytiladi?* Matndagi ushbu so'roq gap muallifi kim? O'quvchilarning 22 foizi to'g'ri javob yoza olgan. Ushbu savolda matndagi bevosita nutq namunasi orqali gap egasini aniqlash talab etiladi. So'roq gap muallifi – Saddinisa bo'lsa-da, bu matnda bevosita tilga olinmagan. O'quvchi gap muallifini grammatik izoh, fe'l shakli va mazmuniy izchillik orqali aniqlashi kerak. "Qani ayting-chi..." kabi jumlar 2-shaxsga murojaat bo'lib, bu orqali so'roq va undov intonatsiyasi orqali e'tibor jalb qilinadi.

Bu gapdan keyin "kitobdan o'qib berdim", "qistab turib oldi Saddinisa" kabi izohli fe'llar kelishi dialog muallifi kimligini grammatik shakllar orqali ko'rsatadi. O'quvchi berilgan matn bilan tanishish jarayonida unda berilgan lisoniy birliklar qanday ma'noni ifodalayotganligini, matn muallifi ushbu birlikni nima maqsadda matn tarkibiga kiritganligini aniqlay olishi lozim. O'qib tushunish malakasini shakllantirish jarayonida ongli yondashuvning talablariga mos keluvchi topshiriqlarning berilishi o'quvchiga yozuvchining mahoratini baholashga, matnda qo'llangan badiiy tasviriy vositalar, til hodisalari bilan bog'liq nazariy bilimlardan foydalangan holda ushbu matnni tahlil qilishga yordam beradi [3.32]. Savol natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning dialogli matndagi nutq egasini aniqlashda qiynalishi fe'l shakllari, intonatsion vositalar va shaxs ifodasini o'rgatish bo'yicha metodik ishlarni kuchaytirishni talab etadi.

3. *Saddinisa nima uchun kulib yubordi? Sababini yozing.* Ushbu savol o'quvchilarning matn ichidagi yumorini tushunish, shaxslararo munosabatni anglash qobiliyatini sinovdan o'tkazadi. O'quvchilarning 59 foizi kulgu sababini yuzaki idrok etgan yoki tushunishda qiyinchilikka uchragan. Hazilni anglash – bu oddiy so'z ma'nosini tushunishdan tashqari, kutilmaganlik, mazmuniy qarama-qarshilik va emotsional ta'sirni aniqlash

kabi yuqori darajadagi psixolingvistik faoliyatni talab etadi. Masalan, Hoshimjonning *“chayqovchilar o‘g‘ri tarozi ishlatishadi”* degan jumlasida odatiy mazmunga mos kelmaydigan kinoyali ifodadir. *“...dedim-da, – u yog‘iga o‘zimdan ham jinday qo‘shib qo‘ydim”*. “-da”, “ham” kabi birliklar hazil mazmunini hosil qilishga ko‘maklashgan. “Analitik tarozi” va “o‘g‘ri tarozi” birikmalari orasidagi uslubiy kontrast hazilni keltirib chiqargan. Saddinisaning kulishi aynan shuning natijasi bo‘lib, o‘quvchi kulgi sababini anglash uchun nutq vaziyatidagi ilmiy savol-javobdan kulgili ifodaga o‘tishdagi o‘zgarishni tushuna olishi kerak. Bu esa o‘qib tushunish darslarida leksik, grammatik birliklarni emotsional va semantik mazmun bilan uyg‘un holda tahlil qilishga e‘tibor berish kerakligini ko‘rsatadi. Azimova I. matnni o‘qib tushunishni ko‘p bosqichli psixolingvistik jarayon sifatida talqin qiladi. Olimaning fikricha, bu jarayon faqat matnni o‘qish bilan cheklanmay, balki so‘zlarning leksik va kontekstual ma‘nolarini anglash, sintaktik tuzilmani tushunish, mazmuniy bog‘liqlikni hosil qilish kabi bosqichlarni qamrab oladi. Muallif matnni tushunish darajalarini uch asosiy pog‘onada – assotsiativ, leksik-morfologik va kontekstual darajalarda ko‘rsatadi. Ayniqsa, kontekstual darajaga alohida urg‘u beriladi, chunki aynan shu bosqichda o‘quvchi so‘zlarning matndagi haqiqiy ma‘nosini chuqur anglaydi va ular orqali mazmuniy birliklar orasidagi bog‘liqlikni tushuna boshlaydi. [1;223 – 224]

4. *Ajratib ko‘rsatilgan -da qo‘shimchasi bilan quyidagi so‘zlarni moslashtiring. Variantlarni birdan ortiq qo‘llashingiz mumkin.*

a) va b) lekin d) ham e) bilan

1) ...magazindlarda stol torozi ishlatiladi, – dedim-**da**, – u yog‘iga o‘zimdan ham jinday qo‘shib qo‘ydim...

2) O‘sha kuni quyosh charaqlab turgan bo‘lsa-**da**, havo uncha salqin ham, uncha issiq ham emas edi.

3) Ertasiga oyim kundaligimdagi ikki to‘rt bahoni ko‘rib sekingina peshonamdan o‘pdi-**da**:

– Dadasi, Hoshimjonga shim-kostyum olib bersangiz bo‘larkan, qarang, shimi titilib ketibdi, bolam bechoraning, – deb qo‘ydi.

O‘quvchilarning ushbu savolga nisbatan past ko‘rsatkichda javob berishi shuni ko‘rsatadiki, -da qo‘shimchasining ko‘p ma‘noliligi ularni chalkashtiradi. Bu holat grammatik birliklarning shakliy tomoni bilan mazmuniy vazifalarini birgalikda o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi.

5. *Havo uncha salqin ham, uncha issiq ham emas edi.* Ushbu gapning mazmuni quyidagi qaysi variantda berilgan?

- A) Havo goh salqin, goh issiq edi.
- B) Havo na salqin, na issiq edi.
- C) Havo ba‘zan salqin, ba‘zan issiq edi.
- D) Havo dam salqin, dam issiq edi.

O‘quvchilar “ham...ham emas” shaklini “goh... goh...” yoki “ba‘zan...ba‘zan...” kabi o‘zgaruvchan holat sifatida noto‘g‘ri talqin qilishgan. Bu savol bog‘lovchilar va inkor shakllarning mazmunni qanday o‘zgartirishini tushunishni talab qiladi. O‘quvchilarning 72 foizi berilgan gap yuzasidan mutlaqo‘ teskari xulosa chiqarishayotgani bilan matn mazmunini to‘liq tushunmaganini namoyon etishadi. Matn tarkibidagi gapni xato tushunish, umumiy mazmunni anglashga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, 5-sinf o‘quvchilarining badiiy matnni o‘qib tushunish darajasi ularning grammatik, leksik va sintaktik bilimlari bilan bevosita bog‘liqdir. Turli til birliklari asosida tuzilgan savollar asosida aniqlanishicha, o‘quvchilar matn yuzasidan umumiy fikr bera olishsada, ayrim til vositalarining ma‘nodagi vazifasini anglashda past natijalar kuzatildi. Umuman olganda, matnni o‘qib tushunish o‘quvchidan nafaqat leksik boylik, balki sintaktik va semantik tafakkurni ham talab qiladi. Til birliklarini ongli o‘zlashtirgan o‘quvchi badiiy matn mazmunini aniq tushunadi, personajlarning ichki kechinmalarini anglaydi va matnning estetik ohangini his qila oladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining o‘qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I. Ona tili ta‘limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta‘lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019. 215–224-b.
2. Mavlonova K., Tursun Sh. Ona tili ta‘limida grammatik yondashuv mohiyati. **Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari**. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2024. 17-22-b.
3. Hakimova N. O‘qib tushunish malakasini shakllantirishga oid yondashuv va tamoyillar. Ona tili ta‘limida o‘qitish va baholash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2022.31–33-b.
4. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib: to‘plam – T.: “Yangi asr avlodi”, 2013. 540-b.

Zokiraxon SAIDOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
II bosqich tayanch doktoranti



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI LINGVISTIK SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY MATNNING LINGVOESTETIK TAHLILI VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini lingvistik shaxsini rivojlantirishda badiiy matnning lingvoestetik tahlili vosita sifatidagi ahamiyati ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: dunyoni ko'rish, lingvistik, estetik, axloqiy, tadqiqotlar, tahlil qilish, muammo, o'zbek, universitet, o'qitish tizimi, she'riy matnlar, lingvoestetika, grammatik, kommunikativ, estetik fakt va hokazo.

Аннотация: в статье дается научно-теоретический анализ значения лингвоэстетического анализа художественных текстов как инструмента развития языковой личности учащихся начальной школы.

Ключевые слова: мировоззрение, лингвистический, эстетический, этический, исследование, анализ, проблема, узбекский язык, университет, система образования, поэтические тексты, лингвоэстетика, грамматический, коммуникативный, эстетический факт и т.д.

Annotation: this article provides a scientific and theoretical analysis of the importance of linguo-aesthetic analysis of literary texts as a tool for developing the linguistic personality of primary school students.

Psixolog olimlar fikriga ko'ra, ijodkorlikning rivojlanishida quyidagi bosqichlar mavjud:

1. **Tayyorlov bosqichi** (3-4 yosh): bolaning qiziqishi ortadi, lekin ijodiy fikrlash hali shakllanmagan. Ko'proq taqlidga asoslangan ijodiy harakatlar kuzatiladi.

2. **Faollashuv bosqichi** (4-5 yosh): tasavvur va fantaziya jonlanadi. Bola voqealarni o'zgartirib tasavvur qila boshlaydi.

3. **Ijodiy yondashuv bosqichi** (5-6 yosh): bolaning mustaqil fikri kuchayadi, noodatiy fikrlar paydo bo'ladi. U o'zining xayoliy g'oyalari asosida rasm chizadi, ertaklar to'qiydi.

4. **Shakllanish bosqichi** (6-7 yosh): bu bosqichda bola oldinga qo'yilgan vazifalarga turlicha yechim topishga harakat qiladi. U o'zini ijodkor sifatida his qiladi.

Tarbiyachi-pedagog ijodiy muhitda quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. *Kuzatuvchi va baholovchi* – har bir bolaning ijodiy holatini, salohiyatini, qiziqishlarini kuzatib boradi.

2. *Rag'batlantiruvchi* – bolalarning yangi g'oyalari, noodatiy yechimlari, erkin ifodalarini ijobiy baholaydi va ularni faoliyatga jalb qiladi.

3. *Yo'naltiruvchi* – bolaning ijodiy qobiliyatlarini maqsadga yo'naltiradi, ijodiy topshiriqlar orqali ularni rivojlantiradi.

4. *Hamkor* – bolalar bilan ijodiy faoliyatda ishtirok etadi, o'zini ularning tengdoshi sifatida tutadi, ularning fikrlariga e'tibor bilan yondashadi.

5. Muvofiqlashtiruvchi – turli ijodiy faoliyat

turlarini uyg'unlashtiradi: o'yin, rasm, musiqiy mashg'ulotlar, dramatik ifoda va h.k.

Ijodiy faoliyat asosida o'quv tarbiya jarayonini differensiyalash, ta'lim jarayonlarini muvofiqlashtirish, har bir talaba qobiliyati va qiziqishini rivojlantirish, o'quv tarbiya faoliyatini takomillashtirish, psixologik himoyalash, talabaning pedagogik mahorati kabilarning sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy muhit — bu bolani yangilik yaratishga undaydigan, uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaradigan, qulay psixologik va estetik shart-sharoitlar majmuasidir. Bunday muhitni yaratishda tarbiyachi-pedagogning roli beqiyosdir. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlar, kasbiy mahorati, ijodkorlik darajasi, bolalarga nisbatan yondashuvi — ularning barchasi bolalar ijodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarni kreativ fikrlovchi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llovchi mutaxassis sifatida tayyorlash zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev "2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2020 yil, 30-sentabr.

3. Qobiliyatlar muammolari [Matn] / Ed. V. N. Myasishchev – M.: API, 1962.-308s.

4. Maktabgacha ta'lim tizimini, 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-y.

5. Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T., 2022

Nazokat YUSUFJONOVA,
Profi universiteti v.b. dotsenti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR VA MOBIL ILOVALARNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada pedagogik dasturiy vositalar va mobil ilovalarning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning o'quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil ta'lim olishi va o'zlashtirish samaradorligiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi. Interaktiv va adaptiv o'quv materiallarini yaratish, gamifikatsiya, konstruktivistik yondashuv va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan bog'liq ilg'or tajribalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagogik dasturiy vositalar, mobil ilovalar, interaktiv ta'lim, gamifikatsiya, adaptiv o'quv tizimlari, raqamli monitoring, sun'iy intellekt, zamonaviy ta'lim.

Аннотация: в данной статье рассматривается роль педагогических программных средств и мобильных приложений в современном образовательном процессе. Освещается их влияние на мотивацию учащихся, развитие самостоятельного обучения и повышение эффективности усвоения знаний. Анализируются подходы к созданию интерактивных и адаптивных учебных материалов, применение геймификации, конструктивистская методология и технологии искусственного интеллекта.

Ключевые слова: педагогические программные средства, мобильные приложения, интерактивное обучение, геймификация, адаптивные системы обучения, цифровой мониторинг, искусственный интеллект, современное образование.

Annotation: this article examines the role of pedagogical software tools and mobile applications in modern education, emphasizing their impact on student motivation, independent learning, and academic performance. It explores the development of interactive and adaptive learning materials, the application of gamification, constructivist approaches, and artificial intelligence technologies.

Key words: pedagogical software, mobile applications, interactive learning, gamification, adaptive learning systems, digital monitoring, artificial intelligence, modern education.

Raqamli asrda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish – dolzarb vazifa. Mobil texnologiyalar va pedagogik dasturiy vositalar orqali interaktiv o'quv materiallari yaratish zamonaviy didaktikaning muhim yo'nalishiga aylandi. Bunday raqamli vositalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirib, ularning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar raqamli vositalar va mobil ilovalar yordamida interaktiv materiallar yaratish ilmiy-amaliy jihatdan samarali yechim ekani, Learning Management System (LMS) platformalari o'quvchilarning o'zlashtirishi va o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [1,14]. Mazkur faslda interaktiv o'quv materiallarini yaratish tamoyillari, ularni ta'limga tatbiq etish bosqichlari, joriy etish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritiladi. Avvalo pedagogik dasturiy platformalar hamda mobil ta'lim ilovalar tushunchalari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rniga to'xtalsak. Pedagogik dasturiy vositalar – bu ta'lim jarayonini boshqarish, tashkillashtirish va nazorat qilishga mo'ljallangan maxsus platforma va dasturlar majmuasidir. Aynan shu tushunchani o'zida ifoda etuvchi Learning Management System (LMS) platformalari o'quv materiallarini joylashtirish, topshiriqlarni avtomatik tekshirish hamda o'zlashtirishni kuzatish kabi imkoniyatlarni ta'minlaydi, pedagog va o'quvchi o'rtasida

o'zaro interaktiv muloqotni yo'lga qo'yadi. Content Management System (CMS) esa ko'proq veb-kontentni yaratish va boshqarishga xizmat qiluvchi tizim bo'lib, ta'lim mazmunini yaratishda qo'llaniladi. Pedagogik dasturiy vositalar sirasiga elektron jurnal, kundaliklar, test yaratish dasturlari, virtual laboratoriyalar ham kiradi va ularning barchasi dars jarayonini raqamli shaklda olib borishga yordam beradi.

Mobil ilovalar esa smartfon va planshet kabi qurilmalarda ishlovchi, o'quv jarayonini boyitishga mo'ljallangan dasturlardir. Bugungi kunda mobil ta'lim (m-learning) tushunchasi kundalik hayotimizga kirib keldi, bu o'quvchilarga joy va vaqt tanlamay mobil qurilmalar orqali o'rganish imkonini beradi. Ta'limiy o'yinlar vositasida o'quv jarayonini qiziqarli qilishga qaratilgan edutainment (education+ entertainment) ham interaktiv o'yinlar, viktorina, kvest shaklidagi mobil ilovalar bo'lib, ular o'quvchilarning diqqatini darsga jalb qilib, faol o'rganuvchiga aylantiradi.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar va mobil ilovalar ta'limning turli bosqichlarida keng qo'llanilmoqda. Ta'lim jarayonini interaktiv, qulay va samarali qiluvchi mazkur vositalar o'quvchilar bilimini mustaqil egallashiga, o'zlashtirish darajasini darhol baholab, natijani tahlil qilishga yordam beradi. Qolaversa, o'quvchilarning platformalarda mustaqil

ishlashlari axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini ham oshiradi.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda interaktiv o'quv materiallariga quyidagicha tasnif beriladi: "Interaktiv o'quv materiallari – bu o'z tarkibiga foydalanuvchi bilan faol muloqotni nazarda tutuvchi kontentni jamlagan elektron resurslardir. Bunday materiallar multimedia (matn, grafika, audio, video) va gemifikatsiya elementlari bilan boyitilgani tufayli o'quvchini dars mavzusiga qiziqitirib, uni faollashtiradi" [4, 3416]. "Интерактивные мультимедийные обучающие материалы: теория и методика разработки" (Interaktiv multimedia o'quv materiallari: nazariya va ishlab chiqish metodikasi) kitobi muallifi K. Moorning yozishicha *"Interaktiv o'quv materiallari o'quvchini kontent bilan faol aloqaga chorlaydigan elementlarni o'z ichiga olishi zarur. Bunga turli topshiriqlar, testlar, animatsiyalar, multimedia va gemifikatsiya elementlari kiradi, ular o'quvchilarning motivatsiyasi va ishtiyoqini sezilarli darajada oshiradi"* [2,36]. Olimning fikricha interaktiv o'quv materiallarining samaradorligi, avvalo, ularning o'quvchiga qulayligi va didaktik maqsadlarga mosligiga bog'liq. Agar multimedia elementlari ko'p bo'lib, ular tartibsiz joylashtirilsa, o'quvchi diqqatini asosiy mazmundan chalg'itadi. Shu sababli har bir vizual yoki audial komponent o'z vazifasiga ega bo'lishi va umumiy ta'limiy maqsadga xizmat qilishi shart.

Amerikalik olim, kognitiv psixolog Howard Gardner har bir o'quvchida intellektning turli shakllari (xususan, vizual, musiqiy, kinestetik, mantiqiy) rivojlangan bo'lishi mumkinligini aytadi. U o'zining mashhur "Frames of Mind" (Tafakkur tuzilmalari) nomli asarida shunday yozadi: *"Inson intellekti bitta umumiy qobiliyat emas, balki o'zaro mustaqil bo'lgan bir nechta intellektlardan iboratdir. Har bir odam o'zining noyob intellektlar kombinatsiyasiga ega, shuning uchun ta'lim ham aynan shu individual farqlarni inobatga olishi kerak"*. Bu nazariyaga tayansak, interaktiv kontentni turli formatlarda (video ma'ruza, grafik illyustratsiya, audiodoskalar, jismoniy faollikni talab qiluvchi o'yinlar) yaratish axborotni qabul qilish va o'zlashtirish darajasi har xil bo'lgan o'quvchilarga mos o'quv muhitini yaratishga yordam beradi.

Yana bir zamonaviy yondashuv – *gemifikatsiya* (gamification) nazariyasi. Gemifikatsiya nazariyasi o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilar qiziqishi va faolligini oshirishni maqsad qiladi. Bugungi kunda gemifikatsiya o'quvchilarni

rag'batlantirish, ularda bellashuv ruhini uyg'otish va sinfda qiziqarli muhitni yaratish usuli sifatida qo'llanilmoqda. Professor Deterding va uning hamkasblari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda darsda qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarda maqsad sari intilish, ichki raqobat va jamoaviylik tuyg'usini uyg'otuvchi kuchli emotsional omil ekani isbotlangan. Bundan tashqari gemifikatsiya o'quvchilarni o'yin o'ynayotganlik tuyg'usi orqali "xatodan qo'rqish" hissidan xalos etadi, bu esa ayniqsa, yangi bilimlarni egallash va uni amaliyotda sinab ko'rishda qo'l keladi. Amerikalik pedagog Lee Sheldon o'zining "The Multiplayer Classroom: Designing Coursework as a Game" ("O'yinlashgan darslar: darsni o'yin sifatida loyihalash") kitobida o'yinlashgan ta'lim muhitining o'quvchilarni dars jarayoniga jalb etish samaradorligi an'anaviy dars shakllariga nisbatan deyarli 70 foizga yuqori ekanini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, an'anaviy darslarda xato jazolanadi. O'yinlashgan ta'lim muhiti esa o'quvchilarni xatodan qo'rqmaslikka o'rgatadi, bu, o'z navbatida, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va haqiqiy o'rganishga yo'l ochadi. Shu sababli Sheldon darsni o'yin sifatida loyihalashni tavsiya etadi, chunki o'yinlar bolaning aql-zakovati, strategik fikrlashi va liderlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Shu bois bugungi kun metodistlari gemifikatsiyani shunchaki "qiziqarli usul" emas, balki XXI asr ta'limining ajralmas didaktik vositasi sifatida baholashmoqda. Nazariy izlanishlar ba'zan gemifikatsiyaning har doim ham bir xil natija bermasligi, o'quvchining xarakter-xususiyatlariga qarab turlicha ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Chunki o'yin elementlari noto'g'ri tanlanganda yoki haddan ziyod ko'paytirilganda o'quvchilarni chalg'ituvchi omilga aylanishi ham mumkin.

Agar gemifikatsiya elementlari ushbu uch ehtiyojni qondirmasa, ya'ni o'quvchining qiziqishlari, shaxsiy ehtiyojlari, hayotiy maqsadlari va ichki motivlariga mos kelmasa, u o'z samarasini yo'qotadi. Kanadalik olim Scott Nicholson tomonidan ilgari surilgan "Meaningful Gamification" (Mazmunli gemifikatsiya) konsepsiyasi shuni ko'rsatadiki, o'yin elementlariga asoslangan ta'lim raqobatni yoqtiradigan o'quvchilar uchun kuchli motivator bo'lsa, hamkorlikda ishlashni afzal ko'ruvchi o'quvchilar uchun bunday tizim tushkunlik, qo'rquv va xavotir manbaiga aylanishi mumkin [3, 7]. Shu bois gemifikatsiyaning samarasini oshirish uchun uni o'quv mazmuni, pedagogik maqsadlar va yosh psixologiyasiga moslashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vergara D., Lampropoulos G., AntónSancho Á., FernándezArias P. Impact of Artificial Intelligence on Learning Management Systems. // Multimodal Technologies and Interaction. 2024. Vol. 8, № 9. Article 75. – C. 1-20.
2. Moor K. Интерактивные мультимедийные обучающие материалы: теория и методика разработки. – М.: Юрайт, 2021. 289-с.
3. Nicholson S. A RECIPE for meaningful gamification // Gamification in Education and Business. – Cham: Springer, 2015. P. 1–20.
4. Pappas E., Giannakos M. Interactive Multimedia Learning: Innovative Design and Integration for Engagement and Effectiveness // Education and Information Technologies. 2023. – Vol. 28, №3. P. 3415–3433.

Karima RAHMONBERDIYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Pedagogika bo'yicha falsafa doktori, dotsent

CHET TILINI O'RGATISHDA TALABALARNING O'Z-O'ZINI O'QITISH STRATEGIYALARINI METODIK ASOSLASH

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarga chet tilini o'rgatishda mustaqil ta'limni tashkil etishning metodik xususiyatlari yoritiladi. Mustaqil ta'limning mazmuni, shakllari, usullari va uni samarali tashkil etishning didaktik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, motivatsiya, nazorat va baholash mezonlari muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada mustaqil ta'limni raqamli resurslar yordamida tashkil etishning afzalliklari va zamonaviy yondashuvlar ham yoritilgan. Chet tili o'rgatishda talabani faolligini oshirish, o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishda mustaqil ta'limning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, chet tili o'qitish, metodik xususiyatlar, talaba faolligi, o'z-o'zini o'rganish, raqamli resurslar, motivatsiya, baholash, didaktik yondashuvlar, ta'lim texnologiyalari.*

Аннотация: в данной статье освещаются методические особенности организации самостоятельного обучения при обучении студентов иностранному языку. Анализируется содержание, формы, методы и дидактические основы эффективной организации самостоятельного обучения. Особое внимание уделяется взаимодействию между преподавателем и студентом, мотивации, а также критериям контроля и оценки в процессе самостоятельного обучения. В статье также рассматриваются преимущества и современные подходы к организации самостоятельной учебной деятельности с использованием цифровых ресурсов. Обоснована значимость самостоятельного обучения в развитии активности студентов, самоконтроля, самостоятельного мышления и творческих способностей при изучении иностранного языка.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, обучение иностранному языку, методические особенности, активность студентов, самообучение, цифровые ресурсы, мотивация, оценивание, дидактические подходы, образовательные технологии.*

Annotation: this article highlights the methodological features of organizing independent learning in teaching foreign languages to students. It analyzes the content, forms, methods, and didactic foundations for effective organization of independent learning. The article emphasizes the importance of teacher-student interaction, motivation, and assessment criteria in the process of independent learning. It also explores the advantages and modern approaches to organizing independent study using digital resources. The significance of independent learning is justified in terms of enhancing students' activity, self-control, independent thinking, and creativity in foreign language acquisition.

Key words: *independent learning, foreign language teaching, methodological features, student engagement, self-study, digital resources, motivation, assessment, didactic approaches, educational technologies.*

Global integratsiya, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda ta'lim tizimining zamonaviy talablarga mos ravishda yangilanishi natijasida chet tillarini o'qitish jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni mustaqil fikrlashga, o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga va o'z-o'zini o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

O'z-o'zini o'qitish (avtonom ta'lim) strategiyalarining shakllanishi, ularning samarali metodik asoslari orqali qo'llab-quvvatlanishi, chet tilini puxta egallashda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Zero, talabani o'z ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, bilim olishda mustaqil izlanishga tayyor bo'lishi uning til kompetensiyalarini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada chet tilini o'rgatishda talabalar tomonidan qo'llaniladigan o'z-o'zini o'qitish strategiyala-

rini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni metodik jihatdan asoslash masalalari yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida ushbu strategiyalarning qanday metodik yondashuvlar asosida rivojlantirilishi va ularning samaradorlik darajasi muhokama etiladi.

O'z-o'zini o'qitish strategiyalari – bu talabaning o'zi tomonidan bilim olish, ma'lumotni izlab topish, uni qayta ishlash va mustaqil ravishda amaliyotda qo'llash jarayonini tartibga soluvchi usullar va yondashuvlar majmuidir. Chet tilini o'rganishda bu strategiyalar talabaning tilga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy raqamli vositalar talabalarining o'z-o'zini o'qitish strategiyalarini samarali qo'llashda keng imkoniyatlar yaratadi. Interaktiv platformalar (Duolingo, Quizlet, BBC Learning English, Khan Academy, Moodle va boshqalar) orqali mustaqil ravishda til o'rganish, o'z-o'zini baholash, bilimni mustahkamlash va yangilash imkoniyatlari kengaymoqda.

Shuningdek, videodarslar, podkastlar, onlayn forumlar va mobil ilovalar orqali mustaqil til o'rganishning ko'lamini ortmoqda. Bu vositalar yordamida talabalar o'z tempida, qulay va interaktiv muhitda bilim olishga erishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da, mamlakatimizdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan bo'lib, 2020-2021 o'quv yilida 33 dan ortiq OTMlarda ECTS kredit-modul tizimi joriy qilindi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, mamlakatimizdagi barcha OTMlar 2030-yilgacha kredit modul tizimida faoliyat yuritib boshlaydi. ECTS kredit-modul tizimi joriy qilinishi oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi. ECTS kredit-modul tizimi aniq tamoyillar asosiga qurilgan bo'lib, bunda oliy ta'lim muassasasida tashkil etilidigan o'quv jarayoniga talabaga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish (student-centered education), ta'limda shaffoflikka erishish (transparent education), ta'limda moslashuvchanlikni kuchaytirish (improving flexibility) va talabalar mobilligini kuchaytirish (improving student mobility) vazifalarini amalga oshiradi. Kredit-modul tizimida o'qish natijalari bu OTM tomonidan bakalavr va magistratura o'quv dasturining maqsadlarini kurslar davomida talabalarining o'quv yuklama-

larini bajarishi natijasida o'rganishi, tushunishi va qila olishi kutilayotgan zarur bilim va ko'nikmalari (program learning outcomes)ning jamlanmasidir. Ya'ni ECTS kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan universitetlar amaliyotini tahlil qilsak, ularning aksariyatida auditoriya soatiga ega bo'lgan fan va modullarda auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40 foizga 60 foiz ekanligini kuzatishimiz mumkin. Talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har 1 soat dars uchun unga darsdan tashqarida bir yarim soat mustaqil o'qishi, berilgan topshiriq va vazifalarni mustaqil tayyorlashi kerak bo'ladi. "Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilangan bo'lsa, undan 12 soati ($30 \cdot 40\% = 12$) auditoriya soatlari, 18 soati ($30 \cdot 60\% = 18$) esa talabaning mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklamasida aniqlasak, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ($(30 \cdot 6) \cdot 40\% = 72$) auditoriya darslarini, 108 soat ($(30 \cdot 6) \cdot 60\% = 108$) auditoriyadan tashqarida, uyda, kutubxonada mustaqil o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi. ECTS kredit-modul tizimida bir auditoriya akademik soat 45-60 minutga teng bo'lib, talaba o'qish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z zimmasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda o'qib borishi kerakligini bildiradi [4] Darhaqiqat, XXI asrning mustaqil, zamonaviy, intellektual, raqobatdosh, kommunikativ kompetentli o'qituvchisining mahorati talabalarga fakat darsliklarda mavjud bilimni berish bilan emas balki, ularni o'z ustida mustaqil ishlashga, kreativ, mantiqan mustaqil fikr yuritishga, bugungi zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lishga, innovatsion axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga, xorijiy tillardan savodxonlik darajasini oshirib borishga, o'z fikr-mulohazalarini guruh jamoasi oldida mustaqil tarzda isbotlashga o'rgatishi bilan baholanadi. Talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasa bilim, fan bo'yicha va tanlagan kasbining professional bo'lishi uchun zarur ko'nikma va malakalarini chuqur o'zlashtira oladi. ECTS kredit-modul tizimiga ko'ra, talaba tanlagan sohasining mutaxassisi bo'lishi uchun bakalavr dasturini tamomlashda jami 240 akademik kredit, magistraturada jami 120 akademik kredit jamg'arishi kerak bo'ladi. U ushbu kreditlarni 50 foizini (bakalavr uchun 120 kredit, magistratura ta'limi

uchun 60 kredit) majburiy fanlar hisobiga, qolgan 50 foizini tanlov fanlar (talabalarning qiziqishlari va xohishlari, kelajak rejalari asosida o'rganish mumkin bo'lgan fanlar) hisobiga jamg'arishi nazarda tutiladi. Akademik kredit-oliy ta'limning muayyan bosqichida ushbu ta'lim darajasini qo'lga kiritish maqsadida talaba tomonidan muntazam ravishda to'plab boriladigan ramziy o'lchov birligi bo'lib, bu birlik talaba ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini bajarganligi va muayyan o'qish natijalarini muvaffaqiyatli tarzda egalaganligini anglatadi. Ushbu kreditlarni albatta auditoriya va mustaqil o'qish soatlari hisobidan to'playdi, ya'ni talaba bakalavr akademik darajasini olish uchun jami 240 akademik kredit jamg'arishi uchun to'rt yil davomida o'rtacha 6000-7200 soatlik ($240 \cdot 25 = 6000$; $240 \cdot 30 = 7200$) o'quv yuklamasini, ikki yillik magistr akademik darajasi uchun o'rtacha 3000-3600 soatlik ($120 \cdot 25 = 3000$; $120 \cdot 30 = 3600$) o'quv yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi. Bundan auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40 foizga 60 foiz bo'lsa, demak, bakalavr akademik darajasini olish uchun o'rtacha 2400-2880 soat auditoriya ($6000 \cdot 40\% = 2400$; $7200 \cdot 40\% = 2880$), 3600-4320 mustaqil o'qish soatlarini ($6000 \cdot 60\% = 3600$; $7200 \cdot 60\% = 4320$) bajardi. Magistr akademik darajasini olish uchun o'rtacha 1200-1440 soat auditoriya ($3000 \cdot 40\% = 1200$; $3600 \cdot 40\% = 1440$), 1800-2160 mustaqil o'qish soatlarini ($3000 \cdot 60\% = 1800$; $3600 \cdot 60\% = 2160$) bajardi. Ma'lumki, talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda mustaqil ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'la-

di. Faqat dars jarayonida ushbu talablarni barchasini ularning ongiga singdirib bo'lmaydi. Shunday ekan, mazkur talablarni, albatta, mustaqil ta'lim orqali amalga oshiramiz, ya'ni ECTS kredit-modul tizimining talablariga ko'ra, 1 soat auditoriya vaqti uchun talaba 1.5 soat auditoriyadan tashqarida, uyda yoki kutubxonada mustaqil o'qishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi zarur ekan, bu jarayon ko'p jihatdan o'qituvchining mas'uliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Talabalarni o'z vaqtlaridan samarali foydalanishi uchun ularga darsdan tashqarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllanishiga qaratilgan mustaqil o'qib o'zlashtirishlari uchun ta'lim berishning faol (loyihalarga asoslangan ta'lim, muammoni tahlil qilish, muammoga tanqidiy yondashuv, tanqid qilish, munozaraga kirishish, jamoada ishlash, taqdimot qilish) usullaridan, shuningdek, zamonaviy elektron o'quv vositalaridan keng foydalanigan holda qiziqarli interaktiv audio, video o'quv materiallarni, keys stadilarni, fan bo'yicha autentik topshiriqlarni berib borishi har bir OTM o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. "Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bar qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir" [8]. Mustaqil ta'lim muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, pedagog tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning mustaqil faoliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullayeva, N. R. (2021). On the Introduction of E-Learning Portfolio in the Educational Process. *Current Research Journal of Pedagogics* (2767-3278), 2(09), 35-37.
2. Ismatullayeva, N. R. (2022). POSSIBILITIES OF USING THE INTERACTIVE BOARD IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS. «. O 'zbekiston-Xitoy: Tarixiy-Madaniy, 77.
3. Исмагуллаева, Н. Р. (2022). ЧЕТ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРАКТИВ ДОСКАДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 96-98.
4. Ismatullayeva, N. R. (2022). Teaching Translation Methodology in the Foreign Language Classes. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(12), 448-452.
5. Ismatullayeva, N. (2022). CHET TILIGA O'RGATISHDA TARJIMANI O'QUV JARAYONIDA QO'LLASH MASALASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 28), 224-229.

Gayrat SANAYEV,
O'R QK Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
moddiy ta'minot sikl boshlig'i podpolkovnik

HARBIY TA'LIMDA HARBIY XIZMATCHILARDA KOMPETENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqola harbiy xizmatchilarda kompetentlikni shakllantiruvchi asosiy sifatlar, mustaqil fikrlash va tahlil qilish, hamda harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlar, ma'suliyat, tashabbuskorlik, intizom, jismoniy, ruhiy va kasbiy jihatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, sifatlar, tashabbus, kreativ, innovatsion, kommunikativ, professional, axloqiy barkamol, mehribon, talabchan. Qanoatli, rostgo'y, sadoqatli, pokiza, ziyrak, andishali, vazmin, sabrbardoshli.

Annotation: the article focuses on the formation of a mature and competent serviceman who provides a high level of physical, mental and professional training of servicemen

Key words: competence, creative, innovative, communicative, professional, morally competent, king, demanding, spiritually pure, contented, honest, intelligent, thoughtful, calm, patient.

Аннотация: в данной статье рассматриваются основные качества, формирующие компонентность военнослужащих, такие как самостоятельное мышление, а также личные качества военнослужащих, ответственность, инициативность, дисциплинированность, физическая, психологическая и профессиональная подготовленность. Особое внимание уделено обеспечению высокого уровня развития этих качеств.

Ключевые слова: компетентность, качества мышления, инициативность, дисциплинированность, физическая, креативность, профессиональная подготовленность, психологическая подготовка.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev aytganidek: «Hech qachon unutmaylik, go'zal va betakror O'zbekiston barchamizniki ekan, uning taqdiri va kelajagi uchun barchamiz mas'ulmiz».

Bu borada shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olishi uning kompetentligini namoyon etadi. Kasbiy kompetentlik kasbiy bilimlar, ko'nikmalar yig'indisi, shuningdek, kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari bo'lib, ular – ijtimoiy, maxsus, psixologik, metodik, informatsion kreativ, innovatsion, kommunikativ, shaxsiy, texnologik va autokompetentlik yo'nalishida o'ziga xos ta'sir kuchiga egadir. Kompetentlik harbiy xizmatchilarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi

hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Pedagogik faoliyat jarayonida, ta'lim oluvchilar tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, jangovar vaziyatlarda harakat qilish uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi. Bu esa o'z navbatida keng tajribalardan unumli foydalanish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash, zamon talablari asosida, harbiy xizmatchilarning o'z professional, nazariy va amaliy bilimlarini uzluksiz oshirib borishi, kasbiy kompetentligini shakllantirish qoidalarini nazarda tutadi. Kasbiy kompetentlik harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashlariga ham imkon beradi.

Harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyati davomida quyidagilarni uddalay olishlari lozim:

– nazariy va amaliy bilimlarini uzluksiz oshirib borishi, o'zining dunyoqarashi, bilim va

tajribasini doimiy ravishda kengaytirib, yangi bilimlarni o'zlashtirishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, yangi axborotlarni olish, ilg'or tajribalarni o'rganishi;

– xizmat burchini bajarishga vijdonan yondashib, vatanga sidqidildan xizmat qilish, moddiy va ma'naviy boyliklarni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

– yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, kasbiy malaka, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, sezgirlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, bilish bilan bog'liq intellektual salohiyat va ijtimoiy faollikni rivojlantirish;

– keng bilim va yuksak professional mahoratga ega harbiy xizmatchi bo'lish, o'zi mustaqil ravishda favqulodda va har qanday keskin sharoitlarda ham nostandart qarorlar qabul qila olishi;

– o'z kasbiy bilimdonligini doimiy tarzda oshirib borib, harbiy san'atni o'rganishi, mustaqil tarzda harbiy qurilish, harbiy taktika va strategiya, harbiy boshqaruv va kasb odobiga oid ilmiy adabiyot va ommaviy nashrlardan foydalanish asosida yuksak dunyoqarashga ega bo'lishi;

– umumharbiy nizomlarga ko'ra, xizmat munosabatlarida xushmuomalalikka amal qilib, harbiy burch va majburiyatlarni bajarish, jamoat joylarida o'zini munosib tutishi, shaxsiy xulq-atvorini nazorat qilib borishi;

– xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirish;

– ruhan tetik va jismonan bardam, xushyor, doimo ogoh bo'lish, irodasini chiniqtirib borishi, og'ir damlarda sabr-bardoshli bo'lish, xizmat va kasb sirlarini saqlash;

– kasbiy faoliyatning jarayon, hodisalarini tahlil etishga imkon beruvchi fikr doiralarini kengaytirishi va juda ko'p uchraydigan nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi;

– yuqorida aytilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda harbiy ta'lim jarayonini ham mazmunan, ham shaklan o'zgartirish, bunda ta'lim oluvchilarga faqat ma'lum bir kompetensiyalar bo'yicha bilim berish emas, balki harbiy ta'lim jarayoni davomida faoliyat olib borishni ta'minlash nazarda tutiladi.

Kompetentlik sifatleri shakllanishi orqali harbiy xizmatchi quyidagilarga ham erishadi:

– samarali ishlash;

- muammolarni mustaqil hal qilish;
- yangi sharoitlarga tez moslashish;
- jamoa bilan yaxshi muloqot qiladi.

Fan va texnikaning rivojlanishi, Qurolli kuchlarning zamonaviy va murakkab jangovar texnika, qurol-aslahalar bilan ta'minlanishi, yangi ta'lim texnologiyalarining yaratilishi va boshqa shu kabi hozirgi zamonga xos o'zgarishlar ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan tobora yangi talablar qo'yimoqda. Bu esa o'z navbatida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni talab qiladi. Harbiy ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda kasbiy ta'lim yo'nalishlarini to'g'ri belgilash, loyihalashtirish va joriy etishni samarali amalga oshirish, ta'limning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog va muhandis-pedagog xodimlar bilan ta'minlash, ta'lim muassasalari va mehnat bozori o'rtasida uzviylikni ta'minlash, ta'lim-tarbiya tizimida yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarning kiritilishiga jiddiy e'tibor berish talab etiladi. Harbiy xizmatchi – axloqiy barkamol, mehribon, talabchan, ma'naviyoq, qanoatli, rostgo'y, sadoqatli, pokiza, andishali, vazmin, sabr-bardoshli, muloyimlik kabi o'zining shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lib, hunar sirlarini puxta o'rganishi, o'z ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta olishi, nutq madaniyatini egallashi asosida barchaga har jihatdan shaxsiy namuna va ibratli bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Harbiy xizmatchining bilimlar quvvati uning o'z-o'zini rivojlantirish unsuri bo'lib, mustaqil izlanish, ijodiy faoliyatini tashkil etish va yangilik yaratishini ta'minlaydi. Bu borada samarali natijaga erishish uchun quyidagi jihatlariga jiddiy e'tibor berish lozim:

– harbiy xizmatchining yuqori darajadagi madaniyat, bilim va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichiga ega bo'lishi;

– o'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibiga aylanishi;

– kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilishi ayniqsa, pedagogik va psixologik bilimlarni puxta egallab, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi;

– kreativ qobiliyatga ega bo'lishi va harbiy texnika sirlarini puxta egallashi;

– ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli yondashgan holda harbiy mahorati, nutq va muomala madaniyati,

yuksak xulq-atvorining rivojlanishiga jiddiy e'tibor berishi, ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay olishi;

- o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlarini va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini o'zlashtirishi, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan allomalarning hayoti va ijodini teran va yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi;

- kasbiy faoliyatda ma'suliyatli bo'lish, jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho bera olishi;

- o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlarini va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini o'zlashtirishi, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan allomalarning hayoti va ijodini teran va yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi;

- kasbiy faoliyatda ma'suliyatli bo'lish, jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho bera olishi.

- ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalarining yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lib, o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib, bunda o'z ustida mustaqil ishlay olishi, tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi;

- o'ziga xos kiyinish madaniyatiga ega bo'lishi ya'ni ozoda, bejirim kiyinishi, mulohazali, bosiq bo'lishi, har qanday vaziyatni to'g'ri baholashi

hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqib olishi;

- ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrining aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishi, suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyatda bo'lishi;

- ta'lim jarayonini loyihalashda faoliyatli yondashuv. O'zaro tenglik, modullilik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, muammolilik, xatoliklarga tayanish, ta'lim vaqtini tejash, texnologik, uzviylik, refleksivlik, natijaviylik, ko'p omillilik, o'quv-tarbiya jarayonining shaffofligi va o'z-o'zini boshqarish asosida rivojlanish kabi zamonaviy tamoyillardan foydalanish;

- kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda muntazamlilik, masalaga yangicha yondashish, konseptual bilimlarning tizimli va ilmiy mohiyatini oshirish, kelajakni ko'ra olish, bashorat qilishda yetakchilik qilish, innovatsion faoliyatni intensivlashtirish, ta'lim muhitida o'zgaruvchanlik, dinamiklik, uzluksizlik, moslashuvchanlik hamda o'qish va o'rganishning yangi usullaridan foydalanish kabi tamoyillarni keng qo'llash.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarda kompetentlik sifatlarini shakllantirish – bu juda muhim va uzluksiz jarayon bo'lib, ularning xizmatda samarali faoliyat olib borishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari – mustaqil fikrlash, ma'suliyat, tashabbuskorlik, intizom, jismoniy, ruhiy va kasbiy tayyorgarlikni yuqori darajada rivojlantirish orqali harbiy xizmatchilarning professional salohiyatini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30-sentyabr 2020-yil.
2. Satib-Aldiyev A. Muloqotni tashkil etishning psixologik-pedagogik artlari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: TOUQBYU, 2012.
3. Спенсер Л.М., Спенсер С.М. "Компетенции на работе: Модель эффективной работы". – Москва: Вильямс, 2005.
4. Мухаметзянов «Формирование профессиональной компетентности военнослужащих в учебном процессе». – Москва, 2015.
5. "Interfaol usullar" "Xalq ta'limi" jumali – Toshkent, 2008 yil. № 3
6. "Ta'limda interfaol usullardan foydalanish", Boshlang'ich ta'lim jurnali 2009. № 2.

Malika ISKANDAROVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Umumiy pedagogika fani o'qituvchisi, tayanch doktoranti
Email.: malikaislomovna@gmail.com

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INNOVATSION TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI MODELLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion tadqiqotchilik ko'nikmalarini modellashtirishning pedagogik asoslari o'rganilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagog shaxsida shakllanishi zarur bo'lgan tadqiqotchilik kompetensiyalari — muammoni aniqlash, ilmiy asosda tahlil qilish, izlanish olib borish va natijalarni baholash qobiliyatlari sifatida aniqlab berilgan.

Kalit so'zlar: *strategik yo'nalishlar, innovatsion tadqiqotchilik, integratsiyalash masalasi, innovatsion kompetensiyalar, "tadqiqotchilik ko'nikmasi".*

Аннотация: в статье рассматриваются педагогические основы моделирования инновационных исследовательских умений будущих учителей. В исследовании определяются исследовательские компетенции, которые необходимо сформировать у личности современного учителя – умение выявлять проблему, проводить научный анализ, проводить исследование, оценивать полученные результаты.

Ключевые слова: *стратегические ориентации, инновационные исследования, интеграционная проблематика, инновационные компетенции, «исследовательские умения».*

Annotation: this article studies the pedagogical foundations of modeling innovative research skills in future teachers. The research identifies research competencies that must be formed in the personality of a modern teacher - the ability to identify the problem, conduct scientific analysis, conduct research, and evaluate the results.

Key words: *strategic orientations, innovative research, integration issues, innovative competencies, "research skills".*

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimini yangilash va uni global talablar darajasiga olib chiqish davlat siyosatining markazida turibdi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustdagi videoselektor yig'ilishida shunday dedi: "Maktab — bu hayot-mamot, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi emas, balki butun jamiyat hal qilishi kerak... Maktabni maktab qiladigan kuch — o'qituvchilardir[1]." Ushbu fikr ta'lim tizimidagi islohotlarda, pedagoglarning professional malakasini oshirishda va yoshlar bilimini mustahkamlashda tadqiqot va innovatsion yondashuvlarni kuchaytirishga urg'u berishini ko'rsatadi. Shuningdek, Prezident tomonidan chiqarilgan PQ4884-son qaror (2020-yil 6-noyabr) orqali maktablarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari joriy etilishi, xorijiy mutaxassislar jalb qilinishi hamda pedagoglarning malakasini doimiy yangilab borilishi belgilandi[2]. Ushbu strategik yo'nalishlar doirasida

bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion tadqiqotchilik ko'nikmalarini modellashtirish — zamonaviy pedagogik model yaratishda muhim shartdir. Tadqiqot ko'nikmalariga ega pedagog nafaqat dars beruvchi, balki o'z faoliyatini ilmiy nazorat ostida tashkil eta oladigan, o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvni uyg'ota oladigan shaxsdir.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va tadqiqotchilik faoliyatini pedagogik jihatdan integratsiyalash masalasi ilmiy doiralarda keng muhokama etilmoqda. Ko'plab olimlar innovatsion kompetensiyalarni shakllantirishni XXI asr pedagogikasi uchun asosiy yo'nalishlardan biri deb hisoblashmoqda.

I. Halilova (2021) innovatsion tadqiqotchilikni o'qituvchining zamonaviy malakasining ajralmas qismi sifatida talqin etib, bu ko'nikmalarni

shakllantirishda amaliy faoliyat, loyiha asosidagi ta'lim va diagnostik yondashuvlarning samaradorligini ta'kidlaydi[3].

X. Karimova (2022) esa pedagogik ta'limda mustaqil izlanish madaniyatini rivojlantirishni birlamchi vazifa deb hisoblab, "tadqiqotchilik ko'nikmasi" tushunchasini ilmiy masalani ko'ra olish, nazariy asos topish, va ilmiy dalillar bilan tahlil qila olish qobiliyatlarining yig'indisi sifatida belgilaydi[4]. Shuningdek, T. Nazarova (2020) o'z izlanishlarida innovatsion yondashuvni modellashtirish bosqichlarini: **analiz, dizayn, amalga oshirish, monitoring va baholash** kabi ketma-ketlikda taklif etadi[5]. Bu model, o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarni bosqichma-bosqich ilmiy faoliyatga jalb qilishga xizmat qiladi. Qarshi davlat universiteti professori A. Matyaqubov (2023) esa motivatsiya va refleksiya asosida shakllanuvchi tadqiqotchilik ko'nikmalari haqida fikr yuritib, talabalarni kichik ilmiy guruhlarda loyihalar orqali ishlashga yo'naltirish samarali bo'lishini isbotlaydi[6].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli qarori (2020) va "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (2020-yilgi tahrir) o'qituvchilik kasbida innovatsion malaka va doimiy yangilanish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu hujjatlar o'quv dasturlariga tadqiqotchilik ko'nikmalarini integratsiyalashga huquqiy va metodik asos yaratadi.

Xorijiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, D. Schön (1983) "reflektiv practitioner" tushunchasini ilgari surib, zamonaviy o'qituvchi faqat bilim uzatuvchi emas, balki doimiy o'zini tahlil qiluvchi va takomillashtiruvchi shaxs ekanini isbotlagan[7]. J. Dewey va P. Freire kabi pedagoglar esa tadqiqotchilik faoliyatini ijtimoiy ong va ijtimoiy adolat bilan bog'lab o'rganadi.

So'nggi davrda chop etilgan ilmiy manbalarda innovatsion pedagogika va tadqiqotchilik malakalari muhokama qilinayotgan bo'lib, ularda bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga moslashtirishda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga asoslangan yondashuvlar muhim omil sifatida ko'rsatilmoqda. Masalan, K. Abduraxmonova (2022) innovatsion ta'limni "o'quvchining intellektual va ijodiy salohiyatini ochuvchi, o'qituvchini esa izlanish ruhida faoliyat yuritishga yo'naltiruvchi tizim" sifatida ta'riflaydi[8]. Uning tadqiqotlarida

zamonaviy pedagogik kompetensiyalar tarkibida tadqiqotchilik, analitik fikrlash, loyiha asosida ishlash, hamkorlikda o'rganish va refleksiya qobiliyatlari asosiy elementlar sifatida ko'rsatiladi. G'. Jo'rayev (2021) esa o'qituvchi tayyorlashda "ilmiy-tadqiqotchilik pedagogik metodikasi" ni joriy etishni taklif qiladi[9]. Unga ko'ra, nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tadqiqot olib borish, ilmiy maqola yozish, loyiha natijalarini taqdim etish o'qituvchilik kasbining ajralmas komponentlariga aylanishi lozim.

Natijalar va muhokama. Olib borilgan nazariy tahlillar va amaliy kuzatishlar asosida aniqlanishicha, bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash orqali quyidagi ilmiy-amaliy natijalarga erishildi:

Birinchidan, innovatsion tadqiqotchilik ko'nikmalarining asosiy tarkibiy qismlari aniqlab olindi. Ular orasida muammoni aniqlash va tahlil qilish, mustaqil ilmiy izlanish olib borish, ilmiy dalillarga asoslangan fikr yuritish, axborot manbalaridan samarali foydalanish, o'z tadqiqot natijalarini taqdim eta olish ko'nikmalari mavjud. Bu ko'nikmalarni shakllantirishda faol ta'lim metodlari, xususan loyiha usuli, keys-stadi va tadqiqot asosida o'qitish yondashuvlari yuqori samaradorlik ko'rsatadi.

Ikkinchidan, tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilar uchun innovatsion tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish modelining samarali bosqichlari ishlab chiqildi. Mazkur model quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: diagnostik bosqich (boshlang'ich tayyorgarlikni aniqlash), loyihalash bosqichi (ilmiy mavzu va metodlarni tanlash), amalga oshirish bosqichi (amaliy tadqiqot olib borish), tahlil va refleksiya bosqichi (natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish) hamda baholash bosqichi (tadqiqot yakunlarini baholash va taqdim etish).

Uchinchidan, zamonaviy pedagog shaxsini shakllantirishda innovatsion tadqiqotchilik ko'nikmalarining o'rni muhim ekani isbotlandi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ilmiy izlanishga moyil bo'lgan o'qituvchilar ta'lim jarayonida mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy metodlarni

faol qo'llaydi. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda yetakchi rol o'ynaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qarori, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o'qituvchining ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirish, doimiy yangilanish va tadqiqotchilik faoliyatini ta'lim jarayoniga integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa pedagogik modellashtirishga asoslangan yondashuvni qo'llashni nafaqat dolzarb, balki zaruriy jarayonga aylantiradi.

Xalqaro tajribalarga nazar solganda, D. Schön tomonidan ilgari surilgan "reflektiv amaliyotchi" modeli, J. Dewey va P. Freire ta'limda ijtimoiy faoliyatga asoslangan yondashuvlari zamonaviy o'qituvchini nafaqat bilim beruvchi, balki o'z faoliyatini doimiy tahlil qiluvchi, takomillashtiruvchi va yangilikka ochiq shaxs sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion tadqiqotchilik ko'nikmalarini modellashtirish ularning kasbiy kompetensiyasini chuqurlashtirishda, zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unlashtirishda va sifatli pedagogik kadrlarni tayyorlashda samarali mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi tahlil va ilmiy-amaliy izlanishlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion tadqiqotchilik ko'nikmalarini modellashtirish ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik vazifa ekani isbotlandi. Bu ko'nikmalar o'qituvchining tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, o'z pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish va takomillashtirish, yangi ta'lim texnologiyalarini tadqiq etish va joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik model orqali innovatsion tadqiqotchilik ko'nikmalari bosqichma-bosqich, tizimli tarzda shakllantirilishi mumkinligi ko'rsatildi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifati va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Prezident qarorlarida va ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarda ta'kidlanganidek, zamonaviy o'qituvchi o'z faoliyatida ilmiy izlanishga asoslanishi, doimiy yangilanishga intilishi, tajriba almashuvi va reflektiv tahlilga asoslangan yondashuvni amaliyotga joriy etishi lozim. Shu munosabat bilan, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik ta'lim jarayonida tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish, innovatsion muhit yaratish va motivatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish — ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. M. Maktab — bu hayot-mamot, kelajak masalasi. 2019.president.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli qarori.2020. Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida. lex.uz
3. Halilova, I. Innovatsion tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda amaliy yondashuvlar. — Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti, 2021.
4. Karimova, X. Pedagogik ta'limda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish metodikasi. — Qarshi: Ijtimoiy fanlar, 2022.
5. Nazarova, T. Pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlar va ularni modellashtirish. — Andijon: Pedagogika nashriyoti, 2020.
6. Matyaqubov, A. Ta'limda ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari. — Qarshi davlat universiteti ilmiy jurnali. 2023.
7. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books.
8. Abduraxmonova, K. Innovatsion ta'lim: nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari. — Toshkent: Fan va Taraqqiyot nashriyoti, 2022.
9. Jo'rayev, G'. Bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishning metodik asoslari. — Toshkent: Ilmiy-pedagogika nashriyoti, 2021.
10. Qodirova, M., & Usmonova, D. *Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti*. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.

Dilnoza QODIROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
kodirovaa.95@gmail.com



O'QUVCHILAR REFLEKSINING PEDAGOGIKADA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'limda, asosan, adabiyot darslarida o'quvchilar refleksining pedagogikada tutgan o'rni, uning ahamiyati haqida so'z boradi. Refleksiya o'quvchilarning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda ularga baho berish qobiliyatini shakllantiradi. Maqolada refleksiyaning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va uni rivojlanish usullari batafsil bayon qilingan. Refleksiya orqali o'quvchilar nafaqat adabiy asarlarni chuqur tushunib o'rganadilar, balki shaxsiy dunyoqarashlarini ham boyitadilar. Ushbu tadqiqot o'qituvchilarga adabiy ta'lim jarayonida refleksiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *pedagogika, refleksiya, adabiy ta'lim, qobiliyat, ijodiy fikrlash, shaxsiy dunyoqarash.*

Annotation: in this article, students in literature classes in schools the practical and theoretical importance of the development of reflexive companies to this day is discussed. Reflection builds students' ability to analyze and evaluate their own thoughts, feelings, and behaviors. The theoretical foundations of reflection, stages of development and methods of its development are described in detail in the article. Through reflection, students not only gain a deeper understanding of literary works, but also enrich their personal worldviews. This study serves as a guide for teachers to effectively use the possibilities of reflection in the process of literary education.

Key words: *pedagogy, reflection, literary education, ability, creative thinking, personal worldview.*

Аннотация: в данной статье учащиеся на уроках литературы в школах обсуждается практическая и теоретическая значимость развития рефлексивных компаний по сей день. Рефлексия развивает способность учащихся анализировать и оценивать свои мысли, чувства и поведение. В статье подробно описаны теоретические основы рефлексии, этапы развития и методы ее развития. Путем размышления учащиеся не только получают более глубокое понимание литературных произведений, но и обогащают свое личное мировоззрение. Данное исследование служит руководством для учителей по эффективному использованию возможностей рефлексии в процессе литературного образования.

Ключевые слова: *педагогика, рефлексия, литературное образование, способности, творческое мышление, личностное мировоззрение.*

Barchamizga ma'lumki, «Refleksiya» tushunchasi bir necha yillardan beri mavjud va bir qancha olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, rus va ingliz psixologlari tomonidan insondagi refleksiya va refleksiv qobiliyatlar tushunchalari chuqur o'rganilgan. Refleksiya – bu insonning fikrlari, his-tuyg'ulari, hatti-harakatlari va tajribasini yoki aniqroq qilib aytadigan bo'lsak o'zini anglash jarayoni. Albatta, refleksiya tushunchasi turli sohalarda turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, psixologiyada refleksiya shaxsning o'zini va boshqalarni tushunishga, o'z ichki dunyosini tahlil qilishga bo'lgan intilishidir. Falsafada esa, odamning ongli ravishda o'z tafakkurini, ongini

tahlil qilishi. Falsafiy refleksiya insonning “Men kimman?”, “Hayotning ma'nosi nima?” kabi savollarga javob izlashini bildiradi.

Psixologiyada refleksiya tushunchasi inson ongining o'z-o'zini anglash, fikr va his-tuyg'ularini tahlil qilish, o'z xatti-harakatlariga baho berish jarayonini bildiradi. Bu atama lotincha “reflectio” — qaytish, aks ettirish degan ma'noni anglatadi.

Refleksiya psixologiyada o'z-o'zini tushunish, o'z fikr yuritish uslubi va hissiyotlariga nazar tashlash, ularni tahlil qilish orqali shaxsiy rivojlanishni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Bu jarayon orqali inson o'zining ichki dunyosini anglab, o'zini va boshqalarni

chuqurroq tushunishga erishadi. Refleksiyaning asosiy turlari: shaxsiy refleksiya — bu turda inson o'z his-tuyg'ulari, ehtiyojlari, qadriyatlari va motivatsiyasini tahlil qiladi. Masalan, "Men nima uchun xafa bo'ldim?" yoki "Nega bu qarorni qabul qildim?" degan savollar shaxsiy refleksiyani uyg'otadi.

Kognitiv refleksiya — inson o'z fikrlash jarayonlarini, bilish faoliyatini (masalan, qanday qilib muammoni hal qilgani, qanday xulosa chiqargani) tahlil qiladi. Bu ayniqsa ta'lim jarayonida muhim — o'quvchi yoki talabalar o'z o'rganish strategiyalarini anglab yetadilar.

Emotsional refleksiya — bu refleksiya turi o'z his-tuyg'ularini tushunish va ularni boshqarish bilan bog'liq. Shaxs o'zining emotsional holatlarini tahlil qilib, ular sababini tushunishga harakat qiladi.

Ijtimoiy refleksiya — bu turda inson o'zini jamiyatda, guruhda qanday tutayotganini, boshqalar uni qanday qabul qilayotganini tahlil qiladi. Masalan: "Boshqalar meni qanday ko'radi?", "Jamoada qanday rol o'ynayapman?"

Metarefleksiya — bu refleksiyaning yanada chuqurroq darajasi bo'lib, refleksiya ustidan refleksiya qilish deganidir — ya'ni, inson o'zining refleksiv faoliyatini ham tahlil qiladi: "Men qanday fikrlayman?", "O'zimni qanday tahlil qilyapman?" Refleksiya o'zi bizga qanday foyda beradi degan savol ham ba'zida tug'iladi. Refleksiya bizga o'z-o'zini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, qaror qabul qilishda ongli yondashuvni kuchaytiradi, konfliktli holatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqarishga yordam beradi, o'z ustida ishlash va shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Insonda refleksiyaning paydo bo'lishi — bu psixologik jihatdan muhim va murakkab jarayon bo'lib, u inson ongining rivojlanishiga, ijtimoiy tajriba va shaxsiy anglash darajasiga bog'liq. Refleksiya bolaning tafakkuriy, emotsional va ijtimoiy jihatdan yetilishi jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi.

Biz, eng avvalo, insoniyatda refleksiya qachon va qanday holatda paydo bo'ladi? Mana shu savolga aniqlik kiritishimiz kerak.

Birinchisi, ijtimoiy tajriba natijasida: refleksiya odatda inson boshqa odamlar bilan muloqotda bo'lishi, o'zini solishtirishi, baho berilishi yoki tanqid qilinishi natijasida paydo bo'ladi. Masalan: bola maktabda o'z hatti-harakatiga o'qituvchi baho berganidan keyin: "Men nega bunday qildim?" deb o'ylab ko'rishi — bu refleksiyaning boshlanishidir.

Ikkinchidan, muammoli yoki noaniq vaziyatda: refleksiya ko'pincha inson noaniq yoki qaror qabul qilishni talab qiladigan holatlarda faollashadi. Masalan: "To'g'ri qaror qildimmi?" yoki "Boshqacha

qilganimda yaxshiroq bo'larmidi?" degan savollar refleksiyani ishga soladi.

Uchinchidan, shaxsiy inqiroz yoki kuchli emotsional holatlarda: hayotda katta o'zgarishlar, stress, ruhiy tushkunlik yoki yo'qotish kabi holatlar refleksiya jarayonini chuqurlashtiradi. Bu paytda inson o'z hayoti, qadriyatlari, his-tuyg'ulari haqida jiddiy o'ylay boshlaydi.

To'rtinchidan, o'qish va o'rganish jarayonida: pedagogik faoliyatda refleksiya juda muhim. O'quvchi o'zining nimani o'rganganini, qanday o'rganganini, nimani tushunmaganini anglay boshlaganda refleksiya shakllanadi. Masalan, savol-javob yoki topshiriqdan so'ng "Nimani yaxshi bajardim? Nimani takomillashtirishim kerak?" degan savollar orqali.

Beshinchidan, o'z-o'zini tahlil qilishga imkon berilganida: kundalik yozish, psixologik mashg'ulotlar, treninglar, savol-javoblar orqali inson refleksiyaga rag'batlantiriladi. Bu holda u o'zini anglashga, ichki holatini tushunishga harakat qiladi.

Refleksiya insonda necha yoshida qanday rivojlanishini statistika orqali bilib olsak, 3-6 yoshda — bola asta-sekin o'z harakatlarini tushunishni boshlaydi, ammo hali refleksiya chuqur emas. Maktab yoshida — bola o'z baholari, o'qituvchilarning munosabatiga nisbatan o'ylay boshlaydi, refleksiya shakllanadi. O'smirlik davrida — o'zligini anglash kuchayadi, refleksiya chuqurlashadi. Kattalikda — refleksiya ongli, murakkab shakllarda namoyon bo'ladi (masalan, hayotiy tanlovlar, qadriyatlar, maqsadlar ustida fikr yuritish).

Endi esa pedagogikaga nazar soladigan bo'lsak, ta'limda o'quvchilarda refleksiyaning rivojlanishi — bu ularning tafakkur, o'z-o'zini baholash, o'rganishga ongli yondashuvi va shaxsiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liq jarayondir. Ta'lim jarayonida refleksiya o'quvchining o'qishni qanday amalga oshirayotgani, qanday xatolarga yo'l qo'yayotgani va qanday yutuqlarga erishayotgani haqida fikr yurita olish qobiliyatidir.

Refleksiya o'quvchilarga nima uchun kerak? — o'zining o'rganish jarayonini tushunish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'z xatolarini tan olish va ulardan saboq chiqarish, faol va ongli o'quvchi bo'lish, o'zini baholash va o'z-o'zini boshqarish kabi jarayonlarda refleksiya muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarda refleksiya qanday bosqichlarda rivojlanadi?

Boshlang'ich bosqich (1-4-sinflar): refleksiya hali passiv holatda, o'qituvchi yordamida o'z faoliyatini tahlil qiladi, oddiy savollar asosida: «Bugun nimalarni o'rganding?», «Nima yoqdi?», «Nima qiyin bo'ldi?»

O'rta bosqich (5-7-sinflar): o'quvchi o'z fikrini ko'proq mustaqil bildira boshlaydi, o'z yutuqlari va kamchiliklarini ko'ra oladi, «Men buni yaxshi bajardim, chunki...», «Kelasi safar shunday qilaman...» kabi iboralar paydo bo'ladi.

Yuqori bosqich (8-11-sinflar): refleksiya chuqurroq shaklga ega bo'ladi, o'quvchi o'z o'rganish uslublarini tahlil qiladi, muayyan maqsadlar qo'yadi va ularni baholaydi, o'z his-tuyg'ulari, motivatsiyasi, qarorlariga ham baho bera oladi.

Refleksiyani rivojlantirish usullari (o'qituvchi uchun):

Reflektiv savollar berish: «Bugungi darsdan qanday saboq olding?»

«Eng qiyin vazifa qaysi bo'ldi va nima uchun?»

«Sen o'z bilimlaringni qanday baholaysan?»

«Refleksiya daftari» yoki kundalik tuttirish: har kuni yoki haftalik o'z fikrlarini yozish orqali o'quvchi o'zini anglaydi.

Dars oxirida «3 ta fikr» metodikasi:

Nima bildim? Nima qiyin bo'ldi? Nima haqida yana o'ylashim kerak?

«Yorliq» usuli: o'quvchilar o'zlariga baho beruvchi yorliqlar tanlaydi (masalan, «bilaman», «yarimta tushundim», «yana mashq qilishim kerak»).

Juftlikda va guruhda muhokama: o'quvchilar bir-birining ishiga baho beradilar, fikr almashadilar — bu ijtimoiy refleksiyani ham rag'batlantiradi.

Zamonaviy refleksiya nazariyasining zamonaviy mualliflari orasida A.V. Karpova, I.N. Smenova va S.Yu. Stepanovalar mavjudligi diqqatga sazovordir. A.V. Karpovning nuqtai nazariga ko'ra, refleksivlik psixikaning kognitiv pastki tuzilishining bir qismi bo'lgan va butun tizim uchun boshqarish funksiyasini bajaradigan meta-qobiliyat sifatida xizmat qiladi. Refleksiv jarayonlari «Uchinchi yo'nalish jarayoni» deb belgilanadi. Chunki birinchi tartibdagi jarayonlar kognitiv, hissiy, irodaviy, motivasion, ikkinchi tartib esa sintetik va boshqaruvchi. Uning ta'limotida refleksiya integratsiya darajasi bo'yicha eng yuqori

jarayondir. Bu psixika tizimining o'z chegaralaridan tashqariga chiqish usuli va mexanizmi bo'lib, bu shaxsning moslashuvchanligi va rigidligini belgilaydi. Tadqiqotchi A.V. Karpovning ta'kidlashicha, refleksiya qobiliyati — bu o'zi yoki boshqa birovning fikrlarini qurish rejasini o'zgartirish va tahlil qilish, shuningdek, rejada uning tarkibi va tuzilishini aniqlash, so'ngra ularni obyektivlashtirish, ular orqali belgilangan maqsadlarga muvofiq faoliyat yuritish qobiliyati. A.V. Karpovning refleksiya haqidagi ta'limotida: bu tushuncha bir vaqtning o'zida jarayon, xususiyat va holat bo'lgan sintetik psixik voqelik bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan u refleksiya nafaqat insonga xos xususiyat, balki psixikada o'z mazmunini takrorlash jarayoni va biror narsadan xabardorlik holati ekanligini ta'kidlaydi. Deyarli barcha mualliflarning ta'kidlashicha, agar refleksiv funksiyalar har qanday faoliyatga kiritilgan bo'lsa, u holda shaxs o'z faoliyati bilan bog'liq holda tadqiqotchiga aylanadi. O'z navbatida refleksiyaning ayrim funksiyalarini ko'rib chiqamiz. Refleksiyaning mavjudligi shaxsga ongli ravishda rejalashtirish, boshqarish va tafakkurni nazorat qilish imkonini beradi. Bu nafaqat fikrlarning haqiqatini, balki ularning mantiqiy to'g'riligini ham baholashga yordam beradi. Refleksiya sizga uni qo'llamasdan hal qilib bo'lmaydigan muammolarni yechimini topish imkonini beradi. I.N. Semenov, S.Y. Stepanov va A.V. Karpov tadqiqotlarida refleksiyaning ko'p turlari tasvirlangan. Mualliflar S.Y. Stepanov va I.N. Semenov refleksiyaning bir necha turlarini ilmiy tadqiqot sohasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar.

Keltirilgan fikrlardan ko'rinadiki, shaxs kamolotida refleksiyaning o'rni muhim hisoblanadi. Shuning bilan birga shaxsda refleksiya jarayonini rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechmasdan o'zaro bir-biri bilan bog'liq komponentlarni uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, olimlar tomonidan shaxs rivojlanishi bilan bog'liq refleksiya turlarini namoyon bo'lishi o'rtasidagi aloqadorlik masalasi diqqatga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'raev D. «O'quvchilarni o'qish orqali tarbiyalash: Refleksiya usullari.» — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
2. Qurbonova M. «Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda adabiyotning o'rni.» — Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2020.
3. Omonov B. «Pedagogik texnologiyalar va adabiy ta'lim.» — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017.
4. Левагина О. Б. Формирование рефлексии в учебном процессе: поведенческий аспект, О. Б. Левагина, Молодой ученый. 2013. № 7. С. 394-397.
5. Abduqodirov A. «Adabiy ta'limda tarbiyaviy ahamiyat: Nazariy va amaliy asoslar.» — Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
6. Xoliqov S. «Adabiyot va ta'lim metodikasi.» — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2021.

Нина ГОНЧАРОВА,
Кокандский государственный университет

ПРИРОДА РЕАЛИЗАЦИИ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МЕТАТЕКСТА В РАССКАЗАХ В. НАБОВОКОВА ПОСРЕДСТВОМ ЛИТЕРАТУРНОЙ ИГРЫ

Аннотация: в статье рассматривается метод литературной игры и механизмы ее формирования, организующие языковой, образный и сюжетно-мотивный мир его метатекстов. Раскрыта роль литературной игры в рассказах Владимира Набокова и ее связь с демонстрацией творческой свободы и исключительности писательского дара.

Ключевые слова: метатекст, интертекстуальность, творческая лаборатория, оригинальная модель, художник формы, техника литературной игры, аллюзия, мистификация, зеркальность.

Annotatsiya: maqolada adabiy o'yin uslubi va uning shakllanish mexanizmlari ko'rib chiqiladi, uning metamatnlarining lingvistik, obrazli va syujet-motiv dunyosi o'rganiladi. Vladimir Nabokovning hikoyalarida adabiy o'yinning o'rni va uning ijodiy erkinlik va yozuvchi sovg'asining ekskluzivligini namoyish qilish bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: metatekst, intertekstuallik, ijodiy laboratoriya, original maket, shakl rassomi, adabiy o'yin texnikasi, tashbeh, tasavvuf, ko'zgu.

Annotation: the article discusses the method of literary game and the mechanisms of its formation, organizing the linguistic, figurative and plot-mural world of its metatexts. The role of the literary game in the stories of Vladimir Nabokov and its connection with the demonstration of creative freedom and the exclusivity of the writer's gift were revealed.

Key words: metatext, intertextuality, creative laboratory, original model, artist, literary technique, allusion, mystification, mirror.

Владимир Набоков один из ярчайших представителей литературы русского зарубежья. Сначала он публиковался под вымышленным именем – Василий Шишков, затем под псевдонимом Владимир Сирин, а после эмиграции – под настоящим именем – Владимир Набоков. **Прославился в первую очередь как романист**, особенно благодаря таким произведениям, как «Лолита», «Ада», «Дар» и другим.

При этом, значительную часть наследия В. Набокова представляют его рассказы, которые можно рассматривать как микромоделли его романов, в которых в сжатой форме представлены основные темы, мотивы и идеи, характерные для его большого творчества: память, искусство, ностальгия, хрупкость красоты.

Набоков активно использовал различные художественные приемы, такие как ирония, игра слов, аллюзии, интертекстуальность, создавая многослойные и глубокие произведения, что позволяет исследователям находить новые аспекты и смыслы.

Малая проза В. Набокова традиционно трактуется искусствоведами как «творческая лаборатория», где рождались основные темы будущих романов писателя. В малой прозе писатель как бы ставит эксперименты, разрабатывает основные линии идеи, систему художественных приемов, рисует основные образы, после чего воплощает свои замыслы на более крупном полотне.

Но это не умаляет художественной ценности и самодостаточности рассказов, поскольку В. Набоков, безусловно, создал оригинальную модель, повлиявшую на развитие жанра рассказа/новеллы в литературе XX века.

В. Ходасевич высоко ценил творческий дар Набокова и всегда положительно отзывался о его произведениях. Он видел в Набокове прежде всего «художника формы, писательской техники». «Его произведения населены не только героями, но и бесчисленными приемами. Они выстраивают мир произведения и сами оказываются его непоправимо важными персонажами. Сирин не скрывает их, потому что одна из его главных задач – показать,

как именно техники живут и работают» [9]. В этом, говорит критик, «ключ ко всему Сирину».

Двойственность мира – один из ключевых элементов в рассказах Набокова. Во всех рассказах герой Набокова существует одновременно в двух мирах, реальном и воображаемом. Граница между этими мирами размыта, и часто воображаемый мир оказывается более важным и ценным для героя, чем реальность. Основные мотивы произведений, связанные с героем, – мотивы воспоминаний, памяти, творчества, одиночества – составляют содержание внутреннего мира, мира воображения героя и противопоставлены мотивам внешнего мира, чуждого и враждебного.

Мотив памяти играет огромную роль. Прошлое вторгается в настоящее, определяя поведение и восприятие героев. А воспоминания могут быть как источником радости и вдохновения, так и мучительным бременем. Творчество становится для героя способом бегства от реальности, способом самовыражения и поиска смысла.

Герои Набокова часто чувствуют себя одинокими и отчужденными от мира, даже находясь в окружении людей. Это одиночество усиливается их погруженностью в свой внутренний мир.

Внешний мир часто предстает как чуждый, враждебный и лишенный красоты, в то время, как внутренний мир, напротив, полон красок, переживаний и возможностей.

Набоков был известен своим виртуозным владением различными литературными приемами, экспериментами с формой и нарративными структурами. Использование литературной игры было одной из ключевых особенностей его стиля.

Литературная игра в исполнении В. Набокова – это:

- 1) метод познания: через игру он исследует природу реальности, восприятия, памяти, сознания;
- 2) способ разрушения иллюзий: Набоков намеренно нарушает «правила игры», чтобы показать условность и субъективность нашего восприятия мира;
- 3) инструмент создания многозначности: игра позволяет создавать различные уровни интерпретации, заставляя читателя активно участвовать в процессе понимания;
- 4) средство выражения иронии и сатиры: Набоков часто использует игру, чтобы высмеять определенные социальные явления, стереотипы, литературные клише.

Так, например, необычная композиция рассказа «Круг», начинающаяся словами: «Во-вторых...», «В-третьих...», «наконец...» и заканчивающаяся словами «Во-первых, потому что...», представляет мысли Иннокентия, главного героя, о причинах «страшной тревоги» в душе, как вращающийся поток, не имеющий конца.

Композиция рассказа построена на приеме ретроспекции. Иннокентий, волею судьбы оказавшийся в Париже, сидя в кафе, с чувством ностальгии вспоминает прошлые годы, детство, своего покойного отца, школьного учителя. Все воспоминания фрагментарны и связаны ассоциативной связью, они подобны кругам на воде от брошенного камня. Воспоминания о детстве, как о потерянном рае, – характерная черта творчества Набокова. Те же чувства испытывал и сам автор, находясь в ссылке.

Мотив круга, содержащийся в названии, постоянно отражается в тексте повести прямыми отсылками к слову «круг»: «из маленькой, круглой, беззубой пасти рыбы вырывался крючок»; «шел невидимый в воздухе дождь, расходившийся по воде взаимно пересекающимися кругами, среди которых то тут, то там появлялся круг иного происхождения, с внезапным центром»; «другой сон принял особый оборот, – сила ощущения как бы вывела его из круга сна». В последнем примере появляется метафора вращения.

Семантику круга поддерживает ряд лексических единиц, несущих значение чего-то округлого: «золотая монета», «золотые пуговицы», «овал лица», «окунуть кисть в ведро», «огромная луна», «раздавленная шляпа» и т.д.

Парадоксальные, на первый взгляд, развязки, в тщательной мотивировке которых можно убедиться, лишь внимательно перечитав произведение; введение «ненадежного» рассказчика, мнения и оценки которого противоречат логике изображаемых событий, тем самым создается атмосфера смысловой неопределенности и амбивалентности, позволяющая с равной степенью убедительности предлагать взаимоисключающие версии описываемой действительности. [1].

Автор не случайно построил свой рассказ по принципу кольца. Композиция раскрывает основную идею рассказа: стойкое повторение образа круга на разных смысловых уровнях – от конкретного до метафорического – рождает ощущение неизбежности, повторяемости жизненного круга.

Выявление точек зрения автора и героя позволяет восстановить хронологическую последовательность частей повествовательной структуры рассказа «Сказка». Анализ системы точек зрения позволяет выявить как минимум два варианта восстанавливаемого события в «Сказке».

В первом случае фабула совпадает с фабулой и представляет собой фантастическую историю: молодой человек однажды знакомится с госпожой Отто, чертой в женском обличье, которая обещает забрать по адресу «улица Гофмана, 13» в полное распоряжение Эрвина тех женщин, которых он будет отмечать взглядом с полудня до полуночи, при условии, что число избранниц будет нечетным. Но сделка не заключена: первой оказывается тринадцатая девушка (Здесь использован другой прием аллюзии, характерный для творчества Набокова, – авторская отсылка, в данном случае к романтическому произведению Гофмана, с его двумя мирами и героями-мечтателями. Наличие аллюзий – яркий признак литературы постмодернизма).

Экспозиция романа, содержащая психологическую точку зрения героя-мечтателя, представляет фразеологическую точку зрения автора. Композиция построена с помощью излюбленного Набоковым приема ретроспекции – событие, которое станет предметом повествования, дано в предисловии к самому рассказу: «Следует иметь в виду, что лишь однажды в жизни Эрвин подошел к женщине на улице, и эта женщина тихо сказала: «Как вам не стыдно... Уходите».

Путем сопоставления планов точек зрения в лейтмотивной фразе «Фантазия, трепет, восторг фантазии...» (повторяющейся в экспозиции и в финале романа) выявляется хронологический сдвиг частей повествовательной структуры. В обоих случаях наблюдается расхождение точек зрения: психологически это точки зрения Эрвина. Но во фразеологическом и идейном плане проявляется авторская точка зрения, указывающая на противоречивость последовательности фрагментов. В экспозиции отмечается, что герой «хорошо знает», что такое «фантазия, трепет, восторг фантазии». В финальной сцене ночной погони Эрвин еще «ничего не знает», он «только идет» и видит «того, кто... шел перед ним». Следовательно, изложение романа является не предисловием к повести, а постисторией. Финал романа отсылает к началу, ведь в понедельник, как и всегда, Эрвин будет набирать

новых пленниц в трамвае, везущем его на работу и с работы.

Сомнения рассказчика, его неадекватность, забывчивость, «маска непонимания» приводят к «расшатыванию» позиции автора. Тем не менее сложность повествовательной формы вызвана особенностями отношения автора к изображаемым событиям. [2].

В центре повести «Пассажир» – разговор, диалог писателя и критика о соотношении жизни и искусства. Герой-писатель жалуется, что «мы», т. е. художники, писатели, занимаемся тем, что «пресный плагиат жизни» «приправляется собственными выдумками», не доверяя «гению» жизни. В этом словоупотреблении писатель резко отличается от своего собеседника, уверенного в правоте художественного оформления конца рассказа, – оно отличается не только характером словоупотребления.

В доказательство своей мысли герой-писатель приводит один случай, произошедший с ним в поездке на поезде. Вся его история снабжена той же иронией по отношению к «выдумкам» и клише популярной, массовой литературы. Так, в самом начале его рассказа, когда он заснул «под легкостью узкого казенного одеяла», следует фраза: «И здесь позвольте мне воспользоваться приемом, который часто встречается в таких рассказах, какими обещает быть мой. Вот он – этот старый, известный прием: «Среди ночи я вдруг проснулся»» [8, с. 232].

Далее в своем повествовании он неоднократно будет подчеркивать, как жизненный случай свел его с соседом-пассажиром, лицо которого он не видел так ясно, как и не разгадал загадку, почему пассажир, сидевший над ним, на верхней полке вел себя совершенно неожиданно – он не спал и издавал звуки, которые становились понятнее бодрствующему герою, когда он прислушивался: «Человек на верхней койке плакал».

Когда поезд остановится, и сыщики будут искать преступника-убийцу его жены и ее любовника и проверять документы, герой-рассказчик ожидает, что этот рыдающий пассажир и будет тем, кого они ищут. Но полный тайн для писателя человек, способный стать героем будущего масштабного произведения, не оправдает ожиданий рассказчика и не будет тем, кого он ищет. Тем не менее это дает ему возможность заключить: «Но казалось, было бы здорово – с точки зрения писателя, конечно, – если бы рыдающий пассажир с недобры-

ми ногами оказался убийцей, как велики могли бы его ночные слезы». объясниться, и, главное, как здорово все это уместилось бы в рамки моего ночного путешествия, в рамки короткого рассказа. Но, видимо, замысел автора, план жизни был в этом случае, как всегда, во сто крат величественнее». [8, с. 235].

Герой-писатель здесь обижен тем, что он никогда не видел появления той, с которой ночевал в вагоне поезда, что его беспокоил такой пустяк, как нога человека в шерстяном носке, через отверстие, из которого «перед глазами торчал большой гвоздь». [3].

В лучших рассказах Набокова психологизм и реалистическое жизнеподобие уживаются с гротескным вымыслом, а пародийно-игровые элементы, лирическое восприятие жизни – с трагедией. [4]

Герой рассказа «Туча, озеро, башня» Василий Иванович, русский эмигрант, живущий в Берлине, выигрывает «увеселительное путешествие» и, не в силах отказаться от него, отправляется в путешествие по воле своего работодателя, надеясь, что «это принесет ему вдруг чудесное, трепетное счастье, что-то похожее на детство».

По дороге руководитель группы постоянно заставляет его участвовать в увеселениях и развлечениях, наполненных пошлостью и мещанским юмором. Герой изо всех сил пытается противостоять их напору, но у него не хватает для этого душевных сил. «Славная забава» заканчивается тем, что Василий Иванович доедает окурки.

Герой все больше разочаровывается и «увеселительная прогулка» становится для него невыносимой. Но в один из дней экскурсии Василий Иванович «открыл для себя то самое счастье, о котором он как-то мечтал» – чудесное место, где он хотел остаться навсегда. Он быстро решил, как выпишет свою простую собственность из Берлина и всегда будет здесь жить. Василий Иванович сообщил своим попутчикам о своем решении навсегда остаться в доме на берегу озера. Но попутчики против его воли схватили его за руки, силой потащили к вагону и, как только они сели в вагон и поезд тронулся, начали его избивать. Ему сверлят штопором ладонь и ступню, бьют самодельным кнутом (равносильно бичеванию), щекочут пятки, щипают и шлепают его.

По прибытии в Берлин, раздираемый духовно и физически, Василий Иванович отказывается от

своего поста, умоляет хозяина «отпустить его», говорит, что «он больше не может, что нет больше сил быть человеком». Как видно, данный эпизод отражает внутренний надлом героя, когда он теряет веру в себя и свою способность противостоять обстоятельствам. Автор отпускает его в неизвестность, откуда он был взят.

Герой Набокова, которому он симпатизирует, – тонкий, сложноорганизованный, духовно богатый человек в отличие от других персонажей, обычных, ничем не примечательных или вульгарных, агрессивных.

Здесь основной мотив одиночества героя в чужом ему мире реализуется через систему сложных синтаксических конструкций, изображающих духовный облик Василия Ивановича, тогда как мир его спутников-«врагов» изображается на синтаксическом уровне преимущественное употребление простых предложений с безличным и смутно личным смыслом, олицетворяющих примитивность «ненавистного, чужого, чужого». Герой словно попадает в придуманную кем-то игру, живет чужой жизнью, увлеченный хаосом исторических событий.

Повествования от первого лица характеризуются взаимоотношениями рассказчика с биографическим автором и преодолением границ, определяемых выбором формы повествования. Образ автобиографического рассказчика является смысловым центром сборника «Возвращение Чорба» («Гроза», «Письмо в Россию», «Добро», «Путеводитель по Берлину», «Ужас»). На первый план выходят мысли, чувства и чувства рассказчика. Описания внешнего мира являются способом самораскрытия героя, который является одновременно носителем сознания и субъектом изображения. Герой ранних рассказов – своего рода художественный «двойник» молодого писателя. При создании образа рассказчика вымысел переплетается с фактами реальной жизни. Таким образом, граница, разделяющая внутритекстовое и внетекстовое пространство, становится неустойчивой, проницаемой. [4]

Нереальность восприятия жизни очень ярко изображена с помощью контрастных приемов. Герои рассказов Набокова не могут быть счастливы в реальном жизненном пространстве и лишь в воображаемом, внутреннем мире примиряются с собой. Оба мира по отношению друг к другу иллюзорны для Набокова.

Точно так же и торговец бабочками Пильграм, герой одноименного рассказа, умирает за свою жену, за своих покупателей, за весь мир – в тот момент, когда он наконец отправляется в Испанию – страну, не совпадающую с реальной Испанией, потому что она была создана его мечтой. Интерьер дома Пильграма во многом отражает его внутренний мир. «Выцветшие фотографии того же корабля», висящие над кроватью героя, свидетельствуют о том, что он путешествует во сне в воображаемый мир грез.

Основным литературным приемом В. Набокова здесь является прием зеркального отражения. Зеркало как отражение другой реальности в которой живет персонаж. Слово «пильграм» принимает искаженную форму, скрытую ассоциативно-смысловым фоном, иными словами, суррогат кривого зеркала, тогда как ясность действительного образа умалчивает об истинной версии – странник, путник, странник, паломник, богомол. Имя героя Набоков шифрует уже в заголовке рассказа с помощью игровой перестановки слогов, как сознательную творческую дисграфию, однако автор делает это с определенной целью: создать образ и раскрыть смысл произведения, определенные события сюжета,

которые определяют дальнейшие действия и поступки героев.

Бабочка в поэтике Набокова – символ хрупкости потерянного рая, призрачности смерти. Бабочка – попытка Набокова постичь мир, его бесконечность, неузнаваемость, многогранность и универсальность. Бабочка также символизирует метаморфозы, происходящие с человеком или его душой на протяжении всей его жизни.

Метод Набокова – это мистификация, игра, воображаемые галлюцинации, словесные кроссворды. Набоков – писатель-интеллектуал, ставящий превыше всего игру воображения, разума и фантазии. [7]. Он не боится экспериментировать с формой и содержанием, создавать сложные и многослойные тексты, которые требуют от читателя интеллектуальных усилий. В целом, метод Набокова можно охарактеризовать как интеллектуальную провокацию. Поэтому, читая произведения Набокова, надо быть готовым к разного рода неожиданностям: как к тому, что «загадки» произведения имеют не одну, а две-три отгадки, так и к тому, что сами тексты как будто сопротивляются интерпретации. [6]. Литературная игра в произведениях Набокова является ключевым инструментом для реализации возможностей метатекста.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Анастасьев Н. А. Феномен Набокова. – М., 1992.
2. Дарк О. Тайна Сирина. // Вопросы литературы. 1990. № 3. С. 243-257.
3. Имixelова С. С., Пурбуева И. Б. Особенности повествования в рассказах В. Набокова о художниках.
4. Классика без ретуши. Литературный мир о творчестве Владимира Набокова. Критические рецензии, эссе, пародии / Под общей редакцией Н. Г. Мельникова. Сост., подготовка текстов Н. Г. Мельникова, О. А. Коростелевой. – М.: Новое литературное обозрение, 2000. – с. 50
5. Красова И. В. Жанр рассказа в творчестве В. Набокова // Жанры в историко-литературном процессе: Сборник научных статей. СПб., 2000. С. 151–166.
6. Кутузов А.Г., Киселев А.К., Романичева Е.С. и др. В мире литературы. 11 класс. – 3-е изд. – М.: Дрофа, 2004.
7. Михайлов О.Н. Литература русского зарубежья. Писатели молодого поколения. В.В. Набоков // Литература в школе. – № 3. – 1991.
8. Набоков В. В. Полное собрание рассказов / сост. А. Бабилов; 3-е изд., перераб. – Санкт-Петербург: Азбука-Аттикус, 2015 - 752 с.
9. Владислав Ходасевич. О Сирине. – М., 1999.

BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARNING ANGLASH, TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA GERMENEVTIK TA'LIMOTIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun anglash va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda hermenevtik ta'limotning pedagogik va psixologik imkoniyatlari atroflicha yoritilgan. Hermenevtika – bu tushunish va talqin asosidagi ta'lim metodologiyasi sifatida, talabalarni o'qitish jarayonida ularning mustaqil fikrlashini, tinglab tushunish orqali mazmunni anglashini faollashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, anglash, tinglab tushunish, hermenevtik ta'limot, psixologik imkoniyatlar, pedagogik metodlar, talqin, interpretatsiya, semantik idrok, muloqot, talaba faolligi, zamonaviy ta'lim.

Абстрактный: в статье всесторонне рассматривается педагогический и психологический потенциал герменевтического обучения в развитии навыков понимания и аудирования у учащихся начальной школы. Гермenevtika как образовательная методика, основанная на понимании и интерпретации, играет важную роль в процессе обучения студентов, активизируя их самостоятельное мышление и понимание содержания посредством слушания и понимания.

Ключевые слова: начальное образование, понимание, аудирование, герменевтическое обучение, психологические возможности, педагогические методы, интерпретация, смысловое восприятие, коммуникация, активность учащихся, современное образование.

Annotation: this article provides a detailed description of the pedagogical and psychological potential of hermeneutic teaching in developing comprehension and listening comprehension skills for students studying in primary education. Hermeneutics, as an educational methodology based on understanding and interpretation, plays an important role in activating students' independent thinking and comprehension of content through listening comprehension in the process of teaching.

Key words: primary education, comprehension, listening comprehension, hermeneutic teaching, psychological potential, pedagogical methods, interpretation, semantic perception, communication, student activity, modern education.

Asosiy qism. Zamonaviy pedagogika inson ongini faollashtirish, tanqidiy va reflektiv tafakkurini shakllantirishga asoslangan. Shu bois, an'anaviy bilim berishdan ko'ra, o'quvchining anglash, tushunish va talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar aynan shu yo'nalishda bilim beruvchi mutaxassis sifatida tayyorlanayotgani sababli, ular o'zlari anglash va tushunish jarayonini puxta egallagan, uni boshqalarda ham shakllantira oladigan darajaga yetishlari lozim. Hermenevtik yondashuv bu jarayonda asosiy metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Zero, u

bilimni o'rgatish emas, balki uni anglash, o'zlashtirish va mazmunli talqin qilish orqali shaxsiylashtirishga asoslanadi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim – bu bilim va tajribaning talabaning o'ziga mos, kontekstli, shaxsiy qabul qilinadigan shaklda qayta ishlab chiqilishidir. Bunda anglash – faqat so'zlarni tushunish emas, balki ularning ma'no va mazmunini individual kontekstda ochish demakdir.

Hermenevtik yondashuvda tinglab tushunish o'qishdan ham muhimroq jarayon sifatida qaraladi. Chunki har bir so'z, nutq, ohang, tana harakati, kontekst va muhit talabaning anglash darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim

yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar nafaqat o'zlari uchun, balki kelajakdagi o'quvchilari uchun ham bu jarayonni anglab yetishlari zarur. Buning uchun esa, ular germenevtik tafakkur doirasida treninglar, dars mashg'ulotlari, muhokama va interpretatsiya faoliyatlari orqali o'rgatilishi kerak. Germenevtika qadimdan inson tafakkuri, tushunishi va talqin etish qobiliyatining markazida bo'lgan nazariy oqimdir. Uning ilk ildizlari qadimgi yunon falsafasigacha borib taqaladi. "Germenevtika" atamasi qadimgi yunonlarning "hermeneuein" – "tushuntirmoq", "talqin qilmoq", "izohlamok" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u o'z navbatida yunon mifologiyasidagi xabar yetkazuvchi xudo — Hermes nomi bilan bog'liq. Dastlab bu ta'limot diniy matnlarni, ayniqsa Injilni talqin qilishga xizmat qilgan. Antik davrda Platon va Aristotel fikrlarida, keyinchalik esa Origen, Avgustin va Tomas Akvinskiy asarlarida talqin, anglash, mazmunni ochib berish masalalari germenevtik yondashuvlar orqali tahlil qilingan. Germenevtika ilmiy oqim sifatida Yevropa falsafasida XVII–XVIII asrlarda shakllana boshladi. Ayniqsa, bu yondashuv diniy va huquqiy matnlarni tushunishga ehtiyoj ortgani sababli rivojlandi. Ilk ilmiy asoslangan germenevtik qarashlar klassik nemis falsafasi doirasida paydo bo'ldi. Friedrich Schleiermacher (1768–1834) germenevtikani alohida mustaqil ilmiy metodologiya sifatida shakllantirgan birinchi mutafakkir hisoblanadi. U anglashni matn muallifining ichki dunyosiga kirib borish, uning ruhiy holatini tushunish deb talqin qilgan. Shu bilan birga, u matnni ikki tomonlama — grammatik va psixologik yondashuv orqali anglashni ilgari surdi.

XIX asrda Hans-Georg Gadamer germenevtikani yanada rivojlantirib, uni ontologik darajaga olib chiqdi. Uning "Haqiqat va usul" (Wahrheit und Methode) asarida germenevtika faqatgina matnni anglash metodi emas, balki inson mavjudotining asosiy bo'lagi — ya'ni, mavjudotni tushunish holati sifatida qaraldi. Gadamer fikricha, inson dunyoni o'zi bilgan tafakkur doirasida, o'z tajribasi orqali anglaydi va har qanday matn, voqelik yoki til ham shu anglash jarayoniga bog'liqdir. Shu sababli, har qanday talqin muayyan tarixiy va madaniy kontekstda yuz beradi. Bugungi kunda germenevtik ta'limotning dolzarbligi shundaki, u ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlarda — tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika, dinshunoslik, madaniyatshunoslik va hatto huquqshunoslikda keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, pedagogika fanida bu yondashuv o'quvchi yoki talabani passiv bilim oluvchidan faol tushunuvchi va anglovchi subyektga aylantirishda muhim metodik asosga aylanmoqda. Ta'limda faqatgina

ma'lumot yetkazish emas, balki uni chuqur anglash, o'z tajribasi bilan bog'lash, talqin qilish va qayta mazmunlash jarayoni taqozo etiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, germenevtik yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillari — shaxsga yo'naltirilganlik, kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash va reflektivlik bilan bevosita bog'liqdir.

Germenevtika shaxsning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, unga bilimni o'ziga xos tarzda talqin qilish imkonini beradi, o'qituvchining aytganlarini so'zsiz qabul qilishdan ko'ra, unga savol berish, tahlil qilish, shubha qilish, yangicha yondashuvni shakllantirishga undaydi. Ayniqsa, bugungi informatsion jamiyat sharoitida har bir matnni, xabarni, axborotni ongli anglash, uni tanqidiy fikrlash asosida tushunish zarurati ortib bormoqda. Bu esa germenevtik yondashuvni nafaqat dolzarb, balki zarur ta'lim metodikasiga aylantirmoqda. Bundan tashqari, germenevtik yondashuv pedagogik psixologiyada ham katta ahamiyatga ega. O'quvchi yoki talabani anglash, uning ichki dunyosi, motivatsiyasi, shaxsiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va psixologik holatini hisobga olgan holda o'qitish samaradorligini oshiradi. Bu uslubda dars jarayoni ko'proq muloqotga asoslanadi — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bir yoqlama emas, balki o'zaro anglashuv va fikr almashinuvi orqali bilim hosil qilinadi. Natijada bilimlar sun'iy ravishda yodlash emas, balki shaxsiy anglash va ichki talqin asosida o'zlashtiriladi. Germenevtik ta'limot o'zining boy tarixiy ildizlari, keng qo'llanilishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati bilan pedagogik-psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishiga aylangan. U o'quvchi va talabaning shaxsiy individualligini hisobga olgan holda, bilim olish va uni anglash jarayonini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ushbu ta'limot nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy-pedagogik nuqtayi nazardan ham nihoyatda muhim va dolzarb sanaladi.

Shuningdek, germenevtik yondashuvning amaliy metodlari talabaning o'zaro muloqotdagi ishtirokini kuchaytiradi. Masalan, darsda talabalarga biror matn berilib, uni anglab tushunish, savollar yaratish, taxmin qilish, parallel matnlar bilan solishtirish, o'z hayoti yoki voqealar bilan bog'lash, so'z va gaplarga yangi talqin berish kabi faoliyatlar orqali chuqur anglash hosil qilinadi. Bunday yondashuv orqali talabalar o'z fikrini aniq va asosli tarzda ifodalashga o'rganadi. Psixologik jihatdan olib qaralganda, germenevtik yondashuv o'z-o'zini tushunish (introspektiv anglash), boshqalarni tushunish (empatiya asosida) va muloqot orqali anglash (interaktiv germenevtika) bosqichlarini qamrab oladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik

faoliyatda eng muhim ko'nikmalardan biri – pedagogik empatiya, pedagogik refleksiya va faol eshitish qobiliyatini shakllantiradi.

XXI asr ta'lim jarayoni zamonaviy pedagogik konsepsiyalarga asoslangan holda yangicha fikrlovchi, tahlil qiluvchi, anglash va tushunish kompetensiyalariga ega shaxsni shakllantirishga qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning anglash, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi nafaqat amaliy, balki chuqur nazariy tadqiqotni ham talab etadi. Zero, pedagogik jarayonda talabada eshitilgan yoki o'qilgan matn mazmunini chuqur anglash, unga mustaqil tahliliy yondashuv bildirib olish, kontekstual tafakkurni shakllantirish hozirgi kunda asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur holatda, hermenevtika — ya'ni anglash va talqin qilish san'ati — bugungi ta'lim jarayonida yangicha metodik yondashuv sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Hermenevtik ta'limot asosan matnni o'rganish, anglash va talqin qilishda shaxsiy tajriba, madaniy kontekst, ichki tafakkur jarayonlariga tayanadi. Bu yondashuvda o'quvchining (talabaning) o'ziga xosligi, individual psixologik holati va avvalgi bilimlari asosiy mezon sifatida qaraladi.


Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar kelajakda boshlang'ich sinf o'qituvchisi

bo'lishi munosabati bilan ularning anglash va tinglab tushunish ko'nikmalari mukammal shakllanishi zarur. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda hermenevtik yondashuvning afzalliklari shundaki, u nafaqat akademik bilimni, balki muloqot, tanqidiy fikrlash, kontekstni tushunish va madaniyatlararo tafakkurni ham rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda matnni tushuntirish, har bir so'zning semantik yukini aniqlash, ichki ma'no qatlamlarini ochish o'qituvchidan yuqori darajadagi hermenevtik tayyorgarlikni talab etadi.



Xulosa. Hermenevtik yondashuv boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining anglash va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda eng zamonaviy va samarali metodlardan biridir. Bu yondashuv orqali talaba bilim oluvchidan bilim yaratuvchiga, matnni o'quvchidan matnni talqin qiluvchi, tushunuvchi va shaxsiylashtiruvchi shaxsga aylanishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, uni kelajakdagi raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi, empatik va kommunikativ o'qituvchiga aylantirishda katta poydevor bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun anglash va tinglab tushunish ko'nikmalarining shakllanishi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. "Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar". – Toshkent: Fan, 2019. 43–46-betlar.
2. Amonov M. "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari". – Samarqand: IQTISOD-MOLIYA, 2020. 91–95-betlar.
3. Gadamer X.G. "Haqiqat va usul". Hermenevtika asoslari. – Moskva: Akademicheskii proyekt, 2018. 133–140-betlar.
4. Shomirzayev M. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi asoslari". – Toshkent: Innovatsiya, 2023. 33–38-betlar.
5. Xoshimova N. "Hermenevtik yondashuvning lingvistik asoslari". – Samarqand, 2021. 91–96-b.
6. Bobojonova G. "Boshlang'ich ta'lim psixologiyasi". – Qarshi: Nasaf, 2023. 45–52-b.
7. Krotkov D. "Hermenevtik metodlar va ta'lim". – Moskva, 2017. 100–105-b.
8. To'xtasinov A. "Talabaning anglash qobiliyatini rivojlantirishda interaktiv yondashuvlar". – Farg'ona, 2023. 62–68-b.
9. Turakulov M. "Fikrlash madaniyatini rivojlantirishda matn asosida ishlash". – Toshkent, 2021. 50–54-b.



KICHIK TADQIQOT



Zilola JO'RAYEVA,
 Qarshi davlat universiteti Yangi o'zbek adabiyoti va
 adabiyot nazariyasi kafedrasida magistranti



ALISHER NAVOIY “NAVODIR USH-SHABOB” ASARIDA TALMEH SAN'ATI (Nuh timsoli misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy merosining muhim qismi bo'lgan “Navodir ush-shabob” asaridagi badiiy san'atlardan biri — talmeh san'ati Nuh misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Nuh, talmeh, to'fon, may, ishq, tasavvuf, ramz.*

Аннотация: в этой статье рассматривается важная часть наследия Алишера Навоия — художественное искусство талмех в произведении «Наводир ush-shabob», где оно раскрывается на примере Нуха.

Ключевые слова: *Нух, талмех, потоп, вино, любовь, суфизм, символ.*

Annotation : this article examines the art of talmeh, one of the artistic forms in the work “Navodir ush-shabob”, which is an important part of Alisher Navoi's legacy, using the example of Noah.

Key words: *Noah, talmeh, flood, wine, love, sufism, symbol.*

Mumtoz adabiyotimizda badiiyat doimo diqqat markazida bo'lgan. Ijodkor, asosan, ifoda uslubi orqali baholangan. She'riy san'atlar esa asarning ta'sirchanligi, obrazlarning yorqinligi va ifoda jozibasini ta'minlagan. Asar badiiy qiymati ko'tarilgan g'oyalar hamda badiiy san'atlarning boyligi bilan o'lgangan. Har bir buyuk ijodkor eskilikni yangilash va yangicha obrazlar yaratish orqali o'z salohiyatini namoyon etgan. Shu ma'noda Alisher Navoiy ijodi badiiy adabiyot tarixida betakror hodisa sanaladi. She'riy san'atlardan biri talmehga to'xtalib o'tsak:

Talmeh — arab tilida “chaqmoq chaqishi” ma'nosini anglatadi. Mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan bo'lib, ma'naviy san'at hisoblanadi.

“Talmeh shuki, so'zlovchi (ya'ni yozuvchi, bayon qiluvchi) nazm yoki nasrda o'z matlabining isboti uchun mashhur qissaga, oyatga, hadisga, ma'lum masalga yoki shunga o'xshash narsalarga ishora qiladi. She'rda ba'zi ilmiy istilohlarni ishlatishni ham san'at doirasiga kiritganlar. Shu bilan birga, «Al-mu'jam»dagi talmeh ta'rifida san'atkorning ishoradan foydalanish maqsadi va bu maqsadga erishishning vositalari ham ko'rsatilgan. Demak, talmeh shoirga bir ishora orqali chuqur ma'noni ifodalash imkonini beradi. Bu san'at istiora, tashbih kabi usullardan farq qiladi, chunki ijodkorga tarixiy yoki afsonaviy voqealar, masallar, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilish, shu yo'l bilan fikrini muxtasar va kuchli ifodalash imkonini yaratadi” [5:69].

Talmehda ko'pincha mashhur adabiy, tarixiy, diniy yoki mifologik qahramonlarga ishora qilinadi. Alisher

Navoiy “Navodir ush-shabob “ asarida 27 ta Qur'oni karimdagi, 9 ta “Shohnoma”dagi va 15 ta tarixiy shaxsga oid ishoralar uchraydi. Masalan, Navoiy quyidagi bayt bilan Nuh qissasiga ishora qilmoqda.

Har necha to'fonni isyonin chekar gardunga mavj,
 Kimsaga Nuh o'lsa kashtiybon ne g'am to'fon aro.
 “Navodir ush-shabob “5-g'azal .

Ushbu baytni sharhlaymiz:

Qanchadan-qancha to'fonlar osmon sari isyon bilan ko'tariladi, to'lqinlar ularni yuqoriga ko'taradi. Agar kimningdir kemasida Nuh bo'lsa, u kishiga to'fondan qanday g'am bo'ladi?

Agar odam Nuh kabi najot beruvchi yo'l boshchiga ega bo'lsa, to'fondan ham qo'rqmaydi. Bayt chuqur ramziy ma'noga ega — agar banda Allohning do'stlariga, haqiqiy yo'l ko'rsatuvchilarga (Nuh timsolida) ergashsa, eng og'ir holatda ham najot topadi.

Bu yerda Nuh — najot va hidoyat timsoli. Kashtiybon — kemani boshqaruvchi (ya'ni yo'l ko'rsatuvchi). To'fon esa — hayotdagi og'ir sinovlar.

Nuh alayhissalom qissasi faqat islomda emas, balki boshqa dinlarda ham mavjud. Nuhning qavmiga yuborilgan ilohiy xabar, tavhid (Yagona Xudoga ishonish) tushunchasini mustahkamlashga qaratilgan. U xalqini uzoq yillar davomida sabr bilan isloh qilishga harakat qilgan, ammo oz sonli kishilar iymon keltirishgan.

Qur'oni karimda Nuh alayhissalomning 950 yil davomida qavmiga da'vat qilgani bayon etilgan

(Ankabut surasi, 14-oyat).U butlarga sig'inish, axloqsizlik va zulm bilan mashg'ul bo'lgan qavmini to'g'ri yo'lga chaqirdi.Biroq qavmi unga quloq solmadi.Alloh taolo Nuhga kema yasashni buyurdi. Nuh alayhissalom kemani imonli kishilar bilan to'ldirdi.Allohning jazosi sifatida yer va osmonga suv buyurildi va katta to'fon yuz berdi.Nuh alayhissalom kemasi faqat mo'minlarni saqlab qoldi.Nuhning hatto o'z o'g'li kuforda halok bo'lgan (Hud surasi, 42–43-oyatlar).

“Biz Nuhni o'z qavmiga payg'ambar qilib yubordik. U ularga: ‘Ey qavmim, Allohga ibodat qilinglar, unda sizning boshqa ilohingiz yo'qdir. Men siz uchun dahshatli kunning azobidan qo'rquvdamankim, agar iymon keltirmasangiz” (Al-A'raf surasi, 59-oyat).

Islom tafsirida to'fon — faqatgina tabiiy bir voqea emas, balki bu voqea orqali ilohiy hukmning amalga oshirilishi sifatida qaraladi.

Yo'qki, may kashtiysi g'am to'fonidin aylar xalos
Kim, topar andin kishi bir qatra ichsa umri Nuh.
Navodir ush-shabob 106-g'azal.

Birinchi misra may va uning botiniy ramzi bilan bog'liq.May, tasavvufda, ilohiy ishq timsolidir. “G'am to'fonidin” iborasi esa odamning dunyoviy qayg'ularidan, ichki iztiroblaridan ozod bo'lishini bildiradi.Bu yerda may, ruhning ichki azoblardan xalos bo'lishi va Xudoning huzuriga erishish jarayoni sifatida talqin qilinishi mumkin.

Ikkinchi misrada may ichish orqali “Nuh”ning umriga o'xshash uzoq umr ko'rishini ta'kidlaydi. Nuh alayhissalom 950 yil yashaganlar.

Bu yerda may ichish, tasavvufda Allohga bo'lgan ilohiy ishqni, ruhiy poklanish va Allohning haqiqatini anglashni anglatadi.Bir qatra may, Allohga bo'lgan muhabbatni ifodalaydi.

Olti oyliq Nuh to'fonicha buzg'ay dahrni,
Olti kun qolsa ko'zum yoshi bu tug'yoni bila,
“Navodir ush- shabob “563-g'azal.

Bu yerda shoir o'z ko'z yoshlarini Nuh (a.s.) davridagi olti oy davom etgan to'fon bilan qiyoslaydi. Shoirning nazarida, agar uning ko'z yoshi yana olti kun to'xtamasdan oqsa, u butun dunyoni vayron

qilishi mumkin.Bu mubolag'a oshiqning ichki iztirobini, ruhiy to'fonini nihoyatda kuchli tarzda ifodalaydi.

“Tug'yon” — bu yerda toshqin, g'azab, kuchli holat degani.Ya'ni, ichki ko'ngil toshqini shunchalik kuchliki, u butun olamni vayron qilishi mumkin.

“Olti oyliq Nuh to'foni” — Qur'on va tafsirlarga ko'ra, olamni qamrab olgan ilohiy g'azab timsoli. Shoirning ko'z yoshi esa — bu ilohiy to'fon darajasida kuchli va vayronkor. “Olti kun qolsa” — agar ushbu iztirob yana biroz davom etsa, u koinot darajasidagi falokatga aylanadi.

Navoiy Qur'ondagi “Nuh” a.s. haqidagi oyatni oddiygina qilib qog'ozga tushirmasdan uni san'at darajasiga olib chiqa olgan.

“Badoyi' us-sanoyi”da talmehga shunday ta'rif berilgan: “Kalom mazmunida mashhur bo'lgan biror qissa yo she'r yoki masalga ishorat qilishdan iboratdir.” “Izoh” va “Tabyon” mualliflari masalga ishorat qilishni talmehga kiritmaydilar. Va Alloma Sheroziy deydi, ayrim olimlar masalning ayrim so'zlarini kalomda bayon etishni “iqtibos” va masalni o'zgartirishsiz to'liq keltirishni “tazmin” deyilar.

Alisher Navoiy o'z g'azal va baytlarida talmeh san'atidan mohirlik bilan foydalangan. Shoir talmeh yordamida aniq bir fikr yoki g'oyani yoritishga intilgan. Talmehdan turfa yo'sinda foydalanish esa Navoiyning badiiy tafakkuri va iste'dodining yorqin namunasidir.

Biz ushbu maqolada faqat ayrim baytlar misolida talmeh san'ati qo'llanishini tahlil qildik. Aslida esa, Navoiyning har bir baytida ko'plab badiiy san'atlar mujassam bo'lib, har bir satrida chuqur ma'nolar va nozik tuyg'ular yashiringan.Har bir misra xuddi nafis bir san'at asari kabi ohangdorlik va beqiyos mahorat bilan bitilgan.Uning asarlari zamonlar osha qadriyatini asrab kelayotgan adabiy durdona sifatida qadrlanadi.

Shu bois, Navoiy merosi abadiy yashaydi. Shoir o'zining boy ma'no qatlamiga ega she'riyati bilan o'zbek adabiyotining rivojiga mazmun va shakl jihatidan chuqur ta'sir ko'rsatdi.Uning asarlari bugungi kunda ham adabiyotimiz tarixining sharaflari sahifalaridan biri sifatida avlodlarga o'rnak va mahorat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy “ Navodir ush-shabob”—Toshkent: Fan nashriyoti, 1989
2. Atoulla Husayniy “Badoye us-sanoye”: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti ,1981;
3. Payg'ambarlar qissasi, Muhammad Sayyid Tantoviy.
4. Qur'oni Karim
- 5.Yoqubjon Is'hoqov “ So'z san'ati so'zligi”.—Toshkent: “ Zarqalam”, 2006

Anora ERGASHOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti.



ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING ASAR QAHRAMONLARINI BAHOLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu metodik tadqiqot adabiyot darslarida o'quvchilarning asar qahramonlarini baholash ko'nikmasini rivojlantirish metodlarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda tahliliy tafakkurni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va adabiy obrazlarni chuqur anglashga yo'naltirilgan samarali metodlar yoritilgan. Qahramonlarni baholash jarayonida tahliliy savollar, taqqoslash, munozara, rol o'ynash, ijodiy topshiriqlar va grafik vositalardan foydalanishning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *adabiyot, qissa, baholash, tanqid, tafakkur, badiiy asar qahramoni, qobiliyat.*

Аннотация: в данной статье посвящено изучению приемов формирования у учащихся умений оценивать персонажей произведений на уроках литературы. Освещены эффективные методы, направленные на формирование аналитического мышления, развитие критического мышления, углубление понимания литературных образов. Подчеркивается важность использования аналитических вопросов, сравнений, дискуссий, ролевых игр, творческих заданий и графических средств в процессе оценки персонажей.

Ключевые слова: *литература, повесть, оценка, критика, размышления, герой художественного произведения, способность.*

Annotation: this article is devoted to the study of methods for developing students' skills to evaluate characters in literature lessons. Effective methods aimed at developing analytical thinking, critical thinking, and deepening the understanding of literary images are highlighted. The importance of using analytical questions, comparisons, discussions, role-playing games, creative tasks, and graphic tools in the process of character evaluation is emphasized.

Key words: *literature, story, evaluation, criticism, reflections, hero of a work of art, ability.*

Adabiyot ta'limida o'quvchilarning tahliliy fikrlash va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Asar qahramonlarini baholash esa o'quvchilarning matnni chuqur anglash, tahlil qilish va o'z nuqtayi nazarini asoslash qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarning asar qahramonlarini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi haqida so'z yuritiladi. O'quvchilar asar qahramonlarini baholash jarayonida tanqidiy fikrlash, o'z fikrini mantiqiy asoslash, qiyosiy tahlil qilish, baholash mezonlarini shakllantirish va ijodiy hamda mustaqil fikrlash kabi qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu ko'nikmalar nafaqat adabiyot darslari, balki hayotiy vaziyatlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning baholash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalanish mumkin. Bunday metodlar orasida aqliy hujum metodi, qiyosiy tahlil, Venn diagrammalari va grafik metodlar, rolli o'yinlar va ijodiy muhokamalar,

mustaqil fikrlash mezonlari orqali ishlash kabi yondashuvlar mavjud.

Mustaqil o'rgatish metodikasi. Badiiy asar tahlili jarayonida o'quvchilar qahramonlarni baholash orqali tanqidiy tafakkurlarini shakllantira boshlaydilar. Tanqidiy tafakkur insonning mustaqil fikrlash qobiliyatini anglatib, turli ma'lumotlar asosida rivojlanadi. Ushbu tafakkur yo'nalishida muayyan masalalarga ishonchli ma'lumotlar asosida mustaqil yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu pedagogik jarayonning o'ziga xos jihati shundaki, o'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtirokini aniq va obyektiv maqsadlarga asoslangan holda mustaqil ravishda rejalashtiradilar¹. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga yo'naltirgan darslar an'anaviy darslardan tubdan farq qiladi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilar o'qituvchining

¹ Q. Husanboyeva, R. Niyoymetova. Adabiyot o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – T.: «Shifoat Nur Fayz». 2020. 352-b.

ko'rsatmalarini bajaruvchi passiv obyekt emas, balki dars jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadilar. Ular o'z oldilariga qo'yilgan murakkab masala, savol va topshiriqlar ustida chuqur mulohaza yuritadilar, izlanadilar, badiiy matnga qayta-qayta murojaat qilib, qahramonlarni turli rakurslardan tahlil qiladilar. Shu bilan birga, ular bir-birlari bilan fikr almashib, badiiy asarning mohiyatini teranroq anglashga harakat qiladilar. Natijada o'quvchilarda badiiy matnga nisbatan ijodiy va mustaqil yondashuv shakllanadi. "Adabiyot" darsliklarida keltirilgan yozuvchi va shoirlarning tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarga asar qahramonlarini chuqurroq baholashga yordam beradi. Ayniqsa, o'qituvchining darsliklarga kiritilmagan, adiblarning shaxsiy hayoti va turmush tarzi bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumotlari dars jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar muallif haqida qanchalik ko'p bilsalar, uning yaratgan obrazlarini ham shunchalik chuqurroq anglaydilar². Muallifning insonni tushunishga bo'lgan intilishi va o'z asarlari orqali ilgari surgan fikrlari o'quvchini tafakkurga undaydi va uni to'laqonli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning o'zlarida paydo bo'lgan savollarini tinglash, asar qahramonlari va voqealar haqidagi fikr-mulohazalariga e'tibor berish muhimdir. O'quvchining asarni tahlil qilish jarayonida mustaqil xulosa chiqara olishi, voqealar rivojini to'g'ri baholashi va badiiy asarning psixologik qatlamlarini his qila olishi uning adabiy-badiiy tafakkurini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

"Rolli o'yin" metodi. Adabiyot darslarida o'quvchilarning asar qahramonlarini tahlil qilish va baholash ko'nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda "Rolli o'yin" metodi samarali usullardan biri bo'lib, u o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, ularning dars jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. "Rolli o'yin" metodining mohiyati shundaki, o'quvchilar asar qahramonlari roliga kirib, ularning qarorlarini, harakatlarini tahlil qilishadi va muayyan vaziyatlarga o'z munosabatlarini bildirishadi. Ushbu metod o'quvchilarni dars jarayonida jonli muloqotga undaydi, ularning nutq faolligini oshiradi va asarga ijodiy yondashish imkonini beradi. "Rolli o'yin" metodini amalga oshirish uch bosqichda olib boriladi. Tayyorlov bosqichida o'qituvchi dars mavzusini aniqlaydi, metodning maqsadini tushuntiradi va asar qahramonlarini o'rganishga yo'naltiradi.

O'quvchilarga qahramonlarning xususiyatlari haqida tushuncha beriladi va ular rollarga ajratiladi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'z rollariga mos tayyorgarlik

ko'rishadi. Asosiy bosqichda o'quvchilar o'zlariga berilgan rollarni jonlantirib, qahramonlar nomidan gapirishadi. Bu jarayonda ular qahramonlarning xatti-harakatlarini tushunib, o'z fikrlarini asoslab berishadi. O'yin davomida bahs-munozaralar tashkil etilib, o'quvchilar qahramonlarning harakatlariga turli nuqtayi nazardan baho berishadi. Shuningdek, asarning muayyan sahnalari sahnalashtirilishi yoki muqobil voqealar rivoji tasvirlanishi mumkin. Tahlil va xulosa chiqarish bosqichida o'quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berib, o'z fikrlarini bildirishadi. Qahramonlarning fazilatlari, kamchiliklari va motivlari muhokama qilinadi. Shuningdek, o'quvchilar asarning umumiy mazmuni va asosiy g'oyasi haqida xulosa chiqarib, uning hayotiy ahamiyatini baholaydilar. Masalan, "Oftob chiqdi olamga" asarida ushbu metoddan foydalangan holda o'quvchilar bosh qahramonning ichki kechinmalarini tahlil qilishi mumkin. Ular qahramonning jamiyat bilan munosabatlarini jonlantirib, o'z qarorlarini asoslaydilar.

Aqliy hujum metodi. Yaqin yillarda chiqarilgan adabiyot darsliklarida badiiy asarlarning boshlanishida o'quvchilarga munosabat bildirish uchun savollar berish an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. Bunday savollar asar sarlavhasiga oid bo'lib, o'quvchilarni mutolaa qilmasdan oldin o'z fikrlarini bildirishga undaydi. Masalan, "Dunyoning ishlari" qissasidan o'qiladigan "Eng og'ir gunoh" hikoyasida o'quvchiga quyidagi savollar beriladi: "Eng og'ir gunoh" jumlasini eshitganingizda xayolingizdan nimalar o'tdi? Nima uchun hikoya "Eng og'ir gunoh" deb atalgan bo'lishi mumkin? Yozuvchi qanday gunoh haqida hikoya qiladi deb o'ylaysiz? Bunday savollar o'quvchilarda o'quv asarini oldindan idrok qilish, fikrlarini shakllantirish va mustahkamlashga yordam beradi. Bu yondashuv o'quvchilarning badiiy matnni chuqurroq anglashiga, asar voqealarini to'g'ri tushunishga va tahlil qilishga yordam beradi. Yaratilayotgan darsliklarda savollarni matnni o'qishdan oldin berish, o'quvchilarni faol ravishda fikrlashga undaydi va ular asarni o'qishga tayyor bo'lgan holda kirishadilar. Oldingi darsliklarda esa savollar asar mutolaa qilingandan keyin berilardi, bu esa o'quvchida uzilish va davom etadigan darslarni yaxshilash zaruriyatini tug'dirardi. Savollar o'qish jarayonida o'quvchilarda fikr almashish, o'z fikrlarini shakllantirish va mustahkamlash imkonini yaratadi, shu bilan birga, asarning har bir qismiga alohida e'tibor qaratilishiga yordam beradi³.

Endi "Shum bola" qissasidan berilgan parchada muhokama qilishga qo'yilgan savollarga e'tibor qaratsak. "Gard orasidan oriq baytalga mingan bir uzumchi chol paydo bo'ldi. Men uning bariga yopishib, meni ham o'tkazib qo'yishini iltimos qildim.

² Matjon Safo. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). –T.: «O'qituvchi». 1996. 37-b.

³ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: "O'zbekiston", 2002. 92-b.

Uzumchi: “Otim oriq, yangi qulunlagan, yukim ko’p, ikkita devday kishi bitta baytalga mingashsa, uyat bo’ladi”, deb bahona qilsa ham, xiralik qila berdim. Noiloj qolib, o’tkazib qo’yishga majbur bo’ldi”⁴. Shu parchadan keyin berilgan savol quyidagicha: Inson tabiatiga xos “xiralik” nimaning belgisi? Xiralikni ham shum bolalarga xos xususiyat deb ayta olamizmi? Keyingi o’qinlarda quyidagicha savollar beriladi: 1.Nima uchun xizmatkorlar Sariboyning oldiga Shum bolani yuborishga qaror qilishdi? Shum bola qanday qilib Sariboy-“innaykeyin”ning “tinkasini quritishi” mumkin deb o’ylaysiz? 2.Nima uchun Shum bola gapni Sariboyning “dandon sopli pichog’ining sinishi”dan boshladi?Uning ezma boyning g’azabidan omon qolish sabablarini qanday izohlaysiz? Bu kabi savollar orqali o’quvchilar nafaqat matn mazmunini tushunadilar, balki qahramonlarning ichki olamini tahlil qilish, voqealar rivojini taxmin qilish va matndagi nozik ma’nolarni ilg’ash ko’nikmalarini ham shakllantiradilar. Bundan tashqari, bunday tahlillar matnni yanada qiziqarli va interaktiv tarzda o’rganishga imkon beradi, bu esa o’quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4 Mirzayev S. XX asr o’zbek adabiyoti. –T.: “O’zbekiston”, 2005. 85-b

“Venn diagrammasi” metodi. Badiiy asar tahlilida, “Venn diagrammasi” ham juda yaxshi samara beradi. Bu diagramma orqali o’quvchilar o’rganilgan asar qahramonlarining o’xshash va farqli chiqarishadi. Bunda o’quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari shakllanadi. Bu metoddan ham shoir yoki yozuchi hayoti va ijodini, badiiy asar qahramonlarini solishtirish qiyoslash, o’xshash va farqli tomonlarini topishda ham foydalanish mumkin. Masalan: Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” hamda Cho’lponning “Kecha va Kunduz” romanlarini “Venn diagrammasi” orqali tahlil qilish mumkin. Qahramonlar tahlil qilishda Zebi hamda Kumush timsollarini qiyoslab tahlil qilinsa, maqsadga muvofiq bo’ladi.

Qiyoslash metodi. Adabiyot darslarida o’quvchilarning asar qahramonlarini baholash ko’nikmasini rivojlantirishda qiyoslash metodi samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu metod o’quvchilarga qahramonlarning fe’l-atvori, harakatlari va dunyoqarashlarini tahlil qilish, ularni bir-biri bilan solishtirish va o’zaro bog’liqlikni aniqlash imkonini beradi. Masalan, “Muzqaymoq” va “Do’nan”, asar qahramonlarining o’ziga xos tomonlarini, o’zaro farqli va o’xshash jihatlari o’zaro qiyoslaymiz.

Asar muallifi va nomi	Asar g’oyasi va qahramonlarining o’ziga xos tomonlari.
Odil Yoqubov “Muzqaymoq” hikoyasi 	– Asar bosh qahramoni 10 yoshli bola (Odil, muallifning o’zi). –Hikoya bola tilidan so’zlanadi. –Asar voqealari Turkiston shahrida bo’lib o’tadi. –Bosh qahramon sodda, o’ynoqi, hayot tashvishlarini hali anglab yetmagan bola edi. –Sersurat, qalin kitoblarni tomosha qilishni yaxshi ko’radi. –Ishonuvchan, o’z navbatida g’ururli(opasiga tintuv xodimlari soxta xushomad qilganda jahli chiqishi, otasini uydin olib ketayotganlarida opalaridek yig’lamagani). –Qisqa fursatda, dadasi qamalgandan so’ng ko’p narsalarni, hatto amma odam ham do’st bo’la olmasligini anglaydi. Dadasi juda ko’p xushlik qilgan. qo’shni yigit, bolani tutib olib, haqoratlaydi. Qashqirdan qaytgan qashqircha. –Asarda bolaning bolalarcha mas’uliyatsizligi ko’rinadi(grafinni sindirib yig’ganida, parادلarga ketib qolishida,). –Dadasi qahri qattiq odam. –Dadasi umrida o’z qo’llari bilan biror marta muzqaymoq olib bermagan. –Bekimmachoq o’yinini o’ynaydi. –Bola yolg’iz emas, onasi, opalari, ukalari va pochchasi bor. –Asar sho’ro tuzumidagi oilalarning qiynalgan, azoblangan, haqqoniy qiyofasini va ruhiy holatini bola tilidan tasvirlab beradi. Asarda juda ko’p o’xshatishlar uchraydi.

Turob To'la "Do'nan" hikoyasi



- Asar bosh qahramoni Baxshilla, uning tilidan bolaligi so'zlanadi.
- Asar bobosining nevarasiga bolalik voqealarini so'zlab berishdan boshlanadi.
- Hikoya bolalar adabiyotining namunasi bo'lmish "Yetti zog'ora qissasi" tarkibidadir.
- Asar voqealari Turbat qishlog'ida bo'lib o'tadi.
- Bosh qahramon hayvonlarni, jonivorlarni juda yaxshi ko'radi.
- Bola do'stiga juda sodiq, hatto u hayvon bo'lsa ham.
- Bola yolg'iz emas, buvisi, dadasi, onasi, akasi bor.
- Bolaning dadasi lafzi halol, oriyatli, elining urf- odatlariga sodiq.
- Asar sodda tilda yozilgan, oddiy so'zlashuv uslubiga moslashtirilgan. O'xshatishlar deyarli uchramaydi
- Asarda muammoning ko'tarilishiga qishloqning o'ziga xos urf-odatlar, akasini ukasining otini yoqtirmagani uchun alamdan otni ko'zga ko'rinar joyga bog'lab qo'ygani.
- Muammoga yechim otni mehmon tomonidan olib kelib tashlab ketilgani.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida o'quvchilarning asar qahramonlarini baholash ko'nikmasini rivojlantirish, ularning tahliliy tafakkurini shakllantirish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda tahliliy savollar va muhokamalar o'quvchilarni qahramonlarning harakatlari, xarakteri va qarashlarini tahlil qilishga undaydi, taqqoslash va baholash usuli orqali esa qahramonlarning fazilatlarini va kamchiliklarini taqqoslash orqali ularga xolis baho berish malakasi shakllanadi. Shuningdek, rol o'ynash va munozaralar usuli yordamida o'quvchilar qahramonlar pozitsiyasini tushunib,

ularning qarorlarini baholashga o'rganadilar. Yozma va ijodiy topshiriqlar, jumladan, insho yozish orqali qahramonlarning xarakteriga chuqurroq nazar tashlash imkoniyati yaratiladi. Grafik va vizual usullar, masalan, qahramonlarning xarakter rivojlanishini jadval, diagramma yoki klaster yordamida tahlil qilish, ularning baholash ko'nikmasini yanada mustahkamlaydi. Shunday qilib, adabiyot darslarida asar qahramonlarini baholash ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi nafaqat o'quvchilarning adabiy asarlarni o'zlashtirishiga, balki ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: "O'zbekiston", 2002. 92-b.
2. Kattabekov L., Raxmonov V. O'zbek adabiyoti. 8-sinf uchun darslik-majmua. – T.: «O'qituvchi», 1993. 195-b.
3. Matjon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi? –T.: O'qituvchi, 1993. 11-b.
4. Matjon Safo. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). –T.: «O'qituvchi», 1996. 37-b.
5. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. –T.: "O'zbekiston", 2005. 85-b.
6. Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. –T.: "Fan", 2007. 42-b.
7. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: "O'zbekiston", 2006. 93-b.
8. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – T.: «Shafoat Nur Fayz », 2020 .352-b.
9. www.ziyounet.uz
10. www.turklib.uz
11. www.uz.wikipedia.org
12. www.kh-davron.uz
13. www.wikipedia.org

Surayyo JUMANIYAZOVA,
NavDU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-bosqich magistranti
NavDU O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
f.f.f.d (PhD) G.M.ERNAZAROVA taqrizi asosida

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA QO'LLANGAN FRAZEOLGIK BIRLIKLAR

Annotatsiya : mazkur maqolada o'zbek adabiyotining atoqli adibi Shukur Xolmirzayev hikoyalarida frazeologik birliklarning qo'llanishi, ularning tilning boyligini, milliy madaniyat va mentalitetini ifodalashi misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *lingvomadaniy birlik, frazeologik birliklar, uslubiy qatlamlar, emotsional-ekspressiv xususiyatlar, badiiy uslub, publitsistik uslub, so'zlashuv uslubi, ruhiy holat.*

Аннотация: в данной статье анализируются использование устойчивых выражений в рассказах выдающегося узбекского писателя Шукура Холмирзаева, их художественные функции и роль в передаче народного духа. На основе анализа раскрываются богатые пласты народного творчества и национального языка в произведениях писателя.

Ключевые слова: *лингвокультурная единица, фразеологические единицы, стилистические пласты, эмоционально-экспрессивные характеристики, художественный стиль, публицистический стиль, разговорный стиль, психоэмоциональное состояние.*

Annotation: this article analyzes the use of set expressions in the stories of Shukur Xolmirzaev, a prominent figure in uzbek literature, their artistic functions, and their role in conveying a folk spirit. The analysis reveals the richness of oral folk creativity and the national language layers in the writer's works.

Key words: *linguocultural unit, phraseological units, stylistic layers, emotional and expressive features, literary style, publicistic style, conversational style, psychological state.*

Kirish. "So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida badiiy asar tili bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Yozuvchi hayot haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy-ma'naviy muammolar haqidagi hukm va xulosalarini kitobxonga til orqali yetkazadi, odamlar qalbidan kechadigan ismsiz tuyg'ularga nom beradi, so'z sehri bilan kitobxonga ta'sir ko'rsatib, uning fikriy dunyosini, ruhiy olamini harakatga keltiradi". [1;29]

Frazeologik birliklarning uslubiy qatlamlari, ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlari, ulardan badiiy, publitsistik va so'zlashuv uslublarida foydalanish masalalari muayyan yozuvchi yoki shoir asarlari misolida yillar mobaynida o'rganilib kelmoqda. Chunki "Olam lisoniy manzarasining frazeologik birliklar vositasida in'ikos etuvchi bir qismi. Olamning frazeologik manzarasi xalqning ruhiyati,

milliy mentaliteti, uning olamni idrok qilishiga doir egallagan ijtimoiy-madaniy tajribasini emotsional-ekspressiv tarzda aniq va yorqin aks ettirib, nisbatan turg'un, shuningdek, muayyan xalqning o'zigagina xos bo'lgan, maxsus manzara hisoblanadi". [2;65]

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbek uslubshunosligi, frazeologiyasi va lingvostatistikasiga tadqiqotlar, ayniqsa, I.Qo'chqortoyev [3], E.Qilichev [4], S.Rizayev [5], B.Yo'ldoshev [6], M.Yo'ldoshev [7] larning tadqiqotlaridagi frazeologik birliklarning badiiy asarlarda qo'llanish xususiyatlari, badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish tamoyillariga oid fikr-mulohazalar mazkur maqolamizni yozish jarayonida nazariy asos vazifasini o'taydi. Bulardan tashqari frazeologik lug'atining dastlabki namunasi B.Yo'ldoshev va D.O'rinboyevaning "O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli

frazеologik lugʻati” [7] ham ishimizni yoritishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sevimli adibimiz Shukur Xolmirzayev asarlarida qoʻllangan frazeologik birliklarni aniqlashda tadqiqot usullari sifatida lingvistik qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv metodlardan foydalanildi. Bu usullar orqali adib hikoyalarida qoʻllangan frazeologik birliklarning uslubiy va pragmatik xususiyatlari tegishli misollar yordamida tushuntiriladi.

Tahlil va natijalar. Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi lingvomadaniy birliklarni tahlil qilish jarayonida ijodkorning tilimizda mavjud boʻlgan mazkur birliklardan foydalanish mahoratini aniqlash imkoniyatiga ega boʻlamiz. Shu oʻrinda aytilish munkinki, isteʼdodli adib umumxalq tilida qoʻllanishda boʻlgan lingvomadaniy birliklardan, xususan, frazeologik birliklardan oʻz asarlarida oʻrinli va unumli foydalanadi.

Masalan, yozuvchining “Yashil Niva” hikoyasida qoʻllanilgan lingvomadaniy birlik – frazemalarni tahlilga tortamiz:

“Ana shunday qilib, yoʻlda davom etdim. Shaharga kirib keldim. Lekin bir narsani yashirmay aytaman: hali-hamon shahar koʻchalaridami, ovloq joylardami – yashil “Niva”ni koʻrsam, yuragim orqaga tortib ketadi. Nega bunday? Aqlim yetmaydi. Balki buyam oʻylab koʻriladigan holdir.” [8]

Keltirilgan nutqiy parchada **yuragim orqaga tortib ketadi** frazeologik birligi – oʻzbek tilida faol qoʻllanib, u qoʻrquv, ikkilanish, ishonchsizlik yoki ruhiy jihatdan ojizlik holatini ifodalaydi. Frazеologizmdagi “yurak” – koʻplab tillarda boʻlgani kabi oʻzbek tilida ham jasorat, jurʼat, bardavomiylik timsoli sifatida qaraladi. Shunday ekan, yurakning “orqaga tortishi” – bu jasoratning pasayishi yoki ruhiy tayanchning yoʻqolishi degan semantik mazmunga ega.

“Oʻtib ketdim. Yana kulaman: Oʻl sen vahimachi! – deyman. – Qoʻrqqanga qoʻshaloq koʻrinadi, degani shu ekan-da... Dadil boʻl-e! Odamsan-ku, anavi “diktator”lar paydo boʻlishidan oldin ham bor eding-ku? Xalqdan ibrat olmaysanmi? Xalq uygʻonyotir-ku...” [8]

Qoʻrqqanga qoʻshaloq koʻrinadi – frazeologik birligi oʻzbek tilidagi mazmunan chuqur va obrazli frazeologizmlardan biridir.

Bu turgʻun birlik qoʻrquv taʼsirida odam haddan tashqari hayajonga berilishi, haqiqatdan ham yoʻq narsani bor deb oʻylashi yoki oddiy narsalar ham haddan ortiq xatarli koʻrinishi holatini bildiradi. Hikoyadan olingan parchada inson ruhiy holatini taʼkidlash va xavotirli holatini kuchaytirib ifodalanyapti.

Adibning “Bitikli tosh” hikoyasida ham frazeologik birliklardan oʻz oʻrnida ustalik bilan foydalanilgan oʻrinlar talaygina. Masalan, *“Shoyim Shaydulov sal toʻrga oʻtib, sollanib, kostyumning yengi juda uzun-u, osilib ketayotgandek har ikkala qoʻlini ham tepaga koʻtarib, yengini tirsak tomon tushirgan boʻldi. – Gapning qisqasi, masala bitta, – dedi. – U ham boʻlsa, kommunist, bizning storoj Boyquvar Boyboʻriyevning kommunistlik shaʼniga aslo toʻgʻri kelmaydigan... kommunist degan nomga dogʻ tushiradigan, kechirasizlar, dogʻ tushirgan, shuning bilan birga bizning Krupskaya nomli internat maktabimiz boshlangʻich partiya tashkilotining obroʻsini toʻkkan.”* [9]

Tilimizda mavjud boʻlgan **“nomiga dogʻ tushirmoq”** turgʻun birikmasi – insonning shaʼni, qadr-qimmati, oilaviy obroʻsi singari muqaddas tushunchalarga putur yetkazish holatini ifodalaydi. Oʻzbek tilida bu ibora koʻpincha milliy tarbiya, axloq, masʼuliyat, eʼtibor tushunchalari bilan bogʻliq. Mazkur birlik hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi ijobiy va salbiy harakat-holatlarni baholash, turmushda boʻlib oʻtadigan turli hayotiy tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning oʻziga xos obrazli ifodasidir.

Har bir ijodkor oʻzi yaratayotgan qahramonning oʻziga xos xarakter-xususiyatlarini ochib berish jarayonida, tabiatan qanday shaxs ekanligini toʻliqroq tasvirlashda frazeologik birliklardan foydalanadi. Shukur Xolmirzayevning “Notanish odam” hikoyasida **“Koʻz yugurtirib chiqdi”** turgʻun birikmasi oʻrinli qoʻllangan. Mazkur birlik oʻzbek tilidagi mazmunan yaxlit boʻlgan iboralardan biridir. Tezda koʻzdan kechirmoq, sinchiklab emas, faqat yuzaki koʻrmoq maʼnosini ifodalaydi. Ogʻzaki va yozma nutqda tez-tez qoʻllanadigan frazeologizm hisoblanadi:

“– Salomalaykum.

Notanish odam menga qaradi-da, boshimdan oyogʻimgacha koʻz yugurtirib chiqdi. U qirgʻiz

bashara, lekin qoshlari quyuq, qirq yoshlardan oshgan, baquvvat kishi edi.

– Valalaykum.

O't boshiga cho'nqaydim. Etigimni sug'urib, tagini olovga qaratib qo'ydim. Pidjagimni yechib, tizzamga yoydim. Notanish odam gulxan yoniga qaytdi, bir dasta shuvoqni tagiga qo'yib o'tirdi."[10;10]

Adibning "Ota yurt" hikoyadasidan olingan nutqiy parchani tahlilga tortamiz.

"Bobomizning Farmon degan ukasi ham yelkasi yer iskamagan polvonlardan ekan. Lekin bekning polvonlari safiga qo'shilmagan, temirchiligini qilib yuravergan. "Unday mag'rur odam urug'imizdan chiqqanmas", derdi rahmatli momom."[11]

"Yelkasi yer iskamagan" frazemasi o'zbek tilida badiiy ifoda vositasi sifatida ishlatiladigan, kuchli obrazli frazeologizmlardan sanaladi. Hech qachon yengilmagan, doimo hammadan olg'ir bo'lgan insonlarga nisbat berganda ishlatiladi.

"Bir ko'rgan tanish" hikoyasidan keltirilgan nutqiy parchada adib tomonidan voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va obrazli gavdalanitirishda frazeologik iboralar o'rinli qo'llangan:

"Qosh qorayganda, yig'lamoqdan beri bo'lib, uyga kirdim.

Otni obkeldingmi? – E-ee... – O'tloqdan otni keltirishni ham unutgan ekanman. O'tloqqa yugurdim: ot yo'q! Bu qorong'ida filni ham topib bo'lmaydi. Buning ustiga, hammayoq tog', archazor, jardara... uyga borsam, otam terimga somon tiqadi. Bitta tosh topib, o'tirib oldim. O'tiraverdim. Ustim yupqa edi., toshdan sovuq o'tdi."[12;37]

Hikoyada qo'llanilgan **"qosh qorayganda"** iborasi vaqt ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, ba'zan badiiy matnlarda ramziy ma'no kasb etadi. Masalan, hayotning qiyin pallasi, musibat boshlanishi, tashvishli lahzalar ma'nolarida ham qo'llanishi mumkin. Ushbu ibora badiiy uslubda, ayniqsa, she'riyatda va nasrda tez-tez uchraydi. U tasviriylik va poetik ifoda kuchini oshiradi.

"Terimga somon tiqadi" turg'un iborasi og'zaki va badiiy adabiyotda uchraydigan mazmunan chuqur, kinoyali ifoda hisoblanadi. Bu o'rinda shaxsiy qadriyatga yetkazilgan zarar,

haqoratli munosabat, jazolash kabilarni ifodalash maqsadida qo'llangan.

Ijodkorning "Tabassum" hikoyasida **"quti o'chmoq"** frazeologik birligi insonning ichki ruhiy holati birdan pasayishi, umid yo'qolishi, qo'rquv yoki hayajon ta'sirida holsizlanish ma'nolarini anglatish uchun qo'llangan. Mazkur til birligi hikoyada tasvir tiniqligini ta'minlash barobarida ma'noni kuchaytirishga, badiiylilikni oshirishga xizmat qilgan bo'lsa, keyingi o'rinda qo'llangan **"Birniki o'tdan, birniki suvdan"** frazeologik birligi esa hayotda tengsizlik, adolatning yo'qligi yoki bir xil vaziyatda odamlarning boshiga turli sinovlar tushishi holatlarini ifodalaydi:

"Bir kuni sevimli nevarasi – yolg'iz o'g'lining yagona qizi Sadafdan so'radi: Bolam, dardni kasal odam bilsa, o'ziyam tuzalishiga ko'shish ko'rsatar ekan. Eshitganim bor. Sen begona doktorlardan so'ra, bolam. Dardim nima ekan? Faqat rostini aytasan, xo'pmi?"

"Xo'p, bobojon", dedi Sadaf. Oradan bir kun o'tmay Sadaf quti o'chib keldi. Bobosi yoniga cho'kkalab xo'p yig'ladi. Keyin: "Bobojon, aytishga ham tilim bormaydi-da", – dedi".

... "Qismat ekan-da, – dedi. – Vo darig'. Yo'g'-e... O'ksish bekor. Birniki o'tdan, birniki suvdan... Meniki shundan ekan. O'zi bir hisobda yoshimniyam yashab bo'ldim. Men tengi qurdoshlarimdan kimlar qoldi? Ha-a, Mo'min... bor. U mendan ikki-uch yosh katta-ya. Yuragi butun ekan-da! Ha, uning yuragi butun. – Jalil ota g'ashlanib o'ylay boshladi. – U boshqacha... Yomonga, nomardga... o'lim yo'q deyдилar-ku! Ha-e, mayli... Uyam yashasin. Bari bir dunyoga ustun bo'lmaydi. Birovga o'lim tilagandan..."

"Biroq, kechga tomon hovlida tag'in yugur-yugur bo'lib qoldi-da, keyin hammayoq tinchidi. Keyin qosh qorayganda, o'g'li Shokir novcha qomatini egib, eshikdan kirdi.

– Salom alaykum, ota.

– Ke, o'g'lim, o'tir

– E, bir-ikki odam keldi. Sizni bezovta qilmasin, deb bu yerga kiritmadim.

– Kim ekan ular?

– Sovchilar-da. Nevaramizga.

– A-a, Sadafning ham bo'yi yetib qoldi. Shuning to'yini... tinchiganini ko'rsam, armonim yo'q edi.

– E, hali chevara ham ko'rasiz, ota.
– Yo'-o'q, bolam... o'lim – haq. Bir yerda gurgung bo'lib edi. He, yosh edim o'shanda. Lekin esimda qolgan. Bir komandirimiz bo'g'ich edi. Shokir kulimsiradi.

– Komandir...
– Ha endi mullayam bilganini o'qiydi-da, bolam... bizning yoshlik o'z yo'liga o'tdi. Jang-jadal..."[13]

Yuqorida keltirilgan nutqiy parchada adib tomonidan qo'llanilgan **"qosh qorayganda"** iborasi vaqt ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, ba'zan badiiy matnlarda ramziy ma'no kasb etadi. Masalan, hayotning qiyin pallasi, musibat boshlanishi, tashvishli lahzalar ma'nolarida ham qo'llanishi mumkin. Ushbu ibora badiiy uslubda, ayniqsa she'riyatda va nasrda tez-tez uchraydi. U tasviriylilik va poetik ifoda kuchini oshiradi. Hikoyaning keyingi

o'rinida qo'llangan **"bo'yi yetib qolmoq"** turg'un birikmasi balog'at yoshidagi qizlarga nisbatan qo'llanadigan yoshi oila qurish darajasiga yetgan ma'nosini ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. O'zining xalqona asarlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan sevimli yozuvchimiz Shukur Xolmirzayev hikoyalarni tahlil qilish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, u har bir qahramon xarakterini, ruhiyatini, ijtimoiy mavqeyini ochib berishda bir-birini takrorlamagan holda o'ziga xos individuallik bilan yondashadi. Tilning har qanday vositalaridan, xususan, frazeologik birliklardan, mahorat bilan foydalanadi. Uning sarmazmun hikoyalarida frazeologik birliklarning qo'llanishi asar tilini mazmun jihatdan boyishiga, xalqchil bo'lishiga, tasvir tiniqligini ta'minlashga, emotsional-ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади // Адабиёт ва санъат (адабий-танқидий мақолалар, ўйлар, мунозаралар).—Тошкент:Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 29– Б.
2. Xudayberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — Toshkent, 2024.65-b.
3. Қўчқортөев И. Бадий нутқ стилистикаси. Ўқув қўлланмаси.—Тошкент: ТошДУ нашри, 1975.82-б.
- 4.Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари.—Тошкент:Фан, 1982. 88-б.
- 5.Ризаев С. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. — Тошкент: "Фан", 2006.296-б.
- 6.Йўлдошев Б. Бадий нутқ стилистикаси.—Самарқанд: СамДУ нашри, 1982.81-б; Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари.— Самарқанд: СамДУ нашри, 1999.200-б. ва бошқалар.
7. Йўлдошев Б., Ўринбоева Д. Ўзбек халқ дostonларининг частотали изоҳли фразеологик луғати. — Тошкент: ЎзМЭ, 2008.100-б.
- 8.<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-yashil-niva-hikoya>.
- 9.<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-bitikli-tosh-hikoya>
10. Shukur Xolmirzayev "Saylanma". — Toshkent: "Sharq", 2003.10-b.
- 11.<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-ota-yurt-hikoya>
- 12.Shukur Xolmirzayev "Hayot abadiy". — Toshkent: "Ziyo nashr", 2023. 37-b.
- 13.<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-tabassum-hikoya>

Durdona ABSALOMOVA,
 Gersen nomidagi Rossiya davlat
 pedagogika universitetining
 Toshkentdagi filiali magistranti

YANGI O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY DUNYOQARASH VA UNDAGI YANGI KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLAR

Annotatsiya: yangicha dunyoqarashni shakllantirish ham aslida eng avval, eng kichik bo'g'in oila va mahalladan boshlanadi. Ushbu maqolada, Yangi O'zbekiston yangicha dunyoqarashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy savodxonligi haqida fikr va mulohazalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yangi O'zbekiston, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, zamonaviy dunyoqarash, fuqaro, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, jamiyat, islohotlar.

Аннотация: формирование нового мировоззрения начинается в первую очередь с самой маленькой семьи и махалли. В данной статье анализируются мнения и соображения о правовом сознании и правовой грамотности граждан в развитии правового сознания и правовой культуры в новом мировоззрении Нового Узбекистана.

Ключевые слова: новый Узбекистан, Конституция Республики Узбекистан, современное мировоззрение, гражданское, правовое сознание, правовая культура, общество, реформы.

Annotation: the formation of a new worldview begins primarily with the smallest family and mahallas. This article analyzes opinions and considerations about the legal consciousness and legal literacy of citizens in the development of legal consciousness and legal culture in the new worldview of New Uzbekistan.

Key words: new Uzbekistan, Constitution of the Republic of Uzbekistan, modern worldview, civil, legal consciousness, legal culture, society, reforms.

Mamlakatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yib, barcha soha va tarmoqlarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda, demokratik yangilanish jarayonlari kechmoqda. O'tgan davr erkin va farovon hayotni, buyuk kelajakni faqat va faqat mustaqillik asosidagina qurish mumkinligini ko'rsatdi. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon jamiyat barpo etish aslida bir insonning qo'lidan kelmaydi. Yangi O'zbekistonning rivojiga hissa qo'shguvchilar bu siz, men, mahalladoshlar, qon qarindoshlar, umuman olganda o'zini hujjatlarda emas aynan haqiqiy o'zbek farzandi, shu tuproqning egasi deb bilganlar hisoblanadi. Yangicha dunyoqarashni shakllantirish ham aslida eng avval, eng kichik bo'g'in oila va mahalladan boshlanadi. Ushbu maqolada, Yangi O'zbekiston yangicha dunyoqarashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy savodxonligi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Ayni shu mezonlardan kelib chiqib Prezidentimiz 2019-yildagi farmonlarida fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!", - degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni

va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan etib belgilandi¹.

"New Worldview" (inglizcha "yangi dunyoqarash") - aynan shu termin Yangi O'zbekistonda keng qo'llana boshlangandan beri Yuksak siyosiy iroda tufayli O'zbekiston dunyoga, dunyo O'zbekistonga ochildi. Ayniqsa, mintaqa davlatlari bilan muzlatilgan munosabatlarga ilqlik kirdi. Yillar davomida yechimini kutayotgan muammolar hal etildi. Buning natijasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan barcha sohalaridagi aloqalarimiz yangi bosqichga chiqdi.

O'zbekistonning dunyoga ochilishi va shaffof, pragmatik siyosat mintaqa tashqi siyosatidagi vektorlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatimizda ijroga yo'naltirilgan har bir qonun, amaldagi huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalardan aholini izchil hamda keng xabardor qilishda jamoatchilik ishtiroki va faolligi muhim. Kommunikatsiya texnologiyalari, davlat organlari bilan ijtimoiy sherikchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim². Hozirgi kunda qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash

1 Abdumamol Rahmonov. Yuksak huquqiy madaniyat - demokratik jamiyat poydevori. // Huquqshunos, 2019, №1. 8-9-b.

2 Zakirova Sevara. "Xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'ri va roli". // Fuqarolik jamiyati. 2017, №4. 49-b.

bo'yicha amaldagi siyosatimizni dunyo hamjamiyati e'tirof etmoqda. Inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari kuchaytirilmoqda. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, sud-huquq tizimini isloh etish, fuqarolarning konstitutsiyaviy va erkinliklarini kafolatlash va ishonchli himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga asosan, har bir shaxsga o'z huquq erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Inson huquqlarining mazkur konstitutsiyaviy kafolati Konstitutsiya va qonun ustuvorligi prinsipini hayotga izchil tatbiq etish bilan bog'liq. Yangi O'zbekistonda asosiy qonunimizning 13-moddasiga asosan "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi". Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar markazida birinchi o'rinda – inson, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari nazarda tutilganligini ko'rish mumkin. Ijtimoiy-siyosiy kafolatlar davlatda amal qilib turgan siyosiy tizim bilan bog'liq. Ushbu tizim inson huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish uchun xizmat qiladi. Zero, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash ko'pincha davlatning olib borayotgan ijtimoiy siyosatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Konstitutsiyamizning 57-moddasiga ko'ra, "Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidir" deb belgilab qo'yilgan. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim.

Davlat va jamiyatning huquqiy rivojlanganligini belgilaydigan bir qator muhim omillar bor, biz buning bir necha jihatlari sanab o'tamiz:

Birinchi, rivojlangan jamiyat a'zolarining, davlat fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi yuksak bo'lishi kerak;

Ikkinchi, huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi baland bo'lishi lozim;

Uchinchi, ularning o'sha jamiyatdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usi bor bo'lishligi talab etiladi.³

Yangi O'zbekistonda ko'rsatib o'tish joizki, konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar mazmunan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzish mumkin bo'lgan harakatlarni taqiqlash hamda chegaralashning yuridik me'yorlarini mustahkamlash;

- fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini hech qanday to'siqsiz amalga oshirishlarida davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning mas'ulligi;

- tajovuz etishdan himoyalaniшни ta'minlovchi maxsus me'yorlar (shikoyat, sudga murojaat qilish huquqlari) mavjudligi;

- huquqlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikning belgilanganligi;

- davlat va fuqarolarning huquqlarini amalga oshirishni mustahkamlashda jamoat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslarning faoliyati.

Konstitutsiyaviy kafolatlarga bevosita mamlakat Konstitutsiyasining o'zida mustahkamlangan kafolatlar kiradi. Inson va fuqarolarning huquqlari kafolatlari ichida fuqarolarning teng huquqliligi tamoyili alohida o'rin tutadi. Konstitutsiyamizning 19-moddasiga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan, qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar".

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, inson huquqlari rivojlanishi uzluksiz davom etuvchi va takomillashib boruvchi jarayon hisoblanadi. Shuni unutmash kerakki inson huquqlarini rag'batlantirish-davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Shunga ko'ra, inson huquqlariga oid norma va qoidalarni har bir shaxs qalbi va ongiga singdirishi, o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi va o'z navbatida, milliy o'zlikni anglashga hamda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati shakllantirishiga o'z hissasini qo'shmog'i lozim.

Bejizga aynan shu mavzuni "Yangi O'zbekistonda zamonaviy dunyoqarash va undagi yangi konstitutsiyaviy huquqlar" deya nomlamagan edim. Jamiyatda huquqiy ongni rivojlantirishda, huquqiy normalarni qabul qilishda huquqiy mafkura asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki huquqiy mafkura jamiyatdagi huquqiy ustqartmaning mavjudligini, talabga javob berishini, huquqiy normalarning kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib mustahkamlashga va rivojlantirishga katta yordam beradi.⁴ Yangi O'zbekiston jahonda inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya etishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirgan, ushbu sohada yangi yangi xalqaro tashabbuslar

³ Xudoyor Mamatov. Huquqiy ong, huquqiy madaniyat davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. uza.uz

⁴ Diyorova Shaxloxon. Pedagogika oily o'quv yurtlari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish omillari to'g'risida // Pedagogika, 2019, №2. 134-b.

muallifi bo'lgan davlat sifatida tanilmoqda, e'tirof etilmoqda. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi davlatga qarashli idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi.

Ya'ni, mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha milliy ma'ruzalarini tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi sohasida axborot bazasini yaratadi, ularni o'qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlarini olib boradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonda, Markazning asosiy maqsadi bu ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo'li bilan Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini, huquq va erkinliklarni himoya etishning ko'p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdan iborat. Shu o'rinda, Milliy markazning xalqaro hamkorligiga ham to'xtalib o'tish joiz. Xususan, BMTning O'zbekistondagi Taraqqiyot Dasturi, EXHTning O'zbekistondagi Loyihalar Koordinatori, Xalqaro mehnat tashkiloti, O'zbekistondagi Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi, YuNESKO, YuNISEF, Xorijiy mamlakatlarning mamlakatimizdagi elchixonalari, qator xalqaro jamg'armalarning vakolatxonalari bilan samarali hamkorlik o'rnatilgan. Xalqaro sheriklar bilan hamkorlikda respublikamizda inson huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash, himoya qilish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan turli loyihalar amalga oshiriladi. O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning shakllanishi mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlari doirasida davlat va jamiyatning barcha sohalarida demokratik islohotlar o'tkazish amalga oshirildi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2008-yil 1-maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning huquqiy maqomini mustahkamlash

yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldi, deyish mumkin. Prezidentimiz Farmonida inson huquqlarini himoya qilish tizimini tashkiliy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnikaviy bazani mustahkamlash, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va boshqa milliy institutlar bo'linmalarining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarga ham ko'plab jahon miqyosidagi huquqiy faolliklarga ega vazifalar ishonib topshirilmoqda. Fikrimning isboti sifatida mamlakatimizda mehnat bilan band aholining 45 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Boshqaruv tizimda ularning ulushi 33 foizga yetdi. Bir yarim mingga yaqin ayollar rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda. 6 ta tumanda ayollar hokim vazifasini bajarmoqda. Bu boradagi salohiyatni yanada oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zahirasi shakllantirildi. Yangi O'zbekistonning barcha hududlarida xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etilgan. Ular tomonidan 28 mingga yaqin opas-ingillarimizga tadbirkorlik, hunarmandlik, kasbga qayta tayyorlash, bandlikni ta'minlash yuzasidan amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qariyb 215 ming oilaga 6 trillion so'mdan ziyod kredit mablag'lari ajratildi.

Yangi O'zbekistonni jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'- e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylantirish borasida ma'naviy omillar ham muhim o'rin tutadi. Shubhasiz, ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Zero, ilgari surilayotgan islohotlar qanchalik puxta o'ylangan, qanchalik keng qamrovli bo'lmasin ularning samaradorligi bevosita jamiyatning har bir a'zosiga chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukamol Rahmonov. "Yuksak huquqiy madaniyat- demokratik jamiyat poydevori". // Huquqshunos, 2019.№1. 8-9-b.
2. Zakirova Sevara. "Xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli". // Fuqarolik jamiyati. 2017.№4, 49-b.
3. Xudoyor Mamatov" Huquqiy ong, huquqiy madaniyat davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilaydi" uza.uz
4. Diyorova Shaxloxon. "Pedagogika oily o'quv yurtlari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish omillari to'g'risida" // Pedagogika, 2019.№2 134-b.

Nigina MELISOVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy axborot kommunikatsiyalar
universiteti magistranti
niginamelisovna@gmail.com



PODKASTLAR VA BREND JURNALISTIKASI: YANGI MEDIA FORMATLARNING EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada raqamli media muhiti sharoitida podkastlar va brend jurnalistikasining shakllanishi, rivojlanishi hamda ular o'rtasidagi integratsion tendensiyalar tahlil qilinadi. Ushbu yangi media formatlarning o'zaro kesishuvchi nuqtalari, ularning auditoriya bilan muloqotdagi afzalliklari, kontent strategiyasi va ishonchlilik omillari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot davomida ikki formatning texnologik imkoniyatlari va raqamli media muhitga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *brand jurnalistika, brend hikoyasi, interaktiv aloqa, kontent marketing, podkast, media iste'moli.*

Annotation: this article analyzes the formation, development, and integration trends of podcasts and brand journalism in the digital media environment. The intersections of these new media formats, their advantages in communicating with the audience, content strategy, and credibility factors are scientifically highlighted. The research examines the technological capabilities of the two formats and their impact on the digital media environment.

Key words: *brand journalism, brand storytelling, content marketing, interactive communication, media consumption, podcast.*

Аннотация: в статье анализируются тенденции формирования, развития и интеграции подкастов и бренд-журналистики в среде цифровых медиа. Научно освещаются точки пересечения этих новых медиа-форматов, их преимущества в общении с аудиторией, контент-стратегия и факторы доверия. В исследовании изучаются технологические возможности двух форматов и их влияние на среду цифровых медиа.

Ключевые слова: *бренд-журналистика, интерактивная коммуникация, история бренда, контент-маркетинг, подкастинг, потребление медиа.*

Kirish. Zamonaviy media makon bugun jamoatchilik va tashkilot o'rtasidagi muloqotda va o'zaro foydali munosabatlar o'rnatishda o'z qonuniyatlaridan foydalanadi. Axborot makonidagi o'zgarishlar, kontentni taqdim qilish davatashkilotning media imidjini shakllantirishda ham o'zgarishlar qilishni talab etadi. Shunday yondashuvlardan biri brend jurnalistikasi hisoblanadi. Shu o'rinda brend jurnalistikasi nima degan savol paydo bo'ladi: PR ning oddiygina tarkibiy qismimi yoki jurnalistikaning o'zginasimi? Ushbu atama ilk bor ijtimoiy hayotimizga 2004- yil iyun oyida "McDonald's" brendining marketing bo'yicha direktori Larri Lightning "Advertising Age" konferensiyasida so'zlagan nutqidan kirib kelgan. O'zining "brand jurnalistikasi" rejasini taqdim etarkan: "Bizning mobil, raqamli, ko'p platformali, ko'p foydalanuvchili davrimizda brend jurnalistikasi 10 yil avvalgi

usullardan ko'proq mos keladi"[1], deb ta'kidlaydi u. Larri Light fikriga ko'ra, birgina reklama yoki hech bir reklama mega-brendning butun bir hikoyasini aytib berolmaydi. Larri Light brend jurnalistikasini "dunyoda brend bilan nima sodir bo'layotganini" yozib olishi va vaqt o'tishi bilan brend haqida butun hikoyani aytib berishi mumkin bo'lgan reklama kommunikatsiyalarini yaratish usuli sifatida ko'rsatadi. U brendni joylashtirishga qaratilgan an'anaviy reklama va marketing yondashuvlarini rad etgan holda, bir necha platformalarda kanallarni o'z ichiga olgan turli janrdagi kontent oqimi yondashuvini va ularning jurnalistika uslubida yozishni qo'llab-quvvatlaydi. Uning bu fikrlari dastlab rad etilgan bo'lsa-da, brend jurnalistikasi amaliyotda rivojlana boshlagach oradan 16 yil o'tib, "Ad Age" o'n yillikning eng yaxshi o'nta g'oyasi sarhisobida brend jurnalistikani tanlaydi[2].

Lekin ba'zi rossiyalik tadqiqotchilar va media tarixchilar brend jurnalistikasining vujudga kelishini XX asr boshlariga ya'ni "Ford" tomonidan nashr etilgan "The Ford Times" nashrining paydo bo'lishi bilan bog'laydilar[5]. Mazkur nashrning missiyasi ham brend haqida hikoya qilish edi. Bu esa bugungi brend jurnalistikaning ham asosiy maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Asosiy qism. Brend jurnalistikasi zamonaviy media makonga korporativ integratsion muloqotning yangi yondashuvi sifatida kirib kelgan. Buning natijasida kompaniyalar PR firmalari orqali press-relizlar yozish va kompaniya uchun foydali reklamalar olishni chetlab o'tib, o'z nashr va kanallarida brend haqida hikoyalar yaratishadi. Bu esa bevosita o'z mijozlari bilan muloqot qilish va ularning ishonchini qozonish imkoniyatini yaratadi. Rossiyalik iqtisod fanlar nomzodi Veronika Yarnix ham brend jurnalistikasi mazmunini shu tarzda ifodalagandi: "Brend jurnalistikasi brendning axborot maydonini shakllantiradi, uning ishonchligini oshiradi va potensial bilan o'zaro aloqa qilish uchun kommunikatsiya maydonini kengaytiradi"[6]. Brend jurnalistikasida mohirona yaratilgan hikoya yordamida an'anaviy "sotib oling" so'zni ishlatmasdan ham muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'ladi. Brend jurnalistikasi kompaniya haqida ko'proq auditoriya bilishni xohlaydigan uslubdagi hikoyalarni, reklama va marketingda aytib bo'lmaydigan mazmunda so'zlaydi. Bloglar, onlayn maqolalar, podkastlar, veb-saytlar, elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda brend haqida haqiqiy, qiziqarli, hayotiy voqealarga asoslangan hikoyalar taqdim etiladi hamda mijoz bilan aloqa o'rnatiladi. Chunki, brend jurnalistikasi – mijoz bilan suhbatlashish va uning ishonchini qozonib, uzoq vaqt saqlab qolish demakdir. Brend faoliyatiga asoslangan har qanday ommaviy axborot vositasi bu o'sha brendning shaxsiy axborot vositasi hisoblanadi. Bu esa brendning rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga molik bo'lgan jihat sifatida talqin etiladi.

Raqamli media rivojlanishi bilan auditoriya bilan samarali muloqot qilishning yangi usullari paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, podkastlar zamonaviy jurnalistika va marketing strategiyalarida kuchli vositaga aylanib bormoqda. Brendlar uchun an'anaviy reklama va matnli kontent yetarli bo'lmay qolgani sababli, ular o'z hikoyalarni tinglovchilarga ishonchli va tabiiy tarzda yetkazishning innovatsion yo'llarini izlashmoqda[3]. Shulardan biri podkast hisoblanadi. Podkastlar o'nlab yillar mobaynida mavjud bo'lsa-da, ular so'nggi bir necha yil ichida portlovchi o'sish

orqali namoyon bo'ldi. Bu fikrlarimizni olib borgan ilmiy tekshirishlarimiz natijalari orqali tasdiqlashimiz mumkin. 2021-yilda o'zbek internet segmentida sanoqli podkastlar bo'lgan bo'lsa, 2025-yilning birinchi choragida ularning soni 70 tadan ortiqligiga guvoh bo'ldik. Podkastlarning iliq kutib olinishiga mezbon va tinglovchi o'rtasidagi mustahkamlangan ishonch va qabul qilishning qulayligi hamda yengilligi sabab bo'ldi[3].

Podkastlar hozirgi media iste'molchilari uchun qulay format hisoblanadi, chunki ular multitasking rejimida ham ishlatilishi mumkin. Raqamli davrda podkastlar hikoya qilish, bilim almashish va jamoalar qurish uchun kuchli vosita sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Podkastlar – bu nafaqat ko'ngilochar yoki informatsion vosita, balki brend jurnalistikasining yangi chegarasi bo'lib, kompaniyalarga o'z qadriyatlarini va missiyasini chuqurroq tushuntirish, auditoriya bilan bevosita aloqa o'rnatish va ularning ishonchini qozonish imkonini beradi. Shuningdek, podkastlar xohlagan joyda va vaqtda tinglash imkoniyati orqali foydalanuvchilarga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Shuning uchun ham podkastlardan brend haqida ishonchli ma'lumotlar berishni ko'zlagan kompaniyalar ham keng foydalanishmoqda. Chunki brend jurnalistikaning hikoya usuli, asosan, podkast yo'nalishining mohiyatini tashkil etadi. Podkastlarning mashhurligi oshishi bilan endi bu yo'nalish shunchaki o'yin-kulgi yoki ta'lim manbai emas – ular endi brend hikoyalari va media strategiyalarining asosiy komponenti hisoblanishi olimlar tomonidan tasdiqlangan[4].

Biznes uchun podkast – bu brendni "shaxslashtirish" imkoniyatidir, shunda tomoshabinlar kompaniya xodimlarining ovozi, nima haqida gaplashayotganini va ularni nima tashvishga solayotganini eshitishlari mumkin. Podkastlarda obunachilar sharhlar qoldirishi va keyingi sonlar uchun mavzu taklif qilishlari hamda qanday mutaxassislarni taklif qilish haqida ham takliflar berishlari mumkin. Shu tartibda brend o'z-o'zidan ishonchli va qiziqarli kontentga ega o'zining podkastini yo'lga qo'yishi mumkin. Masalan, podkastda brend vakili o'z auditoriyasi bilan fikr almashishi, bozor mutaxassislari bilan muloqot qilishi, mahsulot haqidagi savollarga javob berishi yoki kompaniyaning "ichki faoliyati" haqidagi hikoyalarni aytib berishi mumkin. Bu esa xaridor yoki maqsadli auditoriya uchun an'anaviy reklamadan ko'ra ancha qiziqarli bo'lishi tabiiy. Masalan, 2019-yilda "Alfa Bank" o'zining "Pul keldi" nomli moliya haqidagi haftalik podkastni ishga tushiradi. Mazkur podkastda bank o'z xizmatlarini to'g'ridan-to'g'ri reklama qilmagan.

Faqatgina bank o'zining platformalarida podkastni targ'ib qilgan. Podkastda esa, insonning moliyaviy hayotida banklarning o'rni va ulardagi xizmatlarning mohiyatini bank xodimi bilan suhbatlar asosida yoritib berilgan. Alfa Bankning maqsadi o'z brendini targ'ib qiluvchi qiziqarli kontent yaratish bo'lgan, natijada esa bankning xizmatlariga qiziqish ham o'sganligiga guvoh bo'lishgan[4]. Bugungi kunda yoshlar orasida mashhur biznes liderlari va ularning brendni rivojlantirish bo'yicha strategiyalariga qiziqish juda katta. Ijtimoiy tarmoqlarda ko'zga tashlanayotgan podkastlarda ularning brendni boshlash jarayonidan to yuksalgungacha bo'lgan davr haqidagi hikoyalar berib boriladi. Bu suhbatlar ham o'sha brendga qiziqish va talabgor bo'lishini ta'minlaydi. Natijada ko'plab biznes egalari podkast yangi auditoriyani jalb qilish, mijozlar bilan muloqot va ishonchni mustahkamlash, xabardorlik va savdoni oshirish uchun ijobiy yechimlardan biri ekanligini tushunishdi. Chunki bugungi raqamli media davrida podkastlar tomoshabinlar orasida juda mashhur hisoblanadi ya'ni brend, albatta, eshitiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, so'rovnoma qatnashuvchilarning 42 % i haftada bir marta ma'lum brend haqidagi podkastlarni tinglashi va 79 % i esa mazkur formatdagi podkastlarni smartfondan tomosha qilishga harakat qilishi haqida aytib o'tgan[3]. Mazkur ko'rsatgichlar brend uchun podkastlarning afzalliklarini ta'kidlashga sabab bo'ladi. Ijobiy tomonlarga to'la bo'lgan podkastlar brendning marketing strategiyasida quyidagi afzalliklarni yuzaga keltiradi:

- tinglovchilarni brend/ mahsulot bilan tanishtirish, ularga nisbatan qiziqishni oshirish;

- tinglovchi va brend o'rtasida matn orqali erishish qiyin bo'lgan hissiy aloqani o'rnatish;
- mahsulot/xizmat turlari haqida batafsil ma'lumot berish orqali xaridorlarni oshirish;
- sodiqlikni mustahkamlash va xaridorlar hamjamiyatini oshirish.

Xulosa. Bundan tashqari podkastlarda brend hikoyasi orqali boshqa ommaviy axborot vositalariga chiqish uchun ham yo'l ochilishi mumkin. Chunki, jurnalist va blogerlar ko'pincha o'z materiallariga g'oyalar va qatnashchilar uchun podkastlarni tinglashadi. Ya'ni sifatli kontent asosida olingan podkast brendning yanada ommaviy axborot vositalari orqali tanilishiga asos bo'lishi mumkin. Podkastlar yaratilishini moliyalashtirishga imkoni bo'lmagan kichik brendlar esa, brend rivoji uchun ommabop bo'lgan podkastlarda reklama integratsiyasi orqali o'z brendlarini namoyon qilish imkoni ham mavjud. Ya'ni potensial maqsadli auditoriya tinglaydigan muayyan podkastda brend reklamasining amalga oshirilishi. Masalan, bolalar mahsulotlari reklamasini ota-ona tarbiyasi haqidagi podkastga, moliyaviy xizmatlar esa ijtimoiy mazmundagi podkastlarga kiritilishi ham tomoshabin uchun ishonchli brendga murojaatini oshiradi. Podkastlar ommabopligi oshib borar ekan, ular brendlarga o'z hikoyalarini shakllantirish, o'z auditoriyalariga erishish va ularning ishonchligini oshirish uchun bebaho imkoniyatlarni taklif qilishda davom etadi. Brend jurnalistikasi uchun podkastlar yangi va mashhur yo'nalish bo'lib, marketing strategiyasida alohida o'ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Larry Light*. Brand journalism is a modern marketing imperative? / *Larry Light* // – 2014. <https://adage.com/article/guest-columnists/brand-journalism-a-modern-marketing-imperative/294206>
2. *Larry Light*. Brand journalism is alive and well / *Larry Light* // *Forbes*. – 2020.
3. *Laura Leiva*. Podcasts the new frontier for brands and creators. / *Laura Leiva* // - 2022. [Podcasts: The New Frontier for Brands and Creators](#)
4. *Maddie Mitcham*. The power of podcast: A new frontier in brand narratives and media strategies. / *Maddie Mitcham* // – 2024. [The Power of Podcasts: A New Frontier in Brand Narratives and Media Strategies](#)
5. *Thomas Koch, Benno Viererbl, Charlotte Riehl*. How much journalism is in brand journalism? How brend journalists perceive their roles and blur the boundaries between journalism and strategic communications / *Thomas Koch, Benno Viererbl, Charlotte Riehl* // – 2021.
6. *Yarnykh, V*. Brand Journalism Approach in the Integrated Model of Information Influence. / *Yarnykh, V* // *Mediální studia*. – 2019. – N~13(2). P – 160-171. ISSN 2464-4846. <https://www.medialnistudia.fsv.cuni.cz>

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONIDA QO‘LLANGAN ANTROPONIMLAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida qo‘llanilgan antroponimlarning lug‘aviy tarkibi ya‘ni qaysi qatlamga mansubligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *antroponim, real nom, noreal nom, atoqli otlar.*

Annotation: in this article, the lexical composition of the anthroponyms used in the epic “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” is analyzed, that is, to which layer they belong.

Key words: *anthroponym, real name, non-real name, common nouns...*

Аннотация: в данной статье анализируется лексический состав антропонимов, использованных в эпосе “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, то есть к какому слою они относятся.

Ключевые слова: *антропоним, настоящее имя, ненастоящее имя, имена нарицательные...*

“Go‘ro‘g‘li” dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo‘lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo‘lib, ko‘pgina xalqlar orasida juda keng tarqalgan. Ayrim xalqlarda baxshilar tomonidan hozir ham kuylanib kelinmoqda. Bu dostonlar o‘zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, turk, qozoq, qoraqalpoq, arman, gruzin, kurd xalqlari epik ijodiyotida o‘ziga xos turkumlarni tashkil etadi, shuning uchun ham bu dostonda turli xil tillarga oid antroponimlar qo‘llangan. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham turli tillarda qo‘llanadigan ismlar uchraydi va ular: arab tili, tojik tili, o‘zbek (sof turkiy) til, yunon va boshqa tillar. Bu dostonga o‘ziga xos estetik zavq bag‘ishlagan. Dostonda turli tillarga oid ismlarning qo‘llanilishi shuni anglatadiki, doston ko‘plab yillar ilgari paydo bo‘lgan va turli elatlar, xalqlar orasida bir-biriga o‘tib turli o‘zgarishlarga uchragan. Shu sababli ko‘pchilik tilga oid ismlar qo‘llangan va vaqtlab o‘tib hozirgi holatiga kelgan. Dostondagi antroponimlarni 2 turga ajratib tahlil qilamiz: o‘z qatlam va o‘zlashma qatlam. Shulardan birinchisi o‘z qatlam.

Dostonda qo‘llanilgan o‘z qatlamga kiruvchi antroponimlar. Bu turga kiruvchi ismlar sof turkiy (o‘zbekcha) nomlar hisoblanadi. Masalan:

Har kimni ko‘rsa so‘ratdi,

Undan Zominga yetdi.

Qirg‘ sonli Baroqxonning yurti,

O‘ratepaga yetdi. [5:143]

Baroqxon antroponimi o‘zbek tilidan olingan bo‘lib, tiniq, ravshan, porloq inson deganidir. O‘zbek xalqining qo‘ng‘irot va qarag‘on qabilalari tarkibiga kirgan urug‘ nomi. [4:47]

Dostonda qo‘llanilgan o‘zlashma qatlamga kiruvchi antroponimlar.

- **Arab tilidan o‘zlashgan antroponimlar.**

Xannon bilan ikki yasovul – birining oti Xolmat, birining oti Olat - -uchovlari jo‘nadi. [5:103]

Xolmat – arab tilidan olingan bo‘lib, Xolmuhammad ismining qisqargan varianti hisoblanadi. [4:466]

– Kelgan lashkar kim ekan bilib kelinglar! – deb o‘zining Taka begi Zamon degan lashkar boshlig‘ini birnecha odamlarga qo‘shib, elchi qilib yubordi. [5:7]

Zamon zamonasining munosib va suyuqli hurmatli farzandi. [3:47]

Kundan kun, tundan tun o‘tdi. Go‘ro‘g‘li sakkiz yoshga kirdi, Ahmadbek Go‘ro‘g‘lini maktabga qo‘ymoqchi bo‘ldi, shaharning ichida Muhammad Yusuf otli bir olim kishi bor edi. [5:114]

Muhammad – ismi arab tilida eng mashhur ismlardan bo‘lib, Muhammad ismiga qaratilgan va bu ismni ma‘nosi maqtovg‘a olqishga sazovor inson. Muhammad payg‘ambarning ismi. [4:266]

Shirvonning Rayhon arab degan podshosi bor edi. Iroq mamlakati, Arabiston shunga qarar edi; rayhon arab Xoljuvonga oshiq edi. [5:116]

Rayhon – arabcha ism bo‘lib, nozbo‘y, rayhon yoki majoziy ma‘noda: farzandlar bolalar degan ma‘noni anglatadi. [4:345]

• **Tojik tilidan o'zlashgan antroponimlar.**

Ahmadbekning **Xoljuvon** degan xotini bor edi. Lekin farzandi yo'q edi. Xoljuvon qanday xotin – tovsday taralgan, bellari buralgan, har xil kiyimlarga o'ralgan, oynaga qaragan, zuilfini taragan, o'ziga loyiq ro'mollar o'ragan. [5:110]

Xoljuvon – tojikcha so'z bo'lib, kattaroq xol bilan tug'ilgan qiz, juvon so'zi hali yosh bo'lishiga qaramay turmushga chiqqan qiz ma'nosini ifodalaydi.

Bu aytgan so'zingiz juda yaxshi, qutlig' bo'lsin, – deb turdilar. Ayollarning ortasida Holmat yasovulboshining **Xoldonoy** degan xotini bir so'z dedi:

Goh-goh o'zimdan ketdim har zamon,

Tog'larning boshini cholgandir tuman.

Oллоhim yetkarsin sizni maqsadga,

Farzandingiz qutlug' bo'lsin, opajon!.. [5:112]

Xoldonoy – atoqli oti kelib chiqishi tojikcha hisoblanib, xol bilan tug'ilgan qiz, xoldor qiz degan ma'noni bildiradi. [4:464]

Xoljuvon bu so'zni turgan oyimlaridan kattasi Xoldonadan eshitib, **Durdona** degan kanizakka:

– Besh-olti o'zingga yarasha qizlardan birga olib, Go'ro'g'libekni bunda olib kelinglar, – dedi. [5:112]

Durdona – antroponimi tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, inju donasi, a'lo marvarid: eng aziz, qadrli qiz degan ma'noni anglatadi. [4:118]

Rustam: – Endi davlatga ega bo'ldim, xotin olmasam sira ham bo'lmaydi, – deb Badgir deganning singlisini oldi. [5:60]

Badgir ismi to'g'ri ishni, gapni teskariga buruvchi; ha deb gina qilaveruvchi, gina saqllovchi; kekchi.

• **Yunon tilidan o'zlashgan antroponimlar.**

Yor ketkazaryuraklarning cherini,

Eshitmading, bek Soqining zorini.

Senga berayik Yunus, Misqol parini,

Senga berayik shularning ixtiyorini.

Parilar xotining bo'lsin, Go'ro'g'li! [5:164]

Yunus – antroponimi yunon tilidan kirib kelgan bo'lib, yunonchada kaptar, kabutar. Yunus payg'ambarning nomi ma'nolarida qo'llanadi. [4:523]

“Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonidagi ko'plab ismlarning qaysi tilga tegishli ekanlini va ma'nolarini ko'rib chiqdik. Ko'rganingizdek turli tilga oid ismlar qo'llangan, bu esa dostoniga o'zgacha estetika bag'ishlagan. Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, “Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida qo'llanilgan antroponimlarning ko'pchiligini, asosan, arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan antroponimlar tashkil qiladi. Ular anglatgan ma'nolar ham turlicha. Ilmiy izlanishlarimiz va tadqiqotlarimiz mobaynida shu kabi o'zlashgan va o'z qatlamga kiruvchi nomlarni o'rganamiz hamda tahlilga tortamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
2. Сатторов Ф.Х. Ўзбек исмларининг туркий қатлами. Н.Д.А. – Тошкент, 1990.
3. Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. – 608 б.
4. Э. А. Бегматов. – Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2016. 608-б.
5. Go'ro'g'lining tug'ilishi: xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. 208-b.

SALIM ASHUR NAZMIDA VAQT VA UMR HAQIDAGI QARASHLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek adabiyotining katta shoiralaridan biri Salim Ashurning lirikasidagi she'rlar tahlilga tortilgan. Shoirning falsafiy qarashlari, xususan, vaqt va umr haqidagi fikrlari tahlil etilib, nazariy asoslar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: lirik asarlar, shoir uslubi, doston, she'r, lirik qahramon, o'zbek adabiyoti, shoir falsafasi, umr, hayot.

Аннотация: в данной статье анализируются стихотворения в лирике Салима Ашура, одного из великих поэтов узбекской литературы. Анализируются и обогащаются теоретическими основами философские взгляды поэта, особенно его размышления о времени и жизни.

Ключевые слова: лирические произведения, поэтический стиль, эпос, поэма, лирический герой, узбекская литература, поэтическая философия, жизнь, быт.

Annotation: this article analyzes the lyrical poems of Salim Ashur, one of the great poets of Uzbek literature. The poet's philosophical views, especially his reflections on time and life, are analyzed and enriched with theoretical foundations.

Key words: lyrical works, poetic style, epic, poem, lyrical hero, Uzbek literature, poetic philosophy, life, everyday life.

Zamonaviy o'zbek she'riyati taraqqiyotida o'ziga xos uslub va chuqur falsafiy mazmun bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri bu — Salim Ashurdir. Shoir 1964-yilda Tojikistonda tug'ilgan bo'lib, mustaqillikdan keyingi davr o'zbek adabiyotida o'z ovozi, o'z ruhiy olami bilan alohida o'rin egallaydi. U nafaqat shoir, balki jurnalist va madaniyat targ'ibotchisi sifatida ham ko'plab avlodlar qalbiga milliy g'urur, muhabbat va tafakkur urug'ini sochgan.

Salim Ashur lirikasi inson ruhiyatini, vatanga bo'lgan mehrni, tarixiy xotirani va shaxsiy kechinmalarni badiiy go'zallik bilan ifodalashi bilan ajralib turadi. Uning she'rlari o'quvchini nafaqat mushohada qilishga, balki his qilishga chorlaydi. Aynan shu noziklik va chuqur lirizm uni zamondoshlar orasida tanitgan va qadrlatgan. Salim Ashur ijodidagi she'rlar Istiqlol davrining ma'naviy yangilanishini, milliy qadriyatlarni, ona yurtning cheksiz mehri bilan to'la bo'lishini aks ettiradi.

Ushbu maqolamizda Salim Ashurning "Darz" to'plamiga adabiy manba nuqtayi nazaridan yondashgan holda, unda mavjud mavzu, g'oyalarning takomiliga to'xtalishga qaror qildik.

Salim Ashur lirikasi ko'p qirrali va teran mazmunga ega bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarda ajralib turadi:

1. Vatan va milliylik mavzusi. Salim Ashur she'rlarida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat bosh g'oyalarni tashkil etadi. U o'z asarlarida istiqlool ruhini, xalq xotirasini va tarixiy o'zlikni ulug'laydi.

2. Tarix va xotira. Shoir ijodida tarixiy xotira alohida

o'rin tutadi. U totalitar davrning jabr-u jafolari, xalqning boshidan kechirgan sinovlarini yodga olib, ularni bugungi hayot bilan qiyoslab ifodalaydi. Bu esa uning she'riyatiga ijtimoiy-falsafiy mazmun bag'ishlaydi.

3. Insoniy kechinmalar va muhabbat. Salim Ashur lirikasi inson qalbinning eng nozik tuyg'ularini — muhabbat, sadoqat, ayriqlik va sog'inchni go'zal badiiy tasvirlar orqali ifodalaydi. Uning "Atirgul" nomli she'riy to'plami ushbu mavzuning yorqin namunasi hisoblanadi. Bu kitobda inson qalbinning sof tuyg'ulari, yurakning titroqlari chuqur tasvirlangan.

4. Uslubiy xususiyatlar. Shoir ijodida badiiy tilning serma'no bo'lishi, ramziylik, falsafiylik va lirizm kuchli. U adabiyotda turli yo'nalishlar bilan qiziqib, ulardan o'ziga xos tarzda foydalangan. Biroq Salim Ashur uchun eng muhim narsa — qalb va so'zning uyg'unligidir.

Mustaqillik davri adabiyotida inson omiliga alohida va yangicha qarash boshlandi. Endigi qahramonlarni tom ma'nodagi inson — ham surati, ham siyrati, ham fazilati, ham illati bilan tasvirlashga mukammal tarzda e'tibor kuchaydi. Odamlarning ma'naviy dunyosidagi o'zgarishlar tufayli badiiy adabiyotga ilgari ko'rilmagan yangi hodisa — ruhoni kayfiyat kirib keldi va xalqimizni komillik sari yetaklashda muhim rol o'ynadi. Shunday badiiyat bilan, ijodda shaxdam yurib kelayotgan iste'dodli shoir, yozuvchi sifatida Salim Ashurni misol qilishimiz mumkin. U o'z she'rlarida bir qancha qiziqarli bo'lgan mavzularni ko'tarib chiqqan. Shoirning "Yashil g'iyoh", "Atirgul", "Atalgan kunlar", "Sensiz", "Darz"

to'plamlari mavjud. Ularda Vatan, tabiat, umr, vaqt qadri kuylangan. Yoshlikning navqironlikning o'tkinchi ekanligi shoir tomonidan baralla tilga olingan.

Yigitlik shavqini yellarga sochdik,
 Ba'zan bilib turib qiyindan qochdik,
 Ayting, qalbimizni kimlarga ochdik,
 O'rtanib yonmoqda qirq yillik davron.

Ushbu misralarda keksayganda naqadar yoshlik bebaho ekanligi, vaqtida uni qadriga yetish, oltinga teng vaqtni, yoshlikni yellarga sochmaslik lozimligi qalamga olinganini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi bandda qirq yoshga kirib qolgan shoir g'am-anduhlari ochiq-oydin berilgan.

Xuddi shu mazmunni Muhammad Yusuf she'rlarida ham uchratamiz. Ya'ni yoshlik bir muddat umrimizni bezaydi-yu, so'ngra bir qush misoli bizni tark etadi:

Bor bisotim oldi yoshligim,
 Yurak shunga ko'ndi-yu ketdi,
 Yodda shunday qoldi yoshligim
 Qush daraxtga qo'ndi-yu ketdi.

Bolalik, beboshlikni taniqli shoir Usmon Nosir esa o'zgacha ta'riflagan: shoir bolaligini eslar ekan, qalbida o'tkir afsus-nadomat bilan o'kinadi. Kunlarini yoshligidan ayamagani, nokaslikni unga aslo ravo ko'rmaganini alohida aytib o'tadi. Bu yerda inson tafakkur bilan fikrlaydigan chuqur ma'no mavjud.

Bolaligim gul bog'larni ko'rolmagan,
 G'arib bo'lib mungshib yurgan ko'chalarda,
 Yulduz sanab yildan uzun kechalarda,
 Hisobiga sira azal yetolmagan.

Salim Ashurning "U zamonlar shunday edi bu dunyo" misrasi bilan boshlanuvchi she'rida ham o'tkir falsafa mavjud.

O'tgan zamonlarni qahramon yodga olar ekan, derazadan quyosh kulib turardi, qadahlarda sharob to'lib turardi, hatto yomonlar ham yaxshi bo'lib yurardi, deya majoziy ma'noda boshqacha kuyinish bilan aytadi. O'sha zamonlarda to'qlik emas, fidolik sharafligi, muhabbatdan judo bo'lish qo'rqinchli emasligini ham eslab achinadi. Shaksiz, hozirgi zamon bilan solishtirish natijasida shoir bugun jonimiz kibrli, to'qlik esa insonga bir sharaf bo'lib qolgan deya qayg'u botadi:

Dunyo-dunyo! Keldim. Ko'rdim. Ketaman,
 Davron o'tdi. Seni aldab netaman.

Bobolarim manziliga yetaman,
 Umr – o'zan, undan suvdek o'taman,
 Hali-hamon sevgi degan o'tdaman,
 U zamonlar shunday edi bu dunyo!

Shoirning quyidagi she'rida esa keksalik, yoshlik o'tib bo'lgandan keyingi iztiroblar, inson yoshi bir joyga borib qolgandan so'ng biron uzatgan suvga, nonga muhtoj bo'lib qolish singari hislar chin dildan qalamga olingan:

E-voh, bilagingdan quvvat ketganda,
 E-voh, yuragingdan shiddat ketganda,
 Har bir bo'lagingdan madad ketganda,
 Zinhor to'g'ri yo'ldan adashtirmasin.

Yana shu bilan hamohang tarzda shoir band oxirida xulasa sifatida "zinhor to'g'ri yo'ldan adashtirmasin" deya Yaratganga iltijo qiladi. Shu birgina jumla inson hayotda hamma vaqt ham pok, halol, to'g'ri bo'lmog'i lozim degan fikrni ilgari surib, g'oyani yanada ochib bergan.

Shu yerda Erkin Vohidovning ham keksalik haqida yozgan misralarini bir esga olib o'tsak:

Ko'namiz ne iloj shunga ham shukur,
 Har qalay ko'z tirik ko'rayotirmiz,
 Qarilik gashtini surayotirmiz.
 Qarilikni havas qilmagin, bolam,
 Yomon ko'rinadi ko'zinga olam.
 Qariganda achib qolarkan odam,
 Ba'zan bobov bo'lib hurayotirmiz...

Misollardan ko'rinadiki, Salim Ashur she'rlarida alohida dunyoqarash, xarakter mavjud. U yoshlik qadrini, umrning nechog'lik qimmatli ekanligini aytganidan, vaqtni insonga shafqat qilmasdan o'tib ketishini xuddi boshqa adiblar singari keng yoritib berganidan ko'rishimiz mumkinki, shoirda o'zgacha hayotsevarlik borligiga yaqqol namoyon bo'lgan. Salim Ashur lirikasi zamonaviy o'zbek she'riyatining ma'naviy, estetik va falsafiy qirralarini o'zida mujassam etgan muhim badiiy hodisadir. Uning she'rlari o'quvchini fikrlashga, his qilishga va milliy qadriyatlarni teran anglashga chorlaydi. Shoir o'z lirikasi orqali inson va jamiyat, o'tmish va kelajak, tuyg'u va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni badiiy obrazlar bilan ochib beradi. Shu bois, Salim Ashur lirikasi bugungi o'zbek adabiyotining yuksak namunasi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. Tafakkur yog'dusi. – Toshkent, 2006.
2. Salim Ashur. Darz. – Toshkent: Zarqalam, 2006.
3. Rahmat R. Adabiyotdan chiqish. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
4. Rasulov A. Uslub – iste'dod portreti. Yangi asr avlodi. – Toshkent, 2013.
4. Solijonov Yo'ldosh. Hozirgi adabiy jarayon/o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.

Shahzoda SOG'INBOYEVA,
Namangan davlat universiteti talabasi

O'ZBEK TILIDAGI SOMATIK FRAZEOLIGIZMLARDA OLAMNING LISONIY MANZARASI IN'IKOSI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazeologik birliklarning somatik tipi tahlil qililib, ular orqali o'zbek xalqi madaniyatida olamni anglashda inson a'zolari bilan bog'liq lisoniy birliklar o'rganilgan. Bunda ma'no ko'chishi, kengayishi va torayishi kabi semantik jarayonlar madaniy qolip sifatida lingvokulturologik jihatdan qiymatga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Kalit so'zlar: somatik frazeologizmlar, olamning lisoniy manzarasi, sema, semantik tahlil, metafora.

Annotation: this article analyzes the somatic type of phraseological units, through which linguistic units related to names of human organs are organized in the culture of the Uzbek people in understanding the world. It turns out that semantic processes such as meaning transfer, widening and narrowing have linguoculturological value as a cultural pattern.

Key words: somatic phraseologisms, linguistic landscape of the world, sema, semantic analysis, metaphor.

Аннотация: в данной статье анализируется соматический тип фразеологизмов, посредством которого в культуре узбекского народа организованы языковые единицы, связанные с именами органов тела человека, в познании мира. Оказывается, такие семантические процессы, как перенос, расширение и сужение значения, имеют лингвокультурологическую ценность как культурная закономерность.

Ключевые слова: соматические фразеологизмы, языковой ландшафт мира, сема, семантический анализ, метафора.

Inson olamni o'z ko'zi bilan ko'rar va his qilar ekan, bu jarayon "olamning lisoniy manzarasi" deb ataladi.

Olamning lisoniy manzarasi dunyoni anglashning bir vositasi hamda ko'rinishi bo'lib, borliqning faqat so'zlar bilan bog'liq tasavvurotni ifodalaydi. Shu jihatdan mazkur tushuncha insonning milliy mansubligi, hududi, ijtimoiy darajasi va hokazo omillar bilan chambarchas bog'liq. Uning amaliy natijasini tekshirishda tildagi paremiologik birliklar – barqaror birliklar tahlili muhim ahamiyatga ega.

Biz ushbu maqolada frazeologik birliklarning somatik tipini ko'rib chiqamiz. Zero, inson olamni metaforalar yordamida tavsiflashda o'z tana a'zolariga o'xshatishga asoslanadi.

Inson yoki hayvon tanasining bir qismi nomini o'z ichiga olgan frazeologik birliklar somatik frazeologizmlarni tashkil etadi. Insonlar, hayvonlar, o'simliklar, atrof-muhitda mavjud bo'lgan jismlar, shuningdek, jonsiz narsalarni o'z fazilatlar bilan tasvirlashi odatiy holdir. Bundan tashqari, somatik lug'at diniy, mifologik, falsafiy va boshqa ekstralingvistik kontekstlar bilan bog'liq ko'plab barqaror birlashmalar bilan uyg'unlashadi.¹

Somatik frazeologizmlarni o'rganish, ularning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Tadqiqotlarda somatik frazeologizmlar F.Vakk, G.A.Bagautdinova, A.V.Dibo,

S.G.Alekseyeva, R.M.Vayntraub, T.I.Yegorova, N.A.Sedova, T.Chete, L.I.Xarchenkogo, Y.A.Shashkov, Y.A.Dolgoplov, R.Yu.Mugu, Y.V.Nikolina, Y.F.Arsentyeva, P.M.Arkadyev, O.A.Kononova, N.J.Gumerova, J.X.Gergokova, Y.A.Dolgoplov kabi olimlar tomonidan o'rganildi.²

O'zbek tilshunoslari ham tildagi frazeologik birliklarning shakllanish tamoyillari, ularning o'zbek nutqi funksional ko'rinishlarida yashash shart-sharoitlari, uslubiy imkoniyatlari, jumladan, badiiy-publitsistik matnlardagi emotsional-ekspressiv vazifalari borasida sezilarli tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Bu kuzatishlar nafaqat bir til, balki bir necha tillarni qiyoslash asosida ham olib borildi. A.Isayev, O.Nazarov, Sh.Usmonova, Sh.Nazirova, H.Alimova, U.Rashidovlar tomonidan somatik frazeologizmlarni o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning tabiatini o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi.

Tilimizda ko'z leksemasi ishtirok etgan somatik birliklar ko'p uchraydi. Xususan, ko'z komponentli frazemalar insonning cheksiz va turli-tuman his-hayajonini, fiziologik jarayonlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bu frazeologik birliklarning barchasi shaxsning ma'lum bir ichki ruhiy holatini ifodalash uchun xizmat qiladi.³ Eshitish hissiyotlarini ifodalovchi frazeologik

1 Yusupova M. Ingliz va rus tillaridagi somatik frazeologizmlarning semantik-grammatik tahlili: "Yurak" komponenti doirasida //»Экономика и социум» №2(81) 2021

2 Рашидова У.Соматик фраземаларнинг тилшуносликда ўрганилиш тарихига доир // Хорижий филология. №4, 2016 йил. 75-б

3 Рашидова У . Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили(қўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида): Филол. фанл. фалс. докт. (PhD) ... дис. автореф. – Самарканд, 2018.

birliklarning asosiy maqsadi eshitish jarayonida amalga oshirilayotgan maqsad mazmunini belgilab beradi.⁴

Muqaddas manba “Qur’oni karim” da quyidagi oyat keltiriladi: “Alloh ularning qalblari va quloqlarini muhrlab qo’ygan va ko’zlarida parda bor...” (Baqara.7-oyat).

